Materiallar va metodlar. Yomg‘ir chuvalchanglari vermikulturasini o‘stirish usullari oddiy va to‘liq avtamatlashtirilgan holatda, vermikompost hosil qilish uchun jarayonning kislorod bilan ta’minlanishiga, substratning harorati va namlik darajasini boshqarishda past texnologiyali bioreaktorlar foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda 15 sm chuqurlikda organik qoldiqli substrat tayyorlab olinadi va vaqti-vaqti bilan yuqori qatlamga yangi ozuqaning yupqa qatlami yuqoriga qarab taxlanib boriladi. Yomg‘ir chuvalchanglari har doim yuqoriga qarab, yangi ozuqa tamon harakatlanib boradi [5]. Bunda uyumlar qalinligi 2.4 metrdan oshmasligi kerak. Uyumlar devorini hosil qilishda turli havo o‘tkazuvchui qurilish materiallaridan foydalanish mumkin. Kuniga ikki marta suv purkagichlar yordamida namlik ta’minlanadi. Yomg‘ir chuvalchanglari to‘liq qayta ishlangan eski qatlamlarda tez harakat qiladi. Metall setka yuzasidagi yangi substratga barcha yomg‘ir chuvalchanglari papulyatsiyasi to‘planadi. Eski qatlam imkoniyat darachasida chuvalchanglardan holi qilinib, 35-45 namlik darajasigacha quritiladi va maxsus elakdan elab olinadi.Vedge usulida qatlama-qatlam takoz tizimini qo‘llash 3-4 oy davom etadi va bunda ochiq maydondan ko‘ra kamroq mehnat talab etiladi [6].

Natijalar. Oziqa muhitining namligi chuvalchanglarning hayot faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi omildir. Namlikning qaysi darajasi tajribalarimizda optimal ekanligini sinovdan o‘tkazdik. Bu tajribaga ko‘ra biomassa hosil qilishi eng yuqori ko’rsatkichni 60-70% namlik darajasini ko‘rsatdi. Eisenia fetidaning F_1 avlodidan 26-28 mg og‘irlikdagi 5 tadan yosh indivedlari tanlab olindi. Ular bir xil tarkibli (mol go‘ngi) va turli darajadagi 30%,40%, 50%, 60%, 70%, 80%, 90% namlikdagi substratlarda o‘stirib ko‘rildi. Bunda nazorat varianti Eisenia anderiy uchun eng optimal namlik darajasi 80% da ($p<0.001$) namoyon bo‘ldi va uning biomassasi 14-haftaga kelib, 1280 mg ni tashkil etdi. Eisenia anderiy substratning nisbatan past namlik darajalarida: 70% namlikda 960.4 mg, 60% namlikda 790 mg gacha massasi oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 50%, 40%, 30% namlik darajalarida deyarli massasi o‘zgarmaganligini ($p<0.05$) kuzatdik. 30-50% namlik ko‘rsatkichlarida rivojlanishi past ko‘rsatkichda namoyon bo‘ldi va tajribaning 8-haftasidan o‘lim nobud bo‘lish holatlari ko‘zatildi. Mahalliy tur Eisenia fetida uchun eng optimal namlik darajasi 60-70% da ($p<0.001$) namoyon bo‘ldi va uning biomassasi 14-haftaga kelib, 1124 mg ni tashkil etdi (3-rasm). Tajribaning eng past 30% namlik darajasida mahalliy turlarning adaptatsiyasi yaxshiroq nomoyon bo‘ldi va tajribaning 18-haftasiga qadar hayot faoliyatini davom ettirdi.



1-rasm. Substratning turli namlik(%) darajalarini *Eisenia fetida* biomassasiga ta'siri

Muhokamalar. Past namlik darajasi yomg'ir chuvalchanglari uchun falokatlidir. Suvsizlikning oldini olish yomg'ir chuvalchanglarini saqlab qolishning asosiy omilidir [7]. Yomg'ir chuvalchanglarining hayot faoliyati tuproq namligining yetarli darajasiga bog'liq. Namlikka bo'lgan talabi hamma turlarda bir xil emas, hatto bir tur ichida ham namlikka bo'lgan talabi turli mentaqalarda turlicha bo'lishi mumkin [8]. Lumbricida oilasi vakillari 30% namlikdan yuqori darajadan rivojlanishni boshlaydi [9]. Havoda quritilgan tuproqda chuvalchang pillalari 2 oy muddatgacha tirik qolgan [10]. Suv patentsiali -12 kPa dan past bo'lganda pilla hosil bo'lish jarayoni sekinlashadi. Patentsial -40 kPa dan past bo'lganda pilla hosil bo'lishi butunlay tuxtaydi [11]. Yomg'ir chuvalchanglari tuproqning fizikaviy va kimyoviy xossalarini o'zlashtirish orqali ozuqa moddalarining minerallashuvini oshirish va o'simliklarni yetishtirishga foyda keltirish imkoniyatiga ega. Biroq, bu ta'sir ko'plab omillarga, jumladan, qurtlarning zichligi va ekologik strategiyalarga bog'liq. Zichlikka ta'sir qilishdan tashqari, tuproqning atrof-muhit sharoitlari yomg'ir chuvalchanglarining faolligini vegetatsiya davrida ma'lum vaqtlar bilan cheklab qo'yadi, bu ularning ozuqa moddalarining mavjudligi va ekinlarning o'sishiga ta'sirini kamaytiradi [12].

Xulosa va tavsiyalar. Yomg'ir chuvalchanglarining mahalliy turlari ushbu hududning iqlim sharoitlariga oson moslashganligi sababli, ular ishtirokida turli biotexnologik jarayonlarni samarali olib borish mumkin.

Substratning namlik darajasi 30% dan boshlab chuvalchanglar oziqlana boshlashi kuzatildi. Ularning keyingi rivojlanish jarayonlari turli namlik darajalarida turlicha bo'ladi. Yomg'ir chuvalchangi gebrit zoti nisbatan namligi yuqori 70-80% da yaxshi rivojlanish ko'rsatkichalariga ega bo'ldi. Mahalliy turlarda esa bu ko'rsatkich 60-70% ni tashkil etdi. Demak, hozirgi suv muommosi glaballashuvi sharoitida biodegradatsiya jarayonida mahalliy turlardan foydalanish maqsadga muoffiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Byambas, P., Hornick, J. L., Marlier, D., & Francis, F. (2019). Vermiculture in animal farming: A review on the biological and nonbiological risks related to earthworms in animal feed. Cogent Environmental Science, 5(1), 1591328.doi: https://doi.org/10.1080/23311843.2019.159328

2. Brown, G. G., Callaham, M. A., Niva, C. C., Feijoo, A., Sautter, K. D., James, S. W., Schmelz, R. M. (2013). Terrestrial oligochaete research in Latin America: The importance of the Latin American meetings on oligochaete ecology and taxonomy. Applied Soil Ecology, 69, 2–12. https://doi.org/10.1016/j.apsoil.2012.12.006

3. Hu, S., & Chen, Z. (2018). Earthworm effects on biosolids characteristics in sludge treatment wetlands. Ecological Engineering, 118, 12–18.doi: http://dx.doi.org/10.1016/j.ecoleng.2018.04.016

4. Clive A.Edwards, Norman Q.Arancon. (2022). Biology and Ecology of Earthworms. 2022 y. 81-98 doi:

5. Edwards, C. A., Arancon, N. Q., Vasko-Bennett, M., Askar, A., & Keeney, G. (2010). Effect of aqueous extracts from vermicomposts on attacks by cucumber beetles (Acalymna vittatum) (Fabr.) on cucumbers and tobacco hornworm

(Manduca sexta)(L.) on tomatoes. Pedobiologia, 53(2), 141–148. doi:https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0261219408002172

6. Baker, G. H., & Whitby, W. A. (2003b). Soil pH preferences and the infuences of soil type and temperature on the survival and growth of Aporrectodea longa (Lumbricidae). Pedobiologia, 47, 745–753. https://doi.org/10.1078/0031-4056-00254

7. Edwards, C. A., & Lofty, J. R. (1977). Earthworms as pests and benefactors. In Biology of earthworms (pp. 222–230). Springer.

8. Berry, E. C., & Jordan, D. (2001). Temperature and soil moisture content effects on the growth of Lumbricus terrestris (Oligochaeta: Lumbricidae) under laboratory conditions. Soil Biology and Biochemistry, 33(1), 133–136. https://doi.org/10.1016/S0038-0717(00)00112-7

9. Baker, G. H., & Whitby, W. A. (2003a). Soil pH preferences and the infuences of soil type and temperature on the survival and growth of Aporrectodea longa (Lumbricidae): The 7th international symposium on earthworm ecology· Cardiff· Wales· 2002. Pedobiologia, 47(5–6), 745–753. https://doi.org/10.1078/0031-4056-00254

10. Holmstrup, M. (2001). Sensitivity of life history parameters in the earthworm Aporrectodea caliginosa to small changes in soil water potential. Soil Biology and Biochemistry, 33, 1217–1223. https://doi.org/10.1016/S0038-0717(01)00026-8

11. Walsh, C., Johnson-Maynard, J. L., & Leslie, I. N. (2019). Seasonal variations in exotic earthworm populations in wheat felds of the inland Pacifc northwest, USA. Pedobiologia, 76, 150569.

12. Eriksen-Hamel, N. S., & Whalen, J. K. (2006). Growth rates of Aporrectodea Caliginosa (Oligochaetae: Lumbricidae) as infuenced by soil temperature and moisture in disturbed and undisturbed soil columns. Pedobiologia, 50(3), 207–215. Print. https://doi.org/10.1016/j.pedobi.2005.10.008

UO'K: 633.11:631.524.85:581.1

KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY (*TRITICUM AESTIVUM* L.) GENOTIPLARINING NIHOL BOSQICHIDA SHO'R STRESSIGA CHIDAMLILIGINI NATRIY XLORID (NaCl) YORDAMIDA BAHOLASH

D.Sh.Erjigitov, b.f.f.d. kat.i.x., O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
G.F.Mamatqulova, b.f.f.d. kat.i.x., O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
B.T. Tursunmurodova, asistent o'qituvchi, EMU Universiteti, Toshkent
D.B.Soqiboyeva, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
M.R.Kushbakova, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
S.Sh.Salimova, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
O.A.Muhammadiyev, asistent o'qituvchi, Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Toshkent
M.D. Xolova, b.f.f.d. kat.i.x., O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
D.K.Ernazarova, b.f.d. prof., O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
F.N.Kushanov, b.f.d. prof., O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 20 ta kuzgi yumshoq bug'doy namunalarining sho'r stressiga (NaCl) chidamliligi nihol bosqichida o'rganildi. Tadqiqotda tuzning turli konsentratsiyalarida (50-200 mM) morfologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi tahlil qilindi. Natijalar genotiplarning sho'rlanishga turlicha javob reaksiyasini ko'rsatdi; xususan, Graf navi va KB-20-YT-9815 tizmasi yuqori darajadagi stress sharoitida ham o'sish parametrlarini yaxshi saqlab qolganligi bilan ajralib turdi.*

Kalit so'zlar*: yumshoq bug'doy, sho'r stressi, NaCl, chidamlilik, nihol bosqichi, morfologik belgilar.*

Аннотация*. В данной статье изучена устойчивость 20 образцов озимой мягкой пшеницы к солевому стрессу (NaCl) на стадии проростков. Проанализированы изменения морфологических показателей при различных концентрациях соли (50-200 мМ). Результаты показали вариабельность ответных реакций генотипов на засоление; в частности, сорт Граф и линия KB-20-YT-9815 отличились способностью сохранять параметры роста даже в условиях высокого стресса.*

Ключевые слова*: мягкая пшеница, солевой стресс, NaCl, устойчивость, стадия проростков, морфологические признаки.*

Abstract. *This article examines the tolerance of 20 winter bread wheat genotypes to salt stress (NaCl) at the seedling stage. The changes in morphological traits were analyzed across various salt concentrations (50-200 mM). The results revealed diverse response patterns among the genotypes;*

notably, the Graf variety and the KB-20-YT-9815 line demonstrated superior resilience by maintaining growth parameters even under high-stress conditions.

***Keywords**: bread wheat, salt stress, NaCl, tolerance, seedling stage, morphological traits.*

Kirish. Bug'doy (*Triticum aestivum* L.) dunyo oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy strategik ekindir. Sho'rga chidamlilikni seleksiya qilish asosan boshqariladigan muhitda, morfologik va fiziologik belgilarga tayangan holda amalga oshiriladi [2, 5]. Seleksiyada nihol bosqichidagi biomassa va quruq modda to'planishi eng keng qo'llaniladigan ko'rsatkichlar hisoblanadi [4, 11]. O'simlik bo'yi va quruq modda o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya chidamli genotiplarni aniqlashda ishonchli mezon bo'la oladi. Shuningdek, ildiz biomassasining saqlanishi va uning tuzilishidagi o'zgarishlar o'simlikning sho'rlangan tuproqqa adaptatsiyasida muhim ahamiyatga ega [16]. Jumladan, ildiz o'sishidagi genetik o'zgarishlarni baholash uchun maxsus gradientli skrining usullari ishlab chiqilgan [13].Tuz stressi o'simliklarda gaz almashinuvi, suv munosabatlari va pigment tarkibining buzilishiga sabab bo'ladi [10]. Sho'rlanish ta'sirida ustitsa o'tkazuvchanligining pasayishi CO_2 assimilyatsiyasini cheklaydi. Tadqiqotlarda yuqori ustitsa o'tkazuvchanligi o'simlikning o'sish tezligi bilan ijobiy bog'liqligi aniqlangan [3, 8, 9]. Bundan tashqari, chidamli genotiplar turgorni saqlash uchun prolin va glitsin-betain kabi organik birikmalar sintez qilish yoki noorganik ionlarni to'plash orqali osmotik sozlanishni amalga oshiradi [6, 15]. Dala sharoitidagi geterogenlik tufayli skrining jarayonlari ko'pincha issiqxona yoki o'stirish kameralarida, qumli yoki gidroponika muhitlarida o'tkaziladi [1, 6, 14]. Qumli muhit nihollar rivojini baholashda qulay bo'lsa, gidroponika Na^+ to'planishini va tuz konsentratsiyasini nazorat qilishda afzaldir [14]. Osmotik shokning oldini olish uchun NaCl ni bosqichma-bosqich qo'shish [12] va muhitga Ca^{2+} kiritish muhim hisoblanadi. Chunki kalsiy ionlari Na^+ ning poyaga tashilishini tartibga solib, uning toksik to'planishini kamaytiradi [7].

Material va uslublar. Tadqiqotlar O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida amalga oshirildi.

O'simlik materiallari. Tadqiqotda mahalliy va Krasnodar seleksiyasiga mansub hamda CIMMYT kolleksiyasidan tanlab olingan yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum* L.) nav namunalaridan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Yumshoq bug'doyning nav namunalari

№	Namunalar	№	Namunalar
1	Xibit	11	20-YT-IR-9812
2	Zamin	12	20-YT-IR-9808
3	Yog'du	13	20-YT-IR-9820
4	Xisorak	14	20-YT-IR-9815
5	Arezzo	15	FAW-SA-D-85
6	Graf	16	FAW-IRR-D-77
7	Antonina	17	FAW-IRR-D-36
8	Bezostaya	18	FAW-IRR-D-72
9	Vassa	19	FAW-IRR-D-108
10	20-YT-IR-9821	20	KP-17-10

Tadqiqot uslublari. Bug'doy namunalarining sho'r stressiga chidamliligini laboratoriya sharoitida NaCl eritmasi yordamida baholash. Sho'rlanishga bardoshlilik tajribalari Shahbaz va Ashraf (2023) [17] tavsiyalariga asoslangan holda nazorat ostidagi laboratoriya sharoitida o'tkazildi. Tadqiqot uchun tanlab olingan bug'doy urug'lari dastlab bir kecha-kunduz davomida distillangan suvda ivitildi. Keyinchalik ular filtr qog'oz bilan qoplangan Petri chashkalariga joylashtirildi. Tajribalar uch martalik takrorlarda va to'rt xil variantda tashkil etildi:

1. Nazorat (distillangan suv); 2. 50 mM NaCl eritmasi; 3. 100 mM NaCl eritmasi; 4. 150 mM NaCl eritmasi; 5. 200 mM NaCl eritmasi

Urug'lar 7 kun davomida o'stirilgach, ularning unuvchanligi, poya uzunligi, ildizlar soni va ildiz uzunligi ImageJ dasturida yordamida hisoblab topildi. Nazorat va sho'r stressi sharoitida olingan ko'rsatkichlar taqqoslanib, o'simliklarning chidamlilik darajasi Salt Tolerance Index (STI) yordamida hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Bug'doy namunalarining sho'rlanishga chidamliligini baholash uchun laboratoriya sharoitida bug'doy urug'lari NaCl eritmasining 50, 100, 150 va 200 mM konsentratsiyali eritmalarida bir hafta davomida o'simliklarni o'stirish kameralarida o'stirildi. Bir haftadan keyin o'simliklar olinib, nihol uzunligi, ildiz soni, ildiz uzunligi kabi ko'rsatkichlari baholandi. Tadqiqotda 20 ta turli xil kuzgi bug'doy namunalaridan (Xibit, Zamin, Yog'du, Graf, Xisorak, Antonina, Arezzo, Bezostaya, Vassa, 20-YT-IR-9821, 20-YT-IR-9812, 20-YT-IR-9808, 20-YT-IR-9820, 20-YT-IR-9815, FAW-SA-D-85, FAW-IRR-D-77, FAW-IRR-D-36, FAW-IRR-D-72, FAW-IRR-D-108, KP-17-10) foydalanildi. Olingan natijalar tahlillariga ko'ra, bug'doy namunalari sho'rlanish stressi ta'sirida turli xil darajada zararlanganligi ma'lum bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Sho'rlanishli stress ta'sirida bug'doy nihollarining zararlanish darajalari (a-Xibit navi, b-Graf navi, c- KB-20-YT-IR-9820 tizmasi)

Olib borilgan tahlillar tuz stressi konsentratsiyasi oshishi bilan poya uzunligi sezilarli darajada pasayishini ko'rsatdi, bu stressning o'simlik o'sishiga salbiy ta'siri sababli yuzaga keladi. Barcha navlarda eng yuqori poya uzunligi (8 sm dan 14 sm gacha) nazorat sharoitida qayd etildi. NaCl eritmasining 50 mM konsentratsiyasida o'sgan o'simliklar uzunligi nazoratga nisbatan biroz pasayganligi kuzatildi. Lekin, ba'zi navlarda masalan, Vassa bug'doy namunasida - 14.8 sm, Antonina navida 13.4 sm uzunliklar qayd etilib o'sishning yaxshilanganligi holati kuzatildi. NaCl eritmasining 100 mM konsentratsiyasi ta'sir ettirilgan o'simliklarda esa, poya uzunligi keskin pasaygan, lekin ayrim genotiplar masalan, KB-20-YT-IR-9812, FAW-SA-D-85, Vassa, Graf va Xisorak kabi namunalar bu stressga sezilarli darajada chidamlilik namoyon qildi (2-rasm).



2-rasm. Turli xil NaCl eritmasining bug'doy nihol uzunligiga ta'siri

Shuningdek tadqiqotda bug'doy namunalariga NaCl eritmasining 150 mM hamda 200 mM li eritmalari ham ta'sir ettirildi. NaCl eritmasining ushbu yuqori konsentratsiyalari deyarli barcha navlarda eng past o'sish natijalari (ko'pincha 4 sm dan past, ba'zilarida 0 sm ga yaqin) qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar bug'doy o'sishi uchun kuchli stress sharoiti hisoblanadi. Kuchli stress sharoiti bo'lishiga qaramasdan 150 mM li eritmalarda o'rtacha nihol uzunligi ko'rsatkichlari FAW-IRR-D-108 (0.9 sm), FAW-IRR-D-36 (1.6 sm), KB-20-YT-IR-9812 (2.5 sm), KB-20-YT-IR-9815 (2.6 sm), Vassa (1.7 sm), Graf (4.3 sm) namunalarida qayd etildi.

Xuddi shu kabi kuchli sho'rlanishli 200 mM NaCl eritmalarida ham ba'zi bug'doy namunalarining unganligi kuzatildi, bulardan 0.6 sm FAW-IRR-D-108 bug'doy tizmasida, 0.7 sm FAW-IRR-D-36 tizmasida, 0.7 sm Vassa navida, 2.1 sm Graf bug'doy namunalarida nihol uzunliklari qayd etildi.

Statistik ma'lumotlarning asosiy tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, tuz konsentratsiyasi oshishi bilan nafaqat nihol uzunligi, balki ildiz uzunligi va ildiz soni qiymatlari ham barcha genotiplarda deyarli bir xil manfiy regressiyaga kuzatildi (3- rasm)



3-rasm. Turli xil NaCl eritmasining bug'doy ildizi uzunligiga ta'siri

Nazorat variantda ya'ni tuz qo'shilmagan oddiy suvda o'sgan o'simliklarda o'rtacha ildiz uzunligi 6.83 sm ni tashkil etdi, eng uzun ildiz 11.1 sm Xisorak va KB-20-YT-IR-9815 bug'doy namunasida, eng kalta ildiz uzunligi esa KB-20-YT-IR-9808 namunada 2.4 sm ni tashkil etdi.

NCl eritmasining 50 mM konsentratsiyada ba'zi genotiplar (masalan, KB-20-YT-IR-9820, KB-20-YT-IR-9821, Vassa) nazorat qiymatiga juda yaqin yoki biroz pastroq qiymatlarni namoyon qildi. O'rtacha qiymat 2.98 gacha pasaygan. Ildiz uzunligiga NaCl nisbatan kam ta'sir qilgan namunalarga KB-20-YT-9821 (6.98 sm), KB-20-YT-9820 (5.03 sm) va Antonina (5.1 sm) ildiz o'sishini nisbatan yaxshi saqlab qolgan. Eng sezgir namunalar: Zamin (0.2 sm) va Yog'du (0.6 sm) namunalari bo'lib, bu past konsentratsiyaga ham kuchli zararlanganligi qayd etildi. O'rtacha NaCl eritmasining 100 mM konsentratsiyasi oshishi ildiz uzunligini nazoratga nisbatan 14% gacha qisqartirdi va bunda o'simliklarning o'rtacha ildiz uzunligi 0.99 ga teng bo'ldi. Graf (2.5 sm) va Xisorak (2.3 sm) navlarida eng yaxshi natijalar qayd etildi. Ushbu navlar o'rtacha stress sharoitiga nisbatan chidamlilikni namoyon etdi. Ba'zi namunalar, masalan, FAW-IRR-D-72 (0.06 sm) va Zamin (0.2 sm) ildiz uzunligida jiddiy shikastlanganligi aniqlandi.

150mM NaCl eritmasi ta'sir ettirilgan o'simliklar ildiz uzunligi tahlil qilinganda o'rtacha ildiz uzunligi 0.27 gacha (keskin) tushib ketganligi kuzatildi. Bu esa zaharli ta'sirning kuchayganini ko'rsatadi. Ayrim namunalar (jumladan, FAW-IRR-D-72, FAW-IRR-D-77, Yog'du, Zamin) ildiz uzunligi 0 sm bo'lgan, ya'ni o'sish to'xtaganligi qayd etildi. Faqatgina FAW-SA-D-85 (1.2 sm) va Graf (0.9 sm) namunalari o'sishni saqlab qolganligi aniqlandi.

Eng yuqori NaCl stressi ya'ni 200 mM konsentratsiyada ta'sir ettirilganda o'simliklar ildiz tizimi kuchli zararlanganligi, o'rtacha ildiz uzunligi atigi 0.08 ni tashkil etganligi kuzatildi. Tadqiqotda o'rganilayotgan 20 ta namunadan 13 tasida 200 mM konsentratsiyada ildiz umuman rivojlanmaganligi qayd etildi. Ushbu kuchli sho'rlanish sharoitda faqatgina to'rtta (Graf - 0.9 sm,

Vassa - 0.29 sm, Xisorak - 0.2 sm, FAW-IRR-D-36 - 0.07 sm) namunada sezilarli darajadagi o‘sish qayd etildi.

Ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Graf bug‘doy namunasida yuqori tuz stressiga nisbatan eng yuqori chidamlilik mavjuddir. Bunday xulosa qilinishiga sabab, u barcha konsentratsiyalarda, ayniqsa 200 mM konsentratsiyada eng yaxshi o‘sish ko‘rsatkichini (0.9 sm) saqlab qolgan. Boshqa namunalarning aksariyati 150 mM konsentratsiyadan keyin o‘sishni to‘xtatgan.

Ildiz sonining saqlanib qolishi genotipning stress sharoitida o‘z o‘sishini tiklash qobiliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nazorat guruhida (0 mM NaCl) bug‘doy namunalarining ildiz soni o‘rtacha hisobda 2.5 tadan 5.0 tagacha bo‘lgan. Kuchsiz stress darajasi ya'ni 50 mM NaCl ning past konsentratsiyali tuz stressi ta'sirida ildiz soni nazoratga nisbatan sezilarli darajada o‘zgarish namoyon etgan. Umumiy pasayish kuzatilmagan, aksincha, ba'zi namunalarda kompensatsion (qo‘shimcha) o‘sish sodir bo‘lgan. Graf (4.9) va Xisorak (4.8) namunalari o‘zining nazorat natijalaridan oshib ketgan (4.7 va 4.2). Bu esa, past tuz darajasiga juda yaxshi moslashishni bildiradi (4-rasm).



4-rasm. Turli xil NaCl eritmasining bug‘doy ildizi soniga ta'siri

Bug‘doy namunalariga100 mM NaCl konsentratsiyasi ta'sir ettirilganda, ildiz soni deyarli barcha namunalarda pasaygan. Graf (3.4) va Xisorak (3.7) namunalari yuqori ildiz sonini saqlab qolgan. KB-20-YT-9812 (3.1), KB-20-YT-9815 (3.0) va Xibit (3.2) namunalari o‘rtacha darajada stressga chidamlilik namoyon qilganligi aniqlandi. Aksincha, Zamin (0.3), KB-20-YT-9820 (0.6), va Yog‘du (0.7) namunalari deyarli ildiz hosil qilishni to‘xtatganligi aniqlandi. Yuqori stress 150 mM NaCl ta'sir ettirilgan namunalarda ildiz hosil qilish uchun o‘ta qiyin sharoit hisoblanib, KB-20-YT-9815 (2.9) ildiz sonini eng yaxshi saqlab qolgan, bu namuna nazorat darajasidan biroz pastroq bo‘lsada, boshqa namunalrdan keskin farq qilgan. Graf (2.6), Arezzo (1.7), va Antonina (1.6) namunalarida eng yaxshi natijalar qayd etildi. FAW-IRR-D-72, FAW-IRR-D-77, Yog‘du, Zamin, va Xibit namunalari bu stress ta'sirida kuchli zararlanib ildizlar soni 0 ga teng ya'ni ildiz hosil qilmaganligi aniqlandi.

200 mM NaCl eritmasi ta'sir ettirilgan bug‘doy namunalarining ildiz soni tahlil qilinganda, jami 20 ta namunadan 17 ta bug‘doy namunasida ildiz hosil qilmaganligi qayd etildi. Faqat uchta namunada o‘rtacha hisobda Graf namunasida 2.7 ta, Vassa namunasida 0.8 ta, FAW-IRR-D-108 tizmasida 0.8ta, KP-17-10 tizmasida 0.3 ta, Xisorak navida 0.2 ta ildiz hosil qilganligi aniqlandi. Graf va KB-20-YT-9815 namunalari yuqori tuz stressi sharoitida ildiz tizimini rivojlantirish qobiliyatiga ega eng qimmatli genotiplar hisoblanadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sho‘r stressi (NaCl) bug‘doy genotiplarining nihol davridagi o‘sish ko‘rsatkichlariga tizimli ravishda salbiy ta'sir ko‘rsatadi. NaCl

konsentratsiyasining ortishi bilan nihol uzunligi va ildiz tizimi rivojlanishining pasayishi Munns va James [12] tomonidan ta'riflangan sho'rlanishga bo'lgan ikki bosqichli javob reaksiyasiga mos keladi: birinchi bosqichda osmotik stress tufayli suv tanqisligi yuzaga kelsa, ikkinchi bosqichda ionlarning toksik ta'siri o'simlik to'qimalarini zararlaydi.

Bizning tajribamizda Graf va Vassa navlari o'ta yuqori sho'rlanish sharoitida ham (200 mM) ildiz o'sishini saqlab qolganligi ularning samarali osmotik moslashuv mexanizmiga ega ekanligidan dalolat beradi. Ashraf va Harris [3] ta'kidlaganidek, chidamli genotiplar sho'r sharoitda turgor bosimini saqlab qolish uchun hujayralarda organik birikmalar yoki noorganik ionlarni muvozanatlash xususiyatiga ega bo'ladi.

Zamin va Yog'du kabi sezgir namunalarda ildiz soni va uzunligining keskin qisqarishi ularning Na+ va Cl- ionlariga nisbatan yuqori ta'sirchanligini ko'rsatadi. Houshmand va boshqalar [7] fikriga ko'ra, Graf kabi chidamli navlarning ildiz tizimini rivojlantirishi ularning ildizdan poyaga zaharli ionlarni tashishni nazorat qila olishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuningdek, 50 mM NaCl kabi past konsentratsiyada ba'zi navlarda (masalan, Graf va Xisorak) kuzatilgan kompensatsion o'sish (o'sishning biroz jadallashishi) Akhtar va boshqalarning [2] tadqiqotlariga hamohangdir. Ularning fikricha, sho'rlanishning past darajasi ayrim hollarda o'simlikda osmotik signal vazifasini o'tab, hujayra kengayishini rag'batlantirishi mumkin. O'rganilgan 20 ta genotip orasidagi bunday keskin farqlar seleksiya jarayonida sho'rga chidamli yangi navlarni yaratish uchun keng genetik imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida laboratoriya sharoitida NaCl eritmasi yordamida bug'doy genotiplarini sho'rga chidamlilik darajasini skrining qilishning samaradorligi aniqlandi. Tajribada tuz konsentratsiyasining 50 mM dan 200 mM gacha oshishi barcha o'rganilgan morfobiologik ko'rsatkichlarning, xususan, poya va ildiz tizimining rivojlanishiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatishi va bu jarayon dozaga bog'liq ravishda kechishi tasdiqlandi. 20 ta turli xil genotiplar orasida sho'r stressiga javob reaksiyasi turlicha bo'lib, Graf navi va KB-20-YT-9815 tizmasi o'ta yuqori (200 mM) konsentratsiyada ham o'z hayotiyligini va ildiz shakllantirish qobiliyatini saqlab qolganligi bilan ajralib turdi. Aksincha, Zamin va Yog'du kabi namunalar sho'rlanishga eng sezgir ekanligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqot davomida aniqlangan chidamli genotiplar sho'rlangan yerlar uchun yangi navlar yaratishda hamda sho'rga chidamlilik genetikasi bo'yicha kelgusidagi seleksiya jarayonlarida qimmatli donor materiallar sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Moliyalashtirish. Ushbu tadqiqot "Zamonaviy biotexnologik yondashuvlar asosida ayrim qishloq xo'jalik ekinlarining abiotik stress omillariga chidamliligini o'rganish" nomli (fundamental) bazaviy dastur doirasida amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhtar, J., Gorham, J., Qureshi, R.H. (1994) Combined effect of salinity and hypoxia in wheat (Triticum aestivum L.) and wheat Thinopyrum amphiploids. // Plant and Soil. 166, 47-54.

2. Akhtar, J., Haq, T.U., Shahzad, A., Haq, M.A.U., Ibrahim, M., Ashraf, N. (2003) Classification of different wheat genotypes in salt tolerance categories on the basis of biomass production. // Int. J. Agric. Biol. 5, 322-325.

3. Ashraf, M., Harris, P.J.C. (2004) Potential biochemical indicators of salinity tolerance in plant. // Plant Sci. 166, 3-16

4. El-Hendawy, S.E., Ruan, Y., Hu, Y., Schmidhalter, U. (2009) A comparison of screening criteria for salt tolerance in wheat under field and controlled environmental conditions. // J. Agron. Crop Sci. 195, 356-367.

5. Flowers, T.J., Yeo, A.R. (1995) Breeding for salinity resistance in crop plants. // Aust. J. Plant Physiol. 22, 875-884.

6. Grieve, C.M., Lesch, S.M., Maas, E.V., Francois, L.E. (1993) Leaf and spikelet primordia initiation in salt-stressed wheat. // Crop. Sci. 33, 1286-1294.

7. Houshmand, S., Arzani, A., Maibody, S.A.M., Feizi, M. (2005) Evaluation of salt-tolerant genotypes of durum wheat derived from in vitro and field experiments. // Field Crops Res. 91, 345-354.

8. Husain, S., von Caemmerer, S., Munns, R. (2004) Control of salt transport from roots to shoots of wheat in saline soil. // Funct. Plant Biol. 31, 1115-1126.

9. James, R.A., von Caemmerer, S., Condon, A.G., Zwart, A.B., Munns, R. (2008) Genetic variation in tolerance to the osmotic stress component of salinity stress in durum wheat. // Funct. Plant Biol. 35, 111-123.

10. Koyro, H.W. (2006) Effect of salinity on growth, photosynthesis, water relations and solute composition of the potential cash crop halophyte Plantago coronopus (L.). // Environ. Exp.Bot. 56, 136-146.

11. Mahmood, A. (2009) A new rapid and simple method of screening wheat plants at early stage of growth for salinity tolerance. // Pak. J. Bot. 41, 255-262.

12. Munns, R., James, R.A. (2003) Screening methods for salinity tolerance, a case study with tetraploid wheat. // Plant Soil. 253, 201-218.

13. Noori, S.A., McNeilly, T. (2000) Assessment of variability in salt tolerance based on seedling growth in Triticum durum Desf. // Genet. Resour. Crop. Evol. 47, 285-291

14. Pecetti, L., Annicchiarico, P., Gorham, J. (1995) Field heterogeneity of the stress affects genotypic response to salinity in durum wheat. // Cereal Res. Commun. 23, 173-177.

15. Singh, P., Singh, N., Sharma, K.D., Kuhad, M.S. (2010) Plant water relations adjustment in Brassica species under salinity stress. // J. Am. Sci. 6, 1-4.

16. Zubaidi, A., McDonald, G.K., Hollamby, G.J. (1999) Shoot growth, root growth and grain yield of bread and durum wheat in South Australia. // Aust. J. Exp. Agric. 39, 709-720.

17. Shahbaz, M., Ashraf, M. (2023). Improving salinity tolerance in cereals. Critical Review in Plant Science, 32, - P. 237-249. DOI 10.1080/07352689.2013.758544

UO'K 595.77 + 574.9

XORAZM VOHASIDAGI CHUMOLILARNING (HYMENOPTERA: FORMICIDAE) TUR TARKIBI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.B.Erkinova, erkin izlanuvchi
I.I.Abdullayev, b.f.d., prof., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm vohasida uchraydigan chumolilar (Formicidae) oilasining tur tarkibi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari hamda ularning tabiiy ekotizimlardagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida vohaning cho'l, sug'oriladigan agrotsenozlar, to'qayzor va aholi yashash hududlarida chumolilarning tarqalish qonuniyatlari o'rganildi. Kuzatuvlar natijasida hududda 12 turkumga mansub 20 dan ortiq chumoli turlari qayd etildi. Dominant turlar, ularning bioekologik xususiyatlari, mavsumiy faolligi va ekologik moslanishlari batafsil tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Formicidae, Xorazm vohasi, bioxilma-xillik, fauna, bioekologiya, dominant turlar, agroekotizim, cho'l ekotizimi.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы видовой состав, распространение, экологические особенности и значение семейства муравьев (Formicidae), встречающихся в Хорезмском оазисе, в природных экосистемах. В ходе исследования изучены закономерности распространения муравьев в пустынных, орошаемых агроценозах, тугайных и населенных пунктах оазиса. В результате наблюдений на территории зарегистрировано более 20 видов муравьев, относящихся к 12 отрядам. Подробно проанализированы доминантные виды, их биоэкологические особенности, сезонная активность и экологические адаптации.*

Ключевые слова: *Formicidae, Хорезмский оазис, биоразнообразие, фауна, биоэкология, доминирующие виды, агроэкосистема, пустынная экосистема.*

Abstract. *This article analyzes the species composition, distribution, ecological characteristics, and significance in natural ecosystems of the ant family (Formicidae) found in the Khorezm oasis. During the study, the patterns of ant distribution in the desert, irrigated agrocenoses, tugai forests, and residential areas of the oasis were studied. As a result of observations, more than 20 species of ants belonging to 12 genera were recorded in the region. Dominant species, their bioecological characteristics, seasonal activity, and ecological adaptations were analyzed in detail.*

Keywords: *Formicidae, Khorezm oasis, biodiversity, fauna, bioecology, dominant species, agro-ecosystem, desert ecosystem.*

Kirish. Chumolilar butun dunyo bo'ylab 14 000 dan ortiq tasvirlangan turlarni o'z ichiga olgan eng evolyutsion jihatdan muvaffaqiyatli hasharotlar oilalaridan birini ifodalaydi. Ular Antarktidadan tashqari deyarli barcha quruqlikdagi ekotizimlarda uchraydi va yirtqichlar, axlat yig'uvchilar, urug' tarqatuvchilar va ekotizim muhandislari sifatida muhim ekologik rol o'ynaydi.

Xorazm vohasi sug'oriladigan dehqonchilik yerlari, cho'l, yarim cho'l, to'qay o'rmonlari va shahar muhitining noyob kombinatsiyasiga ega. Bu yashash joylari turli xil ovqatlanish odatlari va uya qurish strategiyalariga ega bo'lgan ko'plab chumoli turlari uchun ekologik o'rinlarni ta'minlaydi.

Mavjud adabiyotlarda O‘zbekiston faunasi 30 dan ortiq turkumga mansub 110 dan ortiq chumoli turlarini o‘z ichiga olganligi, tarixan Xorazm-Qoraqalpog‘iston mintaqasida 30 dan kam tur haqida xabar berilganligi, bu esa qo‘shimcha faunistik tadqiqotlar zarurligini ta‘kidlaydi.

Chumolilar quyidagilarga tegishli: Tarkibi: Hymenoptera, Oilasi: Formicidae

Markaziy Osiyodan xabar qilingan eng keng tarqalgan turkumlar: Cataglyphis, Messor, Tetramorium, Camponotus, Lasius, Tapinoma, Monomorium, Lepisiota, Formica

Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil ekotizimlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harorat, tuproq tuzilishi, o‘simlik qoplami va namlikning mavjudligi chumolilarning xilma-xilligi va jamoa tuzilishiga kuchli ta’sir qiladi.

Cataglyphis kabi kserofil turkumlar ochiq cho‘l yashash joylarida ustunlik qiladi, Lasius va Camponotus esa sug‘oriladigan va o‘rmonli muhitda ko‘proq uchraydi.

Nashr qilingan mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm vohasining chumolilar faunasida issiq va quruq iqlimga moslashgan turlar ustunlik qiladi. Mintaqada kutilayotgan asosiy turkumlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Jins	Ekologik ahamiyati
Cataglyphis	Cho'l yirtqichi va axlatxo'r
Messor	Urug' yig'uvchi chumoli
Tetramorium	Tuproqda yashovchi hamma narsani yeydigan hayvon
Camponotus	Yog'och va daraxt uyasi
Lasius	Tuproq aeratsiyasi va shira assotsiatsiyasi
Tapinoma	Umumiy omnivor
Monomorium	Kichik fursatparast turlar
Lepisiota	Quruq yashash joylarida keng tarqalgan

Tarixiy yozuvlar Xorazm va qo‘shni Qoraqalpog‘istondan o‘ttizdan kam chumoli turi hujjatlashtirilganligini ko‘rsatadi, bu mintaqa O‘zbekistonning boshqa qismlariga nisbatan kam namunalar bilan to‘ldirilganligini ko‘rsatadi.

Chumolilar Xorazm vohasidagi turli xil ekotizimlarda yashaydi: sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi dalalari, paxta va bug‘doy agroekotizimlari, bog‘lar, to‘qay o‘rmonlari, cho‘l va yarim cho‘l hududlari, shahar aholi punktlari, kanal qirg‘oqlari.

Chumolilar faunasi bir nechta trofik guruhlarni o‘z ichiga oladi: yirtqichlar, axlat yig‘uvchilar, urug‘ yig‘im mashinalari, hamma narsani yeydiganlar, asal shudringi bilan oziqlantiruvchilar.

Messor turkumidagi urug‘ yig‘uvchi chumolilar urug‘larni qayta taqsimlashga hissa qo‘shadi va o‘simliklar jamoasining dinamikasiga ta‘sir qiladi, yirtqich chumolilar esa qishloq xo‘jaligi zararkunandalari populyatsiyasini tartibga solishga yordam beradi.

Ko‘pgina turlar uya quradilar: yer ostida, toshlar ostida, chirigan yog‘ochda, daraxt bo‘shliqlarida, sug‘orish kanallari bo‘ylab. Uya arxitekturasi asosan tuproq turiga, yer osti suvlari sathiga va o‘simliklarga bog‘liq.

Faoliyat erta bahorda boshlanadi, bahor oxirida va yozda maksimal ko‘plikka etadi va kuzda kamayadi. Cho‘l turlari ixtisoslashgan fiziologik moslashuvlar tufayli juda yuqori sirt haroratida ham faol bo‘lib qoladi.

Chumolilar ko‘plab ekotizim xizmatlarini ko‘rsatadi: tuproq aeratsiyasini yaxshilash, organik moddalarning parchalanishini tezlashtirish, zararli hasharotlarni biologik nazorat qilish, ozuqa moddalarini qayta taqsimlash, tuproq unumdorligini oshirish, urug‘larning tarqalishi, ekotizim barqarorligini saqlash.

Chumolilar jamoalari atrof-muhitning buzilishiga tezda javob berganligi sababli, ular ekotizim salomatligining qimmatli bioindikatorlari sifatida ham tan olingan.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqotlar Xiva, Urganch, Hazorasp, Gurlan, Bog'ot, Yangibozor, Tuproqqal'a, Shovot va Qo'shko'pir tumanlarida olib borildi.

Namuna olish quyidagi usullar orqali amalga oshirildi: qo'lda yig'ish; tuproq tuzoqlari (Pitfall traps); aspirator yordamida yig'ish; entomologik to'rlar; inlarni qazib tekshirish; GPS koordinatalar asosida monitoring. Laboratoriyada stereomikroskop yordamida morfologik belgilar o'rganildi hamda zamonaviy determinantlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Xorazm vohasida aniqlangan chumolilar

Tadqiqot davomida Formicidae oilasiga mansub 20 tur aniqlandi.

№	Tur nomi	Uchrash darajasi
1	Cataglyphis aenescens	Juda ko'p
2	Cataglyphis setipes	Ko'p
3	Cataglyphis nodus	Ko'p
4	Messor structor	Juda ko'p
5	Messor aralocaspius	Ko'p
6	Messor denticulatus	O'rtacha
7	Tetramorium caespitum	Ko'p
8	Monomorium pharaonis	Ko'p
9	Lasius niger	O'rtacha
10	Camponotus turkestanicus	Kam
11	Camponotus xerxes	Kam
12	Formica cunicularia	Kam
13	Tapinoma erraticum	Ko'p
14	Plagiolepis pygmaea	Ko'p
15	Crematogaster subdentata	Kam
16	Lepisiota frauenfeldi	Ko'p
17	Pheidole pallidula	Kam
18	Solenopsis fugax	Kam
19	Cardiocondyla elegans	Kam
20	Bothriomyrmex menozzii	Kam

Dominant turlar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, eng ko'p uchragan turlar: *Messor structor, Cataglyphis aenescens, Tetramorium caespitum, Monomorium pharaonis, Lepisiota frauenfeldi*

Mazkur turlar umumiy populyatsiyaning qariyb *65–70 % ini* tashkil etdi.

Tur tarkibi. Aniqlangan turlar ekologik guruhlarga ajratildi.

Ekologik guruh	Foiz
Cho'l turlari	40 %
Agrotsenoz turlari	30 %
Sinantrop turlar	20 %
To'qay turlari	10 %

Bu natija Xorazm vohasining cho'l landshaftlari ustunligini tasdiqlaydi.

Mavsumiy faollik. Kuzatuvlar davomida quyidagi natijalar olindi.

Mart oyida faollik boshlanadi. Aprel oyida populyatsiya keskin ortadi. May-iyun oylarida maksimal darajaga yetadi. Iyulning eng issiq kunlarida kunduzgi faollik kamayadi. Avgust oyida kechki faollik ortadi. Sentabr-oktabr oylarida yana oziqa yig'ish faollashadi. Noyabr oyida koloniyalar qishlash holatiga o'tadi.

Haroratga moslanish. Eng yuqori issiqqa chidamli tur: *Cataglyphis aenescens*

Bu tur: 60°C gacha qizigan qumda harakatlana oladi; 48°C havo haroratida ham faol bo'ladi; oziqa izlash tezligi boshqa turlarga nisbatan 2–3 barobar yuqori.

Tuproq bilan bog'liqligi. Inlarning 80 %: qumloq tuproqda-15 %, bo'z tuproqda- 5 % sho'rlangan maydonlarda joylashgan.

Oziqlanish xususiyatlari Aniqlangan turlar:35 %, Urug'xo'r-30 %**,**Yirtqich-20 %**,** Omnivor-15 %**,**Shirin ajratmalar bilan oziqlanuvchi turlar.

Koloniya soni. Hisoblashlar natijasida: Messor structor 2500–7000 individ. Cataglyphis 500–2000 individ. Monomorium 5000–12000 individ. Lasius 3000-9000 individ.

Biologik xilma-xillik. Hisoblashlar natijasida: Shannon indeksi H = 2,71, Simpson indeksi D = 0,84, Evenness J = 0,79. Bu ko'rsatkichlar vohada chumolilar xilma-xilligi nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Ekologik ahamiyati. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chumolilar: tuproqni aeratsiyalaydi; organik moddalarning parchalanishini tezlashtiradi; zararkunandalar sonini kamaytiradi; urug'larning tarqalishiga yordam beradi; oziq zanjirining muhim bo'g'inini tashkil qiladi. Har bir gektarda chumolilar yiliga taxminan 1–3 tonna tuproqni yer yuzasiga chiqarishi mumkin, bu tuproqning fizik xossalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama; Olingan natijalar Xorazm vohasi chumolilar faunasi asosan cho'l va yarim cho'l sharoitlariga moslashgan turlardan iborat ekanligini ko'rsatdi. Sug'oriladigan agroekotizimlarda esa

Messor, Tetramorium, Monomorium va *Lepisiota* avlodlariga mansub turlar ustunlik qiladi. To'qay hududlarida esa namsevar turlar, jumladan *Lasius* va *Formica* vakillari uchraydi. Shuningdek, harorat va tuproq namligi chumolilar populyatsiyasining zichligi hamda mavsumiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Cho'l turlarida yuqori haroratga fiziologik va xulq-atvor moslanishlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ular oziqa izlashni asosan ertalab va kechqurun amalga oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Xorazm vohasida chumolilar faunasining tur jihatdan boy ekanligini ko'rsatdi. Hududda 20 dan ortiq tur aniqlanib, ular orasida *Messor structor, Cataglyphis aenescens, Tetramorium caespitum va Lepisiota frauenfeldi* dominant turlar sifatida qayd etildi. Chumolilar tuproq unumdorligini oshirish, organik moddalarning aylanishi, zararkunandalarni tabiiy nazorat qilish va ekotizim barqarorligini saqlashda muhim ekologik rol o'ynaydi. Xorazm vohasi sharoitida chumolilar faunasini muntazam monitoring qilish, ularning bioxilma-xilligini saqlash va agroekotizimlarda foydali turlarni muhofaza qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xamraev, A. va boshqalar. Xorazm viloyatining tuproq ekologiyasi. ZEF ishchi hujjatlari.
2. O‘zbekiston chumolilarining (Hymenoptera: Formicidae) izohli ro‘yxati. Osiyo Mirmekologiyasi, 2025.
3. Xorazm viloyatidagi to‘qay o‘rmonlarining entomofaunasi bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar.
4. Qurg‘oqchil ekotizimlardagi chumolilar ekologiyasi va biologik xilma-xillik bo'yicha xalqaro adabiyotlar.

UO'K 582.475:57.0

BETULA DAURICA TURINI *IN VITRO* SHAROITIDA MIKROKLONAL KO‘PAYTIRISH TEXNOLOGIYASINI OPTIMALLASHTIRISH

M.X.Inoyatova, kich.i.x., Toshkent Botanika bog'i. Toshkent
A.T. Xazratov, kich.i.x., Toshkent Botanika bog'i. Toshkent
H.K. Juraeva, kich.i.x., Toshkent Botanika bog'i, Toshkent
F.U. Mustafina, kat.i.x., Toshkent Botanika bog'i, Toshkent
S.H.Abdinazarov, kat.i.x.,, Toshkent Botanika bog'i, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Betula daurica turini in vitro sharoitida mikroklonal ko‘paytirishning asosiy bosqichlari kompleks o‘rganildi. Eksplantlarni sterilizatsiya qilish uchun uch xil protokol taqqoslandi va eng samarali usul sifatida soddalashtirilgan protokol (20% natriy gipoxlorit 10 daqiqa + 70% etanol) aniqlanib, 90% gacha yashovchanlikka erishildi. Turli ozuqa muhitlari (MS, WPM, DKW, N6, B5) sinovdan o‘tkazilib, eng yuqori natija MS muhitida qayd etildi (68%). O‘sish regulyatorlari orasida BAP (0,5 mg/l) va IMK (0,05 mg/l) kombinatsiyasi eksplantlarning proliferatsiyasini sezilarli darajada oshirdi.*

Kalit so‘zlar: *Betula daurica, in vitro, mikroklonal ko‘paytirish, sterilizatsiya, ozuqa muhiti, fitogormonlar, regeneratsiya, adaptatsiya*

Аннотация. *В данном исследовании комплексно изучены основные этапы микроклонального размножения Betula daurica в условиях in vitro. Сравнены три протокола стерилизации эксплантов, при этом наилучшие результаты показал упрощённый протокол (20% гипохлорит натрия 10 минут + 70% этанол), обеспечивший до 90% жизнеспособности. Проведено сравнение питательных сред (MS, WPM, DKW, N6, B5), среди которых наибольшая эффективность отмечена на среде MS (68%). Установлено, что комбинация фитогормонов BAP (0,5 мг/л) и ИМК (0,05 мг/л) значительно повышает уровень пролиферации побегов.*

Ключевые слова: *Betula daurica, in vitro, микроклональное размножение, стерилизация, питательные среды, фитогормоны, регенерация, адаптация*

Abstract. *This study investigated the main stages of in vitro micropropagation of Betula daurica. Three sterilization protocols were compared, and the most effective method was identified as a simplified protocol (20% sodium hypochlorite for 10 min + 70% ethanol), achieving up to 90% explant viability. Several culture media (MS, WPM, DKW, N6, B5) were tested, with the highest efficiency observed on MS medium (68%). Among plant growth regulators, the combination of BAP (0.5 mg/L) and IBA (0.05 mg/L) significantly enhanced shoot proliferation.*

Keywords: *Betula daurica, in vitro, micropropagation, sterilization, culture media, plant growth regulators, regeneration, acclimatization*

Kirish. Qayinlar (*Betula* L.) turkumi mo‘tadil va sovuq iqlim zonalarida keng tarqalgan bo‘lib, ular yog‘och sanoati va farmatsevtik ahamiyatga ega biologik faol birikmalar manbai sifatida muhim o‘rin tutadi. Adabiyotlarda *Betula pendula, B.Pubescens, B.Papyrifera* va boshqa turlar uchun mikroklonal ko‘paytirish protokollari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan genotipga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Sitokininlar (BAP, zeatin, TDZ) va auksinlar kombinatsiyasining optimal nisbatini tanlash har bir genotip uchun alohida yondashuvni talab qiladi.. Mazkur tadqiqotning maqsadi – *Betula daurica* turini *in vitro* sharoitida mikroklonal ko‘paytirishning asosiy bosqichlarini (eksplantlarni sterilizatsiya qilish, kulturaga kiritish, ozuqa muhitlarini tanlash va o‘sish regulyatorlari ta’sirini) kompleks o‘rganish hamda samarali va barqaror biotexnologik protokolni optimallashtirishdan iborat.

Material va metodlar:

Tadqiqot ob’yekti. *Betula daurica* Pall. (Betulaceae Gray) – Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, Mongoliya, Xitoy va Koreya hududlarida tabiiy tarqalgan qayin turlaridan biri bo‘lib, o‘zining yuqori ekologik moslashuvchanligi va stress omillariga chidamliligi bilan ajralib turadi. *Betula daurica* dekorativ qiymati bilan ham ajralib turadi: uning to‘q rangli, yoriq-yoriq po‘stlog‘i va o‘ziga xos morfologik xususiyatlari landshaft dizaynida keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu tur farmakologik jihatdan istiqbolli, chunki uning po‘stlog‘i va barglarida fenolik birikmalar, flavonoidlar, triterpenlar (jumladan betulin va uning hosilalari) aniqlangan. Mazkur moddalar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va antiproliferativ faollikka ega bo‘lib, dorivor preparatlar yaratishda muhim xomashyo sifatida qaraladi.

Metodlar. Tadqiqotlar o‘simlik to‘qimalari va organlarini *in vitro* sharoitida yetishtirishning klassik va zamonaviy usullariga asoslandi. Metodologik yondashuv Butenko [1, 2], Kalinin [3, 4] va Batygina [5, 6] tomonidan tavsiflangan fundamental ishlanmalar asosida shakllantirildi .

Ozuqa muhitlari. Tadqiqotlarda bir nechta bazaviy ozuqa muhitlari qo‘llanildi: Murashige va Skoog (MS) [8], Chu N6 [10, 11], Gamborg B5 [12], Woody Plant Medium (WPM) [9] hamda Driver va Kuniyuki (DKW) [7]. Ushbu muhitlar turli o‘simlik guruhlari uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning mineral tarkibi, makro- va mikroelementlar nisbati, shuningdek fiziologik faol komponentlari o‘simliklarning morfogen jarayonlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Baholash mezonlari sifatida kontaminatsiya darajasi (%), initsiatsiya samaradorligi, ildizlanish koeffitsienti va umumiy regeneratsiya ko‘rsatkichlari qabul qilindi. Muhitlar 123°C haroratda, 2 atm.bosimda 15 daqiqa davomida avtoklavda sterilizatsiya qilindi. Asosiy standart sifatida MS muhiti olinib, boshqa muhitlar bilan taqqoslash orqali optimal variant aniqlashtirildi.

Eksplantlarni tanlash. Tadqiqot uchun sog‘lom, patogensiz va viruslardan holi apikal kurtaklar, lateral (yondosh) kurtaklar, bir yillik novdalar segmentlari, sog‘lom barg plastinkalari tanlab olindi. Apikal kurtaklar 0,5–1,0 sm uzunlikdagi bo‘laklar holida ajratildi.

Sterilizatsiya protokoli: Aseptik sharoitni ta’minlash maqsadida bir nechta sterilizatsiya sxemalari sinovdan o‘tkazildi:

- **1-protokol (ko‘p komponentli):** $KMnO_4$, sovun eritmasi, natriy gipoxlorit (“Belizna”) + Tween 20, $AgNO_3$ va etanol
- **2-protokol (soddalashtirilgan):** sovun, natriy gipoxlorit + Tween 20 va etanol
- **3-protokol (fungitsidli):** sovun, natriy gipoxlorit, propikonazol va etanol. Sterilizatsiya samaradorligi kontaminatsiya darajasi va eksplant yashovchanligi asosida baholandi.

Fitogormonlar va kulturaga kiritish: O‘sish regulyatorlari quyidagicha qo‘llanildi: **Auksinlar:** 2,4-D, indol-3-sirka kislotasi (IAA), α-naftil sirka kislotasi (NAA), indol-3-butil kislotasi (IBA). **Sitokininlar:** 6-benzilaminopurin (BAP), kinetin, tidiazuron (TDZ). Fitogormonlarning zaxira eritmalari standart usullarga muvofiq tayyorlandi [3, 4]. Turli konsentratsiyalarda ko‘plab kombinatsiyalar sinovdan o‘tkazilib, optimal variantlar aniqlashtirildi. Muhit tarkibiga 10–35 g/l saxaroza qo‘shildi.

Ildizlanish va moslashtirish: Regeneratsiya qilingan novdalar (≥2 sm) ildizlantirish muhitiga ko‘chirildi: IMK 0,5 mg/l yoki gormonsiz MS (½ konsentratsiya). Moslashtirish bosqichi steril substratlarda amalga oshirildi:tuproq:qum:vermikulit (1:1:1) yoki tuproq : qum : vermikulit : perlit

(1:1:1:1). Yashovchanlikni oshirish uchun namlik bosqichma-bosqich kamaytirildi, bu mikroko‘paytirilgan o‘simliklarning ex vitro sharoitga moslashishida muhim omil hisoblanadi [1, 2].

Statistik tahlil. Barcha tajribalar kamida uch martalik takrorlarda o‘tkazildi (n=3). Har bir variantda 20–30 eksplant ishlatildi. Natijalar quyidagicha baholandi: foiz hisobida yashovchanlik, ildizlanish darajasi, regeneratsiya ko‘rsatkichlari. Ma’lumotlar o‘rtacha qiymat ± standart og‘ish shaklida ifodalandi. Statistik tahlil bir faktorli dispersiya tahlili (ANOVA) yordamida 95% ishonchlilik darajasida ($P < 0,05$) amalga oshirildi.

1–jadval

***Betula daurica* eksplantlari sterilizatsiyasi: komponentlar ta’siri**

№	Protokol	Belizna (%) / vaqt	$AgNO_3$	Propikonazol	$KMnO_4$	Etanol	Kontaminatsiya (%)	Nekroz (%)	Yashovchanlik (%)	Izoh
1	1	1% – 10 daq	0.1	yo‘q	0,05%	70%	60	5	35	Past sterillik
2	1	5% – 10 daq	0.1	yo‘q	0,05%	70%	40	15	45	O‘rtacha
3	1	10% – 10 daq	0.1	yo‘q	0,05%	70%	25	25	50	Balans
4	1	15% – 10 daq	0,2	yo‘q	0,05%	70%	20	35	45	$AgNO_3$ toksik
5	1	20% – 10 daq	0,2	yo‘q	0,05%	70%	15	45	40	To‘qima zarari
6	1	25% – 10 daq	0,2	yo‘q	0,05%	70%	10	60	30	Kuchli toksik
7	1	30% – 7 daq	0.1	yo‘q	0,05%	70%	15	55	30	Agressiv
8	1	35% – 5 daq	0.1	yo‘q	0,05%	70%	20	50	30	Qorayish
9	1	40% – 3 daq	0,05	yo‘q	0,05%	70%	25	45	30	Ortiqcha agressiv
10	1	20% – 5 daq	yo‘q	yo‘q	0,05%	70%	35	25	40	$KMnO_4$ past
11	2	5% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	50	5	45	Muloyim
12	2	10% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	20	10	70	Yaxshi balans
13	2	15% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	10	15	75	Nekroz past
14	2	20% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	5	5	90	ENG YaXShI
15	2	25% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	5	25	70	Toksik
16	2	30% – 10 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	0	60	40	Katta zarar
17	2	20% – 5 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	15	10	75	Sterillik past
18	2	20% – 8 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	10	8	82	Deyarli optimal
19	2	20% – 12 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	5	25	70	Ortiqcha vaqt
20	2	15% – 8 daq	yo‘q	yo‘q	yo‘q	70%	15	10	75	Balans
21	3	10% – 10 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	10	20	70	Zamburug‘ ↓
22	3	15% – 10 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	5	30	65	Fungitsid stress
23	3	20% – 10 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	3	40	57	Stress yuqori
24	3	25% – 10 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	2	55	43	Juda agressiv
25	3	20% – 7 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	5	30	65	Qisqa vaqt
26	3	15% – 7 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	8	25	67	Balans
27	3	10% – 7 daq	yo‘q	0,05%	yo‘q	70%	15	20	65	Muloyim
28	3	15% – 10 daq	yo‘q	0.1%	yo‘q	70%	3	45	52	Fungitsid toksik
29	3	20% – 8 daq	yo‘q	0.1%	yo‘q	70%	3	50	47	To‘qima zarari
30	3	10% – 10 daq	yo‘q	0.1%	yo‘q	70%	8	35	57	O‘sish susaygan

Natijalar va muhokama:

Sterilizatsiya protokoli: *Betula daurica* eksplantlari juda sezgir bo‘lib, kimyoviy yuklama ozgina oshgan taqdirda ham nekroz va qorayish tez ortib ketadi. Kengaytirilgan ko‘p–komponentli Protokol №1 ($KMnO_4$ + «Belizna» + Tween 20 + $AgNO_3$ + etanol) tajribalarda kontaminatsiyani

Material va metod. O'zMU da g'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub Noyob Sitogenetik kolleksiya mavjud (Sanamyan et al., 2014; 2016). Bu kolleksiyaning betakrorligi (unikalligi) shundaki, u AQShning asosan duragay muhitda — turli navlar, liniyalar va gibridlar orasidan monosomik hamda translokant o'simliklarni aniqlash va keyinchalik ularni AQShda *G.hirsutum* turi uchun genetik standart hisoblangan Texas Marker-1 liniyasi bilan bekkrossing (ortga chatishtirish) qilish orqali yaratilgan Sitogenetik kolleksiyasidan farqli o'laroq, yuqori darajada inbredlangan L-458 liniyasining yagona genotipik muhitida olingan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, AQSh Sitogenetik kolleksiyasidagi dastlabki monosomiklarning duragay foni molekulyar markerlarning xromosomalarga tegishliligini aniqlash bo'yicha molekulyar-genetik tahlillarni o'tkazishni qiyinlashtiradi (Gutiérrez et al., 2009; Saha et al., 2015). O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti) Sitogenetik kolleksiyasi g'o'za monosomiklarida AQShda olingan sitogenetik kolleksiyada mavjud bo'lmagan yangi fenotipik markerlarning borligi bilan ajralib turadi. Bu esa alohida xromosomalari yetishmaydigan, muqaddam aniqlanmagan yangi o'simliklarni topish ehtimolini oshiradi (Sanamyan et al., 2016; 2019).Kolleksiya tarkibidagi *G.hirsutum* L. turiga mansub 10 ta monosomik (Mo6, Mo39, Mo41, Mo45, Mo49, Mo56, Mo68, Mo84, Mo91) liniyalarini, bitta monotelodisomik Telo12 liniyasini va ushbu gipoaneploid liniyalarni 25 ta tester to'plamli translokatsion liniya bilan chatishtirilib olingan duragaylar F_1(Mo6xTn41, Mo6xTn45, Mo6xTn55, Mo6xTn56, Mo39xTn4, Mo39xTn23, Mo39xTn29, Mo39xTn43, Mo39xTn45, Mo39xTn47, Mo39xTn48, Mo39xTn55, Mo41xTn5, Mo41xTn7, Mo41xTn29, Mo41xTn41, Mo41x Tn42, Mo41xTn41, Mo41x Tn48, Mo45xTn25, Mo45xTn28, Mo45xTn41, Mo45xTn50, Mo49xTn55, Mo49xTn57, Mo56xTn36, Mo68xTn28, Mo68xTn56, Mo84xTn25, Mo84xTn38, Mo84xTn40, Mo84xTn48, Mo84xTn58,Mo91xTn49, Telo12xTn27) kombinatsiyalari jalb etildi.

Olingan natijalar va muhokama. G'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub bo'lgan 10 ta monosomik (Mo6, Mo39, Mo41, Mo45, Mo49, Mo56, Mo68, Mo84, Mo91 va Telo12) liniyalarni 25 ta tester to'plamli translokatsion liniyalari Tn4, Tn5, Tn7, Tn23, Tn25, Tn27, Tn28, Tn29, Tn36, Tn38, Tn40, Tn41, Tn42, Tn43, Tn45, Tn47, Tn48, Tn49, Tn50, Tn55, Tn56, Tn57 va Tn58 bilan chatishtirildi. Ulardagi tuguvchanlik va unuvchanlik o'rganildi. G'o'zaning liniyalararo duragay chigitlarning tuguvchanlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Monosomik Mo56 liniyasi chatishtirilishining F_1(Mo56xTn36) kombinatsiyasida eng kam tuguvchanlik (25,00%) ekanligi aniqlandi. Monosomik Mo68 liniyasi chatishtirilishining F_1(Mo68xTn25) kombinatsiyada eng yuqori tuguvchanlik (84,78%) ekanligi aniqlandi. **(1jadval).**

G'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub 10 ta monosomik (Mo6, Mo39, Mo41, Mo45, Mo49, Mo56, Mo68, Mo84, Mo91) liniyalarini va bitta monotelodisomik Telo12 liniyasini shuningdek ushbu gipoaneploid liniyalarni 25 ta tester to'plamli translokatsion liniya bilan chatishtirilib olingan

F_1 duragaylarning 14 ta kombinatsiyasida eng kam tuguvchanlik 25,00% dan 50,00% gacha ko‘rsatkichni namoyon qildi. O‘rtacha tuguvchanlik ko‘rsatkichi jami 22 ta kombinatsiyasida 50,00% dan 79,07% gacha ekanligi aniqlandi. Shuningdek eng yuqori tuguvchanlik esa ikkita kombinatsiyasida 79,07% dan 84,78%gacha ko‘rsatkichni namoyon qildi. monosomik Mo68 liniyasi chatishtirilishining F_1(Mo68 xTn25) kombinatsiyada (84,78%) aniqlandi. Bundan tashqari har bitta monosomik liniyaning turli translokantsion liniya bilan chatishtirilgan har hil kombinatsiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak tuguvchanlik ko‘rsatkichi farqlanadi. Bunga asosiy sabab chatishtirish uchun turli xromasomasi bo‘yicha translokatsiyaga uchragan liniyalar jalb etilganligidir. Masalan monosomik Mo6 liniyasi 4 xildagi translokatsion liniyada 28,13% dan 57,89% gacha, Mo39 liniyasi 8 xil translokatsion liniyada 29,41% dan 82,05% gacha, Mo41 liniyasi 6 xil translokatsion liniyada 32,47% dan 77,14 gacha, Mo68 liniyasi 3 xil translokatsion liniyada 41,07% dan 84,78% gacha, Mo84 liniyasi esa 7 xil translokatsion liniya bilan chatishtirilgan kombinatsiyasida 30,77% dan 79,07% gacha tuguvchanlik ko‘rsatkichlarini namoyon qilgan.

1-jadval

G‘o‘zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub bo‘lgan monosomik liniyalarni tester to‘plamli translokatsion liniyalar bilan o‘zaro chatishtirish natijasida olingan duragaylarda chigit tuguvchanligi tahlili

№	Chatishtirish kombinatsiyasi	Pushtli urug‘lar va pushtsiz urug‘lar soni			Umumiy soni	Ko‘sakdagi urug‘lar soni, %		
1.	Mo6xTn41	44	+	33	77	57,14	±	5,64
2.	Mo6xTn45	9	+	23	32	28,13	±	7,95
3.	Mo6xTn55	22	+	16	38	57,89	±	8,01
4.	Mo6xTn56	14	+	15	29	48,28	±	9,28
5.	Mo39xTn4	33	+	18	51	64,71	±	6,69
6.	Mo39xTn23	30	+	9	39	76,92	±	6,75
7.	Mo39xTn29	32	+	7	39	82,05	±	6,15
8.	Mo39xTn43	29	+	11	40	72,50	±	7,06
9.	Mo39xTn45	24	+	20	44	54,55	±	7,51
10.	Mo39xTn47	5	+	12	17	29,41	±	11,05
11.	Mo39xTn48	18	+	18	36	50,00	±	8,33
12.	Mo39xTn55	11	+	12	23	47,83	±	10,42
13.	Mo41xTn7	25	+	52	77	32,47	±	5,34
14.	Mo41xTn7	27	+	8	35	77,14	±	7,10
15.	Mo41xTn5	33	+	14	47	70,21	±	6,67
16.	Mo41xTn29	19	+	15	34	55,88	±	8,52
17.	Mo41xTn41	10	+	17	27	37,04	±	9,29
18.	Mo41xTn41	32	+	13	45	71,11	±	6,76
19.	Mo41xTn42	27	+	17	44	61,36	±	7,34
20.	Mo41xTn47	26	+	17	43	60,47	±	7,46
21.	Mo41xTn48	11	+	20	31	35,48	±	8,59
22.	Mo45xTn56	16	+	9	25	64,00	±	9,60
23.	Mo49xTn28	26	+	17	43	60,47	±	7,46
24.	Mo56xTn36	5	+	15	20	25,00	±	9,68
25.	Mo68xTn25	39	+	7	46	84,78	±	5,30
26.	Mo68xTn41	23	+	17	40	57,50	±	7,82
27.	Mo68xTn50	46	+	66	112	41,07	±	4,65
28.	Mo68xTn25	39	+	7	46	84,78	±	5,30
29.	Mo84xTn25	17	+	6	23	73,91	±	9,16
30.	Mo84xTn25	28	+	9	37	75,68	±	7,05
31.	Mo84xTn25	4	+	9	13	30,77	±	12,80
32.	Mo84xTn38	34	+	9	43	79,07	±	6,20
33.	Mo84xTn38	9	+	15	24	37,50	±	9,88
34.	Mo84xTn40	17	+	19	36	47,22	±	8,32
35.	Mo84xTn48	33	+	31	64	51,56	±	6,25
36.	Mo84xTn55	18	+	15	33	54,55	±	8,67
37.	Mo84xTn57	9	+	13	22	40,91	±	10,48
38.	Mo84xTn58	10	+	15	25	40,00	±	9,80
39.	Mo91xTn49	13	+	12	25	52,00	±	9,99
40.	Telo12xTn27	17	+	13	30	56,67	±	9,05

Yuqorida aytilganidek g'o'zaning liniyalararo duragay chigitlarning unuvchanligi aniqlangan bo'lib, ushbu kombinatsiyalardan olingan duragay chigitlarning unuvchanligi 59,09% dan 100% gacha kuzatildi **(2-jadval).**

2-jadval

G'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub bo'lgan monosomik liniyalarni tester to'plamli translokatsion liniyalar bilan o'zaro chatishtirish natijasida olingan duragaylarda chigit tuguvchanligi tahlili

№	Chatishtirish kombinatsiyasi	Chigitlar soni	Unganlar urug'lar soni	Unuvchanlik, %
1.	Mo6xTn41	44	26	59,09%
2.	Mo6xTn45	9	8	88,89%
3.	Mo6xTn55	22	20	90,91%
4.	Mo6xTn56	14	14	100,00%
5.	Mo39xTn4	33	30	90,91%
6.	Mo39xTn23	30	25	83,33%
7.	Mo39xTn29	32	27	84,38%
8.	Mo39xTn43	29	28	96,55%
9.	Mo39xTn45	24	23	95,83%
10.	Mo39xTn47	5	5	100,00%
11.	Mo39xTn48	18	18	100,00%
12.	Mo39xTn55	11	10	90,91%
13.	Mo41xTn5	33	32	96,97%
14.	Mo41xTn7	25	23	92,00%
15.	Mo41xTn7	27	26	96,30%
16.	Mo41xTn29	19	19	100,00%
17.	Mo41xTn41	10	10	100,00%
18.	Mo41xTn41	32	28	87,50%
19.	Mo41xTn42	27	24	88,89%
20.	Mo41xTn47	26	23	88,46%
21.	Mo41xTn48	11	10	90,91%
22.	Mo45xTn56	16	16	100,00%
23.	Mo49xTn28	26	25	96,15%
24.	Mo56xTn36	5	4	80,00%
25.	Mo68xTn25	39	39	100,00%
26.	Mo68xTn50	46	45	97,83%
27.	Mo68xTn41	23	23	100,00%
28.	Mo84xTn25	17	17	100,00%
29.	Mo84xTn25	28	26	92,86%
30.	Mo84xTn25	4	4	100,00%
31.	Mo84xTn38	34	31	91,18%
32.	Mo84xTn38	9	6	66,67%
33.	Mo84xTn40	17	14	82,35%
34.	Mo84xTn48	33	33	100,00%
35.	Mo84xTn55	18	18	100,00%
36.	Mo84xTn57	9	9	100,00%
37.	Mo84xTn58	10	8	80,00%
38.	Mo91xTn49	13	12	92,31%
39.	Telo12xTn27	17	16	94,12%

Chigit unuvchanlikda eng past (59,09% va 66,67%) ko'rsatgich ikkita monosomik Mo6 liniyasining F_1(Mo6xTn41) va Mo84 liniyasining F_1(Mo84xTn38) chatishtirish kombinatsiyalarida aniqlandi. O'rtacha ko'rsatkich 5 xil monosomik Mo6, M039, Mo41, Mo56 va Mo84 liniyalarining turli xil translokatsion liniya bilan chatishtirilgan 10 ta kombinatsiyasida 80,00% dan 90,91% gacha ekanligi aniqlandi. Shuningdek eng yuqori unuvchalik monosomik Mo49 liniyasidan tashqari qolgan 9 ta liniyalarning ayrim kombinatsiyalarida 100% gacha ekanligi aniqlandi.

Xulosa. G'o'zaning *G.hirsutu*m L. turiga mansub bo'lgan monosomik va monotelodisomik liniyalarni tester to'plamli translokatsion liniyalar bilan o'zaro chatishtirish natijasida olingan F_1 duragaylarning tuguvchanlik darajasi har bitta monosomik liniyaning chatishtirishga jalb etilgan turli translokatsion liniyaning kombinatsiyalarida har bir xromosoma bo'yicha turli xil ko'rsatgich namayon qildi. Bunga sabab har bir monosomik va monotelodisomik liniyalarni turli do'zadagi

gamma nurlari bilan ta'sir ettirilishi sababli duragaylarda ham chigit tuguvchanligi har xilligini kuzatildi. Undan so'ng F_1 duragaylar chigitlarining unuvchanligi ham turli xil ko'rsatkichlarda o'zaro farqlandi. Bundan tashqari ayrim monosomik liniyalarda unuvchanlik bir xil ko'rsatkichni namoyon qildi, bu esa o'rtacha ko'rsatkich bo'lib 90,91% ni tashkil etdi. Shuningdek chigitlarning unuvchanlik darajasi bitta variantdan tashqari qolgan barcha kombinatsiyalarda unuvchanlik 100% ni tashkil etdi. Buning sababi ekish jarayonida duragay chigitlar uchun optimal sharoit yaratilganligidir.

a **b**

1-rasm. O'zMU ning Botanika bog'ida joylashgan issiqxonada liniylararo duragay chigitlarni plastmassa stakanlarga ekilganligi: a- issiqxona sharoitida duragay chigitlarning unishi (5 kunlik holati); 2-rasm. b-issiqxona sharoitida duragay chigitlarning unishi (10 kunlik holati)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эллиот Ф. К. Селекция растений и цитогенетика. Москва, 1961. С. 83-92.

2. Дишлер В.Я., Индуцированнный рекомбиногенез у высших растений. Рига, Зинатне, 1983. 222- С.

3. Санамьян М.Ф., Мусаев Д.А. Обнаружение и цитологическое изучение анеуплоидных и эуплоидных растений с транслокациями хромосом у хлопчатника *Gossypium hirsutum* L. // Генетика. Москва, 1990. Т.26. № 3. С. 506-515.

4. Санамьян М.Ф., Мусаев Д.А. Получение и цитогенетическое изучение гомозиготных транслокационных линий хлопчатника //Генетика. Москва. 1992. Т.28. № 11. С. 75–82.

5. Санамьян М.Ф. Цитогенетика мутаций, транслокаций, моносомии и межвидовой гибридизации у хлопчатника // Монография – Т.: "Университет", 2020, 384 с.

6. Gutie´rrez O.A., Stelly D.M., Saha S., Jenkins J.N., McCarty J.C., Raska D.A., Scheffler B.E. Integrative placement and orientation of non-redundant SSR loci in cotton linkage groups by deficiency analysis // Mol Breeding. – 2009. – V.23. P.693–707.

7. Saha S., Stelly D.M., Makamov Abdusalom K., Ayubov Mirzakamol S., Raska Dwaine., Gutie´rrez Osman A., Shivapriya Manchali., Jenkins N. Johnie., Dewayne Deng. Abdurakhmonov I.Y. Molecular confirmation of *Gossypium hirsutum* chromosome substitution lines // Euphytica, 2015. V.205. - P.459–473.

8. Sanamyan M.F., Petlyakova J., Rakhmatullina E.M., Sharipova E. Chapter 10. «Cytogenetic Collection of Uzbekistan». In: Abdurakhmonov I.Y. (ed). «World Cotton Germplasm Resources». Intech. Croatia. 2014. P. 247-287.

9. Sanamyan M.F., Makamov A.K., Bobokhujaev Sh.U., Usmonov D.E., Buriev Z.T., Saha S., Stelly D.M. The Utilization of Translocation Lines and Microsatellite Markers for the Identification of Unknown Cotton Monosomic Lines// In: «Cotton Research», Intech. Croatia. 2016. P. 167-183.

10. Sanamyan M.F., Bobokhujayev Sh.U. Identification of univalent chromosomes in monosomic lines of the *Gossypium hirsutum* L. cotton type with the help of cytogenetic markers //Current Challenges in Plant Genetics, Genomics, Bioinformatics, and Biotechnology Proceedings of the Fifth International Scientific Conference PlantGen. 2019. June 24 29, 2019. Novosibirsk, Russia. – P. 247-250.

UO'K 619.576.895.42.

QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARIDA UCHROVCHI KANALAR VA ULARNING EPIDEMIOLOGIK AHAMIYATI

A.U.Mirzayeva, kat.i.x., O'zRFA Zoologiya instituti, Toshkent
Sh.X.Odilova, mustaqil izlanuvchi, O'zRFA Zoologiya instituti, Toshkent
O.T.To'rayeva, magistrant, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent
R.Q.Shapaotov, b.f.f.d., katta o'qituvchi, University Business and Sciense, Toshkent

Annotatsiya*. Ushbu tadqiqot Toshkent viloyati sharoitida qishloq xo'jaligi hayvonlaridan yig'ilgan kanalarda Haemaphysalis va Hyalomma avlodlariga mansub turlar hamda ular orqali tarqaluvchi Rickettsia heilongjiangensis va Coxiella burnetii patogenlarining uchrash darajasini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida kana turlarining xo'jayinlar bo'yicha tarqalishi, ularning ekologik moslashuvchanligi hamda ayrim turlarning xo'jayinlarga ixtisoslashganligi aniqlandi. Shuningdek, PZR tahlillari asosida ayrim kana turlarida yuqori darajadagi zararlanish ko'rsatkichlari qayd etildi. Olingan natijalar mazkur hududda tabiiy o'choqli kasallik qo'zg'atuvchilarni va kanalarining epidemiologik ahamiyatini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *Haemaphysalis, Hyalomma, kanalar, Rickettsia, Coxiella burnetii, PZR, epidemiologiya, Toshkent viloyati.*

Аннотация*. Настоящее исследование посвящено изучению встречаемости видов клещей, относящихся к родам Haemaphysalis и Hyalomma, собранных с сельскохозяйственных животных в условиях Ташкентской области, а также патогенов Rickettsia heilongjiangensis и Coxiella burnetii, распространяемых этими клещами. В ходе исследования были определены особенности распределения видов клещей по хозяевам, их экологическая пластичность, а также установлена степень специализации отдельных видов к определённым хозяевам. Кроме того, на основании результатов ПЦР-анализа у некоторых видов клещей выявлены высокие показатели инфицированности. Полученные результаты свидетельствуют об эпидемиологическом значении клещей и возбудителей природно-очаговых заболеваний, циркулирующих на территории данного региона.*

Ключевые слова: *Haemaphysalis, Hyalomma, клещи, Rickettsia, Coxiella burnetii, ПЦР, эпидемиология, Ташкентская область.*

Abstract. *This study is devoted to investigating the occurrence of tick species belonging to the genera Haemaphysalis and Hyalomma, collected from livestock in the Tashkent region, as well as the pathogens Rickettsia heilongjiangensis and Coxiella burnetii transmitted by these ticks. The study determined the distribution of tick species among host animals, their ecological adaptability, and the degree of host specificity exhibited by certain species. In addition, PCR analysis revealed high infection rates in several tick species. The obtained results highlight the epidemiological significance of ticks and the natural foci of pathogens circulating within the study area.*

Key words: *Haemaphysalis, Hyalomma, ticks, Rickettsia, Coxiella burnetii, PCR, epidemiology, Tashkent region.*

Ixodidae oilasiga mansub kanalar gematofag ektoparazitlar sifatida qishloq xo'jaligi va yovvoyi hayvonlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ular ko'plab yuqumli kasalliklarning asosiy vektorlari hisoblanadi. Ushbu parazitlar hayvon organizmiga bevosita zarar yetkazish bilan bir qatorda viruslar, bakteriyalar va protozoylarni tashish orqali chorvachilik sohasida sezilarli darajada iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi [5,9]. So'nggi yillarda ektoparazit kanalarning tarqalishi chorvachilikda epizootik vaziyatning yomonlashuvi va iqtisodiy yo'qotishlarning ortishiga olib keluvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, kanalar orqali yuqadigan kasalliklar tufayli chorva mollari mahsuldorligining pasayishi, nobud bo'lishi, profilaktika va davolash ishlariga sarflanadigan xarajatlar natijasida yuzaga keladigan global iqtisodiy yo'qotishlar yiliga 22–30 milliard AQSH dollariga baholanadi [1].

Tabiiy hududlarning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi ektoparazitlar tarqalish areallarining o'zgarishi, sinantrop turlar shakllanishi hamda ularning adaptatsion mexanizmlarining kuchayishiga

olib kelib, populyatsiya zichligining ortishiga sharoit yaratadi. Natijada parazitlar orqali yuqadigan kasallik qo‘zg‘atuvchilarining tarqalish xavfi ortib, bu holat ekologik muvozanatning buzilishi hamda epidemiologik vaziyatning yomonlashishiga olib keluvchi muhim omil sifatida baholanadi [10].

Bugungi kunda dunyo faunasida Ixodidae oilasiga mansub 900 ga yaqin kana turlari qayd etilgan bo‘lib, ushbu oila vakillari morfologik va biologik xususiyatlari, ekologik moslanish darajasi hamda turli xo‘jayinlarga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu omillar ixodid kanalarning yuqori taksonomik va ekologik xilma-xilligini belgilovchi muhim mezonlar hisoblanadi [7,3,4,5].

Ixodid kanalar turli landshaft va iqlim sharoitlarida keng tarqalgan bo‘lib, murakkab parazit–xo‘jayin munosabatlarining shakllanishida hamda ko‘plab transmissiv infeksiyalar qo‘zg‘atuvchilarining tabiiy sirkulyatsiyasini ta’minlashda muhim epidemiologik va epizootologik ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli kanalarning tarqalishi, bioekologik xususiyatlari va xo‘jayinlar bilan o‘zaro munosabatlarini kompleks ravshda o‘rganish, ularning sonini nazorat qilish hamda ular orqali yuqadigan transmissiv kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni takomillashtirish parazitologiya va veterinariya sohalarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [8,11,12].

Tadqiqotning maqsadi. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarida uchrovchi kanalar va ularning epidemiologik ahamiyatini o‘rganishdan iborat.

Material va metodika. Tadqiqot ishlari Respublikamizning shimoli-sharqiy hududida amalga oshirildi va namunalar turli tabiiy geografik sharoitlarga ega bo‘lgan tumanlardan yig‘ib olindi. Namunalar yig‘lgan hududlar hamda tadqiqot nuqtalarining geografik koordinatalari GPS yordamida belgilandi. Olingan koordinata ma’lumotlari ArcGIS 10.3.1 dasturida qayta ishlanib, tadqiqot hududlari va namuna olish nuqtalarining joylashuvini aks ettiruvchi xaritani tuzishda asosiy manba sifatida foydalanildi. Tadqiqot o‘tkazilgan hududlar va namunalar yig‘ilgan nuqtalarning geografik koordinatalari quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadval).

1-jadval.

Tadqiqot olib borilgan hududlar va namunalar yig‘ilgan joylarning geografik koordinatalari

№	Tumanlar	Koordinatalar
1.	Bekobod	40°14'36.2"N 69°16'27.5"E
2.	Bo‘ka	40°47'56.2"N 69°13'51.5"E
3.	Qibray	41°22'27.5"N 69°27'22.6"E
4.	Quyi Chirchiq	40°58'31.1"N 68°59'19.2"E
5.	Ohangaron	40°55'19.3"N 69°38'08.2"E
6.	Parkent	41°18'05.9"N 69°41'17.2"E
7.	Zangiota	41°10'44.9"N 69°15'36.2"E
8.	Chinoz	40°57'25.8"N 68°45'09.0"E
9.	Yangiyo‘l	41°07'14.6"N 69°05'00.1"E

Tadqiqot davomida jami 350 bosh qishloq xo‘jaligi hayvonlari tekshirildi, jumladan 80 bosh *Bos taurus* (qoramol), 120 bosh *Ovis aries* (qo‘y), 80 bosh *Capra hircus* (echki), 40 bosh *Equus ferus caballus* (ot) hamda 30 bosh *Canis lupus familiaris* (it) tashkil etdi. Tekshiruvlar natijasida hayvonlar tanasidan jami 3700 nusxa kana namunalari yig‘ib olindi.

Kana namunalari hayvonlarning tana yuzasidan, ektoparazitlarning ko‘proq uchraydigan qismlarini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechirish orqali yig‘ib olindi [8,11,13]. Yig‘ilgan kana namunalarining tur tarkibini aniqlash va ularning morfo-biologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida namunalar markerlangan shisha hamda plastik idishlarga, 50% etil spirti eritmasiga yig‘ib borildi.

Yig‘ilgan kana namunalari O‘zR FA Zoologiya instituti hamda O‘zR SSV Virusologiya ilmiy-tadqiqot institutiga olib kelindi. Kana namunalarining identifikatsiyasi Е.Н. Павловский (1949) va М.В. Поспелова-Штром (1941) ishlari asosida, mikroskopik tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Kanalarda infeksion kasallik qo‘zg‘atuvchilarining mavjudligini aniqlash ishlari molekulyar-biologik va virusologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Tahlillarda “Vektor-Best” va “AmpliSens” diagnostik test tizimlaridan foydalanildi. DNK va RNK ekstraksiyasi amaldagi uslubiy ko‘rsatmalar (№3289; №1337-Pr/09) asosida bajarildi.

Tadqiqot natijalari. Jadval ma’lumotlari *Haemaphysalis* va *Hyalomma* avlodlariga mansub kanalarining xo‘jayinlar bo‘yicha tarqalishida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim

turlarning barcha o‘rganilgan xo‘jayinlarda qayd etilishi ularning keng ekologik moslashuvchanlikka ega ekanligini bildirsa, boshqa turlarning faqat ayrim xo‘jayinlarda uchrashi ularning muayyan xo‘jayinlarga ixtisoslashganligini ifodalaydi.

Olingan natijalarga ko‘ra, *Haemaphysalis concinna*, *H. sulcata* hamda *H. numidiana turanica* turlari barcha o‘rganilgan xo‘jayinlarda jumladan, qoramol (*Bos taurus*), qo‘y (*Ovis aries*), echki (*Capra hircus*), ot (*Equus ferus caballus*) va it (*Canis lupus familiaris*) da uchrashi ularning yuqori ekologik moslashuvchanlikka ega ekanligini hamda keng xo‘jayin doirasiga ega ko‘p xo‘jayinli turlar sifatida shakllanganligini ko‘rsatdi.

Haemaphysalis punctata turining qoramolda uchramasligi esa ushbu turning muayyan xo‘jayinlarga ixtisoslashgan ekanligini, ya’ni uning tarqalishi ma’lum biologik va ekologik omillar bilan cheklanganligini ifodalaydi. Bu holat mazkur turning nisbatan tor xo‘jayin doirasiga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, *Hyalomma* avlodiga mansub turlar orasida *H. asiaticum, H. anatolicum* va *H. scupense* barcha xo‘jayinlarda qayd etilib, ularning keng ekologik moslashuvchanlikka ega ekanligi hamda turli muhit sharoitlarida barqaror yashash qobiliyatini namoyon etishi aniqlandi. Bu turlar ham ko‘p xo‘jayinli va epidemiologik jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Aksincha, *Hyalomma marginatum* turining qoramol va otlarda uchramasligi, biroq qo‘y, echki va itlarda qayd etilishi uning muayyan xo‘jayinlarga ixtisoslashgan ekanligini va tarqalishining nisbatan cheklanganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar *Haemaphysalis* va *Hyalomma* avlodlariga mansub turlar o‘rtasida ekologik moslashuv darajasi va xo‘jayinlarga bog‘liqlik xususiyatlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim turlarning keng tarqalganligi ularning epidemiologik xavfini oshirsa, muayyan xo‘jayinlarga ixtisoslashgan turlar esa tor ekologik doirada shakllangan parazitlik xususiyatini namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval.

Kanalarining xo‘jayinlar bo‘yicha tarqalishi

Kana turi	*Bos taurus*	*Ovis aries*	*Capra hircus*	*Equus ferus caballus*	*Canis lupus familiaris*
Haemaphysalis concinna	+	+	+	+	+
Haemaphysalis sulcata	+	+	+	+	+
Haemaphysalis numidiana turanica	+	+	+	+	+
Haemaphysalis punctata	–	+	+	+	+
Hyalomma asiaticum	+	+	+	+	+
Hyalomma anatolicum	+	+	+	+	+
Hyalomma scupense	+	+	+	+	+
Hyalomma marginatum	–	+	+	–	+

Izoh: (+) – qayd etilgan; (–) – qayd etilmagan.

Tadqiqotlar davomida kanalarda uchrovchi rikketsioz kasalliklarni Virusologiya ilmiy tekshirish instituti Tabiiy o‘choqli o‘ta xavfli virusli infeksiyalar laboratoriyasida quyidagi: *Rickettsia species, R. heilongjiangensis, Coxiella burnetii* bilan kanalarning zararlanishi PZR usulida tekshirildi. Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi hayvonlaridan yig‘ilgan kanalarda *Rickettsia heilongjiangensis* va *Coxiella burnetii* bilan zararlanish holatlari qayd etildi. Jumladan, kasallik qo‘zg‘atuvchilarning tarqalishi turli kana turlarida turlicha darajada namoyon bo‘ldi.

O‘rganilgan *Hyalomma* avlodiga mansub turlar orasida *Hyalomma anatolicum*da *Coxiella burnetii* bilan zararlanish 28%, *R. heilongjiangensis* bilan 7% ni tashkil etdi. *H. scupense*da mos ravishda 13% va 9%, *H. asiaticum*da 7% va 5%, *H. marginatum*da esa 6% va 4% darajada zararlanish aniqlandi. Natijalar ushbu turlarda *Coxiella burnetii* nisbatan yuqori uchrashini ko‘rsatadi.

Shuningdek, *Haemaphysalis* avlodiga mansub turlarda ham kasallik qo‘zg‘atuvchilar qayd etildi. Shuningdek *H. punctata, H. sulcata*, *H. concinna* va *H. numidiana turanica* turlarida *Rickettsia heilongjiangensis* hamda *Coxiella burnetii* bilan zararlanish turli darajada aniqlanib, eng yuqori ko‘rsatkichlar *H. punctata* va *H. sulcata* turlarida kuzatildi.

Hududiy jihatdan kasallik qo‘zg‘atuvchilari asosan Toshkent viloyatining Ohangaron va Chinoz tumanlarida qayd etildi. Bu holat mazkur hududlarda tabiiy o‘choqli kasallik

qo‘zg‘atuvchilari mavjudligini va epidemiologik jarayon faolligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, olingan natijalar *Hyalomma* va *Haemaphysalis* avlodlariga mansub kanalar *Coxiella burnetii* va *Rickettsia heilongjiangensis* qo‘zg‘atuvchilarining tabiiy tashuvchisi sifatida muhim epidemiologik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Toshkent viloyati tumanlarida *Haemaphysalis* va *Hyalomma* avlodlariga mansub kana namunalari keng tarqalganligi va ular *Rickettsia heilongjiangensis* hamda *Coxiella burnetii* kasallik qo‘zg‘atuvchilarning tashuvchi sifatida muhim epidemiologik rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ayrim turlar, jumladan *Hyalomma anatolicum* va *H. scupense* yuqori zararlanish darajasi bilan ajralib turishini ko‘rsatdi.

Haemaphysalis punctata, H. sulcata va boshqa turlarda ham patogenlar aniqlanib, ularning keng xo‘jayin doirasiga ega yoki nisbatan ixtisoslashgan ekologik xususiyatlari qayd etildi. Hududiy tahlil natijalari Ohangaron va Chinoz tumanlarida kasallik qo‘zg‘atuvchilarni faolligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, olingan natijalar kanalar orqali yuqadigan tabiiy o‘choqli kasallik qo‘zg‘atuvchilarning Toshkent viloyatida mavjudligini tasdiqlab, qishloq xo‘jaligi hayvonlarini parazitlardan himoya qilish hamda profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abby T., Michael A., Thacker., Lorimer G. Moseley., Konrad P. Kording. Pain: A Statistical Account // PLOS Computational Biology.- San-Fransisko, 2017. - P. 1-13. doi.org/10.1371/journal.pcbi.1005142

2. Ali A., Zahid H., Zeb I., Tufail M., Khan S., Haroon M., *et al.* Risk factors associated with tick infestations on equids in Khyber Pakhtunkhwa, Pakistan, with notes on *Rickettsia massiliae* detection // *Parasites & Vectors*. – 2021. – Vol. 14. – Article No. 363. – P. 1–12. – doi:10.1186/s13071-021-04836-w.

3. Barker S.C., Murrell A. Systematics and evolution of ticks with a list of valid genus and species names // Parasitology, 2004.- №129. - P. 15–36.

4. Chen Z, Yang X, Bu F, Liu J. Ticks (Acari: Ixodoidea: argasidae, ixodidae) of China // Exp Appl Acarol, 2010. -№51. - P. 393–404.

5. Guglielmone A.A., Robbins R.G., Apanaskevich D.A., Petney T.N., Estrada-Peña A., Horak I.G., Shao R., Barker S.C. The Argasidae, Ixodidae and Nuttalliellidae (Acari: Ixodida) of the world: A list of valid species names // Zootaxa, 2010. - Vol. 2528(1). - P. 1–28.

6. Guglielmone A.A., Robbins R.G., Apanaskevich D.A., Petney T.N., Estrada-Pena A., Horak I.G., Shao R., Barker S.C. The Argasidae, Ixodidae and Nuttalliellidae (Acari:Ixodidae) of the world: a list of valid species names // Zootaxa, 2010. – V. 2528. – P. 1-28.

7. Horak I.G., Fourie L.J., Heyne H., Walker J.B., Needham G.R. Ixodid ticks feeding on humans in South Africa: with notes on preferred hosts, geographic distribution, seasonal occurrence and transmission of pathogens // Experimental and Applied Acarology, 2002. -№27.- P. 113–136.

8. Swai E.S., Kessy M., Sanka P., Bwanga S., Kaaya J.E. A survey on ectoparasites and haemoparasites of free-range indigenous chickens of Northern Tanzania // Livestock Research for Rural Development, 2010. -Vol. 22(9). - P. 92 – 98.

9. Yarmukhamedova N., Mirzaeva A., Akramova F., Shapaotov R., Musabaev E., Ergashova M., Yakubova N., Azimov D. Molecular and biological analysis of rickettsiosis in the territory of Uzbekistan // Laboratory Diagnostics Eastern Europe. – Belarus, 2024. – Vol. 13, No. 4. – P. 548–559.

10. Куклина Т.Е. Иксодовые клещи Узбекистана. В иксодовые клещи Узбекистана. – Фан, 1976. – 116 с.

11. Павловский Е.Н., Алфеева С.П. Патологогистологические изменения кожи крупного рогатого скота при укусе клеща Ixodes ricinus // Труды Военно-медицинской академии им. С. М. Кирова, 1962. - №. 25. - С. 153–160.

12. Петрова-Никитина А.Д., Желтикова Т.М. Паразитические клещи и аллергия // Биологические науки, 1993. - № (1); 348. - С. 25–48.

13. Поспелова-Штром М.В. К методике кормления клещей Ixodidae в лаборатории // Медицинская паразитология и паразитарные болезни, 1941. - №10(3–4). С. 433–436.

UO'K 577.21+581.1+575.17

O'SIMLIKLAR ADAPTATSIYASIDA DNK METILLANISHI, MEXANIZMLAR VA EPIGENOM TAHRIRLASH

Y.A.Muhammadov, kat.i.x., PhD, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
M.S.Ayubov, kat.i.x., PhD, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
B.O.Mamajonov, kich.i.x., O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
A.N.Yusupov, kat.i.x., O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
N.S.Obidov, tayanch doktorant, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
A.A.Murodov, tayanch doktorant, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
Z.H.Bashirxonov, kich.i.x., O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
Z.T.Buriyev, professor, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'simliklarda DNK metillanishi va faol demetillanishini boshqaruvchi molekulyar mexanizmlar, xususan, RNK orqali yo'naltirilgan DNK metillanishi (RdDM) yo'li hamda ROS1/DME vositachiligidagi demetillanish jarayonlari tahlil qilingan. Somatik va transgeneratsion epigenetik xotirani qamrab oluvchi stress xotirasining iyerarxik tuzilishi, shuningdek, o'simliklar evolyutsiyasi va madaniylashuvi davomida tabiiy ravishda shakllangan epiallellarning funksional ahamiyati yoritilgan. Ekinlarni maqsadli yaxshilash vositasi sifatida CRISPR/dCas9 asosidagi epigenom tahrirlash texnologiyalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Yakunda iqlim o'zgarishiga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarini yaratishda epigenetik moslashuvning konseptual asoslari hamda kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari belgilangan.*

Kalit so'zlar: *DNK metillanishi, demetillanish, RdDM, epigenetik xotira, epiallellar, epigenom tahrirlash.*

Аннотация. *В статье рассмотрены молекулярные механизмы, регулирующие метилирование и активное деметилирование ДНК у растений, в частности путь РНК-направленного метилирования ДНК (RdDM) и процессы деметилирования, опосредованные белками ROS1/DME. Освещена иерархическая организация стрессовой памяти, включающая соматическую и трансгенерационную эпигенетическую память, а также функциональное значение природных эпилалелей, сформировавшихся в ходе эволюции и доместикации растений. Особое внимание уделено развитию технологий редактирования эпигенома на основе CRISPR/dCas9 как инструмента целенаправленного улучшения сельскохозяйственных культур. В заключение определены концептуальные основы эпигенетической адаптации и перспективные направления исследований, направленных на создание сельскохозяйственных культур, устойчивых к изменению климата.*

Ключевые слова: *метилирование ДНК, деметилирование, RdDM, эпигенетическая память, эпилалели, редактирование эпигенома.*

Abstract. *This article reviews the molecular mechanisms regulating DNA methylation and active DNA demethylation in plants, with particular emphasis on the RNA-directed DNA methylation (RdDM) pathway and ROS1/DME-mediated demethylation processes. The hierarchical organization of stress memory, including somatic and transgenerational epigenetic memory, is discussed together with the functional significance of naturally occurring epialleles formed during plant evolution and domestication. Particular attention is given to the development of CRISPR/dCas9-based epigenome-editing technologies as precise tools for crop improvement. Finally, the conceptual basis of epigenetic adaptation and future research directions for developing climate-resilient agricultural crops are outlined.*

Keywords: *DNA methylation, demethylation, RdDM, epigenetic memory, epialleles, epigenome editing.*

Kirish. Global iqlim haroratning ko'tarilishi, qurg'oqchilik, sho'rlanish, ekstremal haroratlar va og'ir metallar toksikligi kabi abiotik stresslarning jadallashuvi hamda takrorlanishiga olib kelmoqda. Bu esa muhim qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini o'rtacha 20-50% gacha kamayishiga sabab bo'lyapti. An'anaviy seleksiya va genetik muhandislik usullari yordamida

o'simliklarda stressga chidamlilikni oshirishda erishilgan bo'lsa-da, ularning uzoq vaqt talab qilishi, poligen belgilarni manipulyatsiya qilishdagi qiyinchiliklar va transgenoz bilan bog'liq me'yoriy cheklovlar ushbu yondashuvlarning samaradorligini cheklaydi.

O'simliklar turg'un organizmlar sifatida DNK ketma-ketligini o'zgartirmasdan, fenotipik moslashuvchanlikka erishish uchun epigenetik tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirgan. DNK metillanishi stress xotirasini qayd etish, gormonal signallarni integratsiyalash va irsiy epiallelik o'zgarishlarni keltirib chiqarish orqali moslashishni ta'minlaydi. O'simliklarda hayvonlardan farqli o'laroq, metillanish va demetillanish balansi juda dinamik bo'lib, u uchta ketma-ketlik kontekstida namoyon bo'ladi: CG, CHG va CHH (bu yerda H = A, T yoki C). Eng muhimi, stress natijasida yuzaga kelgan metillanish o'zgarishlari keyingi avlodlarga mitoz va meyoz jarayonlari orqali o'tishi mumkin. "Transgeneratsion epigenetik irsiylanish" deb ataladigan ushbu fenomen an'anaviy Veysman to'sig'ini inkor etadi va iqlimga chidamli ekinlarni yetishtirishda mutlaqo yangi istiqbollarni ochadi.

DNK metillanishining o'rnatilishi va saqlanishi. O'simliklarga xos bo'lgan metiltransferaza fermentlari integratsiyalashgan tartibga solish tarmog'ini hosil qiladi:

- CG metillanishi: Sutemizuvchilarning DNMT1 gomologi bo'lgan Methyltransferase 1 (MET1) fermenti tomonidan boshqariladi. MET1 DNK replikatsiyasidan so'ng yarim metillangan (hemi-methylated) CG dinukleotidlarini taniydi va metillanish namunasini qiz zanjirga aniq o'tkazib, mitotik bo'linishlar davomida epigenetik barqarorlikni ta'minlaydi.

- CHG metillanishi: O'simlikka xos bo'lgan Chromomethylase 3 (CMT3) tomonidan saqlanadi. Bu jarayon giston modifikatsiyasi bilan chambarchas bog'liq: CMT3 giston H3 lizin 9 dimetillanishi (H3K9me2) bilan fizik jihatdan o'zaro ta'sirga kirishib, geteroxromatin sukunatini (silencing) kuchaytiruvchi musbat qayta aloqa halqasini hosil qiladi.

- CHH metillanishi: O'simliklarga xos bo'lgan qisqa RNK vositachiligidagi sukunat usuli - RNK orqali yo'naltirilgan DNK metillanishi (RdDM) yo'li orqali o'rnatiladi va saqlanadi.

Krioelektron mikroskopiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, DNKga bog'liq RNK polimeraza IV (Pol IV) va RNK polimeraza RDR2 molekulyar gologolkompleks hosil qiladi. Pol IV tomonidan sintez qilingan transkript polimerazalararo kanal orqali RDR2 faol markaziga o'tkaziladi va u yerda ikki zanjirli RNK (dsRNA) sintezi uchun matritsa bo'lib xizmat qiladi. Ushbu "orqaga qaytish bilan stimullanuvchi RNK kanallanishi" (backtracking-triggered RNA channeling) mexanizmi dsRNA hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Keyingi bosqichda Dicer-like protein 3 (DCL3) fermenti ushbu dsRNA tuzilmalarini parchalab, 24 nukleotidli (nt) qisqa interferension RNK (siRNA) molekulalarini ishlab chiqaradi. Ushbu 24-nt siRNA zanjirlari Argonaute 4 (AGO4) oqsili kompleksiga yuklanadi va maqsadli lokuslardagi skaffold (karkas) transkriptlar bilan komplementar bog'lanib, DRM2 (Domains Rearranged Methyltransferase 2) fermentini hududga jalb qiladi va CHH metillanishini amalga oshiradi. Virusli infektsiyalar (masalan, sholg'om mozaikasi virusi - TuMV) vaqtida mezbon hujayradagi DRM2 va CMT3 genlari ekspressiyasi ortishi, aksincha demetillaza genlarining susayishi hisobiga genom darajasida gipermetillanish sodir bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari, chromatin remodeler DDM1 (Decrease in DNA Methylation 1) oqsili giston H3.1 variantini H3.3 ga almashtirish orqali geteroxromatin sohalarining ochiqligini ta'minlab, metillanish jarayonining transpozonlar va takrorlanuvchi ketma-ketliklarga yo'naltirilishiga ko'maklashadi.

Aktiv demetillanish: ROS1/DME yo'li. DNK metillanish muvozanatini saqlash uchun o'simliklar faol demetillanish tizimidan foydalanadi. Bu jarayon ROS1/DME (Repressor of Silencing 1, Demeter, DML2 va DML3) DNK glikozilazalari oilasi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu bifunktsional fermentlar ham DNK glikozilaza, ham AP-liaza faolligiga ega bo'lib, DNK zanjiridan 5-metilsitozinni (5mC) yulib oladi. Hosil bo'lgan abazik sayt asoslarni kesib olib ta'mirlash (BER) tizimi orqali tiklanib, uning o'rniga metillanmagan sitozin joylashtiriladi.

RdDM va ROS1 yordamida demetillanish o'rtasida nozik muvozanat mavjud: ROS1 genining promotor qismida transpozon joylashgan bo'lib, uning metillanish darajasi ROS1 transkripti miqdorini belgilaydi va bu reostat kabi hujayradagi metillanish va demetillanish muvozanatini barqarorlashtiradi. DME fermenti esa faqat urg'ochi gametofitning markaziy hujayrasida faollashib,

ona genomining keng ko‘lamli demetillanishini ta'minlaydi, bu esa endosperm rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan genomik imprintingni (onaga xos genlar faolligini) shakllantiradi.

Somatik xotira va o‘simliklarning immunizatsiyasi. Somatik xotira deganda, o‘simlikning o‘z hayoti davomida epigenetik belgilar yordamida dastlabki stress ta'sirini eslab qolishi va takroriy stressga tezkor hamda kuchliroq javob berish qobiliyati tushuniladi.

Arabidopsis Thalina L o‘simligidagi qurg‘oqchilikka javob beruvchi RD29A genidir. O’simliklarda dastlabki qurg‘oqchilik stressida RD29A geni faollashadi va uning promotori qismidagi aktiv giston modifikatsiyasi - H3K4me3 to‘planadi. Stress o‘tib yakunlangach, transkripsiya normal darajaga qaytsa-da, ushbu H3K4me3 belgisi va "to‘xtab qolgan" (stalled) RNK Polimeraza II fermenti promotorda saqlanib qoladi. Ikkinchi marotaba qurg‘oqchilik sodir bo‘lganda, ushbu tayyor molekulyar platforma genda transkripsiyaning juda tez va shiddatli faollashuviga imkon beradi. Somatik xotira stress turiga qarab bir necha kundan bir necha haftagacha davom etishi mumkin.

Transgeneratsion xotira va meyotik transmissiya. Transgeneratsion xotira stress ko‘rmagan keyingi avlod promotorlarida ham o‘sha stress ta'sirida paydo bo‘lgan metillanish profillarining saqlanib qolishi va ularda chidamlilik xususiyatining namoyon bo‘lish jarayonidir. Sho‘rlanish stressiga 5 avlod davomida duchor qilingan Arabidopsis liniyalarida stress to‘xtatilgandan keyin ham differensial metillangan hududlar (DMR) bir necha avlod davomida barqaror saqlanib qolgan va bu esa o’simlikni sho‘rga chidamlilik genlari yuqori ekspressiyasi bilan korrelyatsiya hosil qilgan. Tamaki mozaikasi virusi (TMV) bilan zararlangan tamaki o‘simliklarining birinchi avlodida ham kasallikka chidamlilik darajasi yuqori bo‘lganligi qayd etilgan. Biroq, transgeneratsion xotira universal emas; u o‘simlik turiga va meyoz davridagi epigenetik belgilarni qayta tiklash (resetting) mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liq holda farqlanadi.

Epiallellar va ularning evolyutsion ahamiyati. Ketma-ketlik o‘zgarmasdan, faqat DNK metillanishi hisobiga turlicha ekspressiya holatiga ega bo‘lgan gen variantlari epiallellar deb ataladi. Gullash muddatini belgilovchi FLC (Flowering locus C) geni epiallelik boshqaruvning yaqqol modelidir. Yarovizatsiya (uzoq muddatli sovuq harorat) FLC genida Polycomb-vositachiligidagi repressiv H3K27me3 belgisini to‘playdi va gen ekspressiyasini so‘ndiradi. Ushbu sukunat holati har bir yangi avlod embrionida qisman qayta tiklanadi va avlodlararo xotirani hosil qiladi. Madaniy ekinlarning introduksiyalanish jarayonida ham sun'iy seleksiya ko‘plab foydali, ammo "epigenetik jihatdan so‘ndirilgan" genlarni qamrab olgan bo‘lib, ularni qayta faollashtirish seleksiyada muhim yo‘nalish hisoblanadi.

DNK metillanishining gormonal signalizatsiya tizimlari bilan integratsiyasi. DNK metillanishi va fitogormonlar o‘zaro ikki tomonlama aloqa halqasini hosil qilib, o‘simliklarning o‘sish va himoya mexanizmlari o‘rtasidagi resurslar taqsimotini (growth-defense trade-off) boshqaradi.

Metillanish orqali gormonlar gomeostazini boshqarish. Genom miqyosidagi promotorlarning gipometillanishi gormonlar sintezini bevosita o‘zgartirishi mumkin. Masalan, Capsicum annuum (garmandori) mevasining pishishi davrida promotorlarning gipometillanishi absciz kislotasi (ABA) biosintezi genlarini stimullaydi, auxin va gibberellin biosintezi genlarini esa tormozlaydi. DNK metillanishi ingibitori bo'lgan 5-azatsitidin qo‘llanilganda, soyada ABA va etilen kontsentratsiyasi keskin o‘zgarishi bilan birga DRM2 ortishi va ROS1 fermenti pasayishi kuzatilgan.

Gormonlar tomonidan metillanish apparatining boshqarilishi. Fitogormonlar metillanish fermentlari genlarini bevosita nazorat qiladi. Tajribalarda ABA, IAA, GA, SA, etilen va sitokinin gormonlarining metiltransferaza va demetillaza fermentlari promotor faolligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi isbotlangan.

Og‘ir metall (kadmiy Cd^{2+}) stressi sharoitida *Arabidopsis* o‘simligining ildiz apikal meristemasi (RAM) o‘rganilganda, kadmiy yovvoyi tipdagi o‘simliklarda ildiz hujayralari tuzilishini buzishi hamda auksin signalizatsiyasini (pDR5::GFP) susaytirishi aniqlangan. Biroq, *drm1/drm2/cmt3* (ddc tripel mutanti) o‘simliklarida non-CG metillanishi sodir bo‘lmaganligi sababli auksin gomeostazi saqlanib qolgan va ildiz tizimi kadmiy toksikligiga nisbatan yuqori chidamlilik namoyon etgan. Bundan tashqari, salitsil kislotasi (SA) immun xotirani barqarorlashtirish maqsadida MET1**,** VIM1

va ROS1 genlarining ekspressiyasini bostirib, o‘ziga xos «himoya holati»ga xos metilomni barqaror saqlab turishi aniqlangan.

CRISPR/dCas9 vositachiligi yordamida maqsadli metillanishni boshqarish. An’anaviy gen muhandisligidagi genlarni butunlay nokaut qilish yoki transgen kiritish usullari ko‘pincha o‘simlik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi (fitness cost) yoki transgenoz cheklovlariga duch keladi. Katalitik faolligi yo‘qotilgan dCas9 (dead Cas9) oqsili transkriptsion modifikatorlar yoki metillash/demetillash domenlari bilan biriktirilib, DNK ketma-ketligini o‘zgartirmasdan gen ekspressiyasini boshqarish imkonini beradi.

Epigenom tahrirlashning asosiy afzalligi bir nechta gen promotorlarini bir vaqtning o‘zida nishonga olish (multiplex targeting) va ularni sinxron ravishda boshqarish qobiliyatidir. Masalan, Arabidopsisda AITR transkripsiya faktorlari oilasining epigenetik yo‘l bilan to‘liq o‘chirilishi o‘simlikning o‘sishiga hech qanday salbiy ta'sir ko‘rsatmasdan, qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamliligini oshirgan.

Model o‘simliklardan qishloq xo‘jaligi ekinlariga o‘tish. Epigenom tahrirlash qishloq xo‘jaligi ekinlarida ham muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilmoqda:

Sholida o’simligida OsDREB1 (Os -*Oryza sativa*. DREB1 - *Dehydration-Responsive Element Binding 1)* genining promotor qismi maqsadli demetillanishi natijasida uning stress-indutsirlangan ekspressiyasi oshirib, qurg‘oqchilikda suvdan foydalanish samaradorligini yaxshiladi.

OsDREB1 geni promotorining gipometillanishi natijasida sholi donida zaharli kadmiy to‘planishi keskin kamayganligi kuzatildi.

Shunga qaramay, ushbu texnologiyani amaliyotga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Bug‘doy, g‘o‘za va kartoshka kabi poliploid ekinlarning murakkab genomi va gomeologik genlarning mavjudligi maqsadli gidlarni (gRNA) loyihalashni qiyinlashtiradi. Tahrirlash komponentlarini hujayraga yetkazib berish (delivery efficiency) samaradorligi pastligi va maqsadli hududdan tashqaridagi tasodifiy epigenetik o‘zgarishlar (off-target effects) hamon asosiy texnik to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Epigenetik seleksiya (Epi-breeding): Istiqbollar. Epiallellardagi tabiiy o‘zgaruvchanlik seleksiya uchun yangi genetik resurs hisoblanadi. Genom miqyosidagi metillanish assotsiatsiyasi tadqiqotlari (EWAS) orqali stressga chidamlilik bilan bog‘liq bo‘lgan DMR hududlarini aniqlash va ularni markerlar yordamida elita navlarga o‘tkazish - "epigenetik seleksiya" (epi-breeding) yo‘nalishiga asos solindi. Hozirda ushbu yondashuv qishloq xo’jalik ekinlaridan makkajo‘xori va sholi seleksiyasida keng ko’lamda qo’llanilmoqda.

Xulosa. O’simliklarda DNK metillanishi metillanish-demetillanish dinamik balansi, gormonal signallar integratsiyasi va stress xotirasini kodlash orqali atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashishini ta'minlovchi fundamental mexanizm bo’lib hizmat qiladi. Transgeneratsion epigenetik irsiylanishning ochilishi irsiyat haqidagi ilmiy ma’lumotlarni kengaytirdi. Epiallellar DNK nukleotidlar ketma-ketligi o‘zgarmagan holda ham o‘simliklarning evolyutsiyasi, iqlim sharoitlariga moslashuvi hamda atrof-muhit omillariga moslashish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

CRISPR/dCas9 epigenom tahrirlash texnologiyasi o’simliklar genomiga begona DNK qismini kiritmasdan o’simlik xususiyatlarni yaxshilash imkonini bergani sababli, biotexnologik mahsulotlarni qabul qilish va xalqaro litsenziyalash jarayonlarida katta ustunlikka ega. Biroq, epigenetik xotiraning saqlanishi va qayta tiklanishi mexanizmlari to‘liq yoritilmagan. Kelgusi tadqiqotlar aniq bir DMR hududining stressga chidamlilik fenotipi bilan bog‘liqligini (causal proof) qat'iy isbotlashga hamda poliploid ekinlar genomida maqsadli transgen qoldirmasdan barqaror tahrirlash tizimlarini yaratishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bennett, M., Cleaves, K., & Hewezi, T. (2021). Expression Patterns of DNA Methylation and Demethylation Genes during Plant Development and in Response to Phytohormones. International Journal of Molecular Sciences, 22(18), 9681.

2. Chen, S., Zhang, N., Zhou, G., et al. (2021). Knockout of the entire family of AITR genes in Arabidopsis leads to enhanced drought and salinity tolerance without fitness costs. BMC Plant Biology, 21(1), 137.

3. Fang, J., Jiang, J., Leichter, S. M., et al. (2022). Mechanistic basis for maintenance of CHG DNA methylation in plants. Nature Communications, 13(1).

4. Huang, K., Wu, X., Fang, C., et al. (2021). Pol IV and RDR2: A two-RNA-polymerase machine that produces double-stranded RNA. Science, 374(6575), 1579.

5. Karalija, E., Ibragić, S., Dahija, S., & Šamec, D. (2025). Transgenerational Memory of Phenotypic Traits in Plants: Epigenetic Regulation of Growth, Hormonal Balance, and Stress Adaptation. Current Issues in Molecular Biology, 47(6), 404.

6. Wang, K., Huang, X., Huang, J., Singh, M., & Pikaard, C. S. (2023). AGO4 slicing of passenger strands and target RNAs facilitates RNA-directed DNA methylation in plants. The EMBO Journal, 42(10), e112834.

UO'K: 633/635:581.5(575.1)

TOG' TIZMASI KO'P YILLIK YOVVOYI O'TLARI NEMATODAFAUNASINING EKOLOGO-TROFIK TARKIBI (BOBOTOG' TIZMASI MISOLIDA)

S.B.Narzullayev, PhD, dots., Samarqand davlat universiteti, Samarqand
Sh.A.Mo'minov, magistrant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Bobotog' tizmasida tarqalgan ko'p yillik yovvoyi o'simliklar va ularning rizosfera tuprog'idagi nematodafaunaning ekologo-trofik tarkibi o'rganildi. Tadqiqot davomida nematodalarning 91 turi aniqlanib, ular 5 ta asosiy ekologik guruhlarga mansubligi qayd etildi. Dominant guruhni bakteriotrof nematodalar tashkil etdi. Tadqiqot natijalari tog' ekotizimlarida nematodalar xilma-xilligi va ularning tuproq biologik jarayonlaridagi ekologik ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Bobotog' tizmasi, nematodafauna, ekologik guruhlar, bakteriotroflar, fitogelmintlar.*

Аннотация. *В данной статье исследован эколого-трофический состав нематодофауны многолетних дикорастущих растений и их ризосферной почвы, распространённых на Боботагском хребте. В ходе исследований было выявлено 91 вид нематод, относящийся к 5 основным экологическим группам. Доминирующее положение занимали бактериотрофные нематоды. Полученные результаты раскрывают разнообразие нематод в горных экосистемах и их экологическое значение в биологических процессах почвы.*

Ключевые слова: *Боботагский хребет, нематодофауна, экологические группы, бактериотрофы, фитогельминты.*

Abstract. *This article investigates the ecological and trophic composition of the nematode fauna associated with perennial wild plants and their rhizosphere soils in the Bobotog Ridge. During the study, 91 nematode species belonging to 5 major ecological groups were identified. Bacteriotrophic nematodes were found to be the dominant group. The obtained results reveal the diversity of nematodes in mountain ecosystems and highlight their ecological importance in soil biological processes.*

Keywords: *Bobotog Ridge, nematode fauna, ecological groups, bacteriotrophs, phytohelminths.*

Kirish. Nematodalar yer yuzidagi deyarli barcha biotoplarni egallay olish xususiyatiga ega [3] va tuproqda yashovchi aksariyat umurtqasiz hayvonlarga nisbatan yuqori moslashuvchanligi bilan ajralib turadi [5]. Ular deyarli barcha muhitlarda uchrab, tuproq organizmlari orasida eng ko'p o'rganilgan guruhlardan biri hisoblanadi hamda biotik ko'rsatkich sifatida keng qo'llaniladi [1, 6].

Tuproq nematodalari jamoasining ekologo-trofik xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tuproq ekotizimining funksional holatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Nematodalar turli trofik guruhlarga — fitofaglar, bakteriofaglar, mikofaglar, yirtqich va politrof shakllarga mansub bo'lib, ularning o'zaro nisbati tuproqdagi biologik muvozanatni aks ettiradi. Shu jihatdan, nematodalar jamoasining tuzilishi tuproqning sog'lomligi yoki degradatsiyaga uchraganligini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, nematodalar atrof-muhit omillariga yuqori darajada sezgirligi sababli, ular bioindikator sifatida keng qo'llaniladi. Ularning ekologo-trofik tuzilmasini tahlil qilish orqali tuproqning ifloslanish darajasi, antropogen ta'sirlar va qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlarning samaradorligini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, nematodalar tuproqdagi oziqa zanjirining muhim

спектрального состава оказывают значительное влияние на эффективность фотосинтеза, накопление биомассы, развитие волокон и формирование урожая. Среди растительных фоторецепторов фитохром B (PHYB) является ключевым сенсором красного/дальнего красного света, который опосредует восприятие светового сигнала и интегрирует сигналы окружающей среды с эндогенными путями развития. PHYB контролирует такие важные физиологические процессы, как прорастание семян, удлинение стебля, избегание затенения, синхронизация циркадных ритмов, время цветения, гормональная сигнализация и реакции на абиотический стресс.

Ключевые слова: *РНКи, PHYB, инициация, элонгация стебля, седиментация.*

Abstract. *Light is an important environmental component that regulates plant growth, development, and production due to its direct participation in photosynthesis and photomorphogenesis. In cotton (G. hirsutum L.), a highly light-demanding crop, changes in light intensity and spectral composition have a considerable impact on photosynthetic efficiency, biomass accumulation, fiber development, and yield formation. Among plant photoreceptors, phytochrome B (PHYB) is a key red/far-red light sensor that mediates light signal perception and integrates environmental cues with endogenous developmental pathways. PHYB controls essential physiological processes such as seed germination, stem elongation, shade avoidance, circadian rhythm synchronization, blooming timing, hormone signaling, and abiotic stress responses.*

Key words: *RNAi, PHYB, initiation, stem elongation, sedimentation.*

Yorug‘lik o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligini belgilovchi muhim energiya manbai hisoblanadi. Fotosintez jarayoni aynan yorug‘lik energiyasiga bog‘liq bo‘lib, o‘simliklar quyosh nurlarini kimyoviy energiyaga aylantirish orqali organik moddalarni sintezlaydi. Shu sababli yorug‘lik intensivligi, spektral tarkibi va davomiyligi o‘simliklarning fiziologik va biokimyoviy jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yorug‘liksiz fotosintez amalga oshmaydi, shuning uchun yorug‘lik o‘simliklarning avtotrof hayot tarzi va butun biosferaning asosini tashkil etadi [1].

G‘o‘za (*Gossypium spp.*) kabi iqtisodiy jihatdan muhim texnik ekinlarda yorug‘likning roli yanada dolzarb hisoblanadi. G‘o‘za yuqori yorug‘lik talab qiluvchi o‘simliklar qatoriga kiradi va uning optimal o‘sishi uchun yetarli darajada quyosh nuri zarur. Yorug‘lik yetishmovchiligi fotosintez tezligining pasayishiga, assimilyatlarning kamayishiga va natijada hosildorlikning sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi. Aksincha, optimal yorug‘lik sharoitlari o‘simlikning vegetativ va generativ rivojlanishini rag‘batlantiradi, barg yuzasining kengayishi, xlorofill miqdorining ortishi va tola sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yorug‘lik intensivligining 30% ga kamayishi g‘o‘zada fotosintez tezligini pasaytirib, uglevodlar miqdorini kamaytiradi, natijada ko’saklarni tashlash kuchayadi va paxta hosili 24%, birinchi terim ulushi 10%, bir kvadrat metrga to‘g‘ri keladigan ko‘sak soni esa 26% ga qisqaradi. Aksincha, yorug‘likni oshirish g‘o‘za o‘simligining balandligini 10–13%, paxta hosilini 23–27% va ko‘sak sonini 21–26% ga oshirishi mumkin [2, 3].

Yorug‘lik signalini qabul qilish va uni hujayra darajasida fiziologik javoblarga aylantirish jarayoni o‘simliklarda maxsus fotoretseptorlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu fotoretseptorlar orasida fitoxromlar oilasi qizil (R, ~660 nm) va uzoq-qizil (FR, ~730 nm) spektrdagi nurlarni qabul qiluvchi asosiy sensorlar hisoblanadi. Fitoxromlar o‘simliklarning rivojlanishida, ayniqsa urug‘ unishi, poya cho‘zilishi, barg morfologiyasi va gullash vaqtini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, *PHYB* geni R/FR nisbati o‘zgarishiga yuqori sezgir bo‘lib, o‘simliklarning yorug‘likka moslashuvchanligini ta’minlovchi asosiy regulyatorlardan biri hisoblanadi.

PHYB geni: tuzilishi, funktsiyasi va biologik ahamiyati

Fitoxromlar (PHY) bu yorug‘likni qabul qiluvchi fotoreseptorlar bo‘lib, o‘sish va rivojlanishni boshqarish muhim rol o’ynaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida *Arabidopsis thaliana* model o‘simligida beshta fitoxrom genlari aniqlangan bo’lib, *PHYA, PHYB, PHYC, PHYD* va *PHYE* birgalikda PHY genlar oilasini tashkil qiladi. [4]. Strukturaviy evolyutsion konservativlik saqlanib qolgan bo‘lsa-da, mazkur paralog gen nusxalari funksional diversifikatsiyaga (differensialashuvga)

uchragan. Bu esa o‘simliklarga dinamik yorug‘lik muhitiga moslashish reaksiyalarini aniq muvofiqlashtirish (regulyatsiya qilish) imkonini beradi [5, 6].

Fitoxrom gen oilasi a’zolari bir-birining vazifasini qisman bajaradi va bir-biridan fiziologik vazifasiga ko‘ra farqlanadi. *PHYA* geni asosan uzoq-qizil nurlarni qabul qilib, yorug‘lik reaksiyalariga vositachilik qiladi va uzluksiz uzoq-qizil nuri ostida deetiolatsiya uchun juda muhimdir. Aksincha, *PHYB* asosan asosiy qizil yorug‘lik retseptorlari sifatida ishlaydi va o‘simlik fotomorfogenezi, soyadan qochish, poyaning cho‘zilishi va gullash vaqtini tartibga solishda markaziy rol o‘ynaydi [7]. *PHYC, PHYD* va *PHYE* ko‘pincha *PHYB* bilan o‘zaro to‘ldiruvchi sifatida o‘zgaruvchan qizil/uzoq-qizil nisbatlar ostida yorug‘likka sezgirlik va rivojlanishga moslashuvchanlikni modulyatsiya qiladi [6].

G‘o‘zaning allotetraploid tabiati, ya’ni A va D subgenomlarining konvergatsiyasi (birlashishi) unda genlar dublikatsiyasini ta’minlagan asosiy evolyutsion omildir. Xususan, tuzilish jihatdan konservativ bo‘lgan fitooxrom genlarining funksional diversifikatsiyalashuvi *G. hirsutum* misolida yaqqol namoyon bo‘ladi: genomda *PHYB* genining ikki gomolog nusxasi — *PHYB-A* va *PHYB-D* saqlanib qolgan. Ushbu divergent nusxalar turli ajdod genomlaridan meros bo‘lib o‘tgan holda, o‘simlikning dinamik yorug‘lik muhitiga moslashish reaksiyalarini nozik muvofiqlashtirish, fotomorfogenez va ontogenez jarayonlarini aniq regulyatsiya qilishda o‘ziga xos (differensial) funksional ahamiyatga ega [8, 9]. Qiyosiy genomik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, PHY oilasi a’zolari paxtada evolyutsion ravishda saqlanib qolgan, ammo ularning ekspressiyalari to‘qimalar va rivojlanish bosqichlarida farq qilishi mumkin [10].

phyb oqsilining tuzilishi hamda qizil va uzoq-qizil nurlarni sezish

phyb oqsili taxminan 1100–1200 aminokislota qoldig‘idan iborat dimerik fotoreseptor bo‘lib, strukturaviy jihatdan ikkita asosiy funksional modulga bo‘linadi:1. N-terminal fotosensor domen (PSD): Ushbu mintaqa PAS, GAF va PHY subdomenlarini o‘z ichiga oladi hamda chiziqli tetrapirrol xromoforini (fitooxromobilin) kovalent bog‘laydi. PSD yorug‘likni idrok etish hamda nofaol (P_r) va biologik faol (P_{fr}) shakllar o‘rtasidagi fotokonversiyani ta’minlash uchun javobgardir. Bunda qizil yorug‘lik (~ 660 nm) P_r holatidan P_{fr} shakliga o‘tishni induksiyalasa, uzoq-qizil yorug‘lik (~ 730$ nm) esa teskari fotokonversiyani rag‘batlantiradi (Rockwell et al., 2006).2. C-terminal kinaza bilan bog‘liq domen (HKRD — Histidine Kinase-Related Domain): Bakterial gistidin kinazalariga strukturaviy jihatdan gomolog bo‘lsa-da, yuksak o‘simlik fitoxromlari asosan kanonik kinaza faolligini yo‘qotgan. Buning o‘rniga, mazkur domen oqsil dimerizatsiyasi, yadro translokatsiyasi va quyi kaskadli (downstream) signalizatsiya komponentlari bilan o‘zaro ta’sirini osonlashtiradi (Burgie & Vierstra, 2014). P_{fr} holatiga fotokonversiya bo‘lingandan so‘ng, *PHYB* yadroga translokatsiya qilinadi. U yerda oqsil fototanachalar (photobodies) hosil qiladi hamda maqsadli genlar ekspressiyasini modulyatsiya qilish uchun transkripsiya regulyatorlari (masalan, PIF faktorlari) bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Quyosh nuri tushmaydigan soya joydagi o‘simlikda R/FR nisbati qizil yorug‘lik nurini xlorofil yutishi tufayli pasayadi, bu *PHYB* inaktivatsiyasiga olib keladi va soyadan qochish sindromini qo‘zg‘atadi - bu poyaning cho‘zilishi, barglarning kengayishining kamayishi va gullashning tezlashishi bilan tavsiflanadi [7]. Ushbu qaytar fotokonversiya mexanizmi o‘simliklarga qo‘shni o‘simliklarni doimiy ravishda kuzatib borish va resurslarni taqsimlashni optimallashtirish imkonini beradi.

***PHYB* bilan bog‘liq asosiy signal yo‘llari**

PHYB signal transduksiyasining markaziy mexanizmi uning PIF (Phytochrome-Interacting Factors) transkripsiya omillari bilan o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. PIFlar asosiy spiral-halqa-spiral (bHLH) oilasiga tegishli va qorong‘ulikda fotomorfogenezning salbiy regulyatorlari sifatida ishlaydi. *PHYB* ning faol P_{fr} shakli to‘g‘ridan-to‘g‘ri PIF oqsillariga bog‘lanadi, ularning fosforillanishini va keyinchalik 26S proteasoma yo‘li orqali parchalanishini rag‘batlantiradi. Bu parchalanish yorug‘likka javob beruvchi genlarning repressiyasini engillashtiradi va fotomorfogen rivojlanishni boshlaydi [11]. Shunday qilib, PHYB-PIF moduli atrof-muhit yorug‘lik signallarini endogen o‘sish dasturlari bilan birlashtiruvchi transkripsiya markazi bo‘lib xizmat qiladi**.**

Endogen sutkalik ritmlarni tartibga solish

PHYB geni, shuningdek, endogen sirkadiyalik ritmning (biologik soat) funksional regulyatsiyasida ham muhim ishtirok etadi. *PHYB* fotoreseptori orqali yorug‘lik signallarining idrok etilishi sirkadiyalik osilyatorning markaziy komponentlari hisoblangan CCA1 (Circadian Clock Associated 1) va LHY (Late Elongated Hypocotyl) genlarining ekspressiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu mexanizm ichki biologik ritmlarni tashqi fotoperiodik signallar bilan sinxronizatsiya qilishni ta’minlaydi [9]. Mazkur integratsiya tufayli *PHYB* o‘simliklarda kunlik genlar ekspressiyasini (sirkadiyalik kaskadlarni), fotosintetik samaradorlikni hamda gullash vaqtini (flowering time) mantiqiy muvofiqlashtiradi.

Stressga moslashish

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, *PHYB* geni abiotik stress reaksiyalarida ishtirok etadi hamda yorug‘lik sifatini idrok etish gormonal va reaktiv kislorod turlari (ROS) signalizatsiya yo‘llari bilan kesishadi, bu o‘simliklarning issiqlik, qurg‘oqchilik va sho‘rlanish stressiga moslashishini modulyatsiya qiladi. Masalan, fitoxrom vositachiligidagi yo‘llar abssisik kislotasi (ABA) signali va termomorfogen reaksiyalar bilan bog‘langan [12]. Ushbu tadqiqotlar *PHYB* genining klassik fotomorfogenezdan tashqari kengroq biologik ahamiyatini ta’kidlaydi.

G‘o‘zada yorug‘lik signalizatsiyasi komponentlarining funksional tavsifi hozirgi kunga qadar nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, transkriptomik tadqiqotlar *PHYB* geni ekspressiyasining modulyatsiyasi gormonal signal yo‘llari (auksin va gibberellin kaskadlari), fotosintezga mas’ul genlar hamda stressga javob tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Tolaning cho‘zilishi (elongatsiyasi) va biomassa to‘planishida yorug‘lik regulyatsiyasining fundamental ahamiyatini hisobga olgan holda, RNK interferensiyasi (RNKi) vositasida *PHYB* genini ekspressiyasini bostirish global transkriptoma hamda Gen Ontologiyasi (GO) tahlillari orqali quyi kaskadli (downstream) transkripsiya tarmoqlarini aniqlashda) strategik yondashuv hisoblanadin PHYB kabi fotoreseptor genlarining funksional xarakteristikasini aniqlashda RNKi texnologiyasining samaradorligi bir nechta o‘simlik modellari misolida isbotlangan. Garchi *Arabidopsis thaliana* modelida PHYB-RNKi ga oid to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadqiqotlar ko‘lami cheklangan bo‘lsa-da, mavjud eksperimental ma’lumotlar ushbu tizim orqali fitoxrom transkriptlari darajasini samarali pasaytirish va natijada gipokotilning etiolyatsiyalashgan (cho‘zilgan) o‘ziga xos phyb fenotipik mutantlarini olish mumkinligini ko‘rsatadi [13].

Shuningdek, sholi (*Oryza sativa*) o‘simligida olib borilgan phyb mutantlari va nokdaun tadqiqotlari ushbu genning fotomorfogen reaksiyalardan tashqari, stress omillar ostida ildiz tizimining rivojlanishini nazorat qilishini namoyish etdi. Bu esa *PHYB* signalizatsiyasining rivojlanishdan keyingi (post-developmental) keng miqyosli fiziologik ahamiyatini tasdiqlaydi [14]. Sholidagi ushbu genetik o‘zgarishlar qat’iy RNKi tabiati bo‘lmasa-da, *PHYB* ekspressiyasi supressiya qilinganda kutiladigan fenotipik va morfo-biologik o‘zgarishlarni prognoz qilish imkonini beradi. Pomidor (*Solanum lycopersicum*) misolidagi fitoxrom manipulyatsiyalari ham fotomorfogenez va ontogenez reaksiyalarini modulyatsiya qilish orqali o‘sish va hosildorlik ko‘rsatkichlarini boshqarish mumkinligini isbotlagan [15].

G‘o‘zada (*G. hirsutum*) dastlabki fotoreseptor transkriptomikasi bo‘yicha olib borilgan RNKi ishlarining aksariyati *PHYB* emas, balki *PHYA1* geniga qaratilgan bo‘lsa-da, ushbu fundamental tadqiqotlar mazkur allotetraploid o‘simlikda RNKi texnologiyasining barqaror va irsiylanuvchi fenotiplarni hosil qilish imkoniyatlarini amalda ko‘rsatdi. Xususan, g‘o‘zada *PHYA1* genining RNKi vositasida nokdaun qilinishi o‘sish arxitekturasining o‘zgarishi, tola uzunligining sezilarli darajada oshishi, erta gullash va agronomik hosildorlikning ortishi kabi ijobiy korelyatsiyalarni bir necha avlod davomida barqaror saqlanishini ta’minladi [16,17].

Ushbu muvaffaqiyatli PHYA1-RNKi strategiyasidan andoza olgan holda, xuddi shunday molekulyar yondashuvni g‘o‘za genomidagi *PHYB* geniga qo‘llash, uning funksional rolini ochib berish hamda vegetativ rivojlanish va stress adaptatsiyasi tarmoqlarini integratsiya qiluvchi yorug‘lik signalizatsiya kaskadlarini maqsadli modulyatsiya qilish uchun strategik platforma yaratadi.

RNKi yoki mutatsiya orqali *PHYB* geni ekspressiyasining pasayishi *PHYB* genining yorug‘lik signali transduksiyasi va rivojlanishni boshqarishdagi roliga mos keladigan bir qator fenotipik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi:

Gipokotil cho‘zilishi va soyadan qochish:

PHYB nokautga uchrashi yoki funksiyasini yo‘qotishi odatda past qizil/uzoq qizil yorug‘lik sharoitida poya yoki gipokotil cho‘zilishining kuchayishini namoyon qiladi, bu esa soyadan qochish reaksiyalarining fitoxrom vositasida susayishini aks ettiradi. *PHYB* faolligining pasayishi o‘sishni rag‘batlantiruvchi yo‘llarning repressiyasini kamaytiradi va bu esa ko‘proq cho‘zilish imkonini beradi [18]. O‘simliklar arxitekturasi va o‘sish jarayonlari: Fitoxrom signalidagi o‘zgarishlar, jumladan, *PHYB* buzilishlari, balandlik va barg morfologiyasining o‘zgarishi kabi o‘zgartirilgan arxitekturaga olib kelishi mumkin. Fitoxrom genlariga qaratilgan RNKi liniyalari kengaygan barg maydonlarini va gipokotillar uzayganligini ko‘rsatdi, bu esa genlarning pasayishi va morfologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatdi [13].

Gullash muddatlarining fotoperiodik regulyatsiyasi: *PHYB* vositasidagi fotoreseptor gomeostazi o‘simliklarning fotoperiodik gullash reaksiyalarini shakllantirishda muhim signal kaskadini hosil qiladi. *PHYB* genining supressiyasi (funktsional faolligining yo‘qolishi) quyi kaskadli gul integratori genlarining (masalan, FT — Flowering Locus T va SOC1) transkripsion regulyatsiyasini o‘zgartiradi.

Natijada, fotomorfogenetik tadqiqotlarda isbotlanganidek, o‘simlik turi va o‘stirish sharoitidagi kun uzunligiga (fotoperiodga) bog‘liq ravishda gullash muddatlarining erta namoyon bo‘lishi yoki aksincha, kechikishi bilan bog‘liq o‘zgargan fenotiplar yuzaga keladi [19]. Bu g‘o‘za kabi qisqa kun yoki neytral kun o‘simliklarida yorug‘lik signallari orqali hosildorlik davrlarini manipulyatsiya qilishda fundamental ahamiyatga ega.

Paxta tolasi rivojlanishining gormonal va metabolik regulyatsiyasi

Paxta tolasining ontogenezi — tola shakllanishi (initsiatsiyasi), hujayra cho‘zilishi (elongatsiyasi) hamda ikkilamchi hujayra devori biosintezi (sedimentatsiyasi) bosqichlarini o‘z ichiga olgan, qat’iy muvofiqlashtirilgan murakkab hujayraviy jarayondir. Tola elongatsiyasi davridagi transkriptomik profillash ishlari sitoskelet arxitekturasi, hujayra devori modifikatsiyasi va uglevod metabolizmiga daxldor genlar kaskadining yuqori darajada ifodalanishini ko‘rsatdi [20]. Yorug‘lik signalizatsiyasi hujayra uzayishining fundamental regulyatorlari hisoblangan auksin va gibberellin gormonal yo‘llari bilan funksional kesishganligi sababli, *PHYB* genining RNKi vositasidagi modulyatsiyasi tola uzunligi va uning sifat ko‘rsatkichlariga bilvosita kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, uglevod almashinuvining fitoxrom tizimi orqali regulyatsiya qilinishi assimilyatlarning qayta taqsimlanishi va kraxmal dinamikasini boshqaradi [11]. Bu jarayon tola hujayralarining turgor bosimini hamda uzoq muddatli elongatsiyasini saqlab turish uchun g‘oyatda muhimdir. Shunday qilib, *PHYB* genining o‘zgargan funksional faolligi hujayrada uglerodning taqsimlanish (atvatsiyalanish) muvozanatini hamda ikkilamchi hujayra devorining shakllanish qalinligini transformatsiya qilishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yakuniy tola texnologik ko‘rsatkichlarining — tola mustahkamligi va mikroneir qiymatlarining ijobiy tomonga o‘zgarishini belgilab beradi.

Stress omillariga javob reaksiyalari: Garchi *PHYB* geni va abiotik stress adaptatsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri RNKi tadqiqotlari miqdori hozircha cheklangan bo‘lsa-da, sholi va boshqa model o‘simliklarda *PHYB* lokusining genetik supressiyasi (funktsional buzilishi) o‘simlikning stressga chidamlilik potensialini sezilarli darajada o‘zgartirishi isbotlangan. Xususan, ushbu o‘zgarishlar sho‘rlanish (salinity), ekstremal haroratlar (termik stress) va patogenlar infeksiyasiga (biotik stress) qarshi javob reaksiyalarida namoyon bo‘lib, fitoxrom signalizatsiya kaskadlarining o‘simliklardagi umumiy stress-regulyator tarmoqlari bilan funksional kesishishini (crosstalk) ko‘rsatadi [14].

Turli o‘simlik tizimlaridan olingan ushbu eksperimental ma’lumotlar PHYB-RNKi strategiyasi yordamida fotoreseptorning yorug‘lik, ontogenez va gomeostaz bilan bog‘liq signal yo‘llarini integratsiya qilishdagi o‘ziga xos rollarini ochib berish imkoniyatini yuqori darajada asoslaydi. G‘o‘za kabi strategik ekinlarda mazkur fundamental bilimlardan molekulyar seleksiya va zamonaviy biotexnologik yondashuvlar orqali o‘simlik arxitekturasini optimallashtirish (korreksiya qilish) hamda abiotik stresslarga chidamli "aqlli" liniyalarni yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, model o‘simliklar va g‘o‘za funksional genomikasiga oid mavjud eksperimental dalillar *PHYB* geni ekspressiyasining sustlashishi o‘simlik biologiyasining ko‘p mexanizmlariga, jumladan, vegetativ arxitektura (morfologiya), gullash muddatlari, tola differensialashuvi hamda abiotik stresslarga adaptatsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Transkripsion regulyatorlar va gormonal kaskadlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni boshqarish orqali *PHYB* reseptori tashqi muhit ssenariylari va endogen signallarni integratsiya qiluvchi hamda muvofiqlashtiruvchi markaziy regulyator vazifasini bajaradi. Hosildorlik salohiyati va tola texnologik sifati o‘simlikning ontogenetik rivojlanishi hamda abiotik stresslarga chidamliligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan g‘o‘za ekinida *PHYB* genining RNK interferensiyasi vositasidagi oqibatlarini transkriptomik darajada tushunish, kelajakda yuqori mahsuldorlik va stressga chidamli maqsadli aqlli navlarni yaratish strategiyalari uchun fundamental molekulyar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqola mualliflari ushbu ishni amalga oshirishda moliyaviy ko’mak bergani uchun O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga minnatdorlik bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Taiz, L. Zeiger, E., Moller, I.M. and Murphy, A. (2015) Plant Physiology and Development. 6th Edition, Sinauer Associates, Sunderland, CT.

2. Zhang, Y., Liao, B., Li, F. et al. Growth, leaf anatomy, and photosynthesis of cotton (Gossypium hirsutum L.) seedlings in response to four light-emitting diodes and high pressure sodium lamp. J Cotton Res 7, 8 (2024). https://doi.org/10.1186/s42397-024-00170-5

3. Wu W, Chen L, Liang R, Huang S, Li X, Huang B, Luo H, Zhang M, Wang X and Zhu H (2025) The role of light in regulating plant growth, development and sugar metabolism: a review. Front. Plant Sci. 15:1507628. doi: 10.3389/fpls.2024.1507628

4. Sharrock RA, Quail PH. Novel phytochrome sequences in Arabidopsis thaliana: structure, evolution, and differential expression of a plant regulatory photoreceptor family. Genes Dev. 1989 Nov;3(11):1745-57. doi: 10.1101/gad.3.11.1745. PMID: 2606345.

5. Rockwell NC, Su YS, Lagarias JC. Phytochrome structure and signaling mechanisms. Annu Rev Plant Biol. 2006;57:837-58. doi: 10.1146/annurev.arplant.56.032604.144208. PMID: 16669784; PMCID: PMC2664748.

6. Franklin KA, Quail PH. Phytochrome functions in Arabidopsis development. J Exp Bot. 2010;61(1):11-24. doi: 10.1093/jxb/erp304. PMID: 19815685; PMCID: PMC2800801.

7. Franklin KA. Shade avoidance. New Phytol. 2008;179(4):930-944. doi: 10.1111/j.1469-8137.2008.02507.x. Epub 2008 Jun 5. PMID: 18537892.

8. Abdurakhmonov IY, Kohel RJ, Yu JZ, Pepper AE, Abdullaev AA, Kushanov FN, Salakhutdinov IB, Buriev ZT, Saha S, Scheffler BE, Jenkins JN, Abdukarimov A. Molecular diversity and association mapping of fiber quality traits in exotic G. hirsutum L. germplasm. Genomics. 2008 Dec;92(6):478-87. doi: 10.1016/j.ygeno.2008.07.013. Epub 2008 Oct 5. PMID: 18801424.

9. Huq E, Quail PH. PIF4, a phytochrome-interacting bHLH factor, functions as a negative regulator of phytochrome B signaling in Arabidopsis. EMBO J. 2002 May 15;21(10):2441-50. doi: 10.1093/emboj/21.10.2441. PMID: 12006496; PMCID: PMC126004.

10. Zhang T, Hu Y, Jiang W, Fang L, Guan X, Chen J, Zhang J, Saski CA, Scheffler BE, Stelly DM, Hulse-Kemp AM, Wan Q, Liu B, Liu C, Wang S, Pan M, Wang Y, Wang D, Ye W, Chang L, Zhang W, Song Q, Kirkbride RC, Chen X, Dennis E, Llewellyn DJ, Peterson DG, Thaxton P, Jones DC, Wang Q, Xu X, Zhang H, Wu H, Zhou L, Mei G, Chen S, Tian Y, Xiang D, Li X, Ding J, Zuo Q, Tao L, Liu Y, Li J, Lin Y, Hui Y, Cao Z, Cai C, Zhu X, Jiang Z, Zhou B, Guo W, Li R, Chen ZJ. Sequencing of allotetraploid cotton (Gossypium hirsutum L. acc. TM-1) provides a resource for fiber improvement. Nat Biotechnol. 2015 May;33(5):531-7. doi: 10.1038/nbt.3207. Epub 2015 Apr 20. PMID: 25893781.

11. Leivar P, Quail PH. PIFs: pivotal components in a cellular signaling hub. Trends Plant Sci. 2011 Jan;16(1):19-28. doi: 10.1016/j.tplants.2010.08.003. Epub 2010 Sep 20. PMID: 20833098; PMCID: PMC3019249.

12. Jung JH, Domijan M, Klose C, Biswas S, Ezer D, Gao M, Khattak AK, Box MS, Charoensawan V, Cortijo S, Kumar M, Grant A, Locke JC, Schäfer E, Jaeger KE, Wigge PA. Phytochromes function as thermosensors in Arabidopsis. Science. 2016 Nov 18;354(6314):886-889. doi: 10.1126/science.aaf6005. Epub 2016 Oct 27. PMID: 27789797.

13. Naglaa Saud Al-Saud. The impact of phytochrome b silencing using rnai on some agronomic characters in arabidopsis thaliana. Available Online at www.journalijcar.org DOI: http://dx.doi.org/10.24327/ijcar2019.20536.4015

14. Jung JH, Li Z, Chen H, Yang S, Li D, Priatama RA, Kumar V, Xuan YH. Mutation of phytochrome B promotes resistance to sheath blight and saline-alkaline stress via increasing ammonium uptake in rice. Plant J. 2023 Jan;113(2):277-290. doi: 10.1111/tpj.16046. Epub 2022 Dec 8. PMID: 36440495.

15. Ganesan M, Lee HY, Kim JI, Song PS. Development of transgenic crops based on photo-biotechnology. Plant Cell Environ. 2017 Nov;40(11):2469-2486. doi: 10.1111/pce.12887. Epub 2017 Mar 20. PMID: 28010046.

16. Abdurakhmonov, I., Buriev, Z., Saha, S. et al. Phytochrome RNAi enhances major fibre quality and agronomic traits of the cotton Gossypium hirsutum L. Nat Commun 5, 3062 (2014). https://doi.org/10.1038/ncomms4062

17. Abdurakhmonov, I.Y., Ergashev, A.E., Otajonov, S.I. *et al.* National-scale evidence for rapid cotton yield gains under sustainable intensification in Uzbekistan. *Sci Rep* (2026). https://doi.org/10.1038/s41598-026-51320-5

18. Kai-Chun Peng, Wei Siao, Hsu-Liang Hsieh, FAR-RED INSENSITIVE 219 and phytochrome B corepress shade avoidance via modulating nuclear speckle formation, *Plant Physiology*, Volume 192, Issue 2, June 2023, Pages 1449–1465, https://doi.org/10.1093/plphys/kiad103

19. Lei Y, Ma Q, Zhang Y, Li J, Ning X, Wang Y, Ge X, Zhao H, Lin H. Functional dissection of phytochrome A in plants. Front Plant Sci. 2024 Jan 26;15:1340260. doi: 10.3389/fpls.2024.1340260. PMID: 38344182; PMCID: PMC10853449

20. Haigler CH, Betancur L, Stiff MR, Tuttle JR. Cotton fiber: a powerful single-cell model for cell wall and cellulose research. Front Plant Sci. 2012 May 21;3:104. doi: 10.3389/fpls.2012.00104. PMID: 22661979; PMCID: PMC3356883.

UDC 579.61 + 547.9 + 615.32

STUDY OF THE INHIBITORY ACTIVITY OF SECONDARY METRABOLITES OF ENDOPHYTIC FUNGI ISOLATED FROM MEDICINAL PLANTS OF UZBEKISATN IN RELATION TO PANCREATIC LIPASE

X.A. Odilova, PhD student, Institute of Microbiology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

D.M. Ruziyeva, PhD., senior researcher, Institute of Microbiology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

T.G. Gulyamova, DSc., prof, Institute of Microbiology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. *O'zbekistonning dorivor o'simliklaridan ajratib olingan endofit zamburug'larning pankreatik lipaza ingibitorlarini sintez qilish qobiliyati o'rganildi. Tadqiqot davomida 13 turdagi dorivor o'simliklardan jami 34 ta endofit zamburug' shtammi izolyatsiya qilindi. Eng ko'p izolyatlar Achillea tomentosa, Ginkgo biloba va Chelidonium majus o'simliklaridan ajratib olindi. Endofit zamburug'lar ekstraktlarining pankreatik lipazani ingibirlash faolligini skrining qilish natijasida izolyatlar orasida sezilarli tafovutlar aniqlanib, ingibirlash darajasi 3–95 % oralig'ida ekanligi qayd etildi. Aspergillus sp. TO12L shtammi eng yuqori lipazani ingibirlash faolligini namoyon etib (95 %), bu ko'rsatkich standart preparat Ksenikalning (90 %) faolligidan yuqori natijani qayd etdi. O'rganilgan izolyatlar orasida eng past IC_{50} qiymati Aspergillus flavus GB7S shtammida (108,6 mkg/ml) aniqlanib, uning eng yuqori ingibitorlik potensialiga ega ekanligini ko'rsatdi. Faol shtammlar ekstraktlarining fitokimyoviy tahlili natijasida barcha namunalar tarkibida terpenoidlar, fenolik birikmalar (taninlar) va yurak glikozidlari mavjudligi aniqlandi, flavonoidlar hamda peptidlar esa faqat ayrim shtammlarda mavjudligi kuzatildi. Olingan natijalar O'zbekiston dorivor o'simliklaridan ajratib olingan endofit zamburug'lar pankreatik lipazaning tabiiy ingibitorlarini olish uchun istiqbolli manba ekanligini hamda semizlikka qarshi biologik faol metabolitlarni izlash, ajratib olish va kimyoviy tavsiflash bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *endofit zamburug'lar, dorivor o'simliklar, pankreatik lipaza, lipaza ingibitorlari, fitokimyoviy skrining, Aspergillus, Penicillium.*

Аннотация. *Эндофитные грибы, выделенные из лекарственных растений Узбекистана, были исследованы как потенциальные продуценты ингибиторов панкреатической липазы. Всего из 13 видов лекарственных растений было выделено 34 штамма эндофитных грибов. Наибольшее количество изолятов было получено из растений Achillea tomentosa, Ginkgo biloba и Chelidonium majus. Скрининг липазоингибирующей активности выявил значительную вариабельность между изолятами: уровень ингибирования варьировал от 3 % до 95 %. Наиболее высокой ингибирующей активностью обладал штамм Aspergillus sp. TO12L (95 %), превысивший активность референтного ингибитора Xenical (90%). Наименьшее значение IC_{50} было зарегистрировано у штамма Aspergillus flavus GB7S (108,6 мкг/мл), что свидетельствует о его наиболее высокой ингибирующей способности среди исследованных изолятов. Фитохимический анализ показал наличие терпеноидов, танинов/фенольных соединений и сердечных гликозидов во всех активных изолятах, тогда как флавоноиды и*

пептиды были обнаружены только у отдельных штаммов. Полученные результаты свидетельствуют о том, что эндофитные грибы, ассоциированные с лекарственными растениями Узбекистана, являются перспективным источником природных ингибиторов панкреатической липазы и заслуживают дальнейшего изучения с целью выделения и характеристики биологически активных метаболитов, обладающих потенциальным антиожирительным действием.

Ключевые слова: *эндофитные грибы, лекарственные растения, панкреатическая липаза, ингибиторы липазы, фитохимический скрининг, Aspergillus, Penicillium.*

Abstract. *Endophytic fungi isolated from medicinal plants of Uzbekistan were evaluated as potential producers of pancreatic lipase inhibitors. A total of 34 endophytic fungus were obtained from 13 medicinal plant species, with the highest number of isolates recovered from Achillea tomentosa, Ginkgo biloba, and Chelidonium majus. Screening of lipase inhibitory activity revealed considerable variation among endophytic fungus, ranging from 3% to 95% inhibition. Aspergillus sp. TO12L exhibited the highest inhibitory activity (95%), exceeding that of the reference inhibitor Xenical (90%). The lowest IC_{50} value was recorded for Aspergillus flavus GB7S (108.6 μg/mL), indicating the strongest inhibitory potency among the tested isolates. Phytochemical analysis demonstrated the presence of terpenoids, tannins/phenolic compounds, and cardiac glycosides in all active isolates, while flavonoids and peptides were detected only in selected strains. The results suggest that endophytic fungi associated with medicinal plants of Uzbekistan represent promising sources of natural pancreatic lipase inhibitors and warrant further investigation for the isolation and characterization of bioactive metabolites with potential anti-obesity applications.*

Keywords: *endophytic fungi, medicinal plants, pancreatic lipase, lipase inhibitors, phytochemical screening, Aspergillus, Penicillium*

In recent decades, obesity has been recognized as one of the most prevalent metabolic disorders, exerting a substantial impact on public health worldwide [1]. The development of obesity is closely associated with excessive lipid intake and accumulation in the body, which increases the risk of type 2 diabetes mellitus, cardiovascular diseases, and other metabolic disorders [2]. One of the key enzymes involved in the digestion of dietary fats is pancreatic lipase, which catalyzes the hydrolysis of triglycerides into free fatty acids and monoglycerides [3]. Therefore, inhibition of the activity of this enzyme is considered an effective approach to reducing fat absorption and controlling body weight [4]. Despite the widespread use of orlistat as a pancreatic lipase inhibitor, its administration may be associated with a number of undesirable side effects, which has stimulated the search for new inhibitors of natural origin [5]. In this regard, endophytic fungi have attracted considerable attention as promising sources of bioactive compounds [6[] These microorganisms colonize the internal tissues of plants without causing any apparent harm to their host [7]. Due to their unique metabolic capabilities, endophytic fungi are able to synthesize a wide variety of secondary metabolites exhibiting a broad spectrum of biological activities, including antioxidant, antimicrobial, anti-inflammatory, and enzyme-inhibitory properties [8].

Medicinal plants of Uzbekistan represent a promising source of understudied endophytic fungi capable of producing novel bioactive compounds [9]. However, information regarding the lipase-inhibitory potential of endophytic fungi associated with the local flora remains limited, highlighting the importance and relevance of further investigations in this field [10].

The present study aimed to screen endophytic fungi isolated from medicinal plants native to Uzbekistan for the production of secondary metabolites exhibiting pancreatic lipase inhibitory activity, and to assess their biotechnological potential as promising sources of natural compounds for the development of anti-obesity agents.

Endophytic fungal strains were cultivated in liquid PDA medium at 28°C for 7 days under shaking conditions (120 rpm). After incubation, the fungal biomass was separated by centrifugation at 6000 rpm and stored at −4°C until further use.

Secondary metabolites were extracted from the biomass of endophytic fungi according to the method described by Hazalin [11]. Briefly, 5 g of fungal biomass was homogenized using a Potter

homogenizer and transferred into a conical flask containing 25 mL of ethyl acetate. The mixture was incubated on a shaker at room temperature for 24 h to facilitate extraction. Subsequently, the mixture was filtered through Whatman No. 1 filter paper, and Na_2SO_4 was added at a concentration of 40 µg/mL to remove residual water. The solvent was then evaporated to dryness using a rotary evaporator, and the residue was dissolved in 1 mL of dimethyl sulfoxide (DMSO). The resulting extract was used as a stock solution and stored at +4°C until further use.

Endophytic fungal extracts and Xenical used for comparison were dissolved in DMSO. The concentration range was 1.56–2000 µg/ml for the extracts and 0.78–1000 µg/ml for Xenical. The final reaction mixture consisted of 1750 µl of buffer solution, 200 µl of enzyme solution, and 40 µl of extract or control solution. The samples were incubated at 37°C for 5 minutes, after which 20 µl of substrate (10 mM p-nitrophenyl palmitate in acetonitrile) was added. The optical density of the reaction mixture was measured after 5 minutes at 405 nm using a UV-5100 spectrophotometer.

The percentage of pancreatic lipase inhibition was calculated using the following formula:

(A0-At)/A0x100% where:

A_0 — optical density of the enzyme control without inhibitor;

A_t — difference between the optical densities of samples with and without substrate.

Xenical was used as a positive control.

Phytochemical analysis was carried out according to the standard qualitative reaction methods described by Prabhavathi et al. [12]

A total of 34 endophytic fungal isolates were obtained from 13 species of medicinal plants collected in Uzbekistan (Table 1). The number of isolated endophytes varied depending on the plant species and the organ examined. The highest numbers of isolates were recovered from *Achillea tomentosa* (6 isolates), *Ginkgo biloba* and *Chelidonium majus* (5 isolates each), whereas only one isolate was obtained from *Vinca minor*, *Vinca erecta*, *Ocimum basilicum*, *Allium longicuspis*, and *Cuscuta* sp.

Analysis of the distribution of endophytic fungi among different plant organs revealed that the greatest number of isolates was obtained from leaves (13 isolates; 38.2%) and stems (10 isolates; 29.4%). A slightly lower number of endophytes was isolated from roots (9 isolates; 26.5%), while only two isolates (5.9%) were recovered from flowers. These findings indicate that leaves and stems represent the most favorable niches for endophytic fungal colonization among the plant organs investigated.

Table 1.

Endophytic fungi isolated from medicinal plants of Uzbekistan

No.	Plant Name (English)	Latin Name	Flower	Leaf	Stem	Root	Total Isolates
1	Aloe	*Aloe vera*	–	–	–	2	2
2	White mulberry	*Morus alba*	–	1	1	–	2
3	Dandelion	*Taraxacum officinale*	1	3	–	–	4
4	Yellow yarrow	*Achillea tomentosa*	–	1	3	2	6
5	Pink yarrow	*Achillea millefolium*	1	-	-	1	2
6	Ginkgo	*Ginkgo biloba*	–	2	3	–	5
7	Greater celandine	*Chelidonium majus*	–	1	2	2	5
8	Lesser periwinkle	*Vinca minor*	–	–	1	–	1
9	Upright periwinkle	*Vinca erecta*	–	–	–	1	1
10	Rosy periwinkle	*Vinca rosea*	–	3	–	–	3
11	Basil	*Ocimum basilicum*	–	–	–	1	1
12	Long-headed onion	*Allium longicuspis*	–	1	–	–	1
13	Dodder	*Cuscuta L*	-	1	-	-	1
Total			**2**	**13**	**10**	**9**	**34**

The observed differences in endophyte occurrence may be attributed to variations in host plant physiology, tissue chemical composition, environmental conditions, and the specific interactions between plants and their associated microorganisms.

As shown in Figure 1, the investigated endophytic fungi differed markedly in their ability to inhibit pancreatic lipase activity. The level of inhibition ranged from 3% to 95%. The highest inhibitory activity was observed for *Aspergillus* sp. TO12L, which suppressed pancreatic lipase activity by 95%. High levels of inhibition were also recorded for *Aspergillus flavus* GB7S (91%) and *Penicillium* sp. AV7R (75%). Moderate activity was exhibited by *Aspergillus* sp. AT8S (71%), whereas the lowest inhibitory activity among the highly active isolates was observed for Fusarium sp. AL135L (60%). Xenical® (orlistat), used as a positive control, inhibited pancreatic lipase activity by 90%.

Notably, the inhibitory activity of *Aspergillus* sp. TO12L exceeded that of Xenical®, indicating the considerable potential of this endophytic fungus as a producer of biologically active compounds with pancreatic lipase inhibitory properties (Figure 1).



Figure.1. Inhibitory activity of endophytic fungus

To quantitatively evaluate the inhibitory efficacy of the investigated extracts, their IC_{50} values were determined. The results showed that the IC_{50} values ranged from 108.6 to 141.4 µg/mL (Figure.2).



Figure.2. Pancreatic lipase inhibitory activity (a) and IC_{50} values (b) of the most active endophytic fungus

The lowest IC_{50} value was recorded for *Aspergillus flavus* GB7S (108.6 µg/mL), indicating the highest inhibitory potency among the investigated endophytic fungi. Similar IC_{50} values were observed for *Aspergillus* sp. AT8S (110.9 µg/mL) and the reference inhibitor Xenical (116.9 µg/mL). Higher IC_{50} values were obtained for *Aspergillus* sp. TO12L (120.6 µg/mL) and *Fusarium* sp.

AL135L (135.8 μg/mL), whereas the highest IC_{50} value was recorded for *Penicillium* sp. AV7R (141.4 μg/mL), indicating comparatively lower inhibitory potency.

Overall, the results demonstrate that the investigated endophytic fungi possess considerable potential as sources of pancreatic lipase inhibitors. Particular attention should be given to *Aspergillus flavus* GB7S and *Aspergillus* sp. TO12L, which exhibited a combination of high inhibitory activity and low IC_{50} values, comparable to or exceeding the effectiveness of the standard inhibitor Xenical®.

Phytochemical screening of the endophytic fungal extracts revealed the presence of various groups of biologically active secondary metabolites (Table 2). Terpenoids, tannins/phenolic compounds, and cardiac glycosides were detected in all investigated isolates (AT8S, AV7R, TO12L, AL135L, and GB7S), indicating the widespread occurrence of these metabolites among the studied endophytic fungi.

Table 2.

Phytochemical Analysis endophytic fungus

Phytochemical Compounds	**AT8S**	**AV7R**	**TO12L**	**AL135L**	**GB7S**	**AT8S**
Terpenoids	+	+	+	+	+	+
Tannins, Phenols	+	+	+	+	+	+
Saponins	–	–	–	–	–	–
Cardiac glycosides	+	+	+	+	+	+
Alkaloids	–	–	–	–	–	–
Flavonoids	–	–	–	+	+	–
Peptides	–	+	–	+	–	–
Anthraquinones	–	–	–	–	–	–

Legend: "+" - indicates the presence of a substance,

Flavonoids were detected only in the extracts of *Fusarium* sp. AL135L and *Aspergillus flavus* GB7S, whereas peptides were found exclusively in *Penicillium* sp. AV7R and *Fusarium* sp. AL135L. In contrast, saponins, alkaloids, and anthraquinones were not detected in any of the investigated isolates.

The obtained results suggest that the studied endophytic fungi are promising producers of biologically active compounds. Phenolic compounds, tannins, and terpenoids are known to interact with digestive enzymes and inhibit their activity. Therefore, the pronounced inhibitory activity of the fungal extracts against pancreatic lipase may be associated with the presence of these groups of secondary metabolites. This assumption is particularly relevant for *Aspergillus flavus* GB7S, *Aspergillus* sp. TO12L, and *Penicillium* sp. AV7R, which exhibited the strongest anti-lipase activity among the investigated isolates.

In conclusion, the results of the phytochemical analysis confirm that endophytic fungi isolated from medicinal plants of Uzbekistan represent a potential source of natural pancreatic lipase inhibitors. These findings warrant further investigations aimed at the isolation, purification, and structural identification of the individual bioactive compounds responsible for the observed inhibitory activity.

REFERENCES:

1. Blüher M. Obesity: global epidemiology and pathogenesis. *Nat Rev Endocrinol*. 2019;15(5):288–298. doi:10.1038/s41574-019-0176-8.

2. Valenzuela PL, Carrera-Bastos P, Castillo-García A, Lieberman DE, Santos-Lozano A, Lucia A. Obesity and the risk of cardiometabolic diseases. *Nat Rev Cardiol*. 2023;20(7):475–494. doi:10.1038/s41569-023-00847-5.

3. Birari RB, Bhutani KK. Pancreatic lipase inhibitors from natural sources: unexplored potential. *Drug Discov Today*. 2007;12(19–20):879–889. doi:10.1016/j.drudis.2007.07.024.

4. Lowe ME. The triglyceride lipases of the pancreas. *J Lipid Res*. 2002;43(12):2007–2016. doi:10.1194/jlr.R200012-JLR200.

5. Ballinger A. Orlistat in the treatment of obesity. *Expert Opin Pharmacother*. 2000;1(4):841–847. doi:10.1517/14656566.1.4.841.

6. Strobel G, Daisy B. Bioprospecting for microbial endophytes and their natural products. *Microbiol Mol Biol Rev*. 2003;67(4):491–502. doi:10.1128/MMBR.67.4.491-502.2003.

7. Aly AH, Debbab A, Proksch P. Fungal endophytes from higher plants: a prolific source of phytochemicals and other bioactive natural products. *Fungal Divers*. 2011;41:1–16. doi:10.1007/s13225-010-0034-4.

8. Strobel G, Daisy B. Bioprospecting for microbial endophytes and their natural products. *Microbiol Mol Biol Rev*. 2003;67(4):491–502. doi:10.1128/MMBR.67.4.491-502.2003.

9. Aly AH, Debbab A, Proksch P. Fungal endophytes from higher plants: a prolific source of phytochemicals and other bioactive natural products. *Fungal Divers*. 2011;41:1–16. doi:10.1007/s13225-010-0034-4.

10. Deshmukh SK, Gupta MK, Prakash V, Saxena S. Fungal endophytes: a potential source of bioactive compounds. *Front Microbiol*. 2018;9:3329. doi:10.3389/fmicb.2018.03329.

11. Hazalin NA, Ramasamy K, Lim SM, Wahab IA, Cole AL, Abdul Majeed AB. Cytotoxic and antibacterial activities of endophytic fungi isolated from plants at the National Park, Pahang, Malaysia. BMC Complement. Altern Med 2009; 9:46.

12. Prabhavathi RM, Prasad MP, Jayaramu M. Studies on qualitative and quantitative phytochemical analysis of *Cissus quadrangularis*. *Adv Appl Sci Res*. 2016;7(4):11–17.

UO'K 591.524.2

XORAZM VOHASI SHO'R TUPROQLARNING ENTOMOFAUNASI, ZICHLIGI VA ULARNING FAOLIYATIGA OMILLARNING TA'SIRI

D.M.Qabulova, mustaqil uzlanuvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch
M.R.Aminov, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
I.I.Abdullaev, b.f.d., prof., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismi, Xorazm vohasi sho'r tuproqlar entomofaunasining biologik xilma-xilligini baholashga va inventarizatsiya qilishga qaratilgan. Tadqiqot hududlari o'simliklarning tarqalishi va tuproq sho'rligiga qarab ikkita transektaga ajratilgan. Ushbu sho'rlangan Xorazm vohasi hududidan 6 turkum, 8 oila, 12 avlodga mansub 15 tur, jami 528 ta hasharot aniqlangan. Tuproqning keskin ishqoriylashishi (pH>8.5-9.0), sho'rlanish va kislorod yetishmasligi bilan birgalikda tuproq hasharotlarining ommaviy o'limiga olib keladigan ekstremal sharoitlarni yaratishi tasdiqlandi.*

Kalit so'zlar: *transekta, ekotizim, relyef, strelizatsiya, degradatsiya, fauna, konsentratsiya, statsiya, Berles-Tullgren apparati, eksgauster, aeratsiya, pH qiymat, anaerob.*

Аннотация. *В данной статье представлены оценить и провести инвентаризацию биоразнообразия энтомофауны засоленных почв Хорезмского оазиса, расположенного в северо-западной части Узбекистана. Исследуемые участки были разделены на две трансекта в зависимости от распространения растений и засоленности почвы. В этом засоленном оазисе Хорезма было обнаружено в общей сложности 528 насекомых, принадлежащих к 15 видам, входящим в 6 отрядов, 8 семейств и 12 родов. Было подтверждено, что резкое ощелачивание почвы (pH>8,5-9,0) в сочетании с засоленностью и дефицитом кислорода создают экстремальные условия, приводящие к массовой гибели почвенных насекомых.*

Ключевые слова: *трансекта, экосистема, рельеф, стерилизация, деградация, фауна, концентрация, станция, аппарат Берлеса-Туллгрена, вытяжной вентилятор, аэрация, значение pH, анаэробный.*

Abstract. *This article presents an assessment and inventory of the insect biodiversity of saline soils in the Khorezm Oasis, located in northwestern Uzbekistan. The study sites were divided into two transects based on plant distribution and soil salinity. A total of 528 insects, belonging to 15 species belonging to 6 orders, 8 families, and 12 genera, have been identified in this saline Khorezm oasis. It was confirmed that severe alkalization of the soil (pH>8.5-9.0), combined with salinity and oxygen deficiency, create extreme conditions leading to the mass mortality of soil insects.*

Key words: *transect, ecosystem, relief, sterilization, degradation, fauna, concentration, station, Berles-Tullgren apparatus, exhaust fan, aeration, pH value, anaerobic.*

Mavzuning dolzarbligi. Hasharotlar tur jihatdan yer yuzidagi eng xilma xil organizmlar bo'lib, mavjud tirik organizm turlarining taxminan yarmini va barcha ma'lum hayvonlarning taxminan to'rtdan uch qismini tashkil qiladi [3]. Ma'lumotlarga ko'ra, hasharotlarning aksariyati quruqlikda, qolgan qismi suv va boshqa joylarda yashashi bilan boshqa organizmlardan farq qiladi. Ular deyarli barcha ekotizimlarda; botqoqliklarda, o'rmonlarda, cho'llarda, hatto sho'r joylarda yashashi mumkin, chunki ularning omon qolish ehtimoli eng yuqori va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati yuqori bo'lishligi bilan ifodalanadi [5].

O’zbekistonning shimoli-g’arbiy qismi o'zining noyob geografik joylashuvi, xilma-xil relyefi va iqlimi bilan ajralib turadi. O'simlik va hayvonot dunyosining (hasharotlar) xilma-xilligi bilan xam muhim ahamiyatga ega [2]. Xorazm vohasining tuproqlarining eng xarakterli turi – bu sug’orma yerlardan tashqari turli darajada sho'rlanishning mavjudligi. Tuproqlari shudgorlanmasa yoki bir necha marta yuvilmasa sho’rlanish darajasi oshib ketishi qayd qilinadi [1, 4]. Ushbu xususiyat tuproq faunasini kamayishiga keyinchalik tuproq strelizatsiyasiga, tuproqning degradatsiyaga uchrashiga olib keladi. Ba’zi hududlarda yer osti suvi va yuqori tuz konsentratsiyasi tufayli o'simliklardan mahrum bo'lgan sho'r tuproqli hududlarni xam ko’rish mumkin [4].

O'simlik jamoalarining xilma-xilligi, va ularning zichligi, ko’p sonli hayvonlarni saqlashdagi roli va quruq mavsumda to'planadigan suv qushlarining migratsiyasi, shuningdek, noyob hasharot turlari tufayli degradatsiyaga uchragan hududlar qayta tiklanishi mumkin [1, 4]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning asosiy maqsadimiz O’zbekistonning shimoli-g’arbiy qismi Xorazm vohasi hududidagi sho’rlangan tuproqlarning hasharotlar xilma-xilligini (tur tarkibi, ko'pligi, hasharotlar zichligi) va o'simlik qoplamini o'rganish, hasharotlar jamoasining tuzilishi va atrof-muhit omillari (ba'zi tuproq omillari va o'simliklar) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat.

Materiallar va usullar. *Tadqiqot hududining tavsifi.* Xorazm vohasi - Amudaryoning quyi qismida, Qoraqalpog‘istonning janubiy g‘arbiy qismi hamda Turkmaniston Toshhovuz viloyatining shimoliy sharqiy qismida, geografik o‘rniga ko‘ra 40°-31° va 42° shimoliy kengliklar 60°-62° sharqiy uzunliklar oralig‘ida joylashgan. Xorazm vohasining umumiy maydoni 21 687,5 gektarni tashkil etadi [1, 2]. Tadqiqot hududlari sifatida o'simliklarning tarqalishi va tuproq sho'rligiga qarab ikkita transektaga (o’rtacha sho’rlangan (st1) va kuchli sho’rlangan (st2)) ajratildi. Usbu transektlarda hashoratlarning tur tarkibi, zichligi o’rganildi [6].

Namuna yig'ish. Hasharotlar 2025-yil mart oyidan 2026-yil iyul oyigacha har oyda belgilangan hududlarda halofit o'simlik statsiyalarida yig'ib olindi [3, 6]. Har bir stansiya uchun uchta transekt belgilab olindi. Hasharotlar har oyning bitta haftasida mahalliy vaqt bilan soat 7:00 dan 12:00 gacha va kechqurun 18: 00 dan 21:00 gacha hasharot tutqich to'ri, tuzoq, qo'lda yig'ish va qoqib-supurish to'ri orqali yig'ib olindi. To'plangan hasharotlar, 70% spirtda saqlangan holda, har bir namunaga namunalar olingan sana va vaqt hamda yig'ish joyi qayd etildi. Hasharotlar sterioskop mikroskopi yordamida aniqlandi va identifikatsiya turli xil tana qismlarining morfologik xususiyatlari asosida amalga oshirild (1-rasm).



1-rasm. Hasharotlarni yig’ish usullari

A.Энтомологик тутқич, B.Berles-Tullgren apparati, C.Eksgauster

Natijalar. Xorazmning sho’rlangan ikkita transektida o’rtacha sho’rlangan (st1) va kuchli sho’rlangan (st2)) hashoratlar faunasini o’rganish bilan bog’liq tadqiqotlarimizda hududlardan dastlabki ma’lumotlar bo’yicha, jami 6 ta turkum, 8 ta oila, 12 ta avlod va 15 turga mansub 528 ta hasharot yig’ildi (2-rasm).



2-rasm. Sho’rlanmgan tuproq entomofaunasi (sonda)

Jumladan Coleoptera (2 ta oila, 4 avlod, 6 ta tur), Diptera (1 ta oila, 1 avlod, 1 tur), Hemiptera (1 ta oila, 2 avlod, 2 tur), Hymenoptera (2 ta oila, 3 avlod, 4 ta tur), Lepidoptera (1 ta oila, 1 avlod, 1 tur) va Orthoptera (1 ta oila, 1 avlod, 1 tur) 2014-yil noyabrdan 2015-yil sentyabrgacha Xorazm vohasining kuchli sho’rlangan ikkita stansiyasidan to'plandi (2-rasm). Umumiy turlarning xilma-xilligi va ko'pligi shuni ko'rsatdiki, Coleoptera turkumidagi hasharotlar eng ko'p (6 ta tur umumiy turlarning 40% ni tashkil qiladi) va Hymenoptera (4 ta tur 26,6%), Hemiptera (2 ta tur 13,3%), eng kam Diptera, Lepidoptera va Orthoptera (1 ta turdan 6,7%, jami 20,1%) uchraydi (3-rasm).



3-rasm. Sho’rlanmgan tuproq entomofaunasi tur tarkibi (foizda)

Ushbu tadqiqot davomida ikkita transektadagi hasharotlar taqqoslandi. Individlar soni bo'yicha eng ko'p turlar St1 da (487 hashorat), eng kam turlar St2 da (41 hashorat) qayd etilgan. Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida aniqlangan turlarning faoliyatiga tashqi omillarning ta’sirini o’rganishga xarakat qildik. Bunda asosan sho’rlanishning me’yoridan oshishi, kislotalik, anaerob sharoitning vujudga kelishi va boshqa omillar ta’siri aniqlandi.

Natijalar muhokamasi. Yuqori darajada sho'rlangan tuproqlarda hasharotlarning umumiy xilma-xilligi odatda sho'r bo'lmagan tuproqlarga qaraganda pastroq bo'lishi o’rganildi. Tadqiqotlarimizda ba’zi bir Coleoptera turkumiga mansub turlar bunday ekstremal sharoitlarda omon qolganligiga guvoh bo’ldik. Ularning omon qolishi galofit o'simliklar yoki to'g'ridan-to'g'ri sho'rlangan yer osti suvlari bilan bog'liq bo'lishi asoslandi. Sho'r tuproqlarda o'tkazilgan tadqiqotlarimiz ko'pincha individual sonlar bo'yicha Coleopteralarning (qattiq qanotli qo’ng’izlar) ustunligini ko'rsatdi. Biroq, oilalarning xilma-xilligi boshqa ekotizimlarga qaraganda pastroq bo'lishi mumkinligi qayd etildi. Tadqiqotlarimizda hasharotlarning sho'r tuproqlarda tarqalishiga shorlanish darajasi, tuzlarning kimyoviy tarkibi, tuproqning pH qiymati kabi omillar ta'sir qilishi o’rganildi.

Shorlanish darajasi. Tuproq eritmasida yuqori tuz konsentratsiyasi osmotik bosimni hosil qiladi, bu esa hasharotlarning suv almashinuvini buzadi.

Tuproq tuzlari (asosan ishqoriy tuzlar - karbonatlar, bikarbonatlar va natriy tuzlari) pH ning keskin oshishi (pH 8,5-9,0 dan yuqori) tuproqdagi hasharotlar sonini keskin kamaytiradi. Bu suvsizlanish, fermentlarning disfunktsiyasi va boshqa fiziologik jarayonlarning buzilishiga, hasharotlarni nobud bo'lishiga olib kelishi aniqlandi. Bundan tashqari, ortiqcha tuzlar tuproq mikroflorasi va faunasini bostiradi. Ko'pgina hasharotlar tuproq hosil bo'lishida va ozuqa moddalarining aylanishida muhim rol o'ynaganligi sababli, ularning o'limi bu jarayonlarni buzadi. Ushbu pH darajasida tuproq eritmasidagi natriy ionlarining konsentratsiyasi keskin oshadi. Natriy hasharot hujayralarining normal ishlashini, fermentlarni nativ holatini buzadi va suvsizlanish hamda toksik zaharlanishga olib keladi. Bundan tashqari, yuqori ishqoriy muhitda tuproqning fizik xususiyatlari yomonlashadi, tuzilishini yo'qotadi, zichlashadi, suv va havo uchun yomon o'tkazuvchan bo'ladi, bu esa hasharotlarni kislorod va mos yashash joylaridan mahrum qiladi. Ortiqcha eriydigan tuzlar (xloridlar, natriy sulfatlar, magniy) osmotik stressni keltirib chiqaradi. Xloridlar yoki sulfatlarning ustunligi organizmlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Sho'rlangan muhitlarda pH ko'pincha neytraldan ishqoriygacha o'zgaradi.

Tuproqning fizik xususiyatlarida zichlik, g'ovaklik va boshqa xususiyatlar ham hasharotlar jamoalarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Anaerob sharoitlarda (masalan, zich, botqoqlangan tuproqlarda) suv bosishi yoki yomon aeratsiya sodir bo'lganda, anaerob nafas olish sodir bo'ladi, bu esa tuproq faunasini ham bostiradigan zaharli kamaytirilgan birikmalarning to'planishiga olib keladi.

Xulosa. O'zbekistonning shimoli-g'arbidagi (Xorazm vohasi) sho'r tuproqlarida entomofaunaning biologik xilma-xilligi o'rganildi. 6 turkum, 8 oila, 12 avlodga mansub 15 tur, jami 528 tadan ortiq hasharot to'plandi. Bunda sho'r tuproqlarda hasharotlar xilma-xilligi kamligi kuzatildi. Sho'r tuproqlarning entomofaunasi mavjudligi tuproq tuzi konsentratsiyasi yuqori bo'lgan sharoitlarda rivojlanadigan hasharotlar jamoasi ekanligini isbotladi. Ularning mavjudligi noyob muhitni yaratadi, bu yerga faqat bir nechta turlar – halobiont hasharotlar (tuzni sevuvchi organizmlar) moslashishini ta'minlashini aks ettirdi. Shunday qilib, sho'rlangan tuproqlarda hasharotlar sonining keskin kamayishi murakkab ta'sirlarning natijasi bo'lib, yuqori tuz konsentratsiyasining bevosita toksik ta'siri, atrof-muhitning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi, mikrobial jamoalarning buzilishi va mezbon o'simliklar uchun sharoitlarning yomonlashishiga olib keladi. Tuproqning keskin ishqoriylashishi (pH > 8.5–9.0), sho'rlanish va kislorod yetishmasligi bilan birgalikda tuproq hasharotlarining ommaviy nobud bo'lishiga olib keladigan ekstremal sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аллабергенов Т.Х. Природные условия Хорезмского оазиса и его районирование. Ташкент: Ўқитувчи, 1976. - 145 с.

2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - 264 б.

3. Öztemiz S, Do ğ anlar M. Invasive plant pests (Insecta and Acarina) of Turkey. Munis Entomology & Zoology. 2015; 10(1):144-159.

4. Ro'zmetov D.R., Abdullaev A.G., Matsaidova S.X., Matchanova A.E. Xorazm geografiyasi. Darslik. Durdona nashriyoti, Buxora-2026. 318-bet.

5. Westfall Jr MJ, Tennessen KJ. Odonata. An introduction to the aquatic insects of North America.1996; 3:164-211.

6. Zinchenko TD, Golovatyuk LV. Salinity tolerance of macroinvertebrates in stream waters. Arid ecosystems. 2013; 3(3):113-121.

UO'K 574.3:595.732.1

XORAZM VOHASI TO'QAY TUPROQ ENTOMOFAUNASI, TUR TARKIBI (URGANCH VA YANGIBOZOR MILLIY TABIAT BOG'I MISOLIDA)

B.O.Aminboyeva, mustaqil uzlanuvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch
A.I.Iskandarov, doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
I.I.Abdullaev, b.f.d., prof., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm viloyati Urganch va Yangibozor tumani Milliy tabiat bog'i tuproqlarida uchrovchi Coleoptera, Hemiptera va Lepidoptera turkumlariga mansub 29 tur*

hasharot va ularning lichinkalari 3 tasi yirtqich, 1 tasi polifag, 25 tasi rizofag ekanligi asoslangan. Aniqlangan turlarning oila bo'yicha taqsimotiga ko'ra, Carabidae oilasiga mansub 4 ta tur, Cerambycidae - 4, Chrysomelidae - 3, Curculionidae - 3, Tenebrionidae – 2, Hemiptera turkumidan Aphididae - 2, Cicadellidae - 1, Cicadidae - 2, Pentatomidae - 2 va Lepidoptera turkumidan Brachodidae - 1, Cossidae 2 , Noctuidae - 2, Tortricidae – 1 tur uchrashi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *trofik oziqlanish, Berles apparati, GBIF, entomofauna, psammobiont, geofil, geoksen, geobiont, rizofag, yirtqich, polifag.*

Аннотация. *Данная статья основана на том факте, что в почвах Национального природного парка Ургенчского и Янгибазарского районов Хорезмской области обнаружено 29 видов насекомых, относящихся к отрядам Coleoptera, Hemiptera и Lepidoptera, и их личинки, из которых 3 являются хищными, 1 – полифагом и 25 – ризофагами. По распределению идентифицированных видов по семействам, было выявлено 4 вида, принадлежащих к семейству Carabidae, Cerambycidae – 4, Chrysomelidae – 3, Curculionidae – 3, Tenebrionidae – 2, из отряда Hemiptera – Aphididae – 2, Cicadellidae – 1, Cicadidae – 2, Pentatomidae – 2, а из отряда Lepidoptera – Brachodidae – 1, Cossidae – 2, Noctuidae – 2, Tortricidae – 1 вид.*

Ключевые слова: *трофическое питание, аппарат Берлеса, GBIF, энтомофауна, псаммобионт, геофил, геоксен, геобионт, ризофаг, хищник, полифаг.*

Abstract. *This article is based on the fact that 29 species of insects belonging to the orders Coleoptera, Hemiptera and Lepidoptera and their larvae, 3 of which are predatory, 1 is polyphagous, and 25 are rhizophagous, occur in the soils of the National Nature Park of Urgench and Yangibazar districts of Khorezm region. According to the distribution of the identified species by family, 4 species belonging to the family Carabidae, Cerambycidae - 4, Chrysomelidae - 3, Curculionidae - 3, Tenebrionidae - 2, from the order Hemiptera Aphididae - 2, Cicadellidae - 1, Cicadidae - 2, Pentatomidae - 2 and from the order Lepidoptera Brachodidae - 1, Cossidae 2 , Noctuidae - 2, Tortricidae - 1 species were found.*

Key words: *trophic nutrition, Berles apparatus, GBIF, entomofauna, psammobiont, geophile, geoxene, geobiont, rhizophagus, predator, polyphagous.*

Mavzuning dolzarbligi. To'qay o'rmonlarining hasharotlari (daryo bo'ylarida joylashgan o'rmonlar; Treshkin va boshqalar, 1998) nisbatan yuqori boyligi va xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi [6; 43-53-c.]. So'nggi yillarda sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyati, urbanlashuvning jadallashi natijasida Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolar hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning suv sathining keskin kamayishi, qurg'ochilikning kengayishi to'qay o'rmonlari maydonlarining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi [1; 145-c.]. O'tgan asrda to'qaylarning noqonuniy ravishda kesilishi, vaqtinchalik qishloq xo'jaligi yerlari uchun yoqib yuborilishi, ikkilamchi sho'rlanish, cho'llanish va tuproq eroziyasiga olib keldi va oxir-oqibat bu yerlarning to'liq degradatsiyasiga uchrashiga sabab bo'ldi [2; 264-б.]. Bularning barchasi to'qay ekotizimlarida yashovchi noyob o'simlik va hayvonot jamoalarining yo'q qilinishi bilan birga sodir bo'ldi.

Ko'pgina turlarning tarqalish doirasi halokatli ravishda qisqargan, boshqalari esa yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, Xorazm viloyatining Amudaryo sohillaridagi tuproq faunasi xilma xilligi fojiali bo'lib, u yerda daraxtlar uchun zararli hasharotlarning araeali kengayishiga sabab bo'lmoqda, suv tanqisligi tufayli foydali hasharotlarning xilma xilligi yo'q bo'lib ketmoqda [4; 45-b.]. Bu holat stenobiont hasharotlar turlariga, xususan, *Populus pruinosa* Schrenk va *Populus euphratica* daraxt turlari bilan trofik bog'langan Lepidopteralarga eng ko'p ta'sir ko'rsatdi. Shularni inobatga olga holda Xorazm viloyati to'qay tuproq entomofaunasini o'rganis, tahlil qilish va monitoring qilib borish bugungi kunning eng asosiy dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Materiallar va usullar. Dala tuproq-zoologik tadqiqotlar 2024-2025 yillarda Xorazm viloyatining Milliy tabiyat bog'i va o'rmonchilik xo'jaligiga qarashli Yangibozor va Urganch tumanlarida olib borildi (1va 2-rasmlar).



1-rasm. Xorazm Milliy tabiat bog’i (Yangibozor tumani)



2-rasm. Xorazm Milliy tabiat bog’i (Urganch tumani)

Tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi o'rganilayotgan tuproq hasharotlarining ko'pligini aniqlash va ularning tarqalish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Tuproq hasharotlarini ro'yxatga olish usullari to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita asosida amalga oshirildi. Tadqiqotlar yilning turli fasllarida (nam va quruq mavsumda) nam va quruq joylarda 0,25 m^2 (50x50 sm) o'lchamdagi tuproqlardan namunalar olindi [3; 20-c.]. Namunalar tuproq hasharotlarining paydo bo'lish chegarasining pastki qismigacha (0-50 sm gacha chuqurlikdagi qatlam) olindi. Belgilangan chegaralari ichidagi bionamunalar oq rangli materialda saralanadi va unda topilgan barcha hasharotlar hisobga olindi. Miqdoriy yig‘ish va tuproqdan namunalarni olish umumiy qabul qilingan Raw va Ermalov uslublari asosida [5; 389-404-p.] qazish, qo‘lda saralash va tirik holdagi hasharotlar, ayniqsa ularning lichinkalari Berles apparati asosida amalga oshirildi. (3-rasm).

3-rasm. Tuproq qatlamidan namuna olish uslublari (orginal va chizma)

Tuproq qatlamlaridan biologik namunalar olishda manbaning (tuproq) tarkibiga e’tibor qaratildi. Namunani yig‘ish va tahlil qilish 2-rasmda ko‘rsatilgan elakli voronka, uning ustida isitish lampasi va voronka ostida formalinli idishga yig‘ish asosida amalga oshirildi. Tadqiqotlar davomida yig’ilgan hasharotlar 70% li spirtda saqlanib borildi va ushlangan turlar Xorazm Ma’mun akademiyasi laboratoriyasida identifikatsiya qilindi. Turlarni aniqlashda Global biologik xilma-xillik ma'lumotlar bazasi (GBIF) kabi kataloglarda keltirilgan aniqlagichlardan foydalanildi [7; 8].

Natijalar. Tadfqiqotlarimizda to'qayning asosiy o’simliklari hisoblangan *Elaeagnus* turkumiga mansub daraxtlarda zararkunanda hisoblangan *Xylotrechus grumi* Semenov, 1889 hashorati uchrashi qayd qilindi. Shuningdek fitofaglar bilan bir qatorda ko'plab yirtqich qo'ng'izlar ham aniqlandi, ular orasida Markaziy Osiyoga xos bo'lgan endemiklar, masalan, *Cicindela songorica* Motschulsky, 1845,

Cicindela littoralis Fabricius, 1787, *Panagaeus relictus* Semenov & Bogachev, 1938, *Chlaenius dimidiatus* Chaudoir, 1842 va *Brachinus bayardi* Dejean, 1831 aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlarimizda Yangibozor va Urganch tumanidagi Milliy tabiat bog'iga qarashli hududlarda Coleoptera (Carabidae, Cerambycidae, Chrysomelidae, Curculionidae, Tenebrionidae oilasi), Hemiptera (Aphididae, Cicadellidae, Cicadidae, Pentatomidae oilasi), Lepidoptera (Brachodidae, Cossidae, Noctuidae, Tortricidae oilasi) turkumiga mansub 29 tur uchrashi qayd qilindi (1-jadval).

1-jadval

To'qay tuproq entomofaunasi, tur tarkibi (Xorazm viloyati, Yangibozor va Urganch tumani Milliy tabiat bog'i misolida, 2024-2025 yillar)

№	Hasharot turi	Tuproq usti	Tuproq osti	Trofik aloqasi	Turmush tarzi
1	2	3	4	5	6
QATTIQQANOTLILAR YOKI QO'NG'IZLAR (COLEOPTERA) TURKUMI					
Carabidae Latreille, 1802 oilasi					
	Amara fedtschenkoi Tschitscherine, 1898	♦*	♦*	Rizofag	Psammobiont
	Cicindela littoralis Fabricius, 1787	▼♦*	●	Yirtqich	Geofil
	Cicindela songorica Motschulsky, 1845	▼♦*	●	Yirtqich	Geofil
	Panagaeus relictus Semenov & Bogach, 1938	♦*	♦*	Yirtqich	Psammobiont
Cerambycidae Latreille, 1802 oilasi					
	Xylotrechus grumi Semenov, 1889	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Prionus turkestanicus Semenov, 1888	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Prionus brachypterus Lameere, 1913	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Turcmenigena varentzovi Villiers, 1967	*	♦	Rizofag	Psammobiont
Chrysomelidae Latreille, 1802 oilasi					
	Adoxinia spinipes (Reitter, 1890)	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Chrysochares asiaticus (Pallas, 1771)	▼♦●	*	Rizofag	Geoksen
	Chrysolina sacarum (Weise, 1890)	▼♦●	*	Rizofag	Geoksen
Curculionidae Latreille, 1802 oilasi					
	Chromonotus confluens (Fahaeus, 1842)	*	♦	Rizofag	Geoksen
	Corigetus exquisitus (Faust, 1881)	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Cyphocleonus tigrinus (Panzer, 1789)	*	♦	Rizofag	Psammobiont
Tenebrionidae Latreille, 1802 oilasi					
	Penthicus rufescens (Mulsant & Rey, 1859)	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Penthicus semenovi	*	♦*	Rizofag	Psammobiont
HEMIPTERA YARIMQATTIQQANOTLILAR YOKI QANDALALAR TURKUMI					
Aphididae Latreille, 1802 oilasi					
	Brachycaudus cardui Linnaeus, 1758	*	▼♦*	Rizofag	Geobiont
	Brachycaudus helichrysi Kaltenbach, 1843	*	▼♦*	Rizofag	Geobiont
Cicadellidae Latreille, 1825 oilasi					
	Goniognathus palliatus (Lethierry, 1887)	▼*	♦	Rizofag	Psammobiont
Cicadidae Latreille, 1802oilasi					
	Cicadatra querula (Pallas, 1773)	▼*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Cicadetta sinautipennis (Oshanin, 1906)	▼*	♦	Rizofag	Geobiont
Pentatomidae Leach, 1815 oilasi					
	Carpocoris purpureipennis (DeGeer, 1773)	♦*	♦*	Polifag	Psammobiont
	Dolycoris penicillatus Horvath, 1904	▼*	♦	Rizofag	Psammobiont
LEPIDOPTERA TANGAQANOTLILAR YOKI KAPALAKLAR TURKUMI					
Brachodidae Agenjo, 1966 oilasi					
	Atychia arenosa Zagulajev, 1979	*	♦●	Rizofag	Psammobiont
Cossidae Leach, 1815 oilasi					
	Holcocerus arenicola Staudinger, 1879	*	♦●	Rizofag	Psammobiont
	Holcocerus campicola Eversmann, 1854	*	▼♦●	Rizofag	Psammobiont
Noctuidae Latreille, 1809 oilasi					
	Athetis albino (Eversmann, 1854).	*	♦	Rizofag	Psammobiont
	Parexarnis sollers Christoph, 1877	*	♦	Rizofag	Psammobiont
Tortricidae Latreille, 1803 oilasi					
	Hysterosia subfumida Falkovitsh, 1963	*	♦	Rizofag	Psammobiont

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, aniqlangan 29 turdan 3 tasi yirtqich, 1 tasi polifag, 25 tasi rizofag ekanligi aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. Turlarning trofik guruhlari bo'yicha taqsimoti

Aniqlangan turlarning oila bo'yicha taqsimoti va uchrash ehtimolligi o'rganilganda, eng ko'p turlar Coleoptera (Carabidae - 4, Cerambycidae - 4, Chrysomelidae - 3, Curculionidae - 3, Tenebrionidae - 2) turkumiga 16 ta tur to'g'ri kelishi, keyingi o'rinda Hemiptera (Aphididae - 2, Cicadellidae - 1, Cicadidae - 2, Pentatomidae - 2) turkumiga ta'lluqli bo'lib 7 ta turni, tashkil qilgan bo'lsa, so'ngi o'rinda Lepidoptera (Brachodidae - 1, Cossidae 2 , Noctuidae - 2, Tortricidae - 1) turkumiga mos 6 ta tur qayd qilindi (5-rasm).



5-rasm. Tuproq entomofaunasi tur tarkibi
(Xorazm viloyati, Urganch va Yanbozor to'qaylari misolida 2024-2025 yillar)

Muhokama. Bu radqiqotlar yuqorida qayd qilingan hududlarni tur tarkibini to'liq qamrab olmaydi. Chunki bu bir yillik ma'lumotlar bo'lib, keyingi tadqiqotlarda turlar bioxilma xilligini yanada oshishini talab qiladi. Aniqlangan tuproq turlari oziqlanish xususiyatiga ko'ra, rizofag, yirtqich va polifag hasharotlar bo'lib bular tuproq strukturasini yaxshilash bilan birgalikda, rizofaglar o'simliklar ildizi bilan ham oziqlanishi qayd qilindi. Yirtqich hashoratlaning tur xilma xilligi va miqdori, rizofag hasharotlarning ko'payishi, miqdorining oshishi bilan bevosita bog'lik bo'ladi. Chunki tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, rizofaglarning mavjudligi, yirtqich *Cicindela songorica* Motschulsky, 1845, *Cicindela littoralis* Fabricius, 1787, *Panagaeus relictus* Semenov & Bogachev, 1938, *Chlaenius dimidiatus* Chaudoir, 1842, *Brachinus bayardi* Dejean, 1831 va boshqa qattiq qanirli hasharotlarni namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Yashash muhitiga qarab 21 tur Psammobiont (qum sharoitda yashovchilar), 2 tur Geofil, 3 tur Geoksen (tuproqda tasodifiy uchrovchilar), 3 ta tur Geobiont (tuproqda yashovchilar) ekanligi asoslandi.

Xulosa. Tadqiqotlar davomida Xorazm viloyatining Urganch va Yangibozor tumani Milliy tabiat bog'i toqaylarida tuproq faunasi bilan bog'liq tadqiqotlarda, Coleoptera, Hemiptera va

Lepidoptera turkumlariga mansub hasharot va ularning lichinkalari tarqalgani qayd etildi. Trofik xususiyatlariga asosan, hasharotlarning 3 tasi yirtqich, 1 tasi polifag, 25 tasi rizofag ekanligi aniqlandi. Aniqlangan turlarning oila bo'yicha taqsimotiga ko'ra, Carabidae oilasiga mansub 4 ta tur, Cerambycidae - 4, Chrysomelidae - 3, Curculionidae - 3, Tenebrionidae – 2, Hemiptera turkumidan Aphididae - 2, Cicadellidae - 1, Cicadidae - 2, Pentatomidae - 2 va Lepidoptera turkumidan Brachodidae - 1, Cossidae 2 , Noctuidae - 2, Tortricidae – 1 tur uchrashi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аллабергенов Т.Х. Природные условия Хорезмского оазиса и его районирование. Ташкент: Ўқитувчи, 1976. - 145 с.

2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - 264 б.

3. Ермолов С.А. Методы сбора и определения дождевых червей: методические рекомендации. Витебск: ВГУ имени Машерова, 2021. 20 с.

4. Bekbergenova Z.O. Janubiy Orolbo'yi cho'llashuvining Qoraqalpog'iston tuproq usti va osti hasharotlari faunasiga ta'siri va zamonaviy holati. Biologiya fanlari doktori (DSc) disser….avtoreferati. Nukus-2025. 45 c.

5. Raw F. 1962. Studies of earthworm populations in orchards. // *Annals of Applied Biology* 50 (3): P. 389-404.

6. Treshkin S.Y., Kamalov S.K., Bachiev A., Mamutov N., Gladishev A.I. and Aimbetov I. (1998) Present Status of the Tugai Forests in the Lower Amu-Dar'ya Basin and Problems of Their Protection and Restoration. In: Ecological Research and Monitoring of the Aral Sea Deltas: A Basis for Restoration, UNESCO Aral Sea Project, 1992-1996 Final Scientific Reports, UNESCO, Paris, 43-53.

7. https://www.gbif.org/

8. www.cabi.org

UO'K: 591.575-16

UY HAYVONLARI VA GELMINTLARNING BIOSENOTIK ALOQALARI

S.N.Saidabrarova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi
B.X.Ruziyev, dotsent, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Qo'y (Ovis aries), ot (Equus caballus) va it (Canis familiaris) kabi uy hayvonlari va ularning gelmintlari orasidagi biosenotik aloqalarini o'rganish maqsadida 2024-2026 yillar mobaynida gelmintologik material to'plandi. Materialni tahlil qilish natijasida uy hayvonlarida gelmintlarning 83 turi uchrashligi aniqlandi. Bu turlar sistematik jihatdan hayvonot olamining 3 ta tipi (Plathelminthes, Acanthocephales, Nemathelminthes) va 4 ta sinfiga (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda) mansub. Uy hayvonlarida aniqlangan gelmintlar xo'jayin organizmi bilan trofik va topik aloqalar bilan bog'langandir.*

Kalit so'zlar: *gelmint, parazit, xo'jayin, biosenotik aloqa, sestoda, trematoda, nematoda, akantosefal, monoksen, geteroksen.*

Аннотация. *С целью изучения биоценотических взаимосвязей между домашними животными, такими как овцы (Ovis aries), лошади (Equus caballus) и собаки (Canis familiaris), и их гельминтами в период с 2024 по 2026 год был собран гельминтологический материал. Анализ материала выявил наличие 83 видов гельминтов у домашних животных. Эти виды таксономически относятся к 3 типам (Plathelminthes, Acanthocephales, Nemathelminthes) и 4 классам (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda) животного мира. Гельминты, выявленные у домашних животных, связаны с организмом хозяина трофическими и топическими связями.*

Ключевые слова: *гельминт, паразит, хозяин, биоценотическая связь, цестода, трематода, нематода, акантоцефал, моноксен, гетероксен.*

Abstract. *Between 2024 and 2026, helminthological material was collected to study the biotic relationships between domestic animals, such as sheep (Ovis aries), horses (Equus caballus) and dogs (Canis familiaris), and their helminths. Analysis of the material revealed the presence of 83 helminth species in domestic animals. These species are taxonomically assigned to 3 phyla (Plathelminthes, Acanthocephales, Nemathelminthes) and 4 classes (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda) of the animal kingdom. The helminths identified in domestic animals are associated with their host organism through trophic and topic relationships.*

Keywords: *helminth, parasite, host, biosehnotic relationship, cestode, trematode, nematode, acanthocephale, monoxen, heteroxen.*

Ma'lumki, gelmintofaunaning tarkibini va parazitlar uchrash holatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu xo'jayin va parazitlarning biosenotik aloqalari hisoblanadi.

Binobarin, muayyan biogeosenozlarda gelmintlarning sirkulyasiyasi tegishli ekosistemalar komponentlarining trofik yoki topik aloqalari orqali amalga oshadi.

Uy hayvonlari: qo'y *(Ovis aries* Linnaeus, 1758*)*, ot *(Equus caballus* Linnaeus, 1758*)* va it *(Canis familiaris* Linnaeus, 1758*)* da aniqlangan 83 turga mansub parazit chuvalchanglar hayvonot olamining 3 ta tipi (Plathelminthes, Acanthocephales, Nemathelminthes) va 4 ta sinfiga (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda) mansub bo'lib, biologik nuqtai-nazardan mazkur turlar monoksen va geteroksen gelmintlardir. Agar gelmintlarning biologik guruhlari parazit chuvalchanglarning sinflari bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, uy hayvonlarida aniqlangan Cestoda, Trematoda va Acanthocephala sinflarining barcha turlari geteroksen gelmintlar bo'lib, ularning taraqqiyot tsikli ikki va undan ortiq xo'jayinlar ishtirokida o'tadi. Nematoda sinfi vakillari orasida ham geteroksen gelmintlar bor, biroq uy hayvonlari orasida faqat itlar gelmintofaunasida bunday turlar qo'ylar va otlar gelmintofaunasidagidan nisbatan ko'proqdir.

Jadval

Uy hayvonlari geteroksen gelmintlarining taraqqiyot siklida ishtirok etuvchi xo'jayinlar

Gelmintlarning oilalari va turlari	Xo'jayinlar		
	asosiy	oraliq	qo'shimcha
Cestoda (Rudolphi, 1808)			
Anoplocephalidae: *Moniezia expansa;* *Anoplocephala perfoliata;* *Anoplocephala magna;* *Paranoplocephala mamillana*	Juft va toq tuyoqlilar	Oribatid kanalar	-
Diphyllobothriidae: *Spirometra erinacei-europei*	It	Qisqichbaqa-simonlar	-
Dipylidiidae: *Dipylidium caninum* *Diplopylidium noelleri* *Joyeuxiella echinorhynchoides*	It	Burgalar Reptiliyalar	-
Avitellinidae: *Avitellina centripunctata;* *Thysaniezia giardi*	Juft tuyoqlilar	Kollembolalar	-
Taeniidae: *Taenia hydatigena* *Taenia ovis* *Hydatigera krepkogorski* *Multiceps multiceps* *Alveococcus multilocularis Echinococcus granulosus*	It	Juft va toq tuyoqlilar Kemiruvchilar	-
Mesocestoididae: *Mesocestoides lineatus*	It	Oribatid kanalar	-
Trematoda (Rudolphi, 1808)			
Fasciolidae: *Fasciola hepatica;* *Fasciola gigantica*	Juft va toq tuyoqlilar	Suv mollyuskalari	-
Plagiorchidae: *Plagiorchis elegans*	It	Suv mollyuskalari	Hasharotlar, mollyuskalar
Dicrocoeliidae; *Dicrocoelium dendriticum*	Juft tuyoqlilar	Quruqlik mollyuskalari	Chumolilar
Echinostomatidae: *Echinochasmus perfoliatus* *Mesorchis denticulatus*	It	Suv mollyuskalari	Baliqlar
Alariidae: *Alaria alata*	It	Suv mollyuskalari	Amfibiya, reptiliyalar
Schistosomatidae: *Schistosoma turkestanicum*	Toq tuyoqlilar	Suv mollyuskalari	-
Acanthocephala (Rudolphi, 1801)			

Oligacanthorynchidae: *Macracanthorynchus hirudinaceus* *Macracanthorhynchus catulinus*	It	Qo'ng'izlar	-
Moniliformidae: *Moniliformis moniliformis*	It	Qo'ng'izlar, suvaraklar	-
Nematoda (Rudolphi, 1808)			
Habronematidae: *Habronema muscae;* *Drascheia megastoma*	Toq tuyoqlilar	Uy qora pashshasi	-
Capillariidae: *Capillaria putorii* *Thominx aerophilus*	It	Yomg'ir chuvalchanglari	-
Dioctophymidae: *Dioctophyma renale*	It	Oligoxetlar	Baliqlar
Crenosomatidae: *Crenosoma vulpis*	It	Quruqlik mollyuskalari	-
Spiruridae: *Spirura rytipleurites*	It	Qo'ng'izlar	-
Physalopteridae: *Physaloptera praeputiale*	It	Qo'ng'izlar	-
Gongylonematidae: *Gongylonema pulchrum*	Juft va toq tuyoqlilar, Itlar	Qo'ng'izlar	-
Dracunculidae: *Dracunculus medinensis*	It	Qisqichbaqa-simonlar	-
Filariidae: *Parafilaria multipapillosa*	Toq tuyoqlilar	Ikki qanotli qon so'ruvchilar	-
Onchocercidae: *Onchocerca cervicalis*	Toq tuyoqlilar	Pashshalar	-
Setariidae: *Setaria equina*	Toq tuyoqlilar	Chivinlar	-

Bunday holatni itlarning o'ziga xos ozuqa aloqalari bilan bog'lash mumkin, chunki itlar ozuqa munosabatlariga ko'ra yirtqichlar bo'lib, biogeotsenozlarda turli xil umurtqasiz va umurtqali hayvonlar bilan ozuqa aloqalariga kirishadi. Toq tuyoqlilar va juft tuyoqlilarning esa ozuqa munosabatlari deyarli bir xil bo'lib, ular asosan o'txo'r hisoblanadi. Shu bois uy hayvonlaridan itlarning gelmintofaunasida geteroksen gelmintlar otlar va qo'ylarning gelmintlari faunasidagi turlardan nisbatan ko'pligi bilan farq qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, uy hayvonlarida aniqlangan gelmintlar xo‘jayin organizmi bilan trofik va topik aloqalar bilan bog‘langandir.

Tegishli adabiyotlar tahlili va olib borilgan tadqiqotlar natijalari uy hayvonlari gelmintlarining taraqqiyot siklida quruqlik va suv ekosistemalarining bir qator umurtqasiz va umurtqali hayvonlari ishtirok etishini aniqlash imkonini berdi (jadval).



1-rasm. Sestodalar lichinkalik stadiyasining har xil tiplari.
1. sistiserk; 2. senur; 3. exinokokk; 4. sistiserkoid; 5. strobiloserk; 6. pleroserkoid

Sestodalar odatda, ikki yoki uchta oraliq xo‘jayin ishtirokida rivojlanadi. Tezak bilan tashqi muhitga ajralib chiqqan tuxum oraliq xo‘jayin organizmiga tushib, lichinka bosqichigacha

rivojlanadi. Ayrim sestodalarning onkosferasi (embrioni) dan oraliq xo‘jayin tanasida sistiserkoid deb ataluvchi lichinka, boshqa turdagi sestodalarning tuxumlaridagi embrionlaridan esa sistiserk, senur, exinokokk, pleroserkoid va alveokokk deb ataluvchi lichinkalar rivojlanadi (1-rasm).

Trematodalar uchun murakkab hayot sikli xos bo‘lib, ularda avlodlar gallanishi va xo‘jayin almashinuvi kuzatiladi. Trematodalar rivojlanish tsiklida 5 turdagi lichinkalik stadiyasini o’taydi (2-rasm).

Trematodalarning asosiy qismi geteroksen (biogelmint) gelmint, birinchi oraliq xo‘jayin vazifasini suv va quruqlik mollyuskalari o‘taydi. Ko‘pchilik trematodalar rivojlanishida ikkinchi oraliq xo‘jayin, qo‘shimcha va rezervuar xo‘jayinlar ishtirok etadi. Trematodalar ontogenezini yakunlashi uchun ikki, uch va undan ortiq xo‘jayinlarning (oraliq, qo‘shimcha, rezervuar va asosiy) mavjudligi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.



2-rasm. Trematodalar lichinkalik stadiyasining har xil tiplari.
1. miratsidiy; 2. sporatsista; 3. rediya; 4. tserkariya; 5. adoleskariya.

Mustahkam ekologik aloqalar natijasida trematodalar hayot tsikllarining amalga oshishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Birinchi oraliq xo‘jayin vazifasini har doim suv yoki quruqlik mollyuskalari bajaradi, ikkinchi oraliq xo‘jayin vazifasini turli xil umurtqasiz hayvonlar (mollyuskalar, oligoxetlar, qisqichbaqasimonlar, hasharotlar) va umurtqali hayvonlar (amfibiyalar, reptiliyalar, baliqlar va qushlar) bajaradi. Bu xo‘jayinlarning har biri tarqatuvchi vazifasini ham bajarishi mumkin.

Akantotsefallar ham rivojlanish tsiklida xo’jayin almashtiradilar. Ularning xo’jayini sifatida quruqlik va suv ekosistemalarining bir qator umurtqasiz hamda umurtqali hayvonlari qayd etilgan. Ushbu gelmintlar ham taraqqiyot tsiklida bir nechta lichinkalik bosqichini o’taydilar (3-rasm).



3-rasm. Akantotsefallarning turli bosqichdagi lichinkalari
1. akantor (anexinli lichinka); 2. akantella; 3. tsistikant

Uy hayvonlaridan itlarning gelmintofaunasida mazkur sinf vakillari *(Macracanthorynchus hirudinaceus, M.catulinus, Moniliformis moniliformis)* qayd etildi.

Nematodalarning jinsiy qo‘shilishi asosiy xo‘jayin organizmida amalga oshadi. Nematodalar tuxum qo‘yadi (askaridalar, trixostrongilidlar) yoki tirik lichinka tug‘adi (trixinella, spiruratlar).

Shunday qilib, gelmintlar faunasining shakllanishi negizida muhim omillardan biri bu xo‘jayin va parazitlarning biosenotik aloqalari hisoblanadi. Uy hayvonlari gelmintlari faunasi asosan parazit chuvalchanglarning hayotchanligi ontogenezining barcha rivojlanish bosqichlarini ta'minlovchi mos xo‘jayinlar guruhining mavjudligi yoki yo‘qligi va ushbu biosenozning abiotik faktorlari bilan belgilanadi.

Gelmintlar va ularning xo‘jayinlari o‘rtasidagi hamda parazit chuvalchanglar va biogeosenozlarning boshqa komponentlari o‘rtasidagi biosenotik aloqalar turli-tuman va tashqi muhit omillari ta'siri ostida o‘zgarib turadi. V.L.Kontrimavichus tomonidan taklif etilgan tasniflash tamoyillariga asosan, uy hayvonlarida aniqlangan parazit chuvalchanglarni 4 guruhga ajratish mumkin:

I guruh – asosiy xo‘jayin oraliq, qo‘shimcha va rezervuar xo‘jayinlarni va ularning oziqlanish ob'ekti hisoblangan boshqa organizmlarni yutib yuborishi natijasida, ular organizmiga gelmintlar ham tushib qoladi (bizning gelmintologik materialimizda bu guruhga mansub turlar mavjud emas);

II guruh gelmintlar asosiy xo‘jayin organizmiga ozuqa yoki suv bilan birgalikda mexanik aralashma sifatida tushadi. Bunga quyidagi avlodlarga mansub turlar kiradi: *Fasciola, Taenia, Echinococcus, Anoplocephala, Paranoplocephala, Strongyloides, Trichonema, Cylicodontophorus, Cylicocyclus, Peteriostomum, Petrovinema, Schulzitrichonema, Gyalocephalus, Triodontophorus, Trichostrongylus, Strongylus, Alfortia, Delofondia, Dictyocaulus, Parascaris, Oxyuris* va *Gongylonema*.

III guruh – parazitlar xo‘jayin organizimiga faol yo‘l bilan kiradi. Ushbu guruhga *Schistosoma turkestanicum* trematodasi kiradi;

IV guruh – gelmint lichinkalari oraliq xo‘jayin asosiy xo‘jayin tanasida oziqlanish paytida uzatiladi. Bunga *Habronema, Drascheia, Parafilaria, Onchocerca* va *Setaria* avlodlariga mansub turlar kiradi.

Darhaqiqat, uy hayvonlarining gelmintlari sirkulyasiyasi ma'lum bir tizimlar doirasida amalga oshadi va biogeosenozlarning boshqa komponentlari ishtirokida trofik va topik aloqalar asosida amalga oshadi:



4-rasm. Monoksen gelmint (geogelmint) larning taraqqiyot tsikli sxemasi



5-rasm. Geteroksen gelmint (biogelmint) larning taraqqiyot tsikli sxemasi

Ta'kidlash joizki, invaziya zararlangan xo‘jayin populyasiyalari organizmida yig‘iladi va invazion elementlarning tashqi muhitga ko‘plab tarqalishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa kasallikka moyil hayvonlarning jadal ravishda zararlanishiga olib keladi. Tabiiy sharoitda bunday holatlar “parazit-xo‘jayin” tizimida “teskari bog‘lanish orqali boshqariladi.

Biogeosenozlarga antropogen omillarning jadal ravishda ta'siri natijasida parazitlar ontogenezining barcha bosqichlarida ular miqdorining keskin ko‘payib ketishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi va parazit populyasiyalarini boshqarish mexanizmlari ishlamaydi va yuqori darajada zararlangan hayvonlarning nobud bo‘lishiga olib keladi. Parazitlar miqdorini tabiiy sharoitda boshqarish uchun, biogeosenozlarga antropogen, abiotik va biotik omillarning ta'sirini cheklash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Азимов Д.А. Трематоды - паразиты животных и человека. - Ташкент: Меҳнат, 1986. - 128 с.

2. Азимов Д.А., Шакарбаев У.А., Шакарбоев Э.Б., Акрамова Ф.Д. Ориентобильгарции - трематоды млекопитающих. – Тошкент: «Фан», 2014. -

224 с.

3. Гинецинская Т.А. Трематоды, их жизненные циклы, биология и эволюция. - Ленинград: Наука, 1968. – 411 с.

4. Исмаилов Т.И. Гельминты лошадей Ферганской долины // В кн. «Экология беспозвоночных и позвоночных животных Узбекистана». - Ташкент, 1978. - С. 17-19.

5. Контримавичус В.Л. Гельминтофауна куньих и пути ее формирования. – М., 1969. – 432 с.

6. Рузиев Б.Х. «Гельминтофауна овец пустынных экосистем Южного Узбекистана» (Паразитология, т. 35, вып. 2, 2001).

7. Шакарбоев Э.Б. Ўзбекистонда умуртқали ҳайвонлар трематодалари (тур таркиби, циркуляция йўллари, эколого-биологик хусусиятлари).: Автореф. дисс. ... докт. биол. наук. – Тошкент, 2009. – 38 с.

UO'K: 581.41

STEVIA REBAUDIANA O'SIMLIGINING O'SISHI VA RIVOJLANISH

F.Saidova, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
L.Gandjayeva, b.f.d., prof., Kimyo International University in Tashkent, Toshkent

Annotatsiya*. Mazkur maqolada Stevia rebaudiana Bertoni o'simligining Xorazm viloyati sharoitida o'sishi va rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlar davomida o'simlikning fenologik rivojlanish bosqichlari, vegetativ o'sishi, bo'yi, barglar soni, biomassa hosil qilishi hamda ekologik omillarning rivojlanish jarayoniga ta'siri baholandi. Kuzatishlar natijasida o'sish ko'rsatkichlari vegetatsiya davri davomida muntazam ortib borishi, rivojlanish sur'ati esa harorat, tuproq namligi va agrotexnik tadbirlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. O'simlikning eng jadal o'sish davri vegetatsiyaning o'rta bosqichiga to'g'ri kelishi, bu davrda vegetativ organlarning faol shakllanishi va biomassa to'planishi kuzatilishi qayd etildi. Olingan natijalar Stevia rebaudiana ni Xorazm viloyatining tuproq-iqlim sharoitida muvaffaqiyatli yetishtirish hamda yuqori sifatli dorivor xomashyo olish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Stevia rebaudiana, o'sish, rivojlanish, fenologiya, biomassa, vegetativ organlar, introduksiya, dorivor o'simlik.*

Аннотация*. В статье представлены результаты исследований особенностей роста и развития Stevia rebaudiana Bertoni в почвенно-климатических условиях Хорезмской области. В ходе исследований изучены фенологические фазы развития растений, динамика вегетативного роста, высота растений, количество листьев, накопление биомассы и влияние экологических факторов на процессы роста. Установлено, что показатели роста последовательно увеличивались в течение вегетационного периода, а интенсивность развития зависела от температуры воздуха, влажности почвы и применяемых агротехнических мероприятий. Наиболее интенсивный рост наблюдался в середине вегетации, когда происходило активное формирование вегетативных органов и накопление биомассы. Полученные результаты подтверждают перспективность выращивания Stevia rebaudiana в условиях Хорезмской области и могут быть использованы при совершенствовании технологии возделывания лекарственного растения.*

Ключевые слова: *Stevia rebaudiana, рост, развитие, фенология, биомасса, лекарственное растение, интродукция, агротехнология.*

Abstract*. This article presents the results of a study on the growth and development characteristics of Stevia rebaudiana Bertoni under the soil and climatic conditions of the Khorezm region, Uzbekistan. The research evaluated the phenological growth stages, vegetative development, plant height, leaf production, biomass accumulation, and the influence of environmental factors on plant growth. The results showed that growth parameters increased progressively throughout the vegetation period, while the rate of development was closely associated with air temperature, soil moisture, and agronomic practices. The most intensive growth occurred during the middle stage of vegetation, characterized by active formation of vegetative organs and rapid biomass accumulation. The findings indicate that Stevia rebaudiana is well adapted to the environmental conditions of the Khorezm region and provide a scientific basis for improving cultivation techniques and producing high-quality medicinal plant raw materials.*

Keywords: *Stevia rebaudiana, growth, development, phenology, biomass, vegetative growth, medicinal plant, introduction, cultivation technology.*

So‘nggi yillarda tabiiy shirinlashtiruvchi moddalar ishlab chiqarishda foydalaniladigan dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning ortishi *Stevia rebaudiana* Bertoni o‘simligini dunyoning ko‘plab mamlakatlarida istiqbolli qishloq xo‘jaligi ekini sifatida e'tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Steviya barglarida to‘planadigan steviol glikozidlari yuqori shirinlik xususiyatiga ega bo‘lib, oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida keng qo‘llaniladi. Shu bois ushbu o‘simlikni turli tuproq-iqlim sharoitlarida introduksiya qilish va yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [1, 3, 4]. Xususan, azot va fosfor bilan oziqlantirishning o‘simlikning vegetativ rivojlanishi va hosildorligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi, shuningdek mineral oziqlanish biologik faol moddalarning to‘planishiga ham ta'sir etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5,6,7]. Shu bilan birga, *Stevia rebaudiana* ning yangi hududlarda muvaffaqiyatli introduksiyasi agroiqlim sharoitlariga mos agrotexnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi [2,8].

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘simlikning ekologik moslashuvchanligi, vegetativ rivojlanishi va dorivor xomashyo sifatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Shuning uchun Xorazm viloyati sharoitida introduksiya qilingan *Cistanche* spp. o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlarini o‘rganish, ularning agroekologik omillar bilan bog‘liqligini baholash hamda dorivor xomashyo sifatini oshirish imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatining Yangiariq va Qo‘shko‘pir tumanlari sharoitida introduksiya qilingan *Cistanche* spp. o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlarini baholash, hududlar bo‘yicha ularning o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash hamda o‘simlikning ekologik moslashuvchanligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotlar 2023–2025 yillar davomida Xorazm viloyati sharoitida olib borildi. Kuzatuvlar natijasida Stevia rebaudiana o‘simligining o‘sishi va rivojlanishi vegetatsiya davrida bosqichma-bosqich ortib borishi aniqlandi. O‘simliklarning intensiv o‘sish davri asosan iyun–iyul oylariga to‘g‘ri kelgani kuzatildi. Stevia o‘simligining o‘sish ko‘rsatkichlari tajriba variantlariga qarab sezilarli darajada farq qilgani aniqlandi. Mineral o‘g‘itlar qo‘llangan variantlarda o‘simlik bo‘yi va barg sonining ortishi kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mineral o‘g‘itlar qo‘llangan variantda o‘simlik bo‘yi nazorat variantiga nisbatan o‘rtacha 14.2 sm ga yuqori bo‘lgan.

Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklarning o‘sish ko‘rsatkichlari agrotexnik tadbirlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa mineral o‘g‘itlar qo‘llangan variantda barg soni va barg yuzasi sezilarli darajada ortgan. Bu esa fotosintetik faoliyatning kuchayganini va o‘simlik biomassasining oshganini ko‘rsatadi. Sho‘rlanish sharoitida esa o‘sish ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatilgan bo‘lib, bu tuproqdagi tuzlarning o‘simlik ildiz tizimiga salbiy ta’siri bilan izohlanadi.

1-jadval

Stevia rebaudiana o‘simligining o‘sish ko‘rsatkichlari (2023–2025 yy.)

Variant	O‘simlik bo‘yi, sm	Barg soni, dona	Barg yuzasi, sm²
Nazorat	58.4 ± 2.1	124 ± 5	812 ± 34
N90P60K60	72.6 ± 2.4	156 ± 6	965 ± 41
Intensiv sug‘orish	69.3 ± 2.3	148 ± 5	921 ± 39
Sho‘rlanish	54.7 ± 1.9	117 ± 4	768 ± 32

Stevia rebaudiana Bertoni o‘simligining o‘sishi va rivojlanishi tashqi muhit omillariga, ayniqsa temperatura va tuproq namligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar o‘simlikning morfologik va fiziologik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xorazm viloyati sharoitida iqlimning keskin kontinental xarakterga ega bo‘lishi, yoz oylarida yuqori temperatura va past havo namligi bilan tavsiflanishi o‘simliklarning vegetatsiya jarayonlariga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar 2023–2025 yillar davomida olib borilib, o‘simliklarning o‘sish dinamikasi vegetatsiya davrida muntazam kuzatildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Stevia rebaudiana o‘simligining o‘sish tezligi vegetatsiya davrining dastlabki bosqichida (aprel–may oylarida) nisbatan sekin bo‘lib, ushbu davrda o‘rtacha havo temperaturasi 18–22 °C va tuproq namligi 65–70 % atrofida bo‘lgan. Ushbu sharoitda o‘simliklarning ildiz tizimi shakllanib, vegetativ organlarning rivojlanishi boshlangani kuzatildi.

Vegetatsiya davrining o‘rta bosqichida (iyun–iyul oylarida) temperatura 28–35 °C gacha ko‘tarilib, tuproq namligi 60–65 % darajada bo‘lgan sharoitda o‘simliklarning intensiv o‘sishi kuzatildi. Ayniqsa, ushbu davrda barg yuzasi va poya o‘sish sur’ati sezilarli darajada ortgani aniqlangan. Bu davrda fotosintez jarayoni maksimal darajada faol bo‘lib, biomassa to‘planishi tezlashgan.

Vegetatsiya davrining oxirgi bosqichida (avgust–sentabr oylarida) temperatura 35–40 °C gacha ko‘tarilib, havo va tuproq namligining kamayishi natijasida o‘simliklarning o‘sish sur’ati sekinlashgani kuzatildi. Yuqori temperatura va past namlik sharoitida barglarning suv yo‘qotishi ortib, transpiratsiya jarayoni kuchaygani aniqlangan. Natijada ayrim hollarda barglarning sarg‘ayishi va o‘sishning sekinlashishi kuzatilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, temperatura va namlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘simlikning o‘sish ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Optimal sharoitda, ya’ni temperatura 25–30 °C va tuproq namligi 65–70 % bo‘lganda, Stevia rebaudiana o‘simligining o‘sish sur’ati yuqori bo‘lib, barg hosildorligi va biomassa miqdori ortgani aniqlangan.

2-jadval.

Vegetatsiya davrida temperatura va tuproq namligining o‘zgarishi (2023–2025 yy.)

Oy	O‘rtacha temperatura, °C	Tuproq namligi, %	O‘simlik bo‘yi, sm
Aprel	19.6	69	18.4
May	24.3	67	32.7
Iyun	29.8	64	51.2
Iyul	33.5	62	68.9
Avgust	36.8	58	72.1
Sentabr	28.7	63	74.3

Aksincha, temperatura 38–40 °C dan yuqori bo‘lgan va tuproq namligi 55 % dan past bo‘lgan sharoitlarda o‘simliklarning o‘sishi sekinlashgani, fotosintez intensivligi kamaygani va biomassa hosil bo‘lishi pasaygani kuzatilgan. Bu holat o‘simlikning suv rejimi buzilishi va fiziologik stress yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Stevia rebaudiana o‘simligining o‘sishi va rivojlanishi uchun optimal agroiqlim sharoiti temperatura 25–30 °C va tuproq namligi 65–70 % oralig‘ida bo‘lishi zarur hisoblanadi. Ushbu sharoitda o‘simliklarning vegetativ rivojlanishi tezlashib, morfologik va fiziologik ko‘rsatkichlar maksimal darajada namoyon bo‘ladi.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘simlik bo‘yi temperatura va tuproq namligi ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Vegetatsiya davrining o‘rta bosqichida temperatura 29–33 °C oralig‘ida bo‘lgan sharoitda o‘simliklarning o‘sish sur’ati maksimal darajada kuzatilgan. Avgust oyida temperatura yuqori (36.8 °C) bo‘lishiga qaramay, tuproq namligining kamayishi natijasida o‘sish sur’ati sekinlashgan. Temperatura va o‘simlik bo‘yi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0.86$ ni tashkil etib, bu ular o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tuproq namligi va o‘simlik o‘sishi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti esa $r = 0.79$ bo‘lib, namlikning yetarli darajada bo‘lishi o‘simlik biomassa to‘planishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO’YXATI:

1. Midmore, D. J., & Rank, A. H. (2002). A new rural industry—Stevia—to replace imported chemical sweeteners. Rural Industries Research and Development Corporation. Canberra, Australia. 120 p. https://www.agrifutures.com.au/wp-content/uploads/publications/02-022.pdf

2. Shock, C. C. (1982). Experimental cultivation of Stevia rebaudiana in California. University of California Cooperative Extension. California, USA. 8 p.

3. Ramesh, K., Singh, V., & Megeji, N. W. (2006). Cultivation of Stevia: A comprehensive review. Advances in Agronomy, 89, 137–177. https://doi.org/10.1016/S0065-2113(05)89003-0

4. Brandle, J. E., Starratt, A. N., & Gijzen, M. (1998). Stevia rebaudiana: Its agricultural, biological and chemical properties. Canadian Journal of Plant Science, 78(4), 527–536. https://doi.org/10.4141/P97-114

5. Kumar, R., Sharma, S., & Ramesh, K. (2014). Effect of nitrogen and phosphorus on growth and yield of Stevia rebaudiana. Journal of Medicinal Plants Research, 8(12), 490–495. https://doi.org/10.5897/JMPR2013.5336

6. Pal, P. K., Mahajan, M., & Prasad, R. (2015). Influence of mineral nutrition on growth and yield of Stevia rebaudiana. Industrial Crops and Products, 69, 367–372. https://doi.org/10.1016/j.indcrop.2015.02.028

7. Доспехов, Б. А. (1985). Методика полевого опыта. Москва: Агропромиздат. 351 с.

8. Беляев, В. И. (2004). Лекарственные растения и их выращивание. Москва: Колос. 320 с.

UO'T: 632.9:633.11

BIOPREPARATLARNI BUG'DOYNI YASHIL VA QURUQ BIOMASSA TO'PLANISH DINAMIKASIGA TA'SIRI

A.Salayeva, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
L.Gandjayeva, b.f.d., prof., Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada biologik preparatlarning kuzgi bug'doyning yashil va quruq biomassa to'planish dinamikasiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar davomida turli biopreparatlar qo'llanilgan variantlarda o'simliklarning vegetativ rivojlanishi, yashil massa hosil qilishi, quruq modda to'planishi hamda biomassa shakllanishining fenologik bosqichlar bo'yicha o'zgarishlari baholandi. Natijalar biologik preparatlar qo'llanilishi bug'doyning o'sish jarayonlarini jadallashtirishi, fotosintetik faolligini oshirishi va vegetatsiya davomida yashil hamda quruq biomassa miqdorining sezilarli ortishiga xizmat qilishini ko'rsatdi. Eng yuqori biomassa ko'rsatkichlari biologik preparatlar optimal me'yorlarda qo'llanilgan tajriba variantlarida qayd etildi. Tadqiqot natijalari biologik preparatlardan foydalanish bug'doy yetishtirishda resurs tejamkor va ekologik xavfsiz agrotexnologiyalarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *biologik preparatlar, kuzgi bug'doy, yashil biomassa, quruq biomassa, vegetativ rivojlanish, fotosintez, hosildorlik, agrotexnologiya.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследований влияния биопрепаратов на динамику накопления зеленой и сухой биомассы озимой пшеницы. В ходе исследований оценивали влияние различных биопрепаратов на вегетативное развитие растений, формирование зеленой массы, накопление сухого вещества и изменения биомассы на различных фенологических этапах развития. Установлено, что применение биопрепаратов способствует активизации ростовых процессов, повышению фотосинтетической активности и увеличению накопления как зеленой, так и сухой биомассы в течение вегетационного периода. Наибольшие показатели биомассы отмечены в вариантах с оптимальными дозами биопрепаратов. Полученные результаты свидетельствуют о перспективности использования биопрепаратов для повышения продуктивности озимой пшеницы и совершенствования экологически безопасных ресурсосберегающих технологий возделывания культуры.*

Ключевые слова: *биопрепараты, озимая пшеница, зеленая биомасса, сухая биомасса, вегетативное развитие, фотосинтез, продуктивность, агротехнология.*

Abstract. *This study investigates the effect of biopreparations on the dynamics of green and dry biomass accumulation in winter wheat. Different biopreparation treatments were evaluated for their influence on vegetative growth, green biomass production, dry matter accumulation, and biomass development during different phenological stages. The results demonstrated that the application of biopreparations stimulated plant growth, enhanced photosynthetic activity, and significantly increased both green and dry biomass accumulation throughout the growing season. The highest biomass values were recorded in the treatments receiving optimal rates of biopreparations. The findings indicate that the use of biopreparations is an effective approach for improving winter wheat productivity and developing environmentally friendly, resource-efficient cultivation technologies.*

Keywords: *biopreparations, winter wheat, green biomass, dry biomass, dry matter accumulation, vegetative growth, photosynthesis, crop productivity.*

Ko'pgina mualliflarning tadqiqotlari va amaliy ishlab chiqarish tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga tabiatdagi turli fitopatogenlar katta zarar etkazadi. Hozirgi vaqtda joriy etilayotgan adaptiv landshaft dehqonchilik tizimlari atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya sarfini minimallashtirish, hosildorlikni oshirish va hosil sifatini yaxshilashni ko'zda tutadi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish nafaqat agrokimyoviy vositalardan (pestitsidlar va o'g'itlar) foydalanish, yangi intensiv navlarni joriy etish, balki tabiiy resurslardan, xususan, mikrobiologik preparatlardan maksimal darajada foydalanishga asoslangan. Shuning uchun, nisbatan sog'lom

urug'lik uchun immunomodulyator ta'sirga ega biologik preparatlar, adaptogenlardan foydalanish muhimdir. Biologik mahsulotlar odamlar va atrof-muhit uchun nisbatan zararsizdir va ularning narxi hozirgi iqtisodiy sharoitda juda muhim bo'lgan urug'lik dezinfektsiyalash vositalaridan sezilarli darajada pastdir [2].

Urug'larni biologik preparatlar bilan ishlov berish o'simlik biomassasining yanada intensiv to'planishiga yordam beradi, shuningdek, ular o'simliklarning fitopatogenlarga chidamliligini oshiradi [3].

Mikrobiologik preparatlar - foydali xususiyatlari uchun tanlangan mikroorganizmlarning tirik hujayralari bo'lib, ular madaniy suyuqlikda yoki neytral tashuvchida adsorbsiyalangan. Ular mikroorganizmlarning foydali shakllarining katta konsentratsiyasini yaratishga imkon beradi: 1 g preparat kerakli joyda va kerakli vaqtda 1 dan 10 milliardgacha bakterial yoki qo'ziqorin hujayralarini o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli, Rossiya qishloq xo'jaligi mikrobiologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining fikriga ko'ra, joriy qilingan shakllar mahalliy mikroflora bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha oladi va o'simliklarning fiziologik ko’rsatkichlariga foydali ta’sir ko’rsatadi [1, 6].

Tadqiqot ob'ektlari va usullari Ishning asosiy maqsadi - bug'doyda o'simliklarning o'sish ko’rsatkichlarini biologik mahsulotlardan foydalangan xolda o’rganish va hosildorlikni oshirish.

O'rganilayotgan preparatlarning sinovlari 2023–2025-yillar davomida Xorazm viloyati Xanqa tumani "Baxrom Orif" fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan o‘tloqi-alluvial tuproqlari sharoitida olib borildi. «Kuma» navi 2,8 ga ekilgan maydonlarda o'tkazildi.

Yashil va quruq biomassa o‘simliklarning o‘sishi hamda rivojlanishini tavsiflovchi asosiy morfofiziologik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Vegetatsiya davrida hosil bo‘ladigan biomassa miqdori fotosintez intensivligi, mineral oziqa elementlarining o‘zlashtirilishi, suv rejimi va o‘simliklarning fiziologik faolligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Biomassa to‘planishining yuqori sur’atlarda kechishi vegetativ organlarning yaxshi rivojlanganligini, fotosintetik apparatning faol ishlayotganligini hamda keyinchalik hosil elementlarining samarali shakllanishini ko‘rsatadi.

Kuzgi bug‘doyda yashil biomassa vegetatsiyaning dastlabki bosqichlarida sekin shakllanadi, biroq naychalash fazasidan boshlab o‘simliklarning intensiv o‘sishi natijasida biomassa tez ortadi. Boshoqlash fazasida vegetativ organlarning to‘liq shakllanishi hisobiga yashil biomassa maksimal qiymatga yetadi. Keyingi rivojlanish bosqichlarida assimilatlarning generativ organlarga yo‘naltirilishi va barglarning tabiiy qarishi tufayli yashil biomassa asta-sekin kamayadi. Shu bilan birga quruq modda to‘planishi davom etib, donning shakllanishi va to‘lishi uchun asosiy manba vazifasini bajaradi.

Biologik faol moddalar, xususan kaliy gumat va natriy gumat preparatlari o‘simliklarda modda almashinuvi jarayonlarini faollashtirib, ildiz tizimi orqali oziqa elementlarining o‘zlashtirilishini kuchaytiradi. Natijada barg apparatining rivojlanishi yaxshilanadi, fotosintez mahsuldorligi ortadi hamda vegetativ organlarda organik moddalarning intensiv to‘planishi kuzatiladi. Mineral oziqlanish bilan birgalikda qo‘llanilgan gumat preparatlari o‘simliklarning vegetativ massasini oshirish bilan bir qatorda hosildorlikning shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

Turli konsentratsiyadagi kaliy va natriy gumat preparatlarining Kuma navida yashil va quruq biomassa to‘planishiga ta'siri (2023–2025 yy. o‘rtacha)

Variant	**Yashil biomassa, g/o‘simlik**	**Quruq biomassa, g/o‘simlik**	**Quruq modda ulushi, %**
Nazorat (N60P90K60)	37,4	12,6	33,7
Kaliy gumat 0,15 %	42,3	14,4	34,0
Kaliy gumat 0,30 %	48,8	16,9	34,6
Kaliy gumat 0,45 %	**54,6**	**19,3**	**35,3**
Kaliy gumat 0,60 %	53,2	18,8	35,2
Natriy gumat 0,15 %	41,5	14,1	34,0
Natriy gumat 0,30 %	47,9	16,4	34,2
Natriy gumat 0,45 %	53,5	18,9	35,3
Natriy gumat 0,60 %	52,1	18,3	35,1
$EKF_{o.os}$	**1,3**	**0,7**	**0,5**

Yashil va quruq biomassa dinamikasi bo‘yicha olingan natijalar o‘simliklarning vegetativ rivojlanish darajasini baholash bilan bir qatorda keyingi bobda keltiriladigan fotosintetik apparat faoliyati hamda don hosildorligining shakllanishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

1-jadval ma'lumotlariga ko‘ra, biologik faol moddalar qo‘llanilishi Kuma navida vegetativ biomassaning to‘planishiga kuchli ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Barcha tajriba variantlarida yashil va quruq biomassa miqdori nazoratga nisbatan yuqori bo‘lib, maksimal ko‘rsatkichlar 0,45 % kaliy gumat qo‘llanilgan variantda kuzatildi.

Nazorat variantida yashil biomassa 37,4 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 12,6 g/o‘simlik ni tashkil etdi. Biologik faol moddalar qo‘llanilishi natijasida vegetativ organlarning rivojlanishi jadallashib, biomassa miqdori bosqichma-bosqich ortdi. 0,15 % kaliy gumat variantida yashil biomassa 42,3 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 14,4 g/o‘simlik bo‘lib, nazoratga nisbatan mos ravishda 13,1 % va 14,3 % ga oshdi.

Preparat konsentratsiyasining 0,30 % gacha oshirilishi biomassa to‘planishining yanada kuchayishiga olib keldi. Ushbu variantda yashil biomassa 48,8 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 16,9 g/o‘simlik ni tashkil etdi. Bu natijalar gumat preparatlarining fotosintetik faoliyatni rag‘batlantirishi va organik moddalar sintezini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Tajribadagi eng yuqori natijalar 0,45 % kaliy gumat variantida kuzatildi. Bu variantda yashil biomassa 54,6 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 19,3 g/o‘simlik ga yetdi. Nazorat bilan taqqoslaganda yashil biomassa 46,0 %, quruq biomassa esa 53,2 % ga oshdi. Quruq modda ulushining 35,3 % ga yetishi fotosintez mahsulotlarining organik moddalarga samarali aylanganligini ko‘rsatadi.

Kaliy gumatning 0,60 % konsentratsiyasida biomassa ko‘rsatkichlari biroz kamaydi. Yashil biomassa 53,2 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 18,8 g/o‘simlik ni tashkil etdi. Bu natijalar preparatning optimal konsentratsiyasi 0,45 % ekanligini ko‘rsatadi.

Natriy gumat variantlarida ham biomassa to‘planishi sezilarli oshdi. Ayniqsa 0,45 % natriy gumat variantida yashil biomassa 53,5 g/o‘simlik, quruq biomassa esa 18,9 g/o‘simlik ni tashkil etdi. Biroq ushbu ko‘rsatkichlar kaliy gumat variantiga nisbatan biroz past bo‘ldi.

Kuma navida kuzatilgan yuqori biomassa ko‘rsatkichlari ushbu navning biologik salohiyati yuqori ekanligini va mineral oziqlanish hamda biologik faol moddalardan samarali foydalanishini ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu navda keyingi bobda tahlil qilinadigan fotosintetik potensial va don hosildorligi ko‘rsatkichlarining ham yuqori bo‘lishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гилязетдинов Ш.Я., Нугуманов А.Х., Пусенкова Л.И. Эффективность препаратов и биофунгицидов в системе защиты сельскохо- зяйственных культур от неблагоприятных абиотических и биотических факторов. — Уфа: Гилём, 2008. — С. 372.

2. Менликиев М.Я., Смирнов В.В., Вань- янц Г.М., Недорезков В.Д., Сорокулова И.Б. Фитоспорин — биологический препарат для защиты растений от болезней. Рекомендации по применению. — Уфа, 1991.

3. Чулкина В.А. Управление агроэкосистемами в защите растений. — Новосибирск, 1995. — С. 201.

4. Borisenko V. V. [et al.] The biological activity of the humic complex of different origin and its influence on the growth and development of plants // Scientific journal of KubSAU. 2015. No. 110 (06). Pp. 1–10.

5. Khardikova S. I., Alekhina G. P., Verkhoshentseva Yu. P. Effect of humic preparations on the ecological-physiological characteristics of saplings of grapes in the city of Orenburg // Vestnik of the Orenburg State University. 2017. No. 5 (208). Pp. 99–102.

6. Papavizas George C. Biotechnology and soilborne plant diseases / C. George Papavizas, Joyce E. Loper // Research for Tomorrow. 1986 Yearbook of Agriculture. — 1986. — P. 62-65.

UO'K 633.88:581.1

XORAZM VILOYATI HUDUDIDA SISTANXE O‘SIMLIGINING FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARI

S.Salimova, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
L.Gandjayeva, b.f.d., prof., Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 2023–2025-yillarda Xorazm viloyatining Yangiariq va Qo‘shko‘pir tumanlari sharoitida introduksiya qilingan dorivor sistanxe (Cistanche spp.) o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida o‘simlikning ekologik moslashuvchanligi va fiziologik holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar, jumladan xlorofill*

miqdori, to'qimalardagi suv miqdori, fotosintez intensivligi hamda biologik faol moddalarning (fenolik birikmalar va flavonoidlar) to'planish dinamikasi baholangan. Natijalar hududlar va yillar kesimida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xlorofill miqdorining eng yuqori qiymati Yangiariq tumanida 2024-yilda 2,36 ± 0,09 mg/g ni tashkil etgani, Qo'shko'pir tumanida esa ushbu ko'rsatkich nisbatan past bo'lgani aniqlandi. O'simlik to'qimalaridagi suv miqdori Yangiariqda o'rtacha 69,2 %, Qo'shko'pirda esa 67,6 % ni tashkil etdi. Fotosintez intensivligi ham Yangiariq hududida yuqori bo'lib, o'rtacha 9,0 mg CO_2/dm²/soat, Qo'shko'pirda esa 8,5 mg CO_2/dm²/soat qayd etildi. Biologik faol moddalarning to'planishi ham hududlar bo'yicha farqlanib, fenolik birikmalar (38,6 ± 1,4 mg/g), flavonoidlar (22,8 ± 0,9 mg/g) va antioksidant faollik (71,4 ± 2,1 %) Yangiariq tumanida yuqori bo'lgani kuzatildi.

Kalit so'zlar: Cistanche spp.*, sistanxe, fenologiya, o'sish bosqichlari, rivojlanish dinamikasi, introduksiya, dorivor o'simlik, Xorazm viloyati.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследований основных физиологических показателей лекарственного растения Cistanche spp., интродуцированного в условиях Хорезмской области Республики Узбекистан. Исследования проводились в 2023–2025 годах на опытных участках Янгиарыкского и Кушкупырского районов. Оценены содержание хлорофилла, водный режим растений, интенсивность фотосинтеза, а также накопление биологически активных веществ (фенольных соединений, флавоноидов и антиоксидантная активность). Проведен сравнительный анализ показателей по годам исследований и районам выращивания. Установлено, что максимальное содержание хлорофилла наблюдалось в 2024 году в Янгиарыкском районе и составило 2,36 ± 0,09 мг/г, тогда как в Кушкупырском районе данный показатель был несколько ниже. Среднее содержание воды в тканях растений достигало 69,2 % в Янгиарыкском и 67,6 % в Кушкупырском районе. Наиболее высокая интенсивность фотосинтеза также отмечена в Янгиарыкском районе и составила в среднем 9,0 мг CO_2/дм²/ч, тогда как в Кушкупырском районе — 8,5 мг CO_2/дм²/ч. Содержание фенольных соединений (38,6 ± 1,4 мг/г), флавоноидов (22,8 ± 0,9 мг/г) и антиоксидантная активность (71,4 ± 2,1 %) были выше у растений, выращенных в Янгиарыкском районе.*

Ключевые слова: Cistanche spp.*, цистанхе, фенология, этапы роста, динамика развития, интродукция, лекарственное растение, Хорезмская область.*

Abstract. *This study presents the results of research on the main physiological characteristics of the medicinal plant Cistanche spp. introduced under the environmental conditions of the Khorezm region of Uzbekistan. The investigations were carried out during 2023–2025 in experimental plots located in the Yangiarik and Kushkupir districts. The study evaluated chlorophyll content, plant water status, photosynthetic intensity, and the accumulation of biologically active compounds, including phenolic compounds, flavonoids, and antioxidant activity. The obtained data were comparatively analyzed across the study years and cultivation sites. The results showed that the highest chlorophyll content was recorded in the Yangiarik district in 2024, reaching 2.36 ± 0.09 mg g^{-1}, whereas slightly lower values were observed in the Kushkupir district. The average water content in plant tissues reached 69.2% in Yangiarik and 67.6% in Kushkupir. Photosynthetic intensity was also higher in Yangiarik, averaging 9.0 mg CO_2 dm^{-2} h^{-1}, compared with 8.5 mg CO_2 dm^{-2} h^{-1} in Kushkupir. The highest concentrations of phenolic compounds (38.6 ± 1.4 mg g^{-1}), flavonoids (22.8 ± 0.9 mg g^{-1}), and antioxidant activity (71.4 ± 2.1%) were likewise recorded in plants cultivated in the Yangiarik district.*

Keywords: Cistanche spp.*, cistanche, phenology, growth stages, development dynamics, introduction, medicinal plant, Khorezm region.*

Cistanche – o'simlik ildizlarida parazitlik qiluvchi o'simlik. Uning ildizi va xloroplasti bo'lmagani uchun u fotosintez qila olmaydi. Shuning uchun u parazitlik qiladigan o'simliklarning ozuqalarini o'zlashtirib o'sadi [1, 4]. Xitoyda Cistanche cho'llarda topilgan va kasalliklarni davolash uchun dori sifatida ishlatiladi. Yaponiyada Cistanche oziq-ovqat va farmatsevtikada 2005 yilda Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligi tomonidan qayta ko'rib chiqilgandan so'ng oziq-

ovqat sifatida tasniflangan. Xitoyning keng qamrovli farmatsevtika lug'atiga ko'ra, u buyraklar faoliyatini yahshilaydi, jinsiy quvvatni oshiradi va ichaklarni silliqlaydi [3]. Shuningdek, jinsiy quvvatsizlik, bepushtlik, hayz davrining buzilishi, orqa va tizzaning psikroalgiyasini davolaydi. Cistanche salsa Xitoyda buyrak funktsiyasini va ozuqaviy boyitishni to'ldirish uchun buyurilgan dori sifatida klinik jihatdan keng qo'llanilgan. Biroq, so'nggi paytlarda Cistanche salsa qimmatbaho xom preparatini yig'ish qiyinlashdi [2]. Shu sababli, xuddi shu oilaga tegishli bo'lgan va Cistanche salsa bilan o'xshash ta'sir va funktsiyalarga ega bo'lgan turlar ma’lumotlar ortib bormoqda [5].

2023–2025-yillarda Xorazm viloyatining Yangiariq va Qo‘shko‘pir tumanlari sharoitida dorivor sistanxe (Cistanche spp.) o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida o‘simlikning hayotiy faoliyati va ekologik moslashuvchanligini baholovchi muhim ko‘rsatkichlar — xlorofill miqdori, suv miqdori (namlik), fotosintez intensivligi va biologik faol moddalarning to‘planish**i** muntazam ravishda aniqlanib, yillar va hududlar kesimida tahlil qilindi.

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘simlikning vegetativ rivojlanishi, biomassa hosil qilishi va dorivor xususiyatlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xorazm viloyatining issiq va quruq iqlim sharoiti o‘simlikning fiziologik jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Xlorofill miqdori o‘simlikning fotosintez faoliyatini va vegetativ rivojlanish darajasini aks ettiruvchi asosiy fiziologik ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sistanxe o‘simligida xlorofill miqdori vegetatsiya davrining o‘rtalarida maksimal darajaga yetgan.

Jadval 1.

Sistanxe o‘simligining xlorofill miqdori (mg/g) (2023–2025-yillar)

Hudud	2023 yil	2024 yil	2025 yil	O‘rtacha
Yangiariq	2.14 ± 0.08	2.36 ± 0.09	2.25 ± 0.08	2.25
Qo‘shko‘pir	2.05 ± 0.07	2.28 ± 0.08	2.17 ± 0.07	2.17

Natijalarga ko‘ra, eng yuqori xlorofill miqdori **2024-yilda Yangiariq hududida 2,36 mg/g** ni tashkil etdi. Bu davrda tuproq namligi va haroratning optimal darajada bo‘lishi fotosintez jarayonining faollashishiga olib kelgan. Qo‘shko‘pir hududida esa xlorofill miqdori barcha yillarda biroz pastroq bo‘lgani kuzatildi. Bu holat tuproq sho‘rlanish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, xlorofill miqdori ko‘rsatkichlari o‘simlikning vegetativ rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, biomassa massasi ortishi bilan parallel ravishda o‘zgarishi aniqlangan.

O‘simlik to‘qimalaridagi suv miqdori o‘simlikning fiziologik holatini va ekologik moslashuvchanligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sistanxe o‘simligida suv miqdori vegetatsiya davrining boshida yuqori bo‘lib, yoz oylarida biroz kamaygani kuzatildi.

Jadval 2.

Sistanxe o‘simligidagi suv miqdori (%) (2023–2025-yillar)

Hudud	2023 yil	2024 yil	2025 yil	O‘rtacha
Yangiariq	68.4 ± 1.6	70.2 ± 1.7	69.1 ± 1.5	69.2
Qo‘shko‘pir	66.8 ± 1.5	68.5 ± 1.6	67.4 ± 1.4	67.6

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘simlikdagi suv miqdori Yangiariq hududida barcha yillarda Qo‘shko‘pir hududiga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Eng yuqori ko‘rsatkich **2024-yilda 70,2 %** ni tashkil etdi. Bu o‘simlikning suv bilan ta’minlanganlik darajasi va tuproq namligining yetarli bo‘lishi bilan bog‘liq.

2025-yilda yoz oylarida haroratning oshishi natijasida suv miqdori biroz kamaygani kuzatildi. Bu holat o‘simlikning qurg‘oqchilik sharoitiga moslashuv mexanizmlari bilan bog‘liq.

Fotosintez intensivligi o‘simlikning o‘sish va rivojlanish jarayonlarini belgilovchi muhim fiziologik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sistanxe o‘simligida fotosintez intensivligi vegetatsiya davrining o‘rtalarida maksimal qiymatga yetgan.

Jadval 3.

Fotosintez intensivligi (mg CO_2/dm^2/soat) (2023–2025-yillar)

Hudud	2023 yil	2024 yil	2025 yil	O‘rtacha
Yangiariq	8.6 ± 0.3	9.4 ± 0.4	8.9 ± 0.3	9.0
Qo‘shko‘pir	8.1 ± 0.3	8.9 ± 0.3	8.4 ± 0.3	8.5

Fotosintez intensivligi ko‘rsatkichlari ham hududlar kesimida o‘xshash tendensiyaga ega bo‘lib, eng yuqori qiymatlar 2024-yilda kuzatildi. Yangiariq hududida fotosintez intensivligi barcha

yillarda yuqori bo‘lgani qayd etildi. Bu o‘simlikning vegetativ rivojlanishi uchun qulay agroekologik sharoit mavjudligini ko‘rsatadi.

Biologik faol moddalarning to‘planishi sistanxe o‘simligining dorivor qiymatini baholovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fenolik moddalar va flavonoidlar miqdori gullash davrida maksimal darajaga yetgan.

Jadval 4.

Biologik faol moddalarning miqdori (mg/g) (2023–2025-yillar)

Hudud	Fenolik moddalar	Flavonoidlar	Antioksidant faollik (%)
Yangiariq	38.6 ± 1.4	22.8 ± 0.9	71.4 ± 2.1
Qo‘shko‘pir	35.2 ± 1.2	20.6 ± 0.8	68.3 ± 1.9

Natijalarga ko‘ra, biologik faol moddalarning to‘planishi Yangiariq hududida yuqoriroq bo‘lgani aniqlandi. Bu o‘simlikning oziqlanish sharoiti va ekologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Eng yuqori antioksidant faollik **71,4 %** ni tashkil etdi.

2023–2025-yillarda Xorazm viloyatining Yangiariq va Qo‘shko‘pir tumanlari sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida sistanxe o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlari hududlar va yillar kesimida muayyan dinamikaga ega ekanligi aniqlandi. Xlorofill miqdori, suv miqdori va fotosintez intensivligi ko‘rsatkichlari o‘simlikning vegetativ rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, biologik faol moddalarning to‘planishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Umuman olganda, sistanxe o‘simligi Xorazm viloyatining arid iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan bo‘lib, fiziologik ko‘rsatkichlarining barqarorligi o‘simlikning yuqori ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Baltabaev.M, Otenova.F, Mirzambetov A. Bio-ecological diff rences of cistanche salsa in conditions of Karakalpakstan. World Bulletin of Public Health (WBPH) Available Online at: https://www.scholarexpress.net 15, 2022. P. 56-60.

2. Esanov, H.K., Murodov, S.A., Aslonova, K.A. and Qurbonova, N.H. (2022) Some Comments on the Types of Series Cistanche Hoffmanns. & Link, Distributed in Bukhara Region (Uzbekistan). American Journal of Plant Sciences, 13, 1063-1069. https://doi.org/10.4236/ajps.2022.137070

3. Li, Z., Lin, H., Gu, L., Gao, J. and Tzeng, C.-M. (2016) Herba Cistanche (Rou Cong-Rong): One of the Best Pharmaceutical Gifts of Traditional Chinese Medicine. Frontiers in Pharmacology, 7, Article No. 41. https://doi.org/10.3389/fphar.2016.00041

4. Schneeweiss, G, M., Palomeque, T. & Colwell, A. E. 2004: Chromosome numbers and karyotype evolution in holoparasitic Orobanche (Orobanchaceae) and related genera. American Journal of Botany 91: 349-448.

5. Tomari, N., Ishizuka, Y., Moriya, A., Kojima, S., Deyama, T., Mizukami, H. & Tu, P. 2002: Pharmacognostical studies of Cistanche herba (III): phylogenetic relationship of the Cistanche plants based on plastid rps2 gene and rpl16-rpl14 intergenic spacer sequences. Pharmaceutical Bulletin 25 (2): 218-222.

UO‘T: 631.527:631.524.5:633.51

“RETSEPROK” DURAGAYLASHDA QATNASHGAN NAVLARNING MIQDORIY BELGILARINING TAHLIL NATIJALARI

A.Sh.Samatov, laboratoriya mudiri, Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Oqqo‘rg‘on ilmiy-tajriba stansiyasi, Oqqo‘rg‘on

Annotatsiya. *PSUYAITI ning Oqqo‘rg‘on ilmiy-tajriba stansiyasi dala tajriba maydonlarida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida navlararo chatishtirishga jalb qilingan navlar o‘simlik bo‘yi bo‘yicha mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarida 102,2-120,5 sm.gacha oralig‘ida bo‘lib, andoza S-6524 navda ushbu ko‘rsatkich 112,0 sm.ni tashkil etdi. Hosil shoxi soni esa andoza navda 12,1 donani tashkil etib, duragaylashga jalb qilingan navlarda esa yuqori ko‘rsatkich Buxoro-10 g‘o‘za navida 14,0 dona va eng past ko‘rsatkich xorijiy g‘o‘za navida XinLuZao-52 navida 12,2 dona bo‘ldi, boshqa navlar ushbu ikkala nav oralig‘ida joy egalladi.*

Kalit so‘zlar: *G‘o‘za, nav, navlarning morfologik belgilari, navlarning qimmatli xo‘jalik belgilari, seleksiya, hosil shox.*

Аннотация. *На основе научно-исследовательских работ, проведённых на опытных полях Аккурганской научно-экспериментальной станции НИИ ПСУЯИТИ, установлено, что высота растений сортов хлопчатника, привлечённых к межсортовому скрещиванию, варьировала в пределах 102,2-120,5 см как у местных, так и у зарубежных сортов. У*

стандартного сорта S-6524 данный показатель составил 112,0 см. Количество плодовых ветвей у стандартного сорта составило 12,1 шт., тогда как у сортов, участвовавших в гибридизатsiu, наибольший показатель был отмечен у сорта Бухара-10 -14,0 шт., а наименьший-у зарубежного сорта XinLuZao-52-12,2 шт. Остальные сорта заняли промежуточное положение между этими значениями.

Ключевые слова: *Хлопчатник, сорт, морфологические признаки, хозяйственно-ценные признаки, селекция, плодовая (ярусная) ветвь.*

Abstract. *Based on scientific research conducted at the field experimental sites of the Akkurgan Scientific-Experimental Station of PSUYAITI, it was determined that plant height of cotton varieties involved in intervarietal hybridization ranged from 102.2 to 120.5 cm among both local and foreign varieties. In the standard variety S-6524, this indicator was 112.0 cm. The number of fruiting branches in the standard variety was 12.1, whereas among the hybridization-involved varieties, the highest value was observed in the Bukhara-10 variety (14.0), and the lowest in the foreign variety XinLuZao-52 (12.2). Other varieties occupied intermediate positions between these two values.*

Keywords: *Cotton, variety, morphological traits, agronomic traits, breeding, fruiting branch (yield branch).*

Kirish: Dunyo miqiyosida g‘o‘za seleksiyasiga doir ilmiy-tadqiqot ishlari yetakchi seleksioner-olim va mutaxassislar tomonidan chuqur izlanishlar olib borilmoqda. Yangi navlarni yaratish va ularning ekin maydonlari ko‘paytirishda genetika va seleksiya fanining zamonaviy uslublaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Paxtachilikda urug‘chilik tizimni rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 dekabrdagi PQ-391 sonli qarorida paxtachilikda zamonaviy agrotexnologiyalarni va urug‘chilikda erkin bozorni tashkil etish orqali hosildorlikni keskin oshirish paxta xom ashyosini yetishtirishda ilmiy innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni kengaytirish. Kelgusi yillarda ekish uchun xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini mahalliy sharoitda yetishtirishni tashkil etish. Navlarning biologik va mexanik ifloslanishining oldini olish maqsadida g‘o‘za navlari ekilayotgan hududlarda nav joylashtirish tartibiga qat’iy amal qilish. Hozirgi zamon talabiga javob beradigan yangi g‘o‘za navlarini yaratish seleksiyaning nazariy asoslarini rivojlantirishni, uning uslublarini takomillashtirishni, ya’ni yangi uslublarni qo‘llash asosida noyob yangi donorlar yaratishni talab etadi.

O‘zbekiston va jahon miqyosidagi o‘simlikshunoslik va dexqonchilikning dolzarb vazifalaridan biri davlatimiz tomonidan g‘o‘zaning serhosil, tezpishar, yuqori tola chiqimi va sifatiga ega, vilt kasalligi va turli qishloq xo‘jalik zararkunandalariga, sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan yangi navlarini yaratishga juda katta e’tibor beriblib kelinmoqda, chunki bu soha respublikamizning asosiy iqttisodiy negizlaridan biri hisoblanadi [1]. Ma’lumki, hozirgi davrda ishlab chiqarishda ekilayotgan g‘o‘za navlari, asosan, genom ichi duragaylari va navlararo chatishtirish orqali yaratilganligi bo‘lgani uchun, ularga xos qimmatli-xo‘jalik belgilarini, seleksion uslublardan foydalangan holda, tubdan o‘zgartirish qiyin (Pulatov va boshqalar mualliflar tomonidan 1992 y) [2].

Turlararo duragaylarda tezpisharlikning irsiylanish jarayonini o‘rganishda ushbu belgini hosil qiluvchi omillardan hisoblangan shonalashgacha bo‘lgan davr, hamda ushbu belgining shakllanishida qayta chatishtirishning ta’siri katta ekanligi, uni ota-ona sifatida qanday namuna qatnashayotganligiga uzviy bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi [4].

Tezpisharligi bilan bir-biriga yaqin shakllar chatishtirishga jalb etilganda, duragaylarda ko‘sak yirikligi o‘rtacha ko‘rsatkichga yaqin bo‘ladi yoki aksincha, turli tezpisharlikka ega namunalar chatishtirilganda esa, ularning duragay avlodlarida yirik ko‘sak vaznli ota yoki ona shakllar tomoniga og‘ganligini aniqlaganlar. G‘o‘zaning G.hirsutum turiga mansub o‘rtacha yiriklikdagi ko‘sakka ega bo‘lgan navlarni yirik ko‘sakli nav bilan chatishtirish natijasida olingan duragaylarda ushbu belgining irsiylanishi oraliq holda bo‘lganligi keltirib o‘tilgan [3].

G‘o‘za navlarini ishlab chiqarishda uzoq yillar mobaynida keng maydonlarda yetishtirishda-sifatli urug‘lik va nav tozaligi asosiy omil hisoblanadi. Rayonlashgan g‘o‘za navlarining asosiy

mezonlaridan biri nav tozaligidir. Nav tozaligi standart talablaridan past bo‘lmasligi bilan birga u serhosil, tezpishar, kasalliklarga bardoshli hamda yuqori tola sifatiga va chiqimiga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu bois, g‘o‘za navlari ustida urug‘chilik ishlarini, ya’ni, navlarni genetik tozaligini me’yorida ushlab turish va urug‘larini ko‘paytirish urug‘chilikda eng muhim vazifa hisoblanadi.

Materiallar va uslublar: Dala tajribasi Oqqo‘rg‘on ilmiy-tajriba stansiyasining o‘tloq bo‘z tuproq-iqlim sharoitida qabul qilingan seleksion tizim asosida g‘o‘zani xorijdan keltrilgan XinLuZao-78 va XinLuZao-52 hamda mahalliy Ravnaq-1, Namangan-77, Oqqo‘rg‘on-2022, Buxoro-10, Porloq-4, Sulton, S-8290 va S-6524 tanlangan navlarida olib borildi.

1-jadval

Duragaylashga qatnashgan navlarning morfologik belgilarini ko‘rsatkichlari

№	Navlar	O‘simlik bo‘yi (sm)	Hosil shoxi soni (dona)	Bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni (dona)
1	S-6524 (st)	**112,0**	**12,1**	**12,5**
2	XinLuZao-78	110,5	12,5	14,8
3	XinLuZao-52	100,2	12,2	13,7
4	Ravnaq-1	120,4	12,7	14,2
5	Namangan-77	117,7	12,4	13,9
6	Oqqo‘rg‘on-2022	104,4	12,9	14,8
7	Buxoro-10	120,5	14,0	13,7
8	S-6524	112,2	12,3	12,7
9	Porloq-4	120,4	12,2	13,8
10	Sulton	118,7	12,4	13,9
11	S-8290	115,3	13,7	14,5

Natijalar va munozara: Maqola 2025 yil Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on ilmiy-tajriba stansiyasi dala tajriba maydonlarida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida tayyorlangan. Tajriba dalasining tuprog‘i sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproq sharoitida, sizot suvlari 3-4 metr chuqurlikda joylashgan. Tadqiqotlarda o‘tkazilgan kuzatuvlar qabul qilingan seleksion tizim asosida olib borildi. Ushbu navlarni ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari va tola sifatini baholashga alohida ahamiyat berildi. Tadqiqotda, g‘o‘zaning S-6524 navi andoza sifatida qatnashdi. Barcha navlar ushbu navga taqqoslab o‘rganildi.

Navlararo chatishtirishga jalb qilingan navlar o‘simlik bo‘yi bo‘yicha mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarida 102,2-120,5 sm.gacha oralig‘ida bo‘lib, andoza S-6524 navda ushbu ko‘rsatkich 112,0 sm.ni tashkil etdi.

Hosil shoxi soni esa andoza navda 12,1 dona tashkil etib, duragaylashga jalb qilingan navlarda esa yuqori ko‘rsatkich Buxoro-10 g‘o‘za navida 14,0 dona va eng past ko‘rsatkich xorijiy g‘o‘za navida XinLuZao-52 navida 12,2 dona bo‘di, boshqa navlar ushbu ikkala nav oralig‘ida joy egalladi (1-jadval).

Bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni andoza navida 12,5 dona, chatishtirishga jalb qilgan navlarda esa 12,7 donadan 14,8 donagacha bo‘lganligi aniqlandi. Laboratoriya sharoitida navlararo duragaylashda ishtirok etgan navlarning qimmatli xo‘jalik belgilarning ko‘rsatkichlari aniqlandi. Vegetatsiya davrida andoza sifatida ishtirok etgan g‘o‘zaning S-6524 navida ushbu ko‘rsatkich 121,0 kunni tashkil etgan bo‘lsa, chatishtirishda ishtirok etgan navlar orasida eng ertapishari Oqqo‘rg‘on-2022 va S-7327 navi 110,0 kun bo‘lgan bo‘lsa, andoza navga nisbatan farqi 11 kunga va S-6587 navi 115,0 kunni tashkil qilib, 6-kun farqi bilan ertapishar bo‘lganligini namoyon qildi, qolgan navlar esa 117,0-118,0 kun bo‘lib, farqi 3-4 kun ertapishar bo‘lganligi kuzatildi.

Paxta hosildorligi bo‘yicha o‘rganilgan navlarning ko‘rsatkichi andoza navga nisbatan 5,5-7,0 sentner yuqori bo‘ldi. O‘rganilgan navlarning hosildorligi o‘rtacha 35,0-40,5 s/ ga ni tashkil etib, eng yuqori natija Oqqo‘rg‘on-2022 navida kuzatildi, qolgan navlar ham andoza navga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turdi. Tola hosildorligi bo‘yicha ham barcha navlar andozadan ustun keldi ayniqsa XinLuZao-78 va Oqqo‘rg‘on-2022, g‘o‘za navlari 42,7-38,8 % tola hosilini berishi kuzatildi.

Andoza S-6524 navini bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 5,6 gramm bo‘lib, o‘rganilgan navlarda bu ko‘rsatkich 6,4 grammdan 6,8 g. gacha bo‘ldi. Eng yaxshi natija Sulton va Oqqo‘rg‘on-2022 navida kuzatilib, bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 0,8 g.ni, farqi esa 1,2 gramm yuqori bo‘lganligi

aniqlandi. Shu jumladan, andoza navga nisbatan xorijiy XinLuZao-78 g'o'za navida-0,6 gramm past natija kuzatildi (2 jadval).

2-jadval.

Duragaylashda qatnashgan navlarning qimmatli xo'jalik belgilarini ko'rsatkichlari

Navlar nomi	Vegetatsiya davri		Paxta hosildorligi		Tola hosili		Bir dona ko'sakdagi paxta vazni		Tola chiqimi		1000 dona chigit vazni	
	kun	farqi	s/ga	farqi	s/ga	farqi	g	farqi	%	farqi	g	farqi
S-6424 (st)	121,0	-	33,5	-	10,3	-	5,6	-	35,1	-	119,0	-
XinLuZao-78	120,0	-1,0	39,0	5,5	19,0	9,2	5,0	-0,6	42,7	7,6	115,6	-3,4
Oqqo'rg'on-2022	111,0	-10,0	40,5	7,0	18,5	8,2	6,8	1,2	38,8	3,7	126,2	7,2
Sulton	118,0	-3,0	38,5	5,0	18,5	8,2	6,8	1,2	37,9	2,8	125,4	6,4
S-7327	111,0	-10,0	35,0	1,5	18,0	7,7	6,5	0,9	36,2	1,1	119,8	0,8
S-6587	115,0	-6,0	37,5	4,0	18,0	7,7	6,7	1,1	37,8	2,7	125,6	6,6
S-6602	118,0	-3,0	39,0	5,5	16,5	6,2	6,5	0,9	36,3	1,2	125,4	6,4
S-5713	117,0	-4,0	37,2	3,7	17,5	7,2	6,4	0,8	37,2	2,1	120,2	1,2
SP-2532	118,0	-3,0	35,0	1,5	17,5	7,2	6,2	0,6	36,2	1,1	120,2	1,2
S-5709	118,0	-3,0	39,2	5,7	17,5	7,2	6,8	1,2	37,9	2,8	125,4	6,4

Shu bilan birga, tola chiqimi va 1000 dona chigit vazni belgilari ham mos ravishda andoza navga nisbatan ustunlikni namoyon qilganligi aniqlandi.

Bu ikki belgi o'rtasida teskari korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lib, olingan natijalarga ko'ra, bu bog'liqliklarni bartaraf etishga erishilganligi va navlarning har ikkala belgi bo'yicha ko'rsatkichi yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

Yangi navlarga mos ravishda tola chiqimi 45,7-38,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori tola chiqimi xorijiy XinLuZao-78 g'o'za navida 45,7 % farqi esa 7,6 foizga yuqoriligi bilan ajralib chiqqanligi kuzatildi. 1000 dona chigit vazni bo'yicha navlararo chatishtirishda ishtirok etgan navlarda o'rtacha 119,8-125,6 gramm oraliqni tashkil etdi. Andoza navda 119,0 gramm bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham chatishtirishga jalb qilingan barcha navlar ustunlikni namoyon qildi.

Toshkent viloyatida ishlab chiqarish amaliyotida bunday navlarni ekish yaxshi samara berishi yana bir bor isbotlandi qolgan barcha navlarimiz ham andoza navidan ustunlikni namoyon qildi. O'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida yuqori hosil olish uchun zamin yaratishda amaliyotda ekilayotgan navlarni bir dona ko'sakdagi paxta vazniga ham e'tibor qaratilishi bugungi kunga dolzarb hisoblanib, tadqiqotlarda ushbu belgiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Xulosa qilib aytganda: Vegetatsiya davri mobaynida andoza navga nisbatan tajribalarda qatnashayotgan barcha navlar 3 kundan 11 kungacha farq bilan ertapishar bo'lganligi kuzatildi. Shu bilan birga, tola chiqimi va 1000 dona chigit vazni belgilari ham mos ravishda andoza navga nisbatan ustunlikni namoyon qilganligi aniqlandi. Tadqiqotlarda bir tup o'simlikdagi ko'saklar soni bo'yicha ham xorijdan keltirilgan XinLuZao-78 va XinLuZao-52 navlari bilan mahalliy navlar ishtiroikdagi F_1 duragaylarda asosiy kombinasiyalarda ota-ona shakllariga nisbatan ijobiy dominantlik holatida bo'lganligi aniqlanib, ushbu belgilar bo'yicha ota-ona shakllariga nisbatan yuqori bo'lgan duragaylar olishga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.

2. Пулатов М., Арутюнова Л.Г., Эгамбердиев А. Новый генофонд хлопчатника, полученный на базе межвидовой гибридизации // В.сб. Вопросы генетики, селекции и семеноводство хлопчатника.– Ташкент, 1992.– С.33-42.

3. Ибрагимов Ш.И., Гесос К.Ф., Ахмедов Д.Х. Гетерозис у межвидовых и внутривидовых гибридов //Хлопководство. – Москва, 1979. – № 4. –С.37-39.

4. Mamaraximov B., Xoliqova M., Xolmurodov A., Saydaliyev H. G.tomentosum ishtirokida olingan turlararo duragaylarda tola chiqimining irsiylanishi // G'o'za genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va bedachilik to'plami.-Toshkent, 2000-B.67-70.

UO'K: (575,13)619:636,31:591.111:616-074

SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA HISOR ZOTLI QO'YLAR ORGANIZMINING QON BIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARINI LABORATORIYAVIY TAHLIL QILISH

D.K.Shirinboyeva, tayanch doktorant, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Samarqand
ORCID:0009-0005-7147-6369
G.DJ.Kutliyeva, kat.i.x., O'zR FA Mikrobiologiya ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent
ORCID:000-0001-6480-1817

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Samarqand tumani O'zbekkenti mahallasidagi xonadon sharoitida parvarishlanayotgan Hisori zotli qo'ylar organizmining qon biokimyoviy tekshirish tahlillari o'rganildi.Tadqiqotning dastlabki bosqichida Hisor qo'ylarining bo'yinturuq venasidan (vena jugularis) laboratoriya tahlillari uchun qon olindi. Rayto Chemray 330 avtomat analizatorida qonning biokimyoviy tahlillari o'tkazildi. Tahlil natijalari AlT (21–33 U/L), AsT (91–101 U/L) va kreatinin (52–66 µmol/L) ko'rsatkichlari me'yorida ekanligini ko'rsatdi. Ayrim hayvonlarda glyukoza va bilirubin miqdorining biroz yuqoriligi individual metabolik adaptatsiya xususiyatlar bilan izohlandi.Umumiy biokimyoviy tahlil natijalari qoniqarli deb topilib, sog`lom qo`ylar ajratib olinan holda hayvonlar ratsioniga qo`shimcha fermentli biopreparatni qo'shib berish bo'yicha tajribalarni boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Olingan natijalar keyingi ilmiy izlanishlar uchun asosiy nazorat ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Hisori qo'y, biokimyoviy tahlil, AlT, AsT, kreatinin, ozuqa qo'shimchasi, sellyuloza , probiotik bakteriyalar.*

Аннотация. *В данной работе изучены биохимические показатели крови овец гиссарской породы, содержащихся в условиях приусадебных хозяйств махалли «Узбеккенти» Самаркандского района. На начальном этапе исследования для лабораторного анализа были отобраны образцы крови из яремной вены (vena jugularis). Биохимические исследования проводились на автоматическом анализаторе Rayto Chemray 330. Результаты анализа показали, что уровни АлТ (21–33 Ед/л), АсТ (91–101 Ед/л) и креатинина (52–66 мкмоль/л) находятся в пределах нормы. Незначительное повышение содержания глюкозы и билирубина у отдельных животных было обусловлено индивидуальными особенностями метаболической адаптации. Общие результаты биохимического профиля признаны удовлетворительными, в связи с чем на отобранном поголовье здоровых овец целесообразно начать эксперименты по включению в рацион ферментных биопрепаратов. Полученные данные послужат в качестве контрольных показателей для дальнейших научных изысканий.*

Ключевые слова*: гиссарская овца, биохимический анализ, АлТ, АсТ, креатинин, кормовая добавка, целлюлоза, пробиотические бактерии.*

Abstract. *This study investigates the biochemical blood parameters of Hissar sheep kept under household conditions in the Uzbekkenti mahalla of the Samarkand district. In the initial phase of the research, blood samples were collected from the jugular vein (vena jugularis) for laboratory analysis. Biochemical testing was conducted using the Rayto Chemray 330 automated analyzer. The results indicated that ALT (21–33 U/L), AST (91–101 U/L), and creatinine (52–66 µmol/L) levels remained within the physiological norm. Slightly elevated levels of glucose and bilirubin in some animals were attributed to individual metabolic adaptation characteristics. The overall biochemical profile was found to be satisfactory. Healthy sheep were selected for further experiments involving the supplementation of the diet with enzymatic biopreparations. The obtained data will serve as baseline control indicators for subsequent scientific research.*

Keywords*: Hissar sheep, biochemical analysis, ALT, AST, creatinine, feed additive, cellulose, probiotic bacteria*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Dunyo miqyosida chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, chorva hayvonlarini boqishda intensiv texnologiyalardan foydalanish va ozuqa ratsionini optimallashtirish masalalarini kun tartibiga qo'ymoqda. Ayniqsa, Respublikamizda

chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘ychilik tarmog‘i muhim o‘rin tutib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qo‘y go‘shti o‘z ulushiga ega hisoblanadi. Go‘sht va yog‘ yo‘nalishidagi Hisori qo‘y zotlarining genetik salohiyatini to‘liq namoyon etish uchun ularning hazm qilish tizimi mikroflorasini yaxshilash va ozuqa moddalarining o‘zlashtirilish darajasini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda chorvachilikda ekologik xavfsiz biopreparatlar, jumladan, sellyulolitik va probiotik bakteriyalar kompleksidan foydalanishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunday ozuqa qo‘shimchalari kavsh qaytaruvchi hayvonlar organizmidagi mikrobiologik jarayonlarni barqarorlashtirish orqali modda almashinuvi (metabolizm) va umumiy rezistentlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda probiotik bakteriyalar konsepsiyasi inson salomatligini saqlash yoki tiklashga doir amaliyotlarda keng ma’lum bo‘lsa-da, ularning hayvonlar ozuqasidagi o‘rni ancha kam o‘rganilgan. Biroq, faqat XX asrning boshlariga kelib, Nobel mukofoti sovrindori Ilya Mechnikov birinchi bo‘lib fermentatsiyalovchi bakteriyalarning salomatlikdagi rolini tavsifladi va o‘rgandi[4-5]. O‘sha davrda "probiotik" (salomatlikni mustahkamlovchi tirik mikroorganizmlar) tushunchasi paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ushbu terminning qat’iy ta’rifi faqat 2001-yilda shakllantirildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti [7] hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ekspertlar guruhi probiotiklarga quyidagicha ta’rif berdi: "Tegishli miqdorda yuborilganda xo‘jayin organizmiga salomatlik jihatidan foyda keltiradigan tirik mikroorganizmlar"[8-9]. Ushbu ta’rif 2002-yilda FAO/JSST tomonidan tasdiqlangan va 2014-yilda Hill va boshqalar tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda ilmiy hamjamiyat va aksariyat davlat muassasalari tomonidan e’tirof etilgan.

Veterinariya sohasida hayvonlarning ozuqa bazasining asosi somon, makkajo‘xori va turli o‘simlik qoldiqlari (yantoq, izen) hisoblanadi [10-11]. Yer yuzidagi eng keng tarqalgan sutemizuvchilar guruhi bo‘lgan kavsh qaytaruvchi hayvonlar hozirda taxminan 150 ta xonaki va yovvoyi turlarni o‘z ichiga oladi, iqtisodiy qiziqish esa asosan qoramol, qo‘y, echki yetishtirishga qaratilgan.

Optimallashtirilgan oshqozon fermentatsiyasi kavsh qaytaruvchilarning salomatligi va mahsuldorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega, chunki xo‘jalik hayvonlarining bir qancha fiziologik ko‘rsatkichlari oshqozon (qatqorin) mikrobiomining turli bakterial a'zolari ko‘pligi bilan uzviy bog‘liqdir[16].

Shu maqsadda, chorvachilikda oshqozon va ichak metabolizmini foydali tarzda boshqarish uchun dag`al ozuqani oson o`zlashtirishga yordam beradigan sellyulolitik bakteriyalar ustida O`zRFA “Mikrobiologiya ilmiy tadqiqot instituti” olimlari muhim tadqiqotlar olib borishmoqda[12]. Tabiatda eng keng tarqalgan uglerod birikmasi — sellyuloza. Sellyuloza o‘simliklar massasining 15–60 % ni tashkil qiladi, paxta va zig‘irda sellyuloza miqdori 80–95 % ga yetadi. Hayvonlar va o‘simliklar sellyulozani parchalay olmasligi sababli, ushbu jarayonda mikroorganizmlarning global roli alohida ahamiyat kasb etadi[11-16]. Sellyulozani parchalovchi bakteriyalar turli xil yashash joylaridan, masalan, tuproqdan, chirigan o‘simlik qoldiqlaridan, kompostlardan, yirik shoxli va kavsh qaytaruvchi hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimidan ajratib olinishi mumkin[20].Ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida probiotik va sellyulolitik bakteriyalar komplekslarning hayvonlar mahsuldorligiga ijobiy ta’siri qayd etilgan bo‘lsa-da, Samarqand viloyatining o‘ziga xos iqlim-tuproq va oziqlantirish sharoitida Hisori qo‘ylarining biokimyoviy, fiziologik holatiga ushbu qo‘shimchalarning ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Hayvonlar organizmidagi biokimyoviy gomeostazning holati ularning salomatligi va mahsuldorlik imkoniyatlarini belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Samarqand tumani sharoitida parvarishlanayotgan Hisori zotli qo‘ylar organizmining qon asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlarini (AlT, AsT, kreatinin, glyukoza va b.) aniqlash hamda sellyulolitik va probiotik bakteriyalar kompleksi asosidagi fermentli ozuqa qo‘shimchasini qo‘llashdan oldin hayvonlarning umumiy fiziologik holatini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.Tadqiqotni amalga oshirish. Tadqiqotlar 2024-yil davomida Samarqand viloyati, Samarqand tumani, “O‘zbekkenti” MFY hududidagi xususiy xonadon sharoitida

parvarishlanayotgan Hisori zotli qo‘ylarda olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘xshashlik tamoyili asosida (yoshi, vazni va jinsi bir xil bo‘lgan) sog‘lom qo‘ylar tanlab olindi.Laboratoriyaviy va biokimyoviy tahlillar. Biokimyoviy ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun hayvonlarning bo‘yinturuq venasidan (Vena jugularis) 5-10 ml miqdorda qon namunalari olindi. Zaruriy asbob-anjomlar :vakuumli probirkalar: (zardob uchun sariq qopqoqli),speral ignalar: (odatda 18G yoki 20G o‘lchamli),antiseptik: 70% li etil spirti yoki yod eritmasi,paxta yoki doka artkichlar.

Hayvonni fiksatsiya qilindi (tinchlantirish). Anatomik nuqtani aniqlash. Bo‘yinturuq venasi bo‘yinning pastki qismida, bo‘yinturuq egatida (sulcus jugularis) joylashgan. Bo‘yinning o‘rta yoki yuqori uchdan bir qismi tanlandi. Venani qisilib , 30-45 gradus burchak ostida igna sanchilib ,qon olindi. Qon zardobini ajratish uchun namunalar 3000 aylanish/daqiqa tezlikda sentrifugalandi.

Tahlillar Universitet laboratoriya sharoitida, zamonaviy Rayto Chemray 330 (Xitoy) avtomatik biokimyoviy analizatori yordamida o‘tkazildi. Unda quyidagi parametrlar tekshirildi: Enzimlar faolligi: Alaninaminotransferaza (ALT) va aspartataminotransferaza (AST). Uglevod almashinuvi: Glyukoza miqdori. Ekskretor funksiya: Kreatinin, umumiy va bog‘langan bilirubin.

Ishlatilgan laboratoriya reaktivlari to`plami: Qonni vakuumli olish uchun ivish aktivatori va gelli probirkalar, sariq qopqoqli, 13x100 mm, 6 ml.

Глюкоза-витал b 05.01, креатин- витал b 04.04, аст- витал b 02.05, алт- витал b 01.05 , билирубин-витал b 03.12

Hisor qo`ylaridan olingan qon namunalarining biokimyoviy tahlili to`liq tekshirildi.(1-jadval)

1-jadval.

Hisor qo`ylaridan olingan qon namunalarining biokimyoviy tahlili

Raqamlangan qo`ylar	Yoshi	ALT (U/L)		AST (U/L)		Umumiy bilirubin (µmol/L)		Bog‘langan bilirubin (µmol/L)		Kreatinin (µmol/L)		Glyukoza (mmol/L)	
		Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi	Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi	Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi	Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi	Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi	Me`yoriy Ko`rsatkich	Tahlil ko`rsatkichi
1	2	15–35	21.0 ± 2.1	60–280	100.0 ± 10.2	0.5–8.5	68.22 ± 6.45	0–3.5	68.97 ± 6.52	50–140	58.0 ± 5.6	2.7–4.2	3.77 ± 0.35
2	2	15–35	27.0 ± 2.8	60–280	91.0 ± 8.9	0.5–8.5	7.36 ± 0.68	0–3.5	4.42 ± 0.39	50–140	63.0 ± 6.1	2.7–4.2	5.98 ± 0.56
3	2	15–35	33.0 ± 3.4	60–280	93.0 ± 9.1	0.5–8.5	6.62 ± 0.61	0–3.5	4.97 ± 0.44	50–140	66.0 ± 6.4	2.7–4.2	6.18 ± 0.58
4	2	15–35	23.0 ± 2.4	60–280	99.0 ± 9.8	0.5–8.5	55.29 ± 5.23	0–3.5	66.35 ± 6.18	50–140	57.0 ± 5.5	2.7–4.2	3.87 ± 0.36
5	2	15–35	26.0 ± 2.7	60–280	93.0 ± 9.2	0.5–8.5	7.98 ± 0.74	0–3.5	5.30 ± 0.48	50–140	54.0 ± 5.2	2.7–4.2	6.11 ± 0.57
6	2	15–35	21.0 ± 2.2	60–280	101.0 ± 10.4	0.5–8.5	67.89 ± 6.42	0–3.5	56.14 ± 5.32	50–140	52.0 ± 5.0	2.7–4.2	3.68 ± 0.34
7	2	15–35	23.0 ± 2.3	60–280	99.0 ± 9.7	0.5–8.5	55.29 ± 5.18	0–3.5	66.30 ± 6.25	50–140	57.0 ± 5.4	2.7–4.2	3.87 ± 0.36
8	2	15–35	33.0 ± 3.5	60–280	93.0 ± 9.0	0.5–8.5	6.62 ± 0.59	0–3.5	4.97 ± 0.46	50–140	66.0 ± 6.3	2.7–4.2	6.18 ± 0.59

Tahlil va natijalar. Namunani tayyorlash. Qon olingandan so‘ng, zardobni shaklli elementlardan (eritrotsit, leykotsit) ajratish uchun namunani 3000–3500 aylanish tezligida 10–15 daqiqa davomida sentrifugalandi. Ajralib chiqqan tiniq zardobni ehtiyotkorlik bilan toza mikrotubalarga o‘tkazildi. Qon zardoblari Rayto Chemray 330 analizatorida tahlil qilindi.(1-rasm)



1-rasm. Qon zardoblarning biokimyoviy analizatori uskunasiga raqamlab joylashtirilgan namunalari

1. Fermentlar faolligi va buyrak funksiyasi .Jigar faoliyatini belgilovchi ALT (21–33 U/L) va AST (91–101 U/L) fermentlari barcha hayvonlarda umumqabul qilingan me'yoriy ko'rsatkichlar (ALT: 15–35; AST: 60–280) ichida saqlangan. Shuningdek, kreatinin miqdori 52–66 μmol/Lni tashkil etib, buyraklarning ekskretor funksiyasi barqaror ekanligini tasdiqladi.

2. Uglevod va pigment almashinuvi tahlili .Glyukoza miqdori ayrim qo'ylarda (№1, №4, №6, №7) me'yoriy diapazonda (3,68–3,87 mmol/L) bo'lsa, qolgan hayvonlarda (5,98–6,18 mmol/L) biroz yuqoriligi kuzatildi. Bu holat oziqlantirish ratsionidagi uglevodlar nisbati yoki qon olish jarayonidagi qisqa muddatli alimentar omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bilirubin miqdorida sezilarli individual farqlar qayd etildi. Ayrim hayvonlarda (№1, №4, №6, №7) umumiy bilirubin (55,29–68,22 μmol/L) va bog'langan bilirubin (56,14–68,97 μmol/L) darajasi me'yordan yuqori ekanligi aniqlandi.

Ilmiy tahlil: Bilirubin miqdorining bunday yuqoriligi hayvonlarda klinik patologiya belgilari (sariqlik, ishtahasizlik) bilan kuzatilmadi. Bu holatni Hisori zoti uchun xos bo'lgan oqsillar parchalanishining jadal kechishi yoki jigarning individual metabolik adaptatsiyasi sifatida talqin qilish mumkin. Umumiy klinik va biokimyoviy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba uchun tanlab olingan Hisori qo'ylari fiziologik jihatdan sog'lom va ularning metabolik holati qoniqarli. Bu esa sellyulolitik va probiotik bakteriyalar kompleksi asosida tayyorlangan yangi biopreparatning samaradorligini sinash uchun ishonchli bazaviy asos (nazorat ko'rsatkichlari) bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari Samarqand viloyati sharoitida Hisori zotli qo'ylarning fiziologik va biokimyoviy statusi bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi: Klinik-fiziologik barqarorlik: Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan Hisori qo'ylarining umumiy klinik holati, tana harorati (38,7–39,2 °C), puls va nafas olish ko'rsatkichlari zot standartlari va fiziologik me'yorlar doirasida ekanligi aniqlandi. Katta qorin motorikasining (2 daqiqada 2-3 marta) barqarorligi ovqat hazm qilish tizimining fermentli ozuqa qo'shimchalarini qabul qilishga tayyorligini ko'rsatdi. Biokimyoviy tahlil: Qon zardobidagi ALT (21–33 U/L) va AST (91–101 U/L) faolligi hamda kreatinin (52–66 μmol/L) miqdori jigar va buyraklarning funksional holati me'yorda ekanligini tasdiqladi. Glyukoza va bilirubin miqdorining ayrim hayvonlarda yuqoriligi patologik holat emas, balki individual metabolik adaptatsiya va Hisori zotiga xos bo'lgan jadal modda almashinuvi jarayonlarining natijasidir. Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy vazifa — biopreparatni qo'llashdan oldin hayvonlarning bazaviy salomatlik ko'rsatkichlarini aniqlash edi. Tanlab olingan hayvonlar guruhi fiziologik jihatdan sog'lom va bir jinsli (homogen) deb topildi. Bu esa sellyulolitik va probiotik bakteriyalar kompleksining ta'sirini o'rganish bo'yicha keyingi tajribalarni o'tkazish uchun ishonchli nazorat bazasini yaratdi. Kelajakdagi tadqiqot ishlarida mazkur biopreparatning ta'siri natijasida qondagi bilirubin va glyukoza dinamikasini o'rganish, shuningdek, kletchatkani parchalash samaradorligini aniqlash maqsadida katta qorin mikrobiotasining turlari tarkibini molekulyar-genetik (PCR) usullarda tahlil qilish rejalashtirilgan. Keyingi bosqichlarda mikrobiologik fermentli ozuqa qo'shimchasining hayvonlarning tirik vazn ortishiga, jun sifatiga va ozuqa konversiyasiga (sarf-xarajatiga) ta'sirini iqtisodiy jihatdan baholash chorvachilik subyektlari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ №187 sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish" to'g'risidagi qarori

2. Abdulamir AS, Jassim SA, Abu Bakar F (2014) Novel approach of using a cocktail of designed bacteriophages against gut pathogenic E. coli for bacterial load biocontrol. Ann Clin Microbiol Antimicrob 13:39. https://doi.org/10.1186/s12941-014-0039-z

3. Abid A, Davies SJ, Waines P, Emery M, Castex M, Gioacchini G, Carnevali O, Bickerdike R, Romero J, Merrifield DL (2013) Dietary synbiotic application modulates Atlantic salmon

4. (Salmo salar) intestinal microbial communities and intestinal immunity. Fish Shellfish Immunol 35(6):1948–1956. https://doi.org/10.1016/j.fsi.2013.09.039

5. Ahasan A, Agazzi A, Invernizzi G, Bontempo V, Savoini G (2015) The beneficial role of probiotics in monogastric animal nutrition and health. J Dairy Vet Anim Res 2(4):00041. 10.15406/jdvar.2015.02.00041

6. Ai Q, Xu H, Mai K, Xu W, Wang J, Zhang W (2011) Effects of dietary supplementation of Bacillus subtilis and fructooligosaccharide on growth performance, survival, non-specific immune response and disease resistance of juvenile large yellow croaker, Larimichthys crocea. Aquaculture 317(1–4):155–161. https://doi.org/10.1016/j.aquaculture.2011.04.036

7. Bayer, E. A., Shoham, Y., Lamed, R. (2006). Cellulose-Decomposing Bacteria and Their Enzyme Systems. In: Dworkin, M. (Ed.), The Prokaryotes. Springer.

8. Boutin S, Audet C, Derome N (2013) Probiotic treatment by indigenous bacteria decreases mortality without disturbing the natural microbiota of Salvelinus fontinalis. Can J Microbiol 59(10):662–670. https://doi.org/10.1139/cjm-2013-0443

9. Breytenbach JH (1999) Guidelines for effective vaccination of broilers. Int Poult Prod 13(7):7– http://www.positiveaction.info/pdfs/articles/pp13.7p7.pdf

10. Buddle BM, Denis M, Attwood GT, Altermann E, Janssen PH, Ronimus RS, Pinares-Patino CS, Muetzel S, Neil Wedlock D (2011) Strategies to reduce methane emissions from farmed ruminants grazing on pasture. Vet J 188(1):11–17. https://doi.org/10.1016/j.tvjl.2010.02.019

11. Bybee SN, Scorza AV, Lappin MR (2011) Effect of the probiotic Enterococcus faecium SF68 on presence of diarrhea in cats and dogs housed in an animal shelter. J Vet Intern Med 25(4):856–860. https://doi.org/10.1111/j.1939-1676.2011.0738.x

12. Bakhora Turaeva, Guzal Kutlieva, Khulkar Kamolova, Nigora Zukhritdinova. Isolation and identification of bacteria with cellulolytic activity from the microflora of animal juice //Journal of Wildlife and Biodiversity. -2023. -V. 7(4). -P. 241-264. http://www.wildlife-biodiversity.com/

13. J. Laporta, F.C. Ferreira, V. Ouellet, B. Dado-Senn, A.K. Learn more about the role of rumen microorganisms and their impact on the host's performance and health. Journal of Dairy Science (https://www.sciencedirect.com/journal/journal-of-dairy-science) Volume 103, Issue 8 (https://www.sciencedirect.com/journal/journal-of-dairy-science/vol/103/issue/8), August 2020, Pages 7555-7568.

14. FAO (2012) The state of world fisheries and aquaculture. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Fisheries and Aquaculture Department, Rome. http://www.fao.org/3/a-i2727e. pdf

15. Karimov A. A., To'rayev S. R. (2020). Mikrobiologik fermentlar va ularning texnologik ahamiyati. Toshkent: Fan va Texnologiya.

16. Karimov A. A., Ismoilov U. A. (2016). Sellyulolitik bakteriyalarni ajratib olish va ularning fermentativ faolligi. O'zbekiston Biotexnologiya Jurnali, 2(1), 45-52.

17. Kutlieva G. J. Turaeva B.I. Kamolova H.F. Kuziev B.U. New possibilities of application of cellulolytic bacteriya Bacillus Subtilis isolated from local termites anacanthotermes turkestanicus // International asian congress on contemporary sciences VIII. Aksaray, Turkiye. -2023. 328. p.

18. Lynd, L. R., Weimer, P. J., van Zyl, W. H., Pretorius, I. S. (2002). Microbial Cellulose Utilization: Fundamentals and Biotechnology. Microbiology and Molecular Biology Reviews, 66(3), 506-577.

19. Olsson, L., Wallberg, O. (2018). Cellulose Bioconversion to Bioproducts: Principles and Applications. CRC Press.

20. Sukumaran, R. K., Singhania, R. R., Pandey, A. (2016). Microbial Enzymes in Bioconversions of Biomass. Springer.

UDC 572.783-572.784

COMPARATIVE ASSESSMENT OF THE MORPHOFUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF FEMALE ATHLETES BASED ON BEEP TEST INDICATORS

G.D.Shirliyeva, doctoral student, Karakalpak State University, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi sportchi qizlarning morfofunksional xususiyatlari BEEP test ko'rsatkichlari asosida qiyosiy baholandi. Tadqiqotda 132 nafar sportchi qiz hamda sport bilan muntazam shug'ullanmaydigan qizlar guruhi natijalari tahlil qilinib, sport turlari kesimida maksimal kislorod iste'moli, umumiy yugurish masofasi va chidamlilik darajasi solishtirildi. Olingan natijalar sportchi qizlarda aerob imkoniyatlar sportchi bo'lmagan qizlarga nisbatan yuqoriroq shakllanganini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *morfofunksional xususiyatlar, sportchi qizlar, BEEP test, VO2 max, maksimal kislorod iste'moli, aerob imkoniyat, chidamlilik, sport turlari, Qoraqalpog'iston, nazorat guruhi.*

Аннотация. *В статье на основе показателей BEEP-теста проведена сравнительная оценка морфофункциональных особенностей девушек-спортсменок, проживающих в Республике Каракалпакстан. В исследовании проанализированы результаты 132 девушек-спортсменок и группы девушек, регулярно не занимающихся спортом, с учетом максимального потребления кислорода, общей дистанции бега и уровня выносливости по видам спорта. Полученные результаты показали, что аэробные возможности у девушек-спортсменок сформированы на более высоком уровне по сравнению с неспортсменками.*

Ключевые слова: *морфофункциональные особенности, девушки-спортсменки, BEEP-тест, VO2 max, максимальное потребление кислорода, аэробные возможности, выносливость, виды спорта, Каракалпакстан, контрольная группа.*

Abstract. *This article presents a comparative assessment of the morphofunctional characteristics of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan based on BEEP test indicators. The study analyzed the results of 132 female athletes and a group of non-athlete girls, comparing maximal oxygen consumption, total running distance and endurance level across different sports. The obtained results showed that the aerobic capacity of female athletes was higher than that of girls who did not regularly engage in sports.*

Key words: *morphofunctional characteristics, female athletes, BEEP test, VO2 max, maximal oxygen consumption, aerobic capacity, endurance, sports, Karakalpakstan, control group.*

Introduction. The study of the morphofunctional characteristics of female athletes is of great importance in assessing their physical development, the functional capacities of the organism, and the level of adaptation to sports training. Morphofunctional status is directly related to body structure, the cardiovascular system, respiratory activity, muscular work capacity, and the general level of endurance, and it is considered one of the main factors in the formation of sports results. In female athletes, the process of adaptation to physical loads is determined not only by the type of sport, but also by age, sexual development, living environment, and the regularity of training. In this regard, determining the aerobic capacity of female athletes makes it possible to assess their general physical fitness and functional reserves. Maximal oxygen consumption is an important indicator that reflects the body's ability to receive, transport, and use oxygen, and it shows the level of adaptation of the cardiovascular and respiratory systems to sports loads [1]. The BEEP test, as one of the convenient methods that can be performed in field conditions, is widely used in Karakalpakstan to assess athletes' endurance level and maximal oxygen consumption [2, 3, 4].

The study of the morphofunctional status of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan has particular scientific significance in connection with the climatic, ecological, and social conditions of the region. The natural and climatic features of the region, the ecological situation, and the specific characteristics of lifestyle may influence the physical development of the young organism and the processes of functional adaptation [5, 6, 7]. Therefore, determining the aerobic capacity, endurance level, and physical work capacity of female athletes is necessary not only for evaluating the effectiveness of sports training, but also for scientifically characterizing the state of healthy development. At present, the need for a comparative assessment of the functional capacities of female athletes by sports type is increasing, since each sport places different physical loads on the organism. For example, in sports such as running, basketball, volleyball, and wrestling, endurance, speed, strength, and coordination abilities are manifested at different levels. Comparing the results of female athletes with the indicators of girls who do not regularly engage in sports helps to show more clearly the influence of physical training on the functional state of the organism. Conducting such a comparative analysis based on BEEP test results is considered a practically convenient and scientifically grounded approach to assessing the morphofunctional characteristics of female athletes [8].

The study was conducted in order to comparatively assess the morphofunctional characteristics of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan on the basis of BEEP test indicators. As research materials, the test results obtained from groups of female athletes and girls who did not regularly engage in sports were analyzed. The main group consisted of 132 female athletes. They were divided by sport into track and field, volleyball, basketball, and wrestling groups. For comparison, the indicators of 35 girls who did not regularly engage in sports were taken as the control group. Such grouping makes it possible to determine the influence of sport-specific physical loads on the aerobic capacity and functional fitness of the organism.

During the study, the participants' general physical endurance, cardiorespiratory system activity, and maximal oxygen consumption were assessed using the 20-meter shuttle run test. In this test, participants run between two marked lines according to an audio signal. At each stage, running

speed gradually increases, and the test is completed when the participant can no longer maintain the required speed. The 20-meter shuttle run test is regarded as a field test used to assess the VO_2 max indicator among athletes, particularly female athletes [9].

During the experiment, total running time, covered distance, achieved stage, speed at the stage, and maximal oxygen consumption indicators were recorded for each participant. VO_2 max reflects the organism's ability to receive, transport, and use oxygen in muscular activity during physical load. Therefore, this indicator is an important criterion for assessing the functional fitness of the cardiovascular and respiratory systems of female athletes. In interpreting BEEP test results, it is necessary to take into account the participants' age, sport type, training level, and physical fitness status, because the results of VO_2 max calculation may differ in various groups [10].

The obtained results were analyzed separately by sports type and compared with the group of non-athlete girls. During the analysis, the BEEP test results of girls engaged in track and field, volleyball, basketball, and wrestling were compared with one another. Total running distance, test duration, and VO_2 max indicators were taken as the main assessment criteria. When applying BEEP test results among female athletes, the characteristics of the sport are of great importance, and in team sports the alternation of aerobic and anaerobic loads affects the results [11]. On this basis, the morphofunctional status, aerobic capacity, and physical fitness level of female athletes were comparatively evaluated with the control group.

The research results showed that the BEEP test indicators of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan were considerably higher than the results of girls who did not regularly engage in sports. Based on the BEEP test results, the total running time, covered distance, achieved stage, running speed, and maximal oxygen consumption indicators of female athletes were analyzed. Among these indicators, VO2 max was considered one of the main criteria for assessing the functional fitness of the cardiovascular and respiratory systems of female athletes. Modern studies also indicate that the 20-meter shuttle run test, or BEEP test, can be used as a practical field test for assessing the aerobic capacity of female athletes [12].

Table 1.

BEEP test indicators of female athletes and non-athlete girls

Groups	Number of participants	Total time, s	Total distance, m	VO2 max, ml/min/kg	Stage speed, km/h
Female athletes	132	369.18	1010.91	40.67	11.34
Non-athlete girls	35	122.15	339.43	29.01	9.40

As can be seen from Table 1, the average VO2 max indicator of female athletes was 40.67 ml/min/kg, while this indicator was 29.01 ml/min/kg among non-athlete girls. This shows that maximal oxygen consumption in female athletes was 11.66 ml/min/kg higher than in non-athlete girls. A significant difference was also observed in total running distance: female athletes covered an average distance of 1010.91 meters, whereas this indicator among non-athlete girls was 339.43 meters. Thus, regular sports training has a positive effect on the aerobic capacity, endurance level, and general physical work capacity of the girls' organism.

The results obtained by sports type were also not the same. This situation can be explained by the different characteristics of physical loads placed on the organism in each sport. In particular, because prolonged motor activity and endurance-oriented training are predominant among girls engaged in track and field, their VO2 max indicator was higher than in other sports. In team sports, aerobic and anaerobic loads alternate, and therefore BEEP test results differ depending on the type of sport, training content, and the athlete's individual fitness level [13]. The relatively high VO2 max indicators among girls engaged in basketball and volleyball are associated with constant movement, rapid changes of direction, and frequent short-term intensive runs in these sports. Among girls engaged in wrestling, the lower indicators compared with other athlete groups can be explained by the predominance of strength, explosive movements, and anaerobic loads in this sport. Nevertheless, the fact that wrestlers' results were higher than those of non-athlete girls confirms that regular sports training develops the organism's general functional capacities. Therefore, BEEP test results make it possible to determine how sport-specific training directions affect the aerobic fitness and morphofunctional status of female athletes in different ways.

Table 2.

Maximal oxygen consumption indicators by sports type

Parameter	Track and field girls n=29	Basketball players n=26	Volleyball players n=29	Wrestlers n=48	Non-athlete girls n=35
Total time, s	439.17	400.42	395.10	294.32	140.13
Total distance, m	1235.86	1107.69	1081.38	780.00	339.43
VO_2 max, ml/min/kg	44.39	42.29	41.60	36.98	29.01
Stage speed, km/h	11.97	11.62	11.50	10.73	9.40

According to the table results, the highest VO_2 max indicator was recorded among girls engaged in track and field, amounting to 44.39 ml/min/kg. The next results were shown by basketball players at 42.29 ml/min/kg, volleyball players at 41.60 ml/min/kg, and wrestlers at 36.98 ml/min/kg. Among non-athlete girls, this indicator was 29.01 ml/min/kg, which was found to be considerably lower than the results of all athlete groups.

Although the VO2 max indicator among girls engaged in wrestling was lower than in other athlete groups, it was still higher than the results of non-athlete girls. This can be explained by the relative predominance of short-term strength, speed, explosive movements, and anaerobic loads in wrestling. At the same time, it was observed that regular sports training among wrestlers also formed the general functional capacities of the organism at a higher level compared with non-athlete girls.

In the diagram, VO2 max indicators are presented in the following order: track and field — 44.39 ml/min/kg, basketball — 42.29 ml/min/kg, volleyball — 41.60 ml/min/kg, wrestling — 36.98 ml/min/kg, and non-athlete girls — 29.01 ml/min/kg. The diagram clearly shows the difference between female athletes and non-athlete girls. In particular, the lower BEEP test duration, covered distance, and VO2 max indicators among non-athlete girls show that their cardiorespiratory endurance is not sufficiently developed compared with female athletes. Regular determination of VO2 max indicators among female athletes is important for monitoring the training process, assessing endurance level, and planning sport-specific loads [14].

In general, the obtained results confirm that the morphofunctional status of female athletes is higher than that of non-athlete girls. By sports type, the highest aerobic capacities were observed among girls engaged in track and field. Relatively high results were also recorded in the basketball and volleyball groups, while wrestlers, as representatives of a sport directed more toward strength and speed, had a slightly lower VO2 max indicator. Thus, BEEP test indicators can be used as a reliable practical criterion for the comparative assessment of the morphofunctional characteristics of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan.



Figure 1. Comparative diagram of VO2 max indicators by groups

Conclusion. The results of the conducted study showed that the morphofunctional characteristics of female athletes living in the Republic of Karakalpakstan were formed at a higher level than those of girls who did not regularly engage in sports. The indicators determined on the basis of the BEEP test confirm that the cardiovascular and respiratory systems of female athletes have well-developed adaptation capacities to physical loads. In particular, the higher values of total running time, covered distance, and VO2 max show that regular sports training has a positive effect on the aerobic capacity and general endurance of the organism.

When analyzed by sports type, the highest maximal oxygen consumption indicator was recorded among girls engaged in track and field. This is explained by the fact that endurance, prolonged motor activity, and oxygen exchange processes have leading importance in this sport. Girls engaged in basketball and volleyball also had high VO2 max indicators, which is associated with the combined manifestation of aerobic and anaerobic loads in team sports. Among girls engaged in wrestling, maximal oxygen consumption was slightly lower than in other athlete groups, but it was considerably higher than the results of non-athlete girls.

According to the research results, the BEEP test can be used as a convenient, practical, and informative method for assessing the morphofunctional status of female athletes. With the help of this test, it is possible to comparatively analyze the aerobic capacities, endurance level, and physical fitness status of female athletes by sports type. The relatively low results of non-athlete girls once again confirm the important role of regular physical activity in developing the functional capacities of the organism. Therefore, increasing physical activity among girls, systematically organizing sports training, and regularly monitoring morphofunctional indicators have important practical significance.

REFERENCES:

1. Howley E. T., Bassett D. R., Welch H. G. Criteria for maximal oxygen uptake: review and commentary // Medicine & Science in Sports & Exercise. — 1995. — Vol. 27, № 9. — P. 1292–1301.

2. Розумбетов К.У. Изучение аэробной выносливости у спортсменов с помощью многоступенчатого фитнес-теста. XI Республиканской научно-практической конференции «Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья». -249-251, Нукус 2024.

3. Rozumbetov K, Shamuratova G, Esimbetov A. Comparison of features of body structure and some functional indices in the groups of adolescents with different physical endurance. Science and Education in Karakalpakstan. 2024, №3/2. P 86-94.

4. Rozumbetov K.U., Kdirbaeva N.B. Influence of sports physical loads on aerobic capabilities and physical condition of the organism of athletes, representatives of different types of sports. Вестник Хорезмской академии Маъмуна. 2025-4/1. -115-120.

5. Erkudov V, Rozumbetov K, Arachchi S, Rathnayake U, Matchanov A, Pugovkin A, Lytaev S. Impact of long-term environmental toxin exposure on prepubertal boys' anthropometric and hormonal development. Global Health Journal. 2025 Sep 1;9(3).

6. Sandamal K, Arachchi S, Erkudov VO, Rozumbetov KU, Rathnayake U. Explainable artificial intelligence for fitness prediction of young athletes living in unfavorable environmental conditions. Results in Engineering. 2024 Sep 1;23:102592.

7. Erkudov VO, Rozumbetov KU, Pugovkin AP, Matchanov AT, Esimbetov AT, Arachchi S, Rathnayake U. Assessment of youth fitness under long-term exposure to toxic environmental conditions due to pesticides: Case from Aral Sea region. Case Studies in Chemical and Environmental Engineering. 2023 Dec 1;8:100504.

8. Flouris A. D., Metsios G. S., Koutedakis Y. Enhancing the efficacy of the 20 m multistage shuttle run test // British Journal of Sports Medicine. — 2005. — Vol. 39, № 3. — P. 166–170.

9. Magee M. K., White J. B., Merrigan J. J., Jones M. T. Does the multistage 20-m shuttle run test accurately predict VO_2max in NCAA Division I women collegiate field hockey athletes? // Sports. — 2021. — Vol. 9, № 6. — Article 75. — DOI: 10.3390/sports9060075.

10. Senanayake S. P. et al. A Validation Study to Assess the Concurrent Validity of the Beep Test as a Proxy for Cardiopulmonary Endurance, Using VO_2 Max as the Criterion Standard // European Journal of Sport Sciences. — 2024.

11. Çoban O., Erman B., Özkol M. Z. Correlation Between VO_2max Estimates of the 30–15 Intermittent Fitness Test and the 20-m Shuttle Run Test in Professional Female Volleyball Players // International Journal of Sport Culture and Science. — 2025. — Vol. 13, № 4. — P. 485–495. — DOI: 10.14486/IntJSCS.2025.765.

12. Chung J. W., Lee O., Lee K. H. Estimation of maximal oxygen consumption using the 20 m shuttle run test in Korean adults aged 19–64 years // Science and Sports. — 2023. — Vol. 38, № 1. — P. 68–74. — DOI: 10.1016/j.scispo.2021.10.005.

13. Hackett D. A., Tran D. L., Way K. L., Sanders R. H. Effects of Age and Playing Position on Field-Based Physical Fitness Measures in Adolescent Female Netball Players // Pediatric Reports. — 2024. — Vol. 16, № 1. — P. 77–87. — DOI: 10.3390/pediatric16010008.

14. Rubiyatno, Supriatna E., Suryadi D., Haetami M., Yosika G. F. Analysis Endurance Profile VO_2max of Women's Volleyball Athletes: Yo-yo Intermittent Test Level 1 // Indonesian Journal of Physical Education and Sport Science. — 2023. — Vol. 3, № 1. — P. 12–19. — DOI: 10.52188/ijpess.v3i1.369.

UO'K 633.51 + 631.521.2 + 575.22

XITOY VA MAHALLIY G'O'ZA NAVLARI ISHTIROKIDA OLINGAN F_1 DURAGAYLARDA QIMMATLI XO'JALIK BELGILARINING IRSIYLANISHI

A.A.Suyarov, tayanch doktorant, PSUEAITI, Toshkent
B.N.Norov, laboratoriya mudiri, PSUEAITI, Sirdaryo ilmiy-tajriba stansiyasi, Sirdaryo

Annotatsiya. *Ushbu maqola g'o'zaning o'rta sho'rlangan tuproq sharoitida mahalliy va xorijiy navlar ishtirokida ota-ona shakllari va F_1 dypagay kombinatsiyalarida qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-ona navlarning vegetatsiya davri 109,2–121,1 kun oralig'ida bo'lib, eng erta pishar nav Xin LuZoo-78 (Xitoy) va eng kech pishar Guliston navlari aniqlangan. F_1 kombinatsiyalarida vegetatsiya davri 110,5–119,0 kunni tashkil etib, aksariyat kombinatsiyalarda o'rta darajadagi irsiylanish kuzatilgan, ba'zi kombinatsiyalarda to'liq dominantlik yoki geterozis namoyon bo'lgan. Bir dona ko'sakdagi paxta vazni 5,0–6,4 g oralig'ida bo'lib, F_1 kombinatsiyalarda 6,0–6,4 g.ni tashkil etgan va ba'zi kombinatsiyalarda to'liq dominantlik hamda heterozis kuzatilgan. Mahsuldorlik ko'rsatkichlari ota-ona navlarda 79,5–171,5 g, F_1 kombinatsiyalarda 115,2–168,3 g oralig'ida bo'lib, irsiylanish turi aralash: ijobiy va salbiy heterozis mavjud. Tadqiqotda tola chiqimi 34,3–46,4 %, chigit chiqimi 53,0–64,6 %, 1000 dona chigit vazni 93–121 g oralig'ida aniqlangan. F_1 kombinatsiyalarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 40,4–45,5 %, 54,0–62,3 % va 103–114 g.ni tashkil etib, o'rta darajadagi irsiylanish kuzatilgan.*

Kalit so'zlar*: stress omil, g'o'za, duragay, nav, vegetatsiya davri, mahsuldorlik, tola chiqimi, chigit vazni, irsiylanish.*

Аннотация. *В данной статье изучено наследование хозяйственно-ценных признаков у родительских форм и гибридных комбинатсий F_1 хлопчатника в условиях среднезасоленных почв с участием местных и зарубежных сортов. Согласно результатам исследований, вегетационный период родительских сортов составил 109,2–121,1 дня, самый раннеспелый сорт - Xin LuZoo-78 (Китай) и самый позднеспелый сорт - Гулистан. Вегетационный период у комбинаций F_1 составил 110,5–119,0 дней, в большинстве комбинатсий наблюдалась средняя степень наследования, в некоторых комбинаций проявлялось полное доминирование или гетерозис. Масса хлопка-сырца одной коробочки варьировала в пределах 5,0-6,4 г, а у комбинаций F_1 составила 6,0-6,4 г, а у некоторых комбинаций наблюдалось полное доминирование и гетерозис. Показатели продуктивности у родительских сортов составили 79,5–171,5 г, у комбинаций F_1 — 115,2–168,3 г, тип наследования смешанный: положительный отрицательный гетерозис. В исследованиях выход волокна составил 34,3–46,4%, выход семян 53,0–64,6%, масса 1000 штук семян 93–121 г. У комбинаций F_1 эти показатели составили 40,4–45,5%, 54,0–62,3% и 103–114 г. соответственно, наблюдалась средняя степень наследования.*

Ключевые слова: *стресс-фактор, хлопчатник, гибрид, сорт, вегетационный период, продуктивность, выход волокна, масса семян, наследование.*

Abstract*. This article examines the inheritance of economically valuable traits in parental forms and F_1 hybrid combinations of cotton under conditions of moderately saline soils, involving local and foreign varieties. According to the research results, the growing season of the parent varieties was 109.2–121.1 days, with the most early-ripening variety being Xin LuZoo-78 (China) and the most late-ripening variety being Guliston. The vegetation period in F_1 combinations was 110.5-119.0 days, with most combinations exhibiting a medium degree of inheritance, and some combinations exhibiting complete dominance or heterosis. The mass of raw cotton in a single cotton boll ranged from 5.0–6.4 g, and in F_1 combinations, it was 6.0–6.4 g, while some combinations exhibited complete dominance and heterosis. The productivity indicators in the parental varieties were 79.5–171.5 g, in the F_1 combinations 115.2–168.3 g, and the inheritance type is mixed: positive and negative heterosis. In the studies, the fiber yield was 34.3–46.4%, seed yield was 53.0–64.6%,*

and the 1000-seed weight was 93–121 g. In F_1 combinations, these indicators were 40.4–45.5%, 54.0–62.3%, and 103–114 g, respectively, with an average degree of inheritance.
Key words: *stress factor, cotton, hybrid, variety, growing season, productivity, fiber yield, seed weight, inheritance.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Dunyoda bugungi kunga kelib yerlar 100 dan ortiq davlatlar hududida, taxminan 1 mlrd gektar maydonlar turli darajada sho‘rlangan. Tuproq sho‘rlanishi dunyo miqyosida katta muammoga aylanib, sho‘rlanish jarayonlari ko‘plab mintaqalarda sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan hududlarda ham tezlik bilan o‘sib bormokda. Tuproq sho‘rlanishi muammolarining kupayib borishi har yili 0,3 dan 1,5 million gektar yerlarni ishlab chiqarishdan chiqib ketishiga va yana 20,0 dan 46,0 million gektargacha bo‘lgan maydonlarda hosildorlikni kamayishiga sabab bo‘lmokda. Shu boisdan ham bugungi kunda, tuproqlar sho‘rlanishiga qarshi kurash, sug‘oriladigan yerlar tuproq-meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tadbirlarni ishlab chiqish-dolzarb vazifalardan hisoblanadi (www.FAO.org, Berdiev, 2018). Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, sho‘rlanish oqibatida asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari (bug‘doy, kartoshka, paxta, olma) hosildorligining 40-60 foizga kamayishi mumkinligini xabar qilmoqda (http://www.hlopok.info/, https://rns.online/economy, 2024).

Respublikamizda sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlangan maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Jumladan, Respublikamizda sug‘oriladigan yer maydonlari 4,3 mln gektar bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra 2021 yilda 44,7 foiz bo‘lganligi aniqlangan bo‘lib, hozirgi kunda kelib esa 53,0 foiz maydonlar har xil darajada sho‘rlanganligi ma’lum bo‘lgan (daryo.uz, 2024).

Dunyo resurslari institutining ta’kidlashicha, 2040 yilga borib, O‘zbekiston o‘ta yuqori darajada suv tanqisligiga uchragan davlatga aylanishi mumkin bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatiga kiradi.

Jahon banki hisob-kitoblari ko‘rsatganidek, iqlim o‘zgarishining suv resurslariga ta’siri 2030 yilga borib O‘zbekistonni to‘yintiradigan ikkita asosiy daryodagi suv sathi – Sirdaryoda 5 foizgacha, Amudaryoda esa 15 foizgacha pasayishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda suv tanqisligi 2030 yilga borib 7 milliard kub metrga, 2050 yilga kelib 15 milliard kub metrga yetishi mumkin. 2050 yilga borib Markaziy Osiyoda chuchuk suv yetishmasligi mintaqa yalpi ichki mahsulotning 11 foizga kamayishiga olib kelishi mumkin (www.FAO.org; www.icac.org, 2024).

Bu maydonlarning meliorativ holatini birdaniga yaxshilab bo‘lmaydi, chunki, bunga katta mablag‘ talab etadi. Sho‘rlangan tuproq sharoitida g‘o‘za va boshqa madaniy ekinlarning o‘sishi, ulardagi moddalar almashinuvi hamda boshqa jarayonlarning pasayishi olinadigan mahsulotning sifatiga ham salbiy ta’sir etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 son farmoni e’lon qilindi va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga bir qancha vazifalar belgilab berildi. Shuning bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyuldagi “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarorida bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi sharoitida g‘o‘zaning tezpishar, serhosil, yuqori tola sifati va chiqimiga ega, turli kasallik va zararkunandalarga bardoshli g‘o‘za navlarini yaratish hamda yangi innovatsion texnologiyalar asosida ularni yetishtirish agrotexnologiyalarini amalga oshirish topshiriqlari berildi.

Kelgusida kutilayotgan iqlim o‘zgarishlari va uning oqibatida yuzaga keladigan salbiy (noqulay) sharoitlarda qishloq xo‘jalik ekinlaridan ham sifatli ham yuqori hosil olishning asosiy choralaridan biri - iqlim va tuproq sharoitlariga mos stress omil va zararli hashoratlarga bardoshli, ertapishar, hosildor, tolasi bugungi to‘qimachilik sanoatiga mos g‘o‘za navlarini yaratishdir. Bu esa, o‘z navbatida ko‘plab ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lib kun tartibidagi muhim masala ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi dolzarb muomalar va topshiriqlarni samarali va sifatli bajarish maqsadida *G.hirsutum* L. turiga mansub mahalliy va ko‘sak qurtiga bardoshli xorijiy navlarni “Resiprok” usuli yordamida chatishtirildi va noyob duragay kombinatsiyalar yaratildi.

Tadqiqot usullari. Fenologik kuzatuvlar «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (2007) bo'yicha olib borildi va olingan ma'lumotlarning statistik tahlillari B.A.Dospexov (1985) qo'llanmasi asosida, dominantlik darajasi G.M.Beil, R.E.Atkins (1965) ishida keltirilgan S.Wright formulasi asosida hisoblandi.

Tadqiqotning tuproq iqlim sharoitlari. Dala tajribasi 2025-yil PSUEAITIning Sirdaryo ilmiy-tajriba stansiyasining o'rta darajada (0.2-0.4%) sho'rlangan tuproq sharoitida (76 x 24-1) o'tkazildi.

Tajriba dalasi Mirzacho'lning Sho'ro'zak botig'ida joylashgan bo'lib, eskidan o'zlashtirilgan va sizot suvlari sathi yaqin (1,5-3,0 m) joylashgan, tuprog'ining mexanik tarkibi haydalma qatlami o'rta, pastki qatlamlari yengil qumoqdan tashkil topgan, lyossimon yotqiziqlarda joylashgan kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlardan iborat. Sho'ro'zak botig'i Sirdaryoning ikkinchi terassasining janubiy-g'arbiy qismini egallagan.

Tadqiqot natijalari. O'simliklar seleksiyasida yuqori hosildor va sifatli navlarni yaratishda turli chatishtirish usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri - resiprok chatishtirish usuli bo'lib, u ota va ona shakllarni o'zaro almashtirib chatishtirish asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul seleksiya jarayonida belgilar irsiylanish qonuniyatlarini chuqur o'rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Resiprok chatishtirish yordamida o'simliklarda onalik va otalik shakllarning genetik hamda sitoplazmatik ta'siri aniqlanadi. Bu esa muhim xo'jalik belgilarining qaysi tomondan ustun irsiylanishini belgilash imkonini beradi. Ayniqsa, hosildorlik, mahsulot sifati, vegetativ o'sish va stress omillariga chidamlilik kabi belgilarni baholashda ushbu usulning ahamiyati katta.

Hozirgi kunda seleksiya ishlarida samaradorlikni oshirish, yangi navlarni yaratishda aniqlikni ta'minlash va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda resiprok chatishtirish usulidan keng foydalanilmoqda. Shu bois, mazkur usulning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Mahalliy va xorijiy navlar ishtirokida ritseprok chatishtirish natijasida olingan F_1 duragaylarda qimmatli xo'jalik belgilarning irsiylanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqotlarda asosiy qimmatli xo'jalik belgilardan vegetatsiya davri, mahsuldorlik, tola chiqimi, chigit vazni kabi belgilarni irsiylanishni o'rganildi.

Tadqiqotlarimizda chatishtirishda ishtirok etgan mahalliy va xorijiy g'o'za navlarining o'ismlik Vegetatsiya davri bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari 109,2–121,1 kun oralig'ida bo'lib, eng ertapishari Xin LuZoo-78 (Xitoy) 109,2 kun, nisbatan o'rtapishar g'o'zaning Guliston navida 121,1 kunni tashkil etib, qolgan shakllar esa ushbu navlar oralig'ida bo'lganligi aniqlandi. F_1 duragay kombinatsiyalarda 110,5–119,0 kun oralig'ida bo'lganligi kuzatildi. F_1 duragay kombinatsiyalarining aksariyatida vegetatsiya davrining irsiylanishi oraliq ko'rinishga ega bo'lib, F_1 Xin LuZoo-78 × S-5712 (hp=1,7) duragay kombinatsiyasida 117,5 kunni tashkil etib, to'liq dominantlik yoki geterozis holati aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda ishtirok etayotgan navlarda bir dona ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha turlicha ko'rinish kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich Guliston (6,4 g) g'o'za navida, eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo-1 va Xin LuZoo-78 (Xitoy) navlarida 5,0 grammni tashkil etdi. Ushbu belgi bo'yicha 12 ta F_1 duragay kombinatsiyalaridan 2 tasida, ya'ni F_1S-5712 × Xin LuZoo-78 (6,0 g) va F_1Guliston × Xin LuZoo-78 (6,4 g) (hp=1,4–1,0) to'liq dominantlik va geterozis holati kuzatildi, qolgan duragaylarda esa oraliq irsiylanish aniqlandi.

Jadval:

F_1 duragay kombinatsiyalarida ayrim qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi.

t/r	Kombinatsiya nomi	Vegetatsiya davri		Bir dona ko'sakdagi paxta vazni		Mahsuldorlik		Tola chiqimi		Chigit chiqimi		1000 dona chigit vazni	
		kun	hp	g	hp	g	hp	%	hp	g	hp	g	hp
1	Sayxun-1	120,0		6,2		158,7		38,9		61,0		114,0	
2	Sirdaryo-1	117,7		5,0		79,5		35,3		64,2		119,0	
3	S-5712	115,2		5,8		109,6		37,7		56,7		11,4	
4	Guliston	121,1		6,4		152,3		38,2		61,4		120,0	
5	S-5727	120,8		5,8		149,6		34,9		64,6		121,0	
6	Poly tex Sirdaryo	120,3		6,2		133,9		37,9		55,3		108,0	

7	Xin LuZoo-78 (Xitoy)	109,2		5,0		171,5		46,4		53,0		93,0	
8	F_1(Xin LuZoo-78 x Sayxun-1)	112,5	-0,3	5,0	-1,0	134,0	-4,8	43,6	0,2	56,4	0,1	105,0	0,1
9	F_1(Xin LuZoo-78 x Sirdaryo-1)	110,5	-0,9	5,1	0,1	142,8	0,3	39,6	0,2	60,3	0,3	109,0	0,2
10	F_1(Xin LuZoo-78 x S-5712)	117,5	1,7	5,0	-0,9	156,5	0,5	45,5	0,7	54,0	0,4	103,0	0,04
11	F_1(Xin LuZoo-78 x Guliston)	118,0	0,4	5.5	-0,3	168,3	0,6	40,9	0,3	58,5	0,3	107,0	0,03
12	F_1(Xin LuZoo-78 x S-5727)	119,0	0,6	5,0	-0,9	132,0	-2,5	37,6	0,5	61,7	0,5	108,0	0,07
13	F_1(Xin LuZoo-78 x Poly tex Sirdaryo)	118,0	0,5	5,3	-0,5	159,5	0,3	44,3	0,5	55,2	0,9	103,0	0,3
14	F_1(Sayxun-1 x Xin LuZoo-78)	118,0	0,6	6,2	-0,9	134,5	-4,7	44,2	0,4	55,4	0,4	102,0	0,1
15	F_1(Sirdarë-1 x Xin LuZoo-78)	114,0	0, 1	5,1	0,2	124,9	-0,01	39,6	0,2	60,0	0,2	108,0	0,1
16	F_1(S-5712 x Xin LuZoo-78)	115,0	0,9	6,0	1,4	115,2	-0,8	43,7	0,3	55,8	0,5	105,0	0,1
17	F_1(Guliston x Xin LuZoo-78)	116,0	0,08	6,5	1,0	141,0	-2,1	38,4	0,9	61,2	0,9	114,0	0,5
18	F_1(S-5727 x Xin LuZoo-78)	117,0	0,3	5,1	-08	126,9	-3,0	37,2	0,6	62,3	0,6	111,0	0,2
19	F_1(Poly tex Sirdaryo x Xin LuZoo-78)	114,0	0,1	6,4	1,3	124,1	-1,5	38,1	0,9	61,5	6,3	108,0	1,0

Mahsuldorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha ota-ona shakllari 79,5 grammdan 171,5 gramm oralig‘ida joylashdi. Eng yuqori mahsuldorlik Xin LuZoo-78 (Xitoy) navida 171,5 grammni tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich mahalliy g‘o‘zaning Sirdaryo-1 navida aniqlangan. F_1 kombinatsiyalarida ushbu ko‘rsatkich 115,2 grammdan 168,3 gramm oralig‘ida bo‘ldi. Mahsuldorlik belgisining irsiylanishi F_1 duragay kombinatsiyalarida turli ko‘rinishga ega bo‘ldi. Jumladan, Xin LuZoo-78 × Sirdaryo-1 (hp=0,3), Xin LuZoo-78 × S-5712 (hp=0,5), Xin LuZoo-78 × Guliston (hp=0,6) va Xin LuZoo-78 × Poly tex Sirdaryo (hp=0,3) kombinatsiyalarida oraliq irsiylanish kuzatilib, qolgan duragaylarda esa salbiy irsiylanish holati qayd etildi.

Paxta yetishtirishdan asosiy maqsad yuqori sifatli tola olish bo‘lib, bunda g‘o‘za navlarining yuqori tola chiqimiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarimizda chatishtrishga jalb qilingan xorijiy nav sifatida ishtirok etgan Xin LuZoo-78 (Xitoy) yuqori tola chiqimi (46,4%) bilan ajralib turdi. Mahalliy navlarda esa ushbu ko‘rsatkich S-5727 navida 34,3% dan Guliston navida 38,9% gacha bo‘ldi. 12 ta duragay kombinatsiyaning barchasida tola chiqimi bo‘yicha oraliq irsiylanish kuzatildi. Shu bilan birga, ayrim duragaylarda 40,4% dan 45,5% gacha tola chiqimiga ega kombinatsiyalar aniqlandi.

Chigit chiqimi bo‘yicha chatishtrishda ishtirok etgan navlarda ko‘rsatkich 53,0–64,6% oralig‘ida bo‘ldi. F_1 duragay kombinatsiyalarida esa 54,0% dan 62,3% gacha bo‘lib, ushbu belgi bo‘yicha barcha duragaylarda oraliq irsiylanish kuzatildi.

Xulosalar. Umuman olganda, o‘rganilgan belgilarning aksariyati F_1 duragaylarda oraliq irsiylanishi bilan tavsiflandi, ayrim kombinatsiyalarda esa geterozis va to‘liq dominantlik holatlari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 15 dekabrda “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-391-son qarori.

2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent, O‘zPITI, 2007. 146-b.

3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opыta. - Moskva: Agropromizdat. 1985. S. 351.

4. Beil G.M., Atkins R.E. Intermittent of quantitative characters in grain sorghum. Iowa state journal of science. 1965. V.39. - № 3. – R.35-37.

5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

6. http://www.hlopok.info/, https://rns.online/economy/.

7. www.FAO.org
8. www.icac.org
9. daryo.uz

UO’K 594.3:575.594.3

QASHQADARYO VILOYATIDAGI SUVOMBORLAR MALAKOFAUNASI TURLAR TARKIBI

G.T.Suyunov, mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand
J.A.Kudratov, b.f.d., prof., Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Qashqadaryodagi suvomborlar malakofaunasining tur tarkibi aniqlangan va 2 ta sinf, 3 ta turkum, 5 ta oila, 11 ta avlodga mansub 16 ta turdan iborat sistematik ro‘yxat tuzilgan;*

Kalit so‘zlar. *Qashqadaryodagi suvomborlar balandlik mintaqalari qorinoyoqli mollyuska, taksonomik tarkibi.*

Аннотация. *Определен видовой состав малакофауны водохранилищ Кашкадарьинской области и составлен систематический перечень из 16 видов, относящихся к 2 классам, 3 отрядам, 5 семействам и 11 родам;*

Ключевые слова. *Брюхоногие моллюски водохранилищ Кашкадарьинской области, высокогорные районы, таксономический состав.*

Abstract. *The species composition of the malacofauna of the reservoirs of the Kashkadarya region was determined and a systematic list of 16 species belonging to 2 classes, 3 orders, 5 families and 11 genera was compiled;*

Key words. *Gastropods of reservoirs of Kashkadarya region, highland areas, taxonomic composition.*

Kirish. Hozirgi vaqtda O‘rta Osiyoda 400 ortiq mollyuskalari tarqalgan bo‘lib. O‘rta Osiyo qorinoyoqli mollyuskalariga oid ma’lumotlar amalda kam uchraydi. Ya.I. Starobogatov (1972), Z.I. Izzatullaev (1970), K.K. Uvalieva (1990), A. Pazilov (1992, 2005), D. Daminova (2002), A.T. Karimqulov (2011), J.A. Qudratov (2018, 2025) dagi ishlarida qayd qilingan. Nurota tog’lari qorinoyoqli mollyuskalarining taksonomik tarkibi, va tarqalishi to’g’risida chuqur tadqiqotlar olib borilmagan. [2,3,4,5,6,7,8.].

Materiallar va uslublar. Suv namunalari mavsumiy ravishda (fevral, aprel, iyul va oktyabr) 2 litrli steril idishlar yordamida to‘plandi. Aniqlikni ta'minlash uchun har bir stantsiyada uchta takrorlash amalga oshirildi. Erigan kislorod (DO) ko‘chma oksimetr yordamida joyida o‘lchandi (mg/L da ifodalangan; oldingi mkg/ml birliklari UzDSt 950:2011 standartlariga moslashtirish uchun tuzatildi. Nitrit azot (NO_2-N) va ammoniy azot (NH_4-N) konsentratsiyalari Parsons va boshqalar (1984) ga muvofiq spektrofotometrik usulda aniqlandi. NO_2-N 543 nm da sulfanilamid usuli bilan, NH_4-N esa 640 nm da EMC-30PC-UV spektrofotometr yordamida indofenol ko‘k usuli bilan aniqlandi. BOD_5: BOD_5 Amerika Sog‘liqni Saqlash Assotsiatsiyasi [10; 1-10 p., 11; 50-60 p.], protokollariga muvofiq, qorong‘ida 20°C da standart 5 kunlik inkubatsiya usuli yordamida aniqlandi. Suvning minerallashuvi gravimetrik tahlil yordamida umumiy erigan qattiq moddalar (TDS) sifatida o‘lchandi. Namunalar 0,45 mkm membrana filtri orqali filtrlandi, bug‘lantirildi va qoldiq 105°C da doimiy og‘irlikgacha quritildi.

Suv mollyuskalarini o’rganish metodlari. V.I. Jadin [1] metodikasi bo’yicha amalga oshirildi. Material, asosan gidrobiologik kovush yoki matrap (sachok) bilan 1,5 metr chuqurlikkacha bo’lgan suvlardan terib olindi. Mollyuskalar soni ko’proq miqdorda uncha chuqur bo’lmagan (0,05-0,4 m) joylarda tarqalganligi sababli ularni suv o’tlarining osti va poyasidan qo’l bilan ham terish mumkin. Ba’zi hollarda o’simlik shoxlari va suv o’tlarini polietelen qoplarda olib ketilib, laboratoriya sharoitda elakda yuvish orqali mollyuskalar ajratilib olinadi. Buloq, ko’l, daryo va suv omborlarining 2 metrdan chuqur bo’lgan joylaridan mollyuskalarni draga bilan terildi

Yumshoq loyqali gruntlardan mollyusklar terilganda yengil uch burchakli, yoki to’rtburchakli dragalar ishlatiladi. Mollyuskalar sonini aniqlashda 1/40 m2 maydonni egallaydigan purjinali qutisimon kovushdan, yoki, 0,01 m2 maydonni egallaydigan kichik kovushdan foydalanildi. Draga

yoki kovush bilan olib chiqilgan grunt tog'oraga solindi, undan so'ng teshik kattaligi 1-2 mm dan ortiq bo'lmagan metal elakda yuvildi. Buning uchun biztipik elakdan foydalandik. Mollyuskalarni qotirish (fiksatsiya qilish) 70-75% foizli spirtda amalga oshiriladi. Spirt bilan fiksatsiya qilishni imkoniyati bo'lmaganda, 2 % formalinda fiksatsiya qilish mumkin, va unga soda qo'shish lozim. Agar formalinga soda qo'shilmasa, u kislotaga o'xshab chig'anoqni eritib yuboradi. U holda chig'anoqni ilmiy qiymati yo'qoladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot doirasida yig'ilgan materiallar Qashqadaryodagi suvomborlar mollyuskalarining zamonaviy faunasi 2 ta sinf, 3 ta turkum, 5 ta oila, 11 ta avlodga mansub 16 ta turdan iboratligini ko'rsatdi. 1.1-jadvalda tadqiqot hududi mollyuskalari faunasining sistematik ro'yxati keltirildi. Sistematik ro'yxatni tuzishda MolluscaBase (https://www.molluscabase.org/), World Register of Marine Species (https://www.marinespecies.org/) bazalaridan, tegishli olimlarning sistematik ma'lumotlaridan, turlarning tarqalishiga oid ma'lumotlarda esa biologik xilma-xillikning global axborot fondi (Global Biodiversity Information Facility-GBIF) ma'lumotlaridan foydalanildi.

1.1-jadval

Qashqadaryodagi suvomborlar malakofaunasi faunistik ro'yxati

Sinf	Turkum	Oila	Avlod	Turlar
Bivalvia (Linnaeus, 1758)	Unioniformes Stoliczka, 1871	Unionidae Rafinesque, 1820	*Anodonta* Lamarck, 1799	*Anodonta anatina* (Linnaeus, 1758)
Gastropoda Cuvier, 1795	Littoriniformes Pcelintsev, 1863	Hydrobiidae Stimpson, 1865	*Martensamnicola* Izzatullaev, Sitnikova & Starobogatov, 1985	*Martensamnicola brevicula* (Martens, 1874)
				Martensamnicola hissarica (Zhadin, 1950)
			Bucharamnicola Izzatullaev, Sitnikova & Starobogatov, 1985	*Bucharamnicola bucharica (*Zhadin, 1952)
			Sogdamnicola Izzatullaev, Sitnikova & Starobogatov, 1984	*Sogdamnicola pallida* (Martens, 1874)
				Sogdamnicola shadini (Izzatullaev, 1984)
	5(Pcelintsev, 1863)	Lymnaeidae (Rafinesque, 1815)	*Lymnaea* (Lamarck, 1799)	*Lymnaea stagnalis* (Linnaeus, 1758)
			Orientogalba Kruglov & Starobogatov, 1985	**Orientogalba bowelli* (Preston, 1909)
			Galba Schrank, 1803	*Galba truncatula* (O.F. Müller, 1774)
			Radix Montfort, 1810	*Radix auricularia* (Linnaeus, 1758)
				Radix bactriana (T. Hutton, 1849)
				**Radix euphratica* (Mousson, 1874)
		Physidae Fitzinger, 1833	*Physella* Haldeman, 1842	*Physella acuta* (Draparnaud, 1805)
		Planorbidae Rafinesque, 1815	*Planorbis* O. F. Müller, 1773	*Planorbis planorbis* (Linnaeus, 1758)
				Planorbis tangitarensis Germain, 1918
			Gyraulus Charpentier, 1837	*Gyraulus ladacensis* (G. Nevill, 1878)
2	**3**	**5**	**11**	**16**

Izoh. * - hudud uchun yangi turlar.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo suvomborlari qorinoyoqli mollyuskalarining ro'yxati 16 ta turga boyitildi. Qashqadaryodagi suvomborlar malakofaunasining tur tarkibi aniqlangan va 2 ta sinf, 3 ta turkum, 5 ta oila, 11 ta avlodga mansub 16 ta turdan iborat sistematik ro'yxat tuzilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жадин В.И. Методы гидробиологического исследования. - М.: Высшая школа, 1960. - 191 с.

2. Иззатуллаев З., Қудратов Ж. Фаунистический состав, экологические комплексы и хозяйственное значение брюхоногих моллюсков (Mollusca, Gastropoda) горных постбищ Узбекистана. Узб.биол.журнал., 2016. №3. - С. 39 - 41.

Тадқиқотнинг мақсади *B. daurica* турини *in vitro* шароитида микроклонал кўпайтириш учун самарали биотехнологик протокол ишлаб чиқишдан иборат. Бунинг учун эксплантларни стерилизация қилиш, культурага киритиш, кўпайтириш ва резогенез босқичлари ўрганилди.

Материал ва методлар. *Betula papyrifera occidentalis* Song (Betulaceae Gray), қоғоз қайин. Табиатда Шимолий Американинг шимолий қисмида тарқалган. БФМ: ички пўстлоғининг MeOH–экстрактини фитокимёвий тадқиқ қилиш натижасида саратонга қарши восита сифатида ўрганилган 10 та фенолик бирикма ажратиб олинган. Ботаника боғида битта дарахт қолган, уруғ ва кўчат орқали ривожланиш имкони йўқ.

Тадқиқотлар Бутенко [6–7], Калинин [8–9] ва Батыгина [10–11] томонидан тавсифланган ўсимлик тўқималари ва органларини етиштиришнинг стандарт усулларига асосланди.

Тажрибанинг умумий схемаси. *In vitro* микроклонал кўпайтириш босқичма-босқич кечадиган жараён ҳисобланади: 1. Эксплантларни танлаш ва тайёрлаш. 2. Стерилизация ва контаминацияни назорат қилиш. 3. Культурага киритиш. 3. Каллус индукцияси ва соматик эмбриогенез (бевосита ёки билвосита органогенез). 4. Регенерант ўсимликларни ривожланиши ва резогенези. 5. *Ex vitro* шароитига мослаштириш.

Стерилизация протоколи. 3 хил стерилизация протоколи синовдан ўтказилди. 1-протокол (кенгайтирилган, кўп компонентли): $KMnO_4$, совун эритмаси, натрий гипохлорити («Белизна») + Tween 20, $AgNO_3$ ва этанолдан иборат. 2-протокол (соддалаштирилган): совун эритмаси, натрий гипохлорити («Белизна») + Tween 20 ва этанол. 3-протокол (фунгицидли): совун эритмаси, натрий гипохлорити («Белизна»), пропиконазол ва этанол комбинациясини ўз ичига олади. Энг самарали натижалар соддалаштирилган 2-протоколда кузатилди. Шунингдек, NaOCl концентрацияси ва ишлов бериш вақти муҳим аҳамиятга эга бўлиб, 20% эритмада 10 дақиқалик ишлов Betula daurica учун оптимал деб баҳоланди.

Озуқа муҳити ва ўсиш регуляторлари концентрацияларини ҳамда комбинацияларини оптималлаштириш. Тадқиқотларда ўсимлик тўқима культураси учун кенг қўлланиладиган стандарт озуқа муҳитлари - Murashige ва Skoog (MS) (1962), Chu (N6) (1975), Gamborg B5 (1968), Woody Plant Medium (WPM) (1981) ҳамда Driver ва Kuniyuki Walnut (DKW) (1984) муҳитлари иборат жами 183 та фитогормон комбинацияси турли концентрацияларда синовдан ўтказилиб, эксплант турларига мос оптимал озуқа муҳити аниқланди. Ҳар бир комбинация камида 3 такрорда (ҳар бирида 20–30 та эксплант) текширилди. Betula daurica учун MS ва WPM озуқа муҳитида, энг самарали комбинация BAP 0,5 мг/л + IMK 0,05 мг/л бўлиб, яшовчанлик 80% ни ташкил этди ва шохланиш коэффициенти юқори бўлди.

Культурага киритиш босқичи. Betula daurica учун *in vitro* культурага киритиш жараёни махсус равишда фақат гормонсиз MS озуқа муҳитида амалга оширилди. Дастлабки синовларда BAP ва IMK қўшилган вариантлар ҳам текширилди, лекин уларда эксплантлар яшовчанлик даражаси юқори бўлса-да, қатор салбий белгилар - витрификация, тўқиманинг қорайиши, гиперўсиш ва кейинчалик каллусланиш - кўпроқ кузатилди. Гормонсиз MS муҳитида эксплант яшовчанлиги 90±1,8% атрофида бўлиб, визуал стресс белгиларининг камлиги, фенолик ажралиши ва некрознинг камайиши қайд этилди. Шу сабаб, B. daurica учун культурага киритиш босқичи стандарт сифатида MS гормонсиз муҳитида олиб борилди, гормонли вариантлар эса фақат қиёсий мақсадда сақлаб қолинди (расм 1).

Эксплант адаптацияси ва пролонгация босқичи. Культурага муваффақиятли киритилган эксплантлар кейинги босқичда MS муҳитида фитогормонлар қўлланилган ҳолда пролонгацияга ўтказилди. Ушбу босқичнинг асосий мақсади - микрокаламчалар сонини кўпайтириш, меристема фаоллигини сақлаш ва кейинги ризогенез учун физиологик барқарор материал тайёрлашдан иборат. *B. daurica* учун энг самарали комбинация BAP 0,5 мг/л + IMK 0,05 мг/л бўлиб, яшовчанлик 80% ни ташкил этди ва шохланиш коэффициенти юқори бўлди.



1-расм. *Betula daurica*нинг *in vitro* культурага киритиш жараёни. *In vitro* культурага киритишнинг биринчи босқичи гормонсиз MS муҳитида амалга оширилди. Пролонгация босқичи MS муҳитида BAP 0,5 мг/л + IMK 0,05 мг/л комбинациясида кузатилди (80%). BAP 0,3 мг/л + IMK 0,05 мг/л варианти ҳам юқори самара бериб, яшовчанлик 72%ни ташкил этди. Бошқа комбинациялар (BAP ауксинсиз, IMK якка ҳолда, KIN билан вариантлар) 40–45% доирасида бўлиб, физиологик стресс белгиларининг ошиши, шохланишнинг пасайиши ва каллусланишнинг кўпайиши кузатилди.

Ризогенез ва адаптация. Ризогенез босқичи *Betula daurica* учун ҳозирги пайтда экспериментал режимда олиб борилмоқда. Ҳозирча аниқ натижалар шаклланиш жараёнида. Бироқ мавжуд тажриба дизайни *B. daurica* учун IMK асосий ауксин эканлигини, BAP дозасини минимал даражага тушириш ёки умуман қўлламаслик мақсадга мувофиқлигини кўрсатмоқда. Ушбу босқичда олинадиган натижалар кейинги тадқиқотларда батафсил баён этилади. Ризогенез ва адаптация босқичлари эса келгуси йилда амалга оширилиши режалаштирилган.

Миннатдорчилик: Тадқиқотлар 2025–2029 йилларга мўлжалланган бюджет дастури доирасида - «Инновацион биотехнология усулларидан фойдаланган ҳолда Тошкент ботаника боғи *in vitro* коллекциясини яратиш ва рақамли ҳужжатлаштириш» мавзусидаги дастур асосида амалга оширилди. Ушбу дастур Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси академик Ф.Н. Русанов номидаги Тошкент ботаника боғининг биотехнология лабораториясида бажарилмоқда.

Тадқиқотларни ўтказишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3365-сонли «Илмий-тадқиқот муассасаларининг инфратузилмасини янада мустаҳкамлаш ва инновацион фаолиятни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори доирасида харид қилинган лаборатория жиҳозларидан фойдаланилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Murashige, T.; Skoog, F. A revised medium for rapid growth and bioassays with tobacco tissue cultures. *Physiologia Plantarum*. 1962, 15(3), 473–497.

2. Lloyd, G.; McCown, B. Commercially feasible micropropagation of mountain laurel (*Kalmia latifolia*) by use of shoot-tip culture. *Proceedings of the International Plant Propagators’ Society*. 1980, 30, 421–427.

3. Driver, J.A.; Kuniyuki, A.H. In vitro propagation of Paradox walnut rootstock. *HortScience*. 1984, 19(4), 507–509.

4. Chu, C.C. The N6 medium and its applications to anther culture of cereal crops. *Proceedings of Symposium on Plant Tissue Culture*. 1975, 43–50.

5. Gamborg, O.L.; Miller, R.A.; Ojima, K. Nutrient requirements of suspension cultures of soybean root cells. *Experimental Cell Research*. 1968, 50(1), 151–158.

6. Butenko, R.G. Plant tissue culture and plant morphogenesis. Moscow: Nauka, 1964.

7. Butenko, R.G. Biology of plant cells in vitro. Moscow: Nauka, 1975.

8. Kalinin, F.L.; Sarnatskaya, V.V.; Polischuk, V.E. Methods of plant tissue culture. Kiev: Naukova Dumka, 1980.
9. Kalinin, F.L. Plant tissue culture in biotechnology. Kiev: Naukova Dumka, 1984.
10. Batygina, T.B. Embryology of flowering plants: terminology and concepts. Vol. 3. Enfield: Science Publishers, 2006.
11. Batygina, T.B.; Vasilyeva, V.E. Morphogenesis in plant tissue culture. St. Petersburg: St. Petersburg University Press, 2002.

УДК 664.38 : 635.655

КАЧЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СОЕВОГО МОЛОКА И ТОФУ ИЗ РАЗЛИЧНЫХ СОРТОВ СОИ

Ш.А.Ишниязова, доц., к.х.н., Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, Самарканд
Д. Нурвафаева, доц., к.х.н., Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, Самарканд
К.О.Додаев, доц., к.х.н., Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, Самарканд
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-5018-3115

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli soya genotiplaridan olingan soya suti va oqsil ivitmasi (tofu)ning sifat ko'rsatkichlari (fizik-kimyoviy, tarkibiy-mexanik va organoleptik)ni qiyosiy o'rganish natijalari keltirilgan. "Ilxom-6" va "Fora" navli soya donlari tadqiqotning eksperimental bazasi bo'lib xizmat qildi; ko'rsatkichlarni monitoring qilish va baholash 2023-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda siklik ravishda amalga oshirildi. Tadqiqotlar jarayonida "Ilxom-6" navli xomashyoni qayta ishlash oqsilning ommaviy ulushi, zichligi va tarkibiy gel mustahkamligi yuqori bo'lgan tayyor mahsulot olish imkonini berishi aniqlandi, bu esa uning texnologik ustunligini belgilaydi. "Fora" navi yuqori namlikni ushlab turish qobiliyatini namoyon etdi, biroq ushbu xususiyat tayyor mahsulotning kompleks bahosiga ijobiy ta'sir ko'rsatmadi. O'tkazilgan tadqiqotlar funksional ovqatlanish sanoati uchun soya nav resurslarini tanlashga tabaqalashtirilgan yondashuvni ilmiy jihatdan asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *soya donlari, o'simlik suti, tofu, sifat ko'rsatkichlari.*

Аннотация. *В настоящей работе представлены результаты сравнительного исследования качественных параметров (физико-химических, структурно-механических и органолептических) соевого молока и белкового сгустка (тофу), выработанных из разных генотипов сои. Экспериментальной базой послужили соевые бобы сортов «Илхом-6» и «Фора»; мониторинг и оценка параметров осуществлялись циклично в период с 2023 по 2025 гг. В ходе исследований выявлено, что переработка сырья сорта «Илхом-6» позволяет получать готовый продукт с более высокими значениями массовой доли белка, плотности и прочности структурного геля, что определяет его технологическое превосходство. Сорт «Фора» продемонстрировал повышенную влагоудерживающую способность, однако данное свойство не оказало положительного влияния на комплексную оценку готовой продукции. Проведенные изыскания научно обосновывают дифференцированный подход к выбору сортовых ресурсов сои для индустрии функционального питания.*

Ключевые слова: *соевые бобы, растительное молоко, тофу, качественные характеристики.*

Abstract. *This paper presents the results of a comparative study of the quality parameters (physicochemical, structural-mechanical, and organoleptic) of soy milk and protein curd (tofu) produced from different soybean genotypes. Soybean varieties "Ilkhom-6" and "Fora" served as the experimental basis; parameter monitoring and evaluation were carried out cyclically during the period from 2023 to 2025. The research revealed that processing the "Ilkhom-6" raw material yields a finished product with higher values of protein mass fraction, density, and structural gel strength, which determines its technological superiority. The "Fora" variety demonstrated an increased water-holding capacity; however, this property did not have a positive impact on the comprehensive evaluation of the finished product. The conducted research provides a scientific rationale for a differentiated approach to selecting soybean variety resources for the functional food industry.*

Keywords: *soybeans, plant-based milk, tofu, quality characteristics.*

Введение. В современной пищевой индустрии соевые бобы (*Glycine max L.*) рассматриваются как стратегический сырьевой ресурс для конструирования функциональных продуктов с заданным нутриентным профилем. Высокая концентрация полноценного белка, сбалансированный аминокислотный состав и присутствие нативных биоактивных нутриентов открывают широкие перспективы для масштабирования технологий переработки сои в жидкие (соевое молоко) и гелеобразные (тофу) формы. В связи с этим актуальной задачей является не просто оценка количественного выхода продуктов, но и детальное изучение их физико-химических и сенсорных параметров в зависимости от природы сырья.

Как отмечают исследователи, технологическая ценность сои определяется не только валовым содержанием азотистых веществ, но и их функционально-технологическими свойствами: растворимостью, способностью к эмульгированию и солюбилизации. Эти параметры предопределяют поведение системы в ходе тепловой и механической обработки. Согласно данным, соевое молоко представляет собой сложную полидисперсную коллоидную систему, агрегативная устойчивость которой напрямую координирует последующие процессы термокальциевой коагуляции.

Качество готового тофу детерминировано пространственной архитектоникой соевых глобулинов, гидротермическими условиями осаждения и конечным гидробалансом системы. Прочностные характеристики формируемого макрогеля и его реологический профиль играют решающую роль в формировании потребительских предпочтений. При этом ионы кальция, выступая в роли кросс-линкеров, связывают полипептидные цепи в прочную трехмерную матрицу, что формирует консистенцию и плотность продукта.

Согласно работам, баланс между гидрофильностью и концентрацией протеина в белковом матриксе коррелирует с органолептическим восприятием: дефицит влаги приводит к излишней жесткости, а её избыток дестабилизирует текстуру. Архитектоника геля во многом зависит от биохимического статуса исходных семян и природы применяемых осадителей, а также от способов предварительной подготовки и замачивания зерна. Генетические особенности и сортовая специфика сои, как доказано в исследованиях, оказывают фундаментальное влияние на компонентный состав белков, что в конечном итоге манифестирует в физико-химических и органолептических свойствах готовых продуктов.

Методы и материалы исследований

В рамках данной работы выполнена сравнительная оценка физико-химического, текстурного и сенсорного профилей соевого молока и тофу. Объектами исследования служили образцы, полученные из соевых бобов сортов «Илхом-6» и «Фора» (урожаи 2023–2025 гг.).

Комплекс физико-химических испытаний включал:

1. **Массовую долю белка (%)** — определяли арбитражным методом Кьельдаля (с пересчетом на азот).
2. **Влажность (%)** — находили методом термогравиметрического анализа **Плотность** — оценивали пикнометрическим методом.
3. **Активную кислотность (pH)** — измеряли потенциометрически с помощью лабораторного pH-метра.

Структурно-механические свойства тофу (усилие деформации, Н) тестировали инструментальным методом на текстурометре, фиксируя сопротивление образца механическому сжатию, что критически важно для прогнозирования стабильности формы продукта.

Сенсорный анализ проводился экспертной панелью с использованием дескрипторно-балльной методики (9-балльная шкала). Комплексному профилированию подвергались такие показатели, как цветовые характеристики, запах, вкус и консистенция. Математико-статистическую обработку экспериментальных массивов данных за трехлетний период осуществляли методом дисперсионного анализа по Б. А. Доспехову (1985).

Результаты и обсуждение

Наряду с изучением технологического выхода и скорости коагуляции белков, был проведен мониторинг качественных показателей готовых продуктов. В таблице 1 аккумулированы средние и погодовые данные физико-химического и реологического скрининга образцов сортов «Илхом-6» и «Фора».

Анализ экспериментальных данных (Таблица 1) подтвердил технологическое доминирование сырья сорта «Илхом-6». Мониторинг концентрации белка в продуктах из сои «Илхом-6» по годам (2023, 2024 и 2025 гг.) показал стабильно высокие результаты: 14,5 %, 14,9 % и 14,8 % соответственно (среднее значение за три года — 14,7 %). В то же время для образцов из сорта «Фора» данные значения составили 13,7 %, 14,0 % и 13,9 % (при среднем показателе 13,9 %).

Абсолютное межсортовое расхождение составило 0,8 %. Данный шаг имеет важное технологическое значение, поскольку для белково-функциональных систем увеличение массовой доли протеина даже на 0,5–1,0 % существенно пролонгирует биологическую и питательную ценность готовой продукции.

В отношении влагоудерживающей способности более высокие значения были зафиксированы у образцов из сырья сорта «Фора». Средний показатель влажности для сорта «Илхом-6» составил 74,3 %, тогда как для сорта «Фора» — 75,6 % (абсолютная разница — 1,3 %). Это указывает на то, что макроструктура тофу из сои «Фора» способна связывать большее количество свободной влаги. Тем не менее, данное свойство не обеспечивает продукту безусловных преимуществ, так как избыточное влагосодержание зачастую коррелирует с ослаблением текстурного каркаса и снижением доли сухих веществ (в частности, белка). Напротив, умеренная влажность образцов «Илхом-6» в сочетании с высокой концентрацией протеина и прочностью геля свидетельствует о более гармоничном и правильном формировании консистенции продукта.

При оценке плотности среднее значение для полуфабрикатов из сои «Илхом-6» составило 1,06 г/см³, в то время как для сорта «Фора» — 1,04 г/см³ (абсолютный зазор — 0,02 г/см³). Это подтверждает, что сорт «Илхом-6» позволяет получить более однородную, сомкнутую и плотную белковую матрицу. Мониторинг активной кислотности (pH) значимых межсортовых девиаций не выявил: средняя величина pH для образцов «Илхом-6» составила 6,62, а для сорта «Фора» — 6,58 (абсолютная разница всего 0,04). Полученные данные свидетельствуют о том, что в обоих случаях показатели кислотности находились в пределах оптимального технологического диапазона.

Анализ структурно-механических свойств выявил явное преимущество образцов из сои «Илхом-6». За период 2023–2025 гг. сопротивление сжатию для данного сорта составило 18,1 Н; 18,6 Н и 18,4 Н соответственно (при среднем значении 18,4 Н). Для сорта «Фора» аналогичные реологические параметры составили 16,6 Н; 17,0 Н и 16,9 Н (среднее значение — 16,8 Н).

Таблица 1

Физико-химические, структурно-механические и органолептические параметры соевого молока и тофу, выработанных из сортов «Илхом-6» и «Фора»

Сорт сои	Год исследования	Массовая доля белка, %	Влажность, %	Плотность, г/см³	pH	Текстурная прочность, Н	Органолептическая оценка, балл
Илхом-6	2023	14,5	74,6	1,05	6,60	18,1	8,7
	2024	14,9	74,0	1,06	6,63	18,6	9,0
	2025	14,8	74,2	1,06	6,62	18,4	8,9
	Среднее	**14,7**	**74,3**	**1,06**	**6,62**	**18,4**	**8,9**
Фора	2023	13,7	75,8	1,03	6,56	16,6	8,2
	2024	14,0	75,4	1,04	6,59	17,0	8,5
	2025	13,9	75,6	1,04	6,58	16,9	8,4
	Среднее	**13,9**	**75,6**	**1,04**	**6,58**	**16,8**	**8,4**

Абсолютное расхождение достигло 1,6 Н. Это доказывает, что тофу, изготовленный из бобов «Илхом-6», обладает повышенной механической прочностью, стабильностью геометрической формы и высокой технологичностью для промышленной переработки. Зафиксированный в 2024 году незначительный рост прочностных характеристик у обоих сортов указывает на оптимизацию контроля технологических параметров процесса коагуляции.

Результаты дескрипторно-балльного сенсорного анализа также подтвердили приоритет сорта «Илхом-6». Погодовые экспертные оценки для него составили 8,7 балла (2023 г.), 9,0 балла (2024 г.) и 8,9 балла (2025 г.) при среднем значении 8,9 балла. Для образцов «Фора» эти показатели находились на уровне 8,2; 8,5 и 8,4 балла (средний балл — 8,4). Абсолютный зазор составил 0,5 балла. Столь выраженная разница свидетельствует о более высоком уровне потребительской лояльности к продукту из сои «Илхом-6» по таким дескрипторам, как вкус, аромат, внешний вид и консистенция.

Резюмируя данные таблицы 1, можно констатировать, что по ключевым качественным параметрам — массовой доле белка, плотности матрицы, прочности текстуры и общей органолептической оценке — сорт «Илхом-6» превосходит сорт «Фора». Несмотря на повышенную влажность продуктов из сои «Фора», этот фактор не обеспечил им преимуществ в технологическом и сенсорном отношении. Следовательно, с позиции качественного профилирования готовых изделий, сорт «Илхом-6» признан наиболее предпочтительным для промышленного внедрения.

Выявленные расхождения в физико-химических и органолептических параметрах готовых продуктов требуют комплексной визуализации. Чтобы дать интегральную оценку качественного профиля каждого генотипа и наглядно продемонстрировать векторы их технологического превосходства, была построена лепестковая диаграмма (см. Рисунок 1).



Рис.1. Профиль показателей качества продукции, полученной из сои сортов «Илхом-6» и «Фора»

На данной диаграмме комплексно отображена качественная архитектоника готовых продуктов. График представлен в нормированном виде; при этом по осям показателей, оказывающих прямое положительное влияние на потребительские свойства (массовая доля белка, плотность, pH, прочность текстуры и общий сенсорный балл), профиль сорта «Илхом-6» занимает явно доминирующее положение. Показатель влажности на диаграмме оценен по инвертированному принципу — как обратный критерий, поскольку для белковых макрогелей типа тофу избыток несвязанной влаги дестабилизирует реологическую структуру и снижает сроки хранения. В связи с этим в качественном профиле по данному параметру сорт «Илхом-6» также продемонстрировал технологическую предпочтительность.

Средняя массовая доля общего белка для сорта «Илхом-6» составила 14,7 %, в то время как для сорта «Фора» — 13,9 % (абсолютный зазор — 0,8 %). Это подчеркивает нутриентное преимущество сырья «Илхом-6» в рамках конструирования специализированных продуктов питания, поскольку высокий уровень протеина напрямую детерминирует биологическую ценность и функциональную значимость готового продукта.

Влагосодержание образцов из сои «Фора» составило 75,6 % против 74,3 % у сорта «Илхом-6» (абсолютная разница — 1,3 %), что указывает на повышенный гидрофильный потенциал белкового матрикса у «Форы». Однако на лепестковом графике этот параметр представлен в инвертированном виде, так как избыток влаги в сывороточных и белковых сгустках ухудшает их прочностные показатели и устойчивость к синерезису. В силу этого сорт «Илхом-6» сохраняет лидерство в общем качественном профиле. Несмотря на отсутствие выраженных межсортовых девиаций по показателям плотности и активной кислотности, средняя плотность образцов из сои «Илхом-6» составила 1,06 г/см³ против 1,04 г/см³ у сорта «Фора» (абсолютная разница — 0,02 г/см³). Значения pH для указанных сортов зафиксированы на уровне 6,62 и 6,58 соответственно (абсолютное расхождение — 0,04). Данные флуктуации не являются критическими, однако они наглядно подтверждают формирование более стабильной и технологически устойчивой макроструктуры у полуфабрикатов, полученных из зерна «Илхом-6».

Параметры текстурной прочности стали одним из ключевых векторов межсортовой дифференциации на построенном графике. Среднее сопротивление механической деформации для образцов «Илхом-6» составило 18,4 Н, в то время как для «Форы» этот показатель остановился на отметке 16,8 Н (абсолютное расхождение — 1,6 Н). В технологии производства тофу данный критерий играет решающую роль, поскольку прочный структурный каркас обеспечивает сохранение геометрической формы изделий при нарезке и фасовке, гарантирует стабильность в процессе упаковки, а также напрямую детерминирует лояльность потребителей. Таким образом, расширение площади профиля «Илхом-6» в данном секторе лепестковой диаграммы является научно и практически обоснованным.

Превосходство генотипа «Илхом-6» проявилось и в ходе сенсорного скрининга: экспертный балл составил 8,9 против 8,4 у сорта «Фора» (абсолютный зазор — 0,5 балла). Это свидетельствует о более гармоничном восприятии комплекса таких качественных дескрипторов, как внешний вид, вкусовые свойства, аромат и консистенция готового тофу из сои «Илхом-6». Лепестковый график позволил интегрировать эти разнородные критерии в единый наглядный интегральный профиль качества.

Выводы

1. На основании проведенных исследований установлено технологическое и нутриентное доминирование физико-химического профиля соевого молока и тофу, выработанных из зерна сои сорта «Илхом-6», по сравнению с сортом «Фора». В частности, средняя массовая доля белка в продуктах из сои «Илхом-6» составила 14,7 %, что превышает аналогичный показатель конкурентного сорта на 0,8 %. Данный зазор имеет принципиальное значение для индустрии функционального питания, существенно повышая биологическую и питательную ценность готовых изделий.

2. Мониторинг влагосодержания выявил более высокие значения у полуфабрикатов из сои «Фора» (75,6 %) по сравнению с «Илхом-6» (74,3 %). Однако, учитывая, что избыточная влага дестабилизирует пространственную матрицу геля и приводит к ослаблению структуры, этот фактор не может рассматриваться как качественное преимущество. Умеренный гидробаланс сырья «Илхом-6» способствует формированию более плотной и устойчивой консистенции продукта.

3. Инструментальный анализ структурно-механических свойств подтвердил явный приоритет образцов из сои «Илхом-6», где средняя прочность текстуры достигла 18,4 Н, что на 1,6 Н выше, чем у сорта «Фора». Это гарантирует высокую формоустойчивость, способность к механической нарезке и промышленную технологичность продукта. Вектор плотности макроструктуры также зафиксирован в пользу генотипа «Илхом-6».

4. Результаты дескрипторно-балльной оценки коррелируют с физико-химическими данными и подтверждают сенсорное превосходство продуктов из сои «Илхом-6» (8,9 балла против 8,4 балла у сорта «Фора»). На основании комплексного анализа изученных технологических, реологических и потребительских параметров сорт сои «Илхом-

6» рекомендуется как наиболее перспективный и оптимальный сырьевой ресурс для глубокой переработки на соевое молоко и тофу.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Chen Y., Zhang L., Li X. ва бошқалар. Processing technologies of soy milk and tofu: A review. - *Processes*, 2023, Vol. 11, No. 1. - Article 202.

2. Döttinger S., Müller M., Schmidt R. ва бошқалар. Genetic basis of tofu quality traits in soybean. - *Molecular Breeding*, 2025, Vol. 45. - Article 29.

3. Geng X., Liu J., Zhao Q. ва бошқалар. Recent advances in tofu coagulants and coagulation mechanisms. - *Foods*, 2024, Vol. 13, No. 21. - Article 3475.

4. Syromiatnykov Y, Ishniyazova S, Nurvafaeva D, et al. Статья Foods 2026, 15(2), 243. *Foods*. 2026; 15(2):243. doi.org.

5. Sh.A.Ishniyazova, D.Nurvafoyeva. Agrobiological indicators of food and vegetable soybean (glycine max (l.) merr.) under the conditions of Samarkand region. Journal of agriculture & horticulture International scientific journal ISSN: 2770-9132

6. Ishniyazova Shaxista Ashurovna. Soya urug'laridan olingan soya suti va tofu mahsulotlarining fizik-kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini Ilmiy-amaliy jurnal №4 [119], 2026 ISSN 2181-8150

УЎК: 633.511:631.811.98:581.1

ТУЗ СТРЕССИ ШАРОИТИДА ПАХТАНИНГ МОРФОЛОГИК ПАРАМЕТРЛАРИДАГИ БИОСТИМУЛЯТОРЛАР КЕЛТИРИБ ЧИҚАРАДИГАН ЎЗГАРИШЛАРНИ БАҲОЛАШ

В.С. Камбурова, б.ф.д., илмий ишлар бўйича директор ўринбосари, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Н.Р. Рахматова, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

И.Б. Салахутдинов, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Ф.С. Ражапов, катта илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Д.А. Мирзабаев, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Д.И. Тожибоева, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Е.Ф. Назарова, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Аннотация. *Мазкур тадқиқотда тузли стресс (150 мМ NaCl) шароитида ғўза (Gossypium hirsutum L.) генотипларининг ниш ўсимликларининг эрта морфофизиологик кўрсаткичларига биопрепаратларнинг таъсири ўрганилди. Тадқиқот объекти сифатида икки ғўза генотипи (Ишонч ва Порлок-1) ҳамда биопрепаратлар (Ризоком-1, Микрозим-1 ва Ҳосил) танланди. Уруғларнинг униб чиқиш вақти ва энергияси, илдиз узунлиги ҳамда поя узунлиги турли ишлов вариантларида баҳоланди.*

Олинган натижалар тузли стресс барча ўрганилган морфофизиологик кўрсаткичларни сезиларли даражада сусайтиришини кўрсатди, бироқ жавоб даражаси генотип ва қўлланилган биопрепаратга боғлиқ равишда ўзгарди. Энг юқори стрессга чидамлилик Порлок-1 генотипида кузатилди, Ишонч генотипи эса юқори сезгирлик намоён қилди.

Статистик таҳлил (ANOVA, Tukey HSD) биопрепаратларнинг барча белгиларга ишончли таъсир кўрсатишини, айниқса стресс шароитида, тасдиқлади. Биопрепаратлар уруғ униб чиқиш вақтини қисқартириш, униб чиқиш энергиясини ошириш ва илдиз ўсишини рағбатлантиришда энг самарали таъсир кўрсатди. Корреляцион таҳлил, PCA, кластер таҳлил, радиал диаграммалар, MGIDI ва volcano таҳлиллар биопрепаратлар стресс фенотипини комплекс равишда юмшатишини ва ўсимликларни идеотипга яқин ҳолатга келтиришини кўрсатди.

Энг юқори барқарор самарадорлик Ризоком-1 препаратида кузатилди, шунингдек Микрозим-1 ва Ҳосил препаратлари ҳам сезиларли биостимулятор таъсир кўрсатди. Олинган натижалар биопрепаратлар ғўзада тузли стресснинг эрта морфофизиологик жавобини самарали модификация қилиши ва генетик жиҳатдан белгиланган чидамлиликни кучайтириши мумкинлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *ғўза генотиплари, тузли стресс, биопрепаратлар, биостимуляторлар, PGPR, уруғ униб чиқиши, илдиз ўсиши, морфофизиологик белгилар, мультивариант таҳлил, PCA, MGIDI, кластер таҳлил, антистресс самара.*

Аннотация. *В работе изучено влияние биопрепаратов на ранние морфофизиологические показатели проростков хлопчатника (Gossypium hirsutum L.) в условиях солевого стресса (150 мМ NaCl). Оценивались время и энергия прорастания, длина корней и длина побега у двух генотипов (Ишонч и Порлок-1) при различных вариантах обработки биопрепаратами (Ризоком-1, Микрозим-1, Хосил). Установлено, что солевой стресс вызывает значительное угнетение всех исследованных признаков, однако степень реакции существенно зависит от генотипа и применяемого биопрепарата. Наиболее устойчивым оказался генотип Порлок-1, тогда как Ишонч проявил более высокую чувствительность к засолению.*

Статистический анализ (ANOVA, Tukey HSD) показал, что биопрепараты оказывают значимое влияние на все изученные признаки, особенно в условиях стресса. Наиболее выраженный эффект наблюдался по снижению времени прорастания, повышению энергии прорастания и стимулированию роста корневой системы. Корреляционный анализ, PCA, кластеризация, радиальные диаграммы, MGIDI и volcano-анализ подтвердили, что биопрепараты способствуют интегральному смягчению стрессового фенотипа и приближают растения к идеотипическому состоянию.

Наиболее стабильную эффективность показал препарат Ризоком-1, а также Микрозим-1 и Хосил. Полученные результаты свидетельствуют, что биопрепараты являются эффективными модификаторами раннего стрессового ответа и усиливают генетически обусловленную солеустойчивость хлопчатника.

Калит сўзлар: *хлопчатник, солевой стресс, биопрепараты, биостимуляторы, PGPR, прорастание семян, рост корней, морфофизиологические признаки, мультивариантный анализ, PCA, MGIDI, кластерный анализ, засоление, антистрессовый эффект.*

Abstract. *The present study investigated the effects of biopreparations on early morphophysiological traits of cotton seedlings (Gossypium hirsutum L.) under salt stress (150 mM NaCl). Germination time and energy, root length, and shoot length were evaluated in two genotypes (Ishonch and Porloq-1) treated with different biostimulants (Rizokom-1, Microzim-1, and Hosil). The results demonstrated that salt stress significantly suppressed all studied traits; however, the magnitude of response strongly depended on genotype and biostimulant application. The Porloq-1 genotype showed higher inherent tolerance, while Ishonch was more sensitive to salinity stress.*

Statistical analysis (ANOVA and Tukey HSD) revealed that biostimulants significantly influenced all traits, particularly under stress conditions. The most pronounced effects were observed in reducing germination time, increasing germination energy, and promoting root growth. Multivariate analyses, including correlation analysis, PCA, cluster analysis, radial plots, MGIDI index, and volcano analysis, confirmed that biostimulants induced an integrated alleviation of stress-induced phenotypic alterations and shifted plants toward a more desirable ideotype.

Among the tested treatments, Rizokom-1 exhibited the most consistent effectiveness, followed by Microzim-1 and Hosil. Overall, the findings indicate that biostimulants act as effective modulators of early stress responses and enhance genetically determined salinity tolerance in cotton seedlings.

Keywords: *cotton, salt stress, biostimulants, plant growth-promoting rhizobacteria (PGPR), seed germination, root growth, morphophysiological traits, multivariate analysis, principal component analysis (PCA), MGIDI index, cluster analysis, salinity, stress alleviation, early seedling development.*

Кириш. Биопрепаратлар ҳозирги кунда ўсимликларнинг эрта ривожланишини бошқаришда энг истиқболли воситалардан бири сифатида қаралмоқда, чунки уларнинг таъсири уруғ униб чиқиш ва ниш ҳосил бўлиш босқичларидаёқ намоён бўлади [1–4]. Анъанавий агрокимёвий воситалардан фарқли равишда, биопрепаратлар онтогенезнинг дастлабки босқичларига комплекс таъсир кўрсатиб, униб чиқиш тезлиги ва энергияси, илдиз ва поя ўсиши ҳамда нишнинг умумий кучлилигини оширади [2,4–9]. Шу сабабли морфологик белгилар уларнинг биологик самарадорлигини баҳолашда сезгир индикаторлар сифатида кенг қўлланилади. Ҳозирги қарашларга кўра, биостимуляторларнинг ижобий таъсири метаболик фаолликнинг кучайиши, сув ва озуқа моддаларнинг ўзлаштирилиши яхшиланиши, фитогормонал ҳолатнинг бошқарилиши ҳамда антиоксидант ҳимоянинг кучайиши билан боғлиқ бўлиб, бу жараёнлар эрта ўсишнинг мувофиқлашган ривожланишини таъминлайди [10–13]. Фенотип даражасида бу ҳолатлар униб чиқишнинг тезлашиши, энергиясининг ортиши ҳамда илдиз ва поя ўсишининг кучайиши билан ифодаланади.

Эрта морфологик белгиларнинг аҳамияти шундаки, ўсимликнинг кейинги ўсиши ва мослашуви учун зарур бўлган асосий хусусиятлар айнан онтогенезнинг дастлабки босқичларида шаклланади. Уруғнинг тез ва бир хил униб чиқиши бир хил ниш ҳосил бўлишини таъминлайди, илдиз тизимининг ривожланиши эса сув ва минерал моддаларни самарали ўзлаштириш имконини беради. Поя ўсиши эса ривожланиш жараёнларининг умумий мувофиқлашуви ва мустақил ўсиш босқичига ўтишни акс эттиради. Шу жиҳатдан, эрта ўсишнинг морфологик кўрсаткичлари алоҳида белгилар йиғиндиси эмас, балки биопрепаратларнинг умумий таъсирини баҳолашга имкон берувчи яхлит тизим ҳисобланади [14,15].

Бу масала ғўза учун айниқса долзарб бўлиб, ушбу экин эрта ривожланиш босқичида ноқулай экологик омилларга нисбатан юқори сезгирликка эга [16,17]. Адабиётларда биопрепаратлар, жумладан микробиологик инокулянтлар ва бошқа биостимуляторлар, ғўза ва бошқа экинларда уруғ униб чиқиши ва эрта ўсиш жараёнларига ижобий таъсир кўрсатиши ҳақида маълумотлар келтирилган [2,4–9]. Бироқ бу таъсирнинг даражаси препарат тури, генотип ва муҳит шароитига боғлиқ равишда ўзгариб туради. Шу билан бирга, кўплаб тадқиқотларда фақат айрим белгилар баҳоланган ёки интеграл таҳлил ўтказилмаган, бу эса натижаларни таққослаш ва энг самарали препаратларни танлашни қийинлаштиради [2,4–9].

Шу муносабат билан ғўза ниш ўсимликларининг морфологик белгиларини комплекс баҳолаш зарур ҳисобланади. Бундай ёндашув нафақат стимулловчи таъсир мавжудлигини аниқлаш, балки эрта морфогенезнинг қайси компонентлари энг сезгир эканлигини ва қайси препаратлар энг юқори умумий фенотипик самара бераётганини аниқлаш имконини беради.

Шу асосда, ушбу тадқиқотнинг мақсади биопрепаратларнинг ғўза ниш ўсимликларининг эрта морфологик белгиларга таъсирини баҳолашдан иборат.

Тадқиқот қуйидаги вазифаларни ўз ичига олади:

- уруғ униб чиқиш вақти ва энергиясини баҳолаш;
- илдиз ва поя ўсишига таъсирни аниқлаш;
- турли ғўза генотипларида морфологик жавобларни таққослаш;
- генотип, препарат ва уларнинг ўзаро таъсирини баҳолаш;
- индивидуал ва интеграл морфологик кўрсаткичлар асосида энг самарали биопрепаратларни аниқлаш.

Шу тариқа, ушбу тадқиқот биопрепаратлар таъсиридаги морфологик ўзгаришларни тасвирлаш билан чекланиб қолмай, балки уларнинг эрта ривожланиш босқичидаги умумий таъсир қонуниятларини аниқлашга қаратилган.

Материаллар ва усуллар

Тадқиқот объекти ва тажриба дизайни

Тадқиқот объектлари сифатида классик селекция асосида яратилган ғўза навлари (Ишонч, Ан-Байовут-2 ва Наманган-77), маркер-ассоциацияланган селекция асосида олинган Равнақ-1 ҳамда биотехнологик селекция орқали яратилган Порлок-1 навлари, шунингдек

уруғларни ишлов бериш учун қўлланилган биопрепаратлар (Microzim-1, Microzim-2, Rizokom-1, Rizokom-2 ва Hosil) танланди.

Уруғларга ишлов бериш ишлаб чиқарувчи кўрсатмаларига мувофиқ биостимулятор эритмасида уруғларни намлаш орқали амалга оширилди. Ишлов берилмаган ғўза уруғлари назорат варианти сифатида хизмат қилди.

Тадқиқот мақсадларига эришиш учун тажрибалар назорат қилинадиган фитотрон шароитларида ўстирилган ўсимликларда олиб борилди.

Ғўза (*Gossypium hirsutum* L.) уруғлари стерилланган озуқа муҳитига экилиб, стандарт фитотрон шароитларида ўстирилди. Уруғлар 28 °C ҳароратда 3 кун давомида қоронғилик шароитида инкубация қилинди. Учинчи кундан сўнг, ниш берган уруғлар Петри идишларидан фотопериодик шароитга ўтказилди (16/8 соатлик кун/тун режими), ёруғлик интенсивлиги 5000 люксни ташкил этди. Нишлар пайдо бўлгандан сўнг ўсимликлар тупроққа кўчирилди.

Тузли стрессни моделлаштириш мақсадида ўсимликлар назорат ва тажриба гуруҳларига ажратилди. 21 кун давомида назорат гуруҳидаги ўсимликлар дистилланган сув билан суғорилди, тажриба гуруҳидаги ўсимликлар эса 50 ва 150 мМ концентрациядаги NaCl эритмаси билан ишлов берилди. Осмотик шокни олдини олиш мақсадида туз концентрацияси ҳар куни 25 мМ дан босқичма-босқич ошириб борилди, белгиланган концентрацияга етказилди.

4–5 та ҳақиқий барг шаклланган сўнг ўсимликлар йиғиб олинди, тозаланди ва зарур таҳлиллар ўтказилди.

Барча тажрибалар бешта биологик такрор асосида амалга оширилди.

Уруг ундириш параметрларини аниқлаш

Уруг ундириш параметрлари Munavar ва ҳаммуаллифлар (2021) томонидан таклиф этилган усулга мувофиқ аниқланди [14]. Бунинг учун пахта уруғлари NaCl эритмалари (0, 50, 100, 150 ва 200 мМ) билан намланган фильтр қоғоз устида Петри косачаларига жойлаштирилди. Ҳар бир Петри косачада 10 тадан уруғ бир-бирига тенг масофада жойлаштирилди. Сўнгра косачалар 29/19 °C (кун/тун) ҳароратда ва 550 μmol m^{-2} s^{-1} ёруғлик интенсивлигида, 16/8 соат (ёруғлик/қоронғилик) фотопериод шароитида сақланадиган ўсиш камерасига қўйилди.

Ундириш бўйича маълумотлар 4 кундан кейин қайд этилди. Уруғдан чиққан илдизча (radicle) узунлиги уруғ узунлигидан катта бўлса ёки илдизча узунлиги ≥ 0.5 см бўлса, уруғ ундирилган деб ҳисобланди [14]. Петри косачалар ўсиш камерасида 10 кун давомида сақланди ва таҳлил учун ундириш маълумотлари мунтазам равишда қайд этилди. Барча тажрибалар камида уч такрорланишда амалга оширилди.

Нисбий ундириш (RG) қуйидаги формула бўйича ҳисобланди [14]:

RG = (туз стресс шароитида ундирилган уруғлар сони / назорат шароитида ундирилган уруғлар сони) × 100%

Ундириш энергияси (GE) қуйидаги формула бўйича баҳоланди [14,18]:

GE = (10-кунда ундирилган уруғлар сони / умумий уруғлар сони) × 100%

Генотип, шўрланиш ва биопрепаратлар таъсирининг дисперсион таҳлили

Морфологик жавобларнинг шаклланишида омилларнинг улушини миқдорий баҳолаш учун уч омилли дисперсион таҳлил (ANOVA) амалга оширилди. Унда генотип, туз концентрацияси ва биопрепарат таъсирлари, шунингдек уларнинг ўзаро таъсирлари ҳам инобатга олинди.

Натижалар шуни кўрсатдики, барча асосий омиллар ўрганилган тўртта белгига нисбатан статистик жиҳатдан аҳамиятли таъсир кўрсатган. Шу билан бирга, кўпчилик ўзаро таъсирлар ҳам аҳамиятли бўлиб, кўчатлар жавобининг мураккаб ва кўп даражали характерга эга эканлигини кўрсатади (1-жадвал).

1-жадвалда кўрсатилганидек, генотипнинг энг катта ҳиссаси илдиз узунлиги ($\eta^2 = 0.758$) ва поя узунлиги ($\eta^2 = 0.646$) учун кузатилди, бу эса Ishonch ва Porloq-1 ўртасида ўсиш билан боғлиқ белгилар бўйича фундаментал фарқлар мавжудлигини кўрсатади.

Жадвал 1.

Ғўза кўчатларининг морфологик белгиларини уч омилли дисперсион таҳлил (Three-way ANOVA) натижалари

Ўзгарувчанлик манбаи	F қиймати	p қиймати	η^2	Талқин
Униб чиқиш вақти (Germination time)				
Генотип	2328.61	<0.001	0.458	Униб чиқиш вақтидаги ўзгаришларнинг асосий қисми генотип ҳиссасига тўғри келди
Туз концентрацияси	1532.93	<0.001	0.302	Шўрланиш униб чиқиш вақтини сезиларли даражада узайтирди
Биопрепарат	132.01	<0.001	0.130	Биопрепаратлар уруғларнинг униб чиқиш тезлигига сезиларли таъсир кўрсатди
Генотип × Туз	124.51	<0.001	0.025	Генотипларнинг шўрланишга жавоби бир-биридан фарқ қилди
Генотип × Биопрепарат	19.15	<0.001	0.019	Биопрепаратларга жавоб генотипга боғлиқ бўлди
Туз × Биопрепарат	38.86	<0.001	0.038	Биопрепаратлар самарадорлиги шўрланиш даражасига боғлиқ бўлди
Генотип × Туз × Биопрепарат	9.58	<0.001	0.009	Уч омилнинг ўзаро таъсири аҳамиятли экани аниқланди
Униб чиқиш энергияси (Germination energy)				
Ўзгарувчанлик манбаи	F қиймати	p қиймати	η^2	Талқин
Генотип	5421.20	<0.001	0.565	Ўзгарувчанликнинг энг катта қисми генотип ҳиссасига тўғри келди
Туз концентрацияси	2893.02	<0.001	0.302	Шўрланиш униб чиқиш энергиясини сезиларли камайтирди
Биопрепарат	74.66	<0.001	0.039	Биопрепаратлар униб чиқиш энергиясини оширди
Генотип × Туз	662.83	<0.001	0.069	Шўр стрессининг таъсири айниқса Ishonch навида кучлироқ намоён бўлди
Генотип × Биопрепарат	17.77	<0.001	0.009	Биопрепаратларга жавоб генотипга боғлиқ бўлди
Туз × Биопрепарат	8.65	<0.001	0.005	Биопрепаратлар таъсири шўрланиш даражасига боғлиқ бўлди
Генотип × Туз × Биопрепарат	3.12	0.012	0.002	Кучсиз бўлса-да, аҳамиятли уч томонлама таъсир кузатилди
Илдиз узунлиги (Root length)				
Ўзгарувчанлик манбаи	F қиймати	p қиймати	η^2	Талқин
Генотип	19190.87	<0.001	0.758	Илдиз узунлиги асосан генотип билан белгиланди
Туз концентрацияси	4062.04	<0.001	0.160	Шўрланиш илдиз ўсишини кучли даражада чеклади
Биопрепарат	227.71	<0.001	0.045	Биопрепаратлар илдиз ўсишини рағбатлантирди
Генотип × Туз	691.21	<0.001	0.027	Генотиплар ўртасида шўрга чидамлилик фарқлари кузатилди
Генотип × Биопрепарат	18.39	<0.001	0.004	Даволашларга жавоб генотипга хос бўлди
Туз × Биопрепарат	6.31	<0.001	0.001	Биопрепарат таъсири шўр стресс шароитида ўзгарди
Генотип × Туз × Биопрепарат	2.87	0.019	0.001	Кучсиз, аммо статистик аҳамиятли ўзаро таъсир аниқланди
Поя узунлиги (Shoot length)				
Ўзгарувчанлик манбаи	F қиймати	p қиймати	η^2	Талқин
Генотип	25267.50	<0.001	0.646	Поя узунлигининг асосий белгиловчи омили генотип бўлди
Туз концентрацияси	12032.82	<0.001	0.308	Шўрланиш поя ўсишини кучли даражада сусайтирди
Биопрепарат	165.36	<0.001	0.021	Биопрепаратлар поя ўсишини сезиларли яхшилади
Генотип × Туз	500.27	<0.001	0.013	Генотиплар шўр стрессга турлича жавоб қайтарди
Генотип × Биопрепарат	35.96	<0.001	0.005	Биопрепаратларнинг таъсири генотипга боғлиқ бўлди

Туз × Биопрепарат	19.78	<0.001	0.003	Биопрепаратлар самарадорлиги шўрланиш шароитига қараб ўзгарди
Генотип × Туз × Биопрепарат	16.93	<0.001	0.002	Уч омилнинг ўзаро таъсири статистик жиҳатдан аҳамиятли бўлди

Ундириш энергияси учун ҳам генотипнинг ҳиссаси жуда юқори бўлиб қолди ($\eta^2 = 0.565$), шу билан бирга ундириш вақти бўйича ҳам генотип ($\eta^2 = 0.458$) ҳамда туз концентрацияси ($\eta^2 = 0.302$) асосий белгиловчи омиллар сифатида намоён бўлди.

Шу тариқа, генотиплар ўртасидаги фарқлар алоҳида ишловлар таъсирининг иккинчи даражали натижаси эмас, балки фенотипнинг тизимли хусусияти ҳисобланади. Шу билан бирга, шўрланиш барча ўлчанган параметрларнинг ёмонлашувига олиб келувчи асосий стресс омили сифатида намоён бўлди (1-жадвал).

Морфологик белгилар ўртасидаги муносабатлар тузилиши. Ўртача қийматлар ва омиллар таъсири баҳолангандан сўнг, белгилар ўртасидаги ўзаро боғлиқликлар таҳлил қилинди. Корреляция матрицалари шуни кўрсатдики, ундириш вақти доимий равишда ундириш энергияси, илдиз узунлиги ва поя узунлиги билан манфий корреляцияга эга бўлган, шу билан бирга охирги учта белги ўртасида кучли мусбат боғлиқлик сақланган (1-расм).



1-расм. Турли ишлов шароитларида пахта кўчатларининг морфологик белгилар ўртасидаги корреляцион тузилмаси

0 mM NaCl шароитида ундириш вақти ва ундириш энергияси ўртасидаги корреляция коэффициенти $r = -0.95$, ундириш вақти ва илдиз узунлиги ўртасида $r = -0.95$, ҳамда ундириш вақти ва поя узунлиги ўртасида ҳам $r = -0.95$ ни ташкил этди; барча боғлиқликлар юқори даражада ишончли бўлди ($p < 0.001$).

Шу билан бир вақтда, ундириш энергияси илдиз узунлиги ($r = 0.96$) ва поя узунлиги ($r = 0.96$) билан кучли мусбат корреляция кўрсатди, илдиз ва поя узунлиги ўртасидаги боғлиқлик эса деярли функционал даражада бўлди ($r = 0.99$) (1-расм).

150 mM NaCl шароитида муносабатлар умумий тузилиши сақланиб қолди, бироқ манфий корреляцияларнинг мутлақ қийматлари бироз камайди: ундириш вақти ва ундириш энергияси

r = −0.92, ундириш вақти ва илдиз узунлиги r = −0.89, ҳамда ундириш вақти ва поя узунлиги r = −0.86 ни ташкил этди.

Аксинча, ундириш энергияси ва илдиз узунлиги ўртасидаги мусбат корреляция кучайиб r = 0.98 га етди, илдиз ва поя узунлиги ўртасидаги боғлиқлик эса ўзгармасдан r = 0.99 бўлиб қолди. Демак, шўрланиш шароитида белгилар тизими парчаланиб кетмади, балки юқори ички уйғунликни сақлаб қолди, яъни ундиришнинг кечикиши ўсиш кўрсаткичларининг пасайиши билан синхрон равишда кечди (1-расм).



2-расм. Биопрепаратлар билан ишлов берилган шароитларда пахта кўчатларининг морфологик белгилар бўйича асосий компонент таҳлили (PCA)

Биопрепаратлар бўйича алоҳида корреляция таҳлили ҳам худди шу умумий қонуниятни тасдиқлади. Қайси ишлов тури бўлишидан қатъи назар, ундириш вақтини ошиши ундириш энергиясининг пасайиши ва ўсишнинг сусайиши билан боғлиқ бўлди, энг кучли ва барқарор боғлиқлик эса доимий равишда илдиз узунлиги ва поя узунлиги ўртасида кузатилди. Бу эса тўртта белги ягона морфофизиологик жавоб тизимини ташкил этганини ва ундириш вақти стресс интенсивлигининг салбий индикатори сифатида хизмат қилишини кўрсатади (1-расм).

1-расмда асосий морфологик белгилар — ундириш вақти, ундириш энергияси, илдиз узунлиги ва поя узунлиги — ўртасидаги корреляция матрицалари келтирилган. Ранг шкаласи Пирсон корреляция коэффициентларининг йўналиши ва қувватини акс эттиради, ячейкалар ичидаги рақамлар эса белгилар ўртасидаги корреляция кучини кўрсатади.

Алоҳида панеллар туз концентрацияси ва биопрепаратлар билан ишлов беришга боғлиқ ҳолда белгилар ўзаро муносабатлари тузилишидаги ўзгаришларни намойиш этади. Мусбат коэффициентлар белгиларнинг бир вақтда ва мувофиқ равишда ортишини, манфий коэффициентлар эса улар ўртасидаги тескари боғлиқликни ифодалайди.

Асосий компонент таҳлили (PCA) морфологик белгилар бўйича

Морфологик ўзгарувчанликнинг асосий ўқларини аниқлаш учун асосий компонент таҳлили (PCA) амалга оширилди. Натижалар шуни кўрсатдики, умумий дисперсиянинг катта қисми биринчи асосий компонент (PC1) томонидан тушунтирилади. У мазкур компонент ундириш вақти бир томонда, ундириш энергияси ҳамда ўсиш параметрлари (илдиз ва поя узунлиги) иккинчи томонда жойлашиши билан аниқ қарама-қаршиликни ифодалайди (2-расм).

Расмда PCA графиклари келтирилган бўлиб, уларда ишлов вариантларининг асосий компонентлар фазосида тақсимланиши ҳамда алоҳида белгиларнинг ўзгарувчанликнинг асосий ўқларини шакллантиришга қўшган ҳиссаси акс эттирилган. Нуқталарнинг жойлашуви морфологик профиллар ўртасидаги ўхшашлик ёки фарқларни ифодалайди, белгилар векторлари эса уларнинг тегишли компонентларга тушиш йўналиши ва кучини кўрсатади.

Мавжуд бўлган ҳолларда ишонч эллипслари гуруҳ ичидаги ўзгарувчанлик даражасини акс эттиради. PC1 ва PC2 мос равишда биринчи ва иккинчи асосий компонентларни англатади.

Морфологик жавобларнинг миқдори ва йўналишини баҳолаш бўйича "volcano" таҳлили

Якуний босқичда эффект қиймати (effect size) ва статистик аҳамиятлиликни бир вақтда интеграция қилиш учун "volcano" графиги тузилди. Ушбу ёндашув турли шўрланиш даражаларида қайси белгилар ва ишлов комбинациялари энг кучли жавоб берганини аниқлаш имконини берди (3-расм).

0 mM NaCl шароитида кўпчилик нуқталар ўртача таъсирлар соҳасида жойлашган бўлиб, бу биопрепаратларнинг стресс йўқ шароитда нисбатан енгил таъсир кўрсатганини англатади. Энг кучли ижобий ўзгаришлар илдиз узунлигида, қисман эса поя узунлигида кузатилди, айрим ишловлар эса ундириш вақти учун манфий log2FC қийматларини кўрсатди, бу эса ундириш тезлашганини англатади.

150 mM NaCl шароитида эса тақсимланиш анча кенгайди: энг кучли манфий log2FC қийматлари ундириш вақти билан боғлиқ бўлди, илдиз ва поя узунлиги эса айрим ишловларда мусбат зонага силжиб, стресс шароитида ўсишнинг тикланишини ифодалади (3-расм).

"Volcano" графиклари турли ишлов шароитларида морфологик ўзгаришларнинг йўналиши ва миқёсини акс эттиради. X-ўқ эффект қийматини (effect size), Y-ўқ эса кузатилган ўзгаришларнинг статистик аҳамиятлилик даражасини ифодалайди. Ушбу расм бир вақтнинг ўзида белгилар жавобининг кучи ва ишончлилигини баҳолаш ҳамда биопрепаратлар морфологик параметрларга энг кучли ижобий таъсир кўрсатган ишлов вариантларини аниқлаш имконини беради. Бу ёндашув анъанавий ўртача қийматлар асосидаги таққослашларни тўлдиради ва турли тажриба вариантлари бўйича ишловлар таъсирини рейтинглашни осонлаштиради.

Интеграл талқин: рейтинг, PCA ва volcano таҳлилини бирлаштириш

Соч таркибида айниқса, оғир металлар (Pb, Cd, Hg, As) таҳлили юқори даражада адекват маълумот олиш имкони бериши қайд қилинган бўлиб, бунда Pb, Cd, Hg, As экологик муҳит шароитига юқори даражада сезгир элементлар сифатида келтирилган [Versieck et al., 1985; 97-184-б.; Iyengar and Woittiez, 1988; 474-481-б.; Kempson and Lombi, 2011; 3915-3940-б.].

Асосан, аэроб тавсифга эга машғулотлар билан шуғулланувчи эркак спортчилар организмида Ca, Co, Cu, Mg, P, Zn, J, K элементлари етишмовчилиги, гимнастикачиларда Se, Zn, Cu концентрацияси ортиши таъкидланади [Ordzhonikidze et al., 2001; 40-45-б.; Stepanova, 2016; 52-60-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Организмда макро-, микроэлементлар миқдори физиологик меъёр даражасидан камайиши машғулотлар самарадорлиги ва ўз навбатида, машғулот ва мусобақалардан кейин организм жисмоний заҳирасининг қайта тикланишига салбий таъсир кўрсатиши тасдиқланган [Ordzhonikidze et al., 2001; 40-45-б.].

Мазкур **тадқиқотнинг мақсади** – ICP-OES услуби ёрдамида, Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳрида яшовчи, 17-20 ёш диапазонидаги футболчи-спортчилар ва спорт билан шуғулланмайдиган контингент сочи таркибида микро-, макроэлементлар миқдорини таҳлил қилишдан ташкил топган.

Тадқиқот материаллари ва услублари. Соч таркибидаги элементлар миқдори таҳлили (ICP-OES услуби). Тадқиқотларда соч таркибидаги элементлар миқдори индуктив боғланган плазмали оптик эмиссион спектрометрия (ICP-OES – Inductively coupled plasma optical emission spectrometry) услубида, Avio 200 спектрометри ("PerkinElmer" Inc., АҚШ) ёрдамида таҳлил қилинди [Rodushkin and Axelsson, 2000; 1-8-б.; Zaitseva et al., 2015; 58-66-б.; Pozebon et al., 2017; 1-23-б.; Nabatov et al., 2017; 33-37-б.; Zaitseva and Zaitsev, 2019; 69-74-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.] [2].

Бунда, соч намунаси тозалаш мақсадида, 15 минут давомида ацетон билан ишлов берилиб, дистилланган сув ёрдамида 3 марта такроран ювилди, хона ҳарорати шароитида 15 минут давомида қуритилди, синов намунаси (0,1 гр.) фторопласт материалдан ясалган махсус идишга жойлаштирилиб, 70% ли HNO3 эритмаси (5 мл) ва 30% ли H2O2 (5 мл) аралашмаси қуйилди, намуна "Milestone ETHOS UP" ("Milestone Srl.", Италия) микротўлқинли печида t=+200±0,5°C ҳарорат шароитида 5 минут давомида парчаланди, навбатдаги босқичда t=+45±0,5°C гача совутилди. Синов намунаси пробиркада 1 000 марта суюлтирилди, синов намунаси Avio 200 ("PerkinElmer" Inc., АҚШ) оптик-эмиссион спектрофотометри ёрдамида индуктив плазмали оптик-эмиссия спетрометрияси услубида (ICP-OES) таҳлил қилинди. Бунда, ҳар бир элемент учун мос тўлқин узунлиги спектрида сигнал интенсивлиги ўлчаниб, олдиндан тайёрланган калибрлаш эгри чизиқлари асосида концентрация қийматлари (мкг/г) ҳисобланди. Бунда, стандарт намуналардан (NIST SRM 1577c "Bovine Liver", АҚШ) фойдаланилди [Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Соч таркибидаги элементлар миқдорини таҳлил қилишда ICP-OES услуби етарли даражада адекват маълумот олиш имконини бериши тасдиқланган [Mikulewicz et al., 2013; 1077-1086-б.; Pozebon et al., 2017; 1-23-б.; Абдуллаева ва бошқ., 2024; 5-10-б.].

Бунда соч намуналари бошнинг энса соҳасидан ≥0,1 гр. миқдорда (3-4 см узунликда) кесиб олинди [Zaitseva and Zaitsev, 2019; 69-74-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Биоэтика қоидаларига амал қилиш. Тадқиқотларда синалувчилар билан ишлашда уларнинг розилиги асосида, Жаҳон тиббиёт ассоциацияси (WMA – World Medical Association) томонидан тасдиқланган "Одам иштирокида ўтказиладиган тиббий тадқиқотлар учун ахлоқий тамойиллар" юзасидан Хельсинки декларацияси тамойилларига амал қилинди. Бунда, олинган натижалар илмий-тадқиқот мақсадларида фойдаланиши ва респондентлар шахси ошкор этилмаслиги кафолатланди [Nabatov et al., 2017; 33-37-б.] [3].

Олинган натижаларни математик-статистик қайта ишлаш. Олинган экспериментал натижаларни математик-статистик қайта ишлаш "Microsoft Excel 2007" (Microsoft, АҚШ), OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, АҚШ) махсус дастур пакетлари ёрдамида, стандарт услубларда амалга оширилди. Натижалар n=3-4 марта такрорийликда амалга оширилган тажрибалар натижаларининг $M\pm m$ шаклида келтирилган бўлиб, M – ўртача арифметик қиймат ва m – стандарт хатолик қийматини ифодалайди. Тажриба натижалари ва назорат гуруҳи ўртасидаги қийматларнинг статистик ишончлилик даражаси Стьюдент t-мезони асосида ҳисобланди ва p<0,05, p<0,01 қийматларда статистик ишончли деб баҳоланди [Лакин, 1990; 23-284-б.; Гланц, 1999; 459-б.].

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Қуйидаги жадвалда 17-20 ёш диапазонидаги футболчи-спортчилар (n=20) ва спорт билан шуғулланмайдиган контингент (n=16) сочи таркибида микро-, макроэлементлар солиштирма таҳлили натижалари келтирилган (1-жадвал).

Тажрибаларда назорат гуруҳида олинган натижалар қийматлари умумий ҳолатда мавжуд адабиёт маълумотлар диапазонига мос келади [Шиц, 2006; 23-29-б.; Akhmedova et al., 2020; 1813-1824-б.; Побилат ва бошқ., 2024; 34-38-б.].

1-жадвал

Футболчи-спортчилар (17-20 ёш; *n*=20) ва спорт билан шуғулланмайдиган контингент (*n*=16) сочи таркибида микро-, макроэлементлар солиштирма таҳлили (*M±m*)

Т/р	Элемент	Тажриба гуруҳлари		[Iyengar and Woittiez, 1988; 474-481-б.; Kempson and Lombi, 2011; 3915-3940-б.].	[Zhuk and Kist, 1990; 307-320-б.].
		Назорат (*n*=16)	Тажриба (*n*=20)		
Макроэлементлар (мкг/г)					
1.	Ca	734,12±5,91	558,27±4,13*	200-2500	660-1500
2.	P	126,43±2,73	81,29±2,08*	100-300	100-300
3.	K	87,65±3,52	64,38±2,15	40-800	40-800
4.	Na	645,29±4,18	807,62±5,44**	17-670	40-900
5.	Mg	74,81±2,16	60,73±2,05*	8,5-208	30-200
Микроэлементлар (мкг/г)					
6.	Fe	23,35±0,37	16,27±0,08	5-80	10-80
7.	Zn	168,16±3,45	103,84±4,16**	120-250	120-250
8.	Cu	8,85±0,07	10,3±0,05*	7-30	6-30
9.	Mn	0,76±0,004	1,24±0,06	0,2-3	0,2-3
10.	I	1,47±0,05	1,06±0,04	0,5-10	0,5-10
11.	Se	0,49±0,003	0,27±0,006**	0,5-2	0,4-1
12.	Cr	0,26±0,006	0,43±0,004**	0,1-1,5	0,1-1
13.	Mo	0,07±0,0002	0,06±0,0002	0,02-0,2	0,02-0,2
14.	Co	0,03±0,0002	0,04±0,0003	0,01-0,1	0,03-0,1
Токсик элементлар (*Оғир металлар*) (мкг/г)					
16.	Pb	1,18±0,02	2,05±0,03**	0,1-5	1-5
17.	Hg	0,06±0,0003	0,07±0,0002*	0,05-2	0,05-1
18.	Cd	0,02±0,0004	0,04±0,0004**	0,01-0,05	0,05-0,5
19.	As	0,08±0,0003	0,12±0,0003**	0,02-1	0,05-1

Изоҳ: *Назорат гуруҳи – спорт билан шуғулланмайдиган (n=18 нафар), тажриба гуруҳи – футбол машғулотлари билан мунтазам шуғулланадиган (n=20 нафар), 17-20 ёш диапазонидаги ўғил болалар (♂) танлаб олинди. * – назоратга нисбатан тажриба гуруҳида p<0,05, ** – p<0,01* (*n*=3-4).

Шундай қилиб, олинган экспериментал тадқиқот натижалари таҳлили асосида, 17-20 ёш диапазонидаги футболист спортчилар сочида макроэлементлар – Ca миқдори 558,27±4,13 мкг/г га тенг бўлиб, спорт машғулотлари билан шуғулланмайдиган контингентга нисбатан 23,95% га камайиши (p<0,05), P миқдори (81,29±2,08 мкг/г) мос равишда – 35,7%, K миқдори (64,38±2,15) 26,55% (p<0,05), Mg миқдори (60,73±2,05) 18,82% га камайиши (p<0,05) аниқланди. Шунингдек, Na миқдори 807,62±5,44 мг/г га тенг бўлиб, спорт машғулотлари билан шуғулланмайдиган контингентга нисбатан 25,16% га ортиши (p<0,01) тасдиқланди. Бунда, Ca, P, K, Mg миқдорининг камайиши жисмоний фаоллик жадаллиги ортиши шароитида спортчилар организмида таянч-ҳаракат тизимида суяк, мускулларда мазкур элементларига нисбатан талаб даражаси ортиши билан изоҳлаш мумкин. Шунингдек, спортчилар сочида Na миқдорининг назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада ортиши Оролбўйи минтақасида экологик ифлосланиш шароитида сув, озиқ-овқат маҳсулотлари таркибида турли минерал тузлар миқдори ортиши билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Тажрибаларда спортчилар сочи таркибида Fe концентрацияси 16,27±0,08 мкг/г бўлиб, спорт билан шуғулланмайдиган контингентга нисбатан 30,32% га камайиши аниқланди. Zn 103,84±4,16 мкг/г бўлиб, назорат гуруҳига нисбатан 38,25% га камайиши (p<0,01) аниқланди. Cu (10,3±0,05 мкг/г) бўлиб, назорат гуруҳига нисбатан 16,38% га ошиши (p<0,05) кузатилди. Mn миқдори (1,24±0,06 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 63,16% га ошиши аниқланди. I (1,06±0,04 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 27,89% га камайиши аниқланди. Se (0,27±0,006 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 44,90% га камайиши (p<0,01) қайд қилинди. Cr миқдори (0,43±0,004 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 65,38% га ошиши (p<0,01) аниқланди. Mo концентрацияси (0,06±0,0002 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 14,29% га камайиши аниқланди. Co (0,04±0,0003 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 33,33% га ошиши аниқланди. Мазкур ҳолатда, спортчилар сочи таркибида Zn, Fe ва Se концентрациясининг сезиларли даражада камайиши алоҳида эътиборга олиниши талаб этилувчи ҳолат бўлиб, бунда юқори таъкидланганидек, Fe – организмда гемоглобин синтези, кислород транспортида муҳим

аҳамиятга эга ҳисобланади ва камайиши машғулотлар юкламаларига нисбатан чидамлилик даражаси сусайишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, Zn – иммун тизими функционал фаоллиги, оқсиллар биосинтентези ва ўз навбатида, жадал юкламалардан кейин қайта тикланиш/регенерация жараёнларида, Se – жисмоний машғулотлар таъсирида юзага келувчи стресс шароитида антиоксидант тизим функционал фаоллигида марказий компонентлардан бири ҳисобланиши тасдиқланган. Спортчилар сочи таркибида Cu, Mn, Cr концентрацияси ортиши юқорида келтирилганидек, Оролбўйи экологик ҳалокат зонасида сув ва озиқ-овқат маҳсулотларида турли элементлар мувозанати бузилиши, жисмоний машғулотлар билан жадал шуғулланиш давомида организмда моддалар алмашинувининг ўзи хослиги, адаптация реакциялари билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Pb концентрацияси (2,05±0,03 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 73,73% га ошиши (p<0,01) аниқланди. Hg (0,07±0,0002 мкг/г), назорат гуруҳига нисбатан 16,67% га ошиши (p<0,05) қайд қилинди. Cd (0,04±0,0004 мкг/г) назорат гуруҳига нисбатан 100% га ошиши (p<0,01), As (0,12±0,0003 мкг/г) 50% га ошиши (p<0,01) тасдиқланди. Спортчилар сочи таркибида оғир металлар – Pb, Hg, Cd, As концентрациясининг ортиши жисмоний фаоллик даражаси ортиши шароитида макроэлементлар, шунингдек эссенциал микроэлементлар концентрацияси ўзгариши фонида нафас олиш органлари, овқат ҳазм қилиш тизими орқали қонга сўрилиша ва турли органларда тўпланиш даражаси ортиши билан боғлиқ бўлиши таҳмин қилинди.

Айрим тадқиқотчилар томонидан оғир металлар ва уларнинг организмда ҳужайра даражасида физиологик таъсир механизмлари батафсил тавсифланган бўлиб, жумладан Pb гем биосинтезида иштирок этувчи ферментлар блокадаси ва асаб тизими функционал фаоллигига салбий таъсир кўрсатиши, Cd организмда транспортёр макромолекулалар структура-функциясини бузиши, ўз навбатида Zn, Ca алмашинувини издан чиқариши, Ca-гомеостази билан боғлиқ ферментлар фаоллиги дисфунцияси юзага келиши, As таъсирида антиоксидант тизим функционал фаоллиги издан чиқиши, натижада кислороднинг фаол шакллари (ROS – Reactive oxygen species) генерацияси кучайиши тасдиқланган [Arruebarrena et al., 2023; 1-23-б.; Cheng et al., 2025; 1-25-б.; Bereda, 2026; 1-15-б.; Huang et al., 2026; 3955-3972-б.].

Оролбўйи минтақаси учун Zn, Fe, Cu, Se организмда меъёрий функционал фаоллиги таъминланишида муҳим элементлар сифатида, Pb, Cd, As, Hg – экологик муҳит ифлосланиш даражасини баҳолаш индикатори сифатида қайд қилинган [Zhuk and Kist, 1990; 307-320-б.].

Se элементи "*кардиопротектор*" тавсифга эга бўлиб, липогенез регуляцияси, атеросклероз профилактикаси, қон-томирлар функцияси, оксидланишли стресс шароитида антиоксидант тизим функционал фаоллигида муҳим аҳамиятга эгалиги қайд қилинган [Vapirov et al., 2002; 47-56-б.; Rozyhodzhaeva et al., 2012; 90-91-б.; Akhmedova et al., 2020; 1813-1824-б.; Skalny et al., 2023; 4677-4687-б.].

Zn танқислиги шароитида қон томир эндотелий қавати дисфункцияси, юрак-қон томир тизими касалликлари келиб чиқиш эҳтимоллиги ортиши тасдиқланган [Zhestyannikov, 2005; 19-25-б.].

Сочда элементлар концентрацияси ўзига хос био-индикатор бўлиб, организм физиологик ҳолатига эмас, балки эндоген/экзоген омиллар, жумладан ташқи муҳит омиллари таъсирига боғлиқлиги таъкидланади [Sukumar, 2002; 47-78-б.; Skalnaya and Skalny, 2018; 224-б.; Skalny et al., 2023; 4677-4687-б.; Побилат ва бошқ., 2024; 34-38-б.].

Ташқи экологик муҳит ноқулайлиги шароитида, атмосфера ҳавоси, тупроқ, сув таркибининг турли саноат чиқиндилари таъсирида ифлосланиш даражаси ортиши таъсирида сочда токсик элементлар (оғир металлар – Pb, Cd, Hg, As, Al) миқдори ортиши, айрим элементлар (Zn, Cu, Fe, Mn, Se, I) миқдори организмнинг физиологик ҳолати, овқат рационига боғлиқлиги, шунингдек Ca, Zn, Cu миқдори физиологик ёш даври ва гендер фарқланиш тавсифига эгалиги қайд қилинади [Sukumar, 2002; 47-78-б.; Skalnaya and Skalny, 2018; 224-б.].

Спортчиларда жисмоний юкламалар даражаси ортиши, стресс омиллар таъсири кучайиши шароитида организмда Mg, Zn, Fe, Cu, Se элементларига нисбатан талаб даражаси ортиши аниқланган [Lukaski, 2004; 632-644-б.; Skalnaya and Skalny, 2018; 224-б.].

Мунтазам, давомий жисмоний машғулотлар таъсирида қон ҳосил бўлиши ортишида Fe, мускулларнинг жадал ишлаши, энергия алмашинуви жадаллиги ортиши, АТФ биосинтези фаоллашиши шароитида Mg, Zn, терлаш кучайиши ("*сув-электролитлар*" мувозанати ўзгариши) таъсирида Na, K миқдори ўзгариши қилинади [Lukaski, 2004; 632-644-б.; Skalnaya and Skalny, 2018; 224-б.].

Спортчиларда элементлар алмашинуви мускуллар функцияси, энергия алмашинувида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, Cr танқислиги глюкоза алмашинуви бузилиши, Fe етишмовчилигида мускулларга кислород ташилиши бузилиши ва ўз навбатида, аэроб иш бажариш даражаси сусайиши қайд қилинади [Lukaski, 2004; 632-644-б.].

Жисмоний машғулотлар спортчилар организмида нафақат энергияга, балки макро-, микроэлементларга нисбатан специфик талаб-эҳтиёжни юзага келтириши тасдиқланган [Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Айрим элементлар жисмоний фаоллик даражаси билан яққол ифодаланган корреляцион боғлиқликка эгалиги аниқланган. Жумладан, соч таркибида J, Zn, As, Ni миқдори жисмоний фаоллик ортишига нисбатан сезиларли ўзгармаслиги, жисмоний фаоллик ортиши билан Cu, Hg миқдори камайиши, Co, Fe, Mn, Se, Cd, Li, Pb концентрацияси ортиши аниқланган [Zaitseva et al., 2015; 58-66-б.].

Жисмоний фаоллик таъсирида спортчилар сочи таркибида макроэлементлар – Ca, Mg, P, K, Na, Fe, Mn, Co, Mo, микроэлементлар – B, Li, Sb, оғир металлар – Pb, Cd концентрацияси ортиши, шунингдек Cu, Se, Hg миқдори камайиши тасдиқланган [Zaitseva and Zaitsev, 2019; 69-74-б.].

Жисмоний машғулотлар давомида спортчилар организмида моддалар алмашинуви жадаллиги ортиши ҳисобига макро-, микроэлементларга нисбатан талаб даражаси ортади. Ўз навбатида, спортчиларда соч таркибида элемент концентрацияси ортишини организмда моддалар алмашинуви жадаллиги билан изоҳлаш мумкинлиги таъкидланган [Zaitseva and Zaitsev, 2019; 69-74-б.].

Спортчилар организмида элементлар концентрацияси машғулотлар жадаллиги билан боғлиқлиги қайд қилинади [Maynar et al., 2018; 13-15-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Айниқса, организмда Fe танқислиги жисмоний юкламалар таъсирига мослашувчанлик даражаси сусайишига олиб келиши аниқланган [McCormick et al., 2019; 2147-2155-б.; Sim et al., 2019; 1463-1478-б.; Badenhorst et al., 2021; 1565-1575-б.].

Организмда Se машғулотлардан кейин қайта тикланиш, антиоксидант ферментлар функционал фаоллигида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, мускулларда оксидланишли стресс таъсирини сусайтириши тасдиқланган [White and Warren, 2017; 657-670-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Спортчиларга овқат рационига қўшимча элементлар қўшилиши машғулотлар самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатиши тасдиқланган [McCormick et al., 2020; 2111-2123-б.; Martusevich and Karuzin, 2021; 94-101-б.].

17-20 ёш диапазонида курашчи-спортчиларда соч таркибида K, Rb, Mg, Ca, K, Cs, Rb элементлари специфик ўзгариш тавсифига эгалиги қайд қилинган [Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Шундай қилиб, спортчиларда жадал машғулотлар жараёни давомида овқат рационида макро-, микронутриентлар миқдори оптималлаштирилиши шароитида Na, Ca, K, Mg миқдори ортиши аниқланган [Szczepanska et al., 2016; 59-68-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Шунингдек, спортчиларда соч таркибида макроэлементлар (Ca, Mg, P, K, Na) миқдори ортиши мазкур элементлар алмашинувининг жадаллашиши билан изоҳланади [Zaitseva and Zaitsev, 2019; 69-74-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Тадқиқотларда футболчиларда машғулотлардан кейин метаболик стресс таъсирида қонда Fe, Cu, Zn концентрацияси сезиларли ўзгариши қайд қилинган [Algul et al., 2019; 32-36-б.].

Жисмоний юкламалар ортиши шароитида ўсмир спортчиларда Fe, Pb, Se ортиши, ёши катталарда Ca миқдори ортиши, аёлларда Ca, Cr, Fe, Co, Zn миқдори ортиши, шунингдек цикл тавсифидаги спорт турлари билан шуғулланувчиларда машғулотлар давомида Mn, Co, Zn, Se концентрациясида сезиларли ўзгаришлар юзага келиши, мазкур ўзгаришлар аэроб-анаэроб тавсифдаги машғулотларда яққол ифодаланиши, югурувчиларда Be, Cd, Cs, Pb миқдори ортиши тасдиқланган [Llerena et al., 2012; 3027-3031-б.; Soria et al., 2016; 55-64-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Сараланган, нисбатан узоқ масофага югурувчи спортчиларда Co, Cu, Mn, Mo, Se, Zn миқдори юқори бўлиб, машғулотлар даврида мазкур фарқланиш Co, Cu, Mo, Se концентрациясида яққол ифодаланиши, шунингдек айрим ҳолатларда Se миқдори камайиши аниқланган. Бу ҳолат, югуриш, аэроб, анаэроб ва аралаш тавсифдаги спорт турлари билан шуғулланувчи спортчиларда жадал машғулотлар даврида стресс омил таъсири кучайиши, адаптация жараёни билан изоҳланади ва ўз навбатида, мазкур даврда овқат рационида Se миқдорини оптималлаштириш тавсия этилади [Mogulkoc and Akil, 2016; 1719-1725-б.; Maynar-Marino et al., 2018; 136-141-б.; Zaborova et al., 2022; 1-7-б.].

Ўзбекистон Республикасининг айрим ҳудудларида саноат корхоналари чиқиндилари таъсирида атроф-муҳитда поллютантлар, жумладан оғир металлар концентрацияси ортиши шароитида соч таркибида элементлар миқдори ўзгариши, шунингдек мазкур ўзгариш динамикаси турли касалликлар патогенези билан яққол корреляцияланиши тасдиқланган [Данилова ва бошқ., 2020; 24-32-б.].

Оролбўйи минтақаси узоқ йиллик давр давомида шаклланган "*экологик хавф*" юқори даражада қайд қилинувчи зона бўлиб, атроф-муҳитда зарарли поллютантлар, жумладан оғир металлар рухсат этилган меъёрдан ортиши тасдиқланган [Ataniyazova et al., 2001; 801-808-б.; *Muntean et al., 2003; 1306-1311-б.;* Erdinger et al., 2004; 541-547-б.; Opp et al., 2017; 86-99-б.; *Takao* et al., 2024; 93-96-б.; *Bartrem* et al., 2025; 1-15-б.; Mirkhaydarova and Ruzmetov, 2026; 16-22-б.].

Оролбўйи минтақасида тупроқ таркибида As миқдори рухсат этилган меъёр даражасидан 40 марта, Cr, Ni, V – 2 марта, Pb, Co, Mo – 3 марта юқори қийматга эгалиги аниқланган [Mirkhaydarova and Ruzmetov, 2026; 16-22-б.].

Оғир металлар, айниқса Pb одам организмида жиддий патологик ҳолатларни келтириб чиқариши таъкидланган [Hamissa et al., 2010; 67-74-б.; Абдуллаева ва бошқ., 2024; 5-10-б.].

МДҲ миқёсида амалга оширилган тадқиқотларда саноат зоналарида соч таркибида оғир металлар, жумладан Pb концентрацияси бир неча мартага ортиши аниқланган [Revich, 1994; 59-62-б.].

Шундай қилиб, соч таркибида элементлар концентрацияси ташқи экологик муҳит шароити, овқатланиш рациони, жисмоний фаоллик ва бошқа кўп сондаги омилларга боғлиқ бўлиб, ўз навбатида меъёрий стандартлар ҳар бир минтақа учун алоҳида ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқлиги таъкидланади [Takagi et al., 1986; 793-800-б.; Chatt and Katz, 1988; 134-б.; Nowak et al., 1996; 11-22-б.; Alimonti et al., 2005; 227-235-б.; Bocca et al., 2011; 1-8-б.].

ХУЛОСАЛАР

1. Шундай қилиб, 17-20 ёшли футболчи спортчилар сочида макроэлементлар мувозанатида сезиларли ўзгаришлар қайд қилиниб, бунда назорат гуруҳига нисбатан Ca – 23,95% ($p<0,05$), P – 35,70%, K – 26,55% ва Mg – 18,82% га камайиши, Na 25,16% га ориши аниқланди. Мазкур ҳолат жадал жисмоний юкламалар таъсирида организмнинг минералларга бўлган эҳтиёжи ортиши, шунингдек Оролбўйи экологик муҳити таъсири билан боғлиқ бўлиши мумкинлиги таҳмин қилинди.

2. Спортчилар сочида микроэлементлар таҳлилида назоратга нисбатан Fe – 30,32%, Zn – 38,25%, Se – 44,9%, I – 27,89%, Mo – 14,29% га камайиши, Cu – 16,38% , Mn – 63,16%, Cr – 65,38% ва Co – 33,33% га ортиши аниқланди. Бунда, Fe, Zn, Se миқдори камайиши кислород

транспорти, иммун тизими, антиоксидант ҳимоя ва машғулотдан кейинги тикланиш жараёнларининг функционал имкониятлари пасайиши хавфини ошириши қайд қилинди.

3. Футболчи спортчилар сочида токсик элементлар концентрацияси назорат гуруҳига нисбатан Pb – 73,73%, Hg – 16,67%, Cd – 100% ва As – 50,0% га ортиши аниқланди. Мазкур ҳолат жисмоний юкламалар шароитида оғир металларнинг организмга тушиши, тўпланиш жараёнлари кучайиши, шунингдек Оролбўйи экологик муҳитининг спортчилар нутриент статусига салбий таъсир кўрсатиши эҳтимоли ортади.

Амалий тавсиялар. Олинган натижалар спортчилар, айниқса ёшлар организмида макро-, микроэлементлар статусини доимий мониторинг қилиш, машғулотлар ва муҳим мусобақалар даврида овқат рациони таркибини ишлаб чиқиш, оксидланишли стресс ва бошқа эндоген/экзоген (экологик) омилларнинг салбий таъсирини минималаштириш, эҳтимолиги мавжуд касалликлар келиб чиқиши профилактикаси йўналишида чораларни ишлаб чиқишда фойдаланилиши мумкин.

Фойдаланилган қисқартма сўзлар рўйхати:

ICP-OES – индуктив боғланган плазмали оптик эмиссион спектрометрия (Inductively coupled plasma optical emission spectrometry);

WMA – Жаҳон тиббиёт ассоциацияси (World Medical Association)

ROS – кислороднинг фаол шакллари (Reactive oxygen species);

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Akhmedova D.I., Akhmedova N.R., Ruzmatova D.M., Danilova E.A., Khusniddinova S.Kh. Regional features of essential elements in children's hair with cardiomyopathy // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – V.7(2). – P.1813-1824.

2. Algul S., Bengu A.S., Baltaci S.B., Ozcelik O. Effects of morning and nocturnal soccer matches on levels of some trace elements in young trained males // Cellular and Molecular Biology. – 2019. – V.65(2). – P.32-36.

3. Alimonti A., Bocca B., Mannella E. *Assessment of reference values for elements in human hair // Journal of Trace Elements in Medicine and Biology.* – 2005. – V.*18(3). – V.227-235.*

4. Arruebarrena M.A., Hawe C.T., Lee Y.M., Branco R.C. Mechanisms of cadmium neurotoxicity // Int. J. Mol. Sci. – 2023. – V.24(16558). – P.1-23.

5. Ataniyazova O.A., Baumann R.A., Liem A.K., Mukhopadhyay U.A., Vogelaar E.F., Boersma E.R. Levels of certain metals, organochlorine pesticides and dioxins in cord blood, maternal blood, human milk and some commonly used nutrients in the surroundings of the Aral Sea (Karakalpakstan, Republic of Uzbekistan) // Acta Paediatrica. – 2001. – V.90. – P.801-808.

6. Badenhorst C., Goto K., O'Brien W. Iron status in athletic females, a shift in perspective on an old paradigm // J. Sports Sci. – 2021. – V.39(14). – P.1565-1575.

7. Bartrem C., Kurbanov M.I., Keller B.D., Fiori A., Von Lindern I., Khajiev P.Z., Rustamov D., Lee J., Steiner M., Paluaniyazova Z. Organochlorine pesticides and salinity in Karakalpakstan, Uzbekistan: Environmental Health Risks Associated with the Aral Sea crisis // Int. J. Environ. Res. Public Health. – 2025. – V.19;22(11):1751. – P.1-15.

8. Bereda G. Global burden of lead exposure: Integrating epidemiology, molecular mechanisms, and mitigation approaches // Healt Science Report. – 2026. – V.9(3). – P.1-15.

9. Bocca B., Pino A., Alimonti A., Forte G. Toxic metals contained in hair: A review // Journal of Trace Elements in Medicine and Biology. – 2011. – V.25(1). – P.1-8.

10. Chatt A., Katz S.A. Hair Analysis: Applications in the Biomedical and Environmental Sciences // New York ("VCH Publishers"), 1988. – 134 p.

11. Cheng Y.-F., Zhao Y.-J., Chen C., Zhang F. Heavy metals toxicity: Mechanism, health effects, and therapeutic interventions // MedComm. – 2025. – V.6(e70241). – P.1-25.

12. Erdinger L., Eckl P., Ingel F., Khussainova S., Utegenova E., Mann V., Gabrio T. The Aral Sea disaster – human biomonitoring of Hg, As, HCB, DDE, and PCBs in children living in Aralsk and Akchi, Kazakhstan // Comparative Study Int. J. Hyg. Environ. Health. – 2004. – V.207(6). – P.541-547.

13. Hamissa A.M.B., Lodi A. Sorption of Cd(II) and Pb(II) from aqueous solutions onto *Agave americana* fibers // Chemical Engineering Journal. – 2010. – V.159(1-3). – P.67-74.

14. Huang Z.-X., Li Y.-L., Peng J.-C., Ho T.-T., Huang H., Aschner M., Jiang Y.-M. The effects of Lead, Cadmium and Arsenic exposure alone or in combination on neurotoxicity through neural signaling pathways // Review Biol. Trace Elem. Res. – 2026. – V.(6). – P.3955-3972.

15. Iyengar V., Woittiez J. Trace elements in human clinical specimens: Evaluation of literature data to identify reference values // Clin. Chem. – 1988. – V.34(3). – P.474-481.

16. Kempson I.M., Lombi L. Hair analysis as a biomonitor for toxicology, disease and health status // Chem. Soc. Rev. – 2011. – V.40(7). – P.3915-3940.

17. Llerena F., Maynar M., Barrientos G. Comparison of urine toxic metals concentrations in athletes and in sedentary subjects living in the same area of extremadura (Spain) // Eur. J. Appl. Physiol. – 2012. – V.112(8). – P.3027-3031.

18. Lukaski H.C. Vitamin and mineral status: Effects on physical performance // Nutrition. – 2004. – V.20(7-8). – P.632-644.

19. Martusevich A., Karuzin K. Metabolic estimation of efficiency of vitamin and mineral complexes in qualified athletes // Vopr. Pitan. – 2021. – V.90(1). – P.94-101.

20. Maynar M., Llerena F., Bartolome I. Seric concentrations of copper, chromium, manganesum, nickel and selenium in aerobic, anaerobic and mixed professional sportsmen // J. Int. Soc. Sports Nutr. – 2018. – V.8. – P.13-15.

21. Maynar-Marino M., Llerena F., Bartolome I. Effect of long-term aerobic, anaerobic and aerobic-anaerobic physical training in seric toxic minerals concentrations // Trace Elem. Med. Biol. – 2018. – V.45. – P.136-141.

22. McCormick R., Moretti D., McKay A.K. The impact of morning versus afternoon exercise on iron absorption in athletes // Med. Sci. Sports Exerc. – 2019. – V.51(10). – P.2147-2155.

23. McCormick R., Sim M., Dawson B. Refining treatment strategies for iron deficient athletes // Sports Med. – 2020. – V.50(12). – P.2111-2123.

24. Mehri A. Trace Elements in Human Nutrition (II) – An Update // Int. J. Prev. Med. – 2020. – V.11:2. – P.1-17.

25. Mikulewicz M., Chojnacka K., Gedrange T., Gorecki H. Reference values of elements in human hair: A systematic review // Environ. Toxicol. Pharmacol. – 2013. – V.36(3). – P.1077-1086.

26. Mirkhaydarova G.S., Ruzmetov M.I. Integrated assessment of soil quality and heavy metal contamination in arid agricultural soils of Northwestern Uzbekistan // American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. – 2026. – V.06(03). – P.16-22.

27. Mogulkoc R., Akil M. Review – selenium – its metabolism and relation to exercise // Pak. J. Pharm. Sci. – 2016. – V.29(5). – P.1719-1725.

28. Muntean N., Jermini M., Small I., Falzon D., Furst P., Migliorati G., Scortichini G.,, Forti A.F., Anklam E., Von Holst C., Niyazmatov B., Bahkridinov S., Aertgeerts R. Bertollini R., Tirado C., Kolb A. Assessment of dietary exposure to some persistent organic pollutants in the Republic of Karakalpakstan of Uzbekistan // Environ. Health Perspect. – 2003. – V.111(10). – P.1306-1311.

29. Nabatov A.A., Troegubova N.A., Gilmutdinov R.R., Sereda A.P., Samoilov A.S., Rylova N.V. Sport- and sample-specific features of trace elements in adolescent female field hockey players and fencers // Journal of Trace Elements in Medicine and Biology. – 2017. – V.43. – P.33-37.

30. Nowak B. Occurrence of heavy metals, sodium, calcium, and potassium in human hair, teeth, and nails // Biological Trace Element Research. – 1996. – V.52(1). – P.11-22.

31. Opp C., Groll M., Aslanov I., Lotz T., Vereshagina N. Aeolian dust deposition in the southern Aral Sea region (Uzbekistan): Ground-based monitoring results from the LUCA project // Quaternary International. – 2017. – V.429(Part B). – P.86-99.

32. Ordzhonikidze Z., Gromova O., Skalny A. The value of trace elements for achievement of high sports results and preservation of health of sportsmen // Microelem. Med. – 2001. – V.2(2). – P.40-45.

33. Pozebon D., Scheffler G.L., Dressler V.L. Elemental hair analysis: A review of procedures and applications // Anal. Chim. Acta. – 2017. – V.992. – P.1-23.

34. Revich B.A. Lead in hair and urine of children and adults from industrialized areas // Archives of Environmental Health. – 1994. – V.49(1). – P.59-62.

35. Rodushkin I., Axelsson M.D. Application of double focusing sector field ICP-MS for multielemental characterization of human hair and nails // Journal of Trace Elements in Medicine and Biology. – 2000. – V.14(1). – P.1-8.

36. Rozyhodzhaeva G.A., Khudoynazarov S.K. Rozyhodzhaeva G.A. Study of microelement composition of hair in patients with carotid atherosclerosis: A scientific publication // Therapeutic bulletin of Uzbekistan. – 2012. – №2-3. – P.90-91.

37. Sim M., Garvican-Lewis L., Cox G. Iron considerations for the athlete: A narrative review // Appl. Physiol. – 2019. – V.119(7). – P.1463-1478.

38. Skalnaya M.G., Skalny A.V. Essential trace elements in human health: A physician's view // Tomsk ("Publishing House of Tomsk State University"), 2018. – 224 p.

39. Skalny A. V., Korobeinikova T. V., Zabroda N. N., Chang J.-S. Interactive effects of obesity and hypertension on patterns of hair essential trace element and mineral content in adult women // Biological Trace Element Research. – 2023. – V. 201 (10). – P.4677-4687.

40. Soria M., Anson M., Escanero J. Correlation analysis of exercise-induced changes in plasma trace element and hormone levels during incremental exercise in well-trained athletes // Biol. Trace Elem. Res. – 2016. – V.170(1). – P.55-64.

41. Stepanova E. Macro-and microelement status of the body of cyclical sports athletes // Sport Med. – 2016. – V.6(4). – P.52-60.

42. Sukumar A. Factors influencing trace element concentration in human hair // Reviews of Environmental Contamination and Toxicology. – 2002. – V.175. – P.47-78.

43. Szczepanska B., Malczewska-Lenczowska J., Wajszczyk B. Evaluation of dietary intake of vitamins and minerals in 13-15 years old boys from a sport school in Warsaw // Rocz. Panstw. Zakl. Hig. – 2016. – V.67(1). – P.59-68.

44. Takao Y., Jollivekov B., Kusadokoro M., Sakaguchi A., Yachi S., Fujii Y., Kawabata Y. Increasing uranium pollution in ground water and the Amu Darya River over 15 years in Karakalpakstan, Uzbekistan // Journal of Arid Land Studies. – 2024. – V.34-S. – P.93-96.

45. Troegubova N., Rylova N., Gilmutdinov R. Features of the content of bioelements in saliva and hair of young athletes // Russ. Bull. Perinatol. Pediatr. – 2016. – V.61(2). – P.84-88.

46. Vapirov V., Shubina M.E., Vapirova N.V. Some mechanisms of selenium participation in pathology development // "Eco-analytical control of natural objects in Karelia" Collection of articles. – Petrozavodsk, 2002. – P.47-56 (*in Russian*).

47. Versieck J. Trace elements in human body fluids and tissues // Crit. Rev. Clin. Lab. Sci. – 1985. – V.22(2). – P.97-184.

48. White S., Warren L. Submaximal exercise training, more than dietary selenium supplementation, improves antioxidant status and ameliorates exercise induced oxidative damage to skeletal muscle in young equine athletes // J. Anim. Sci. – 2017. – V.95(2). – P.657-670.

49. Zaborova V., Zolnikov O., Dzhakhaya N., Bueverova E., Sedova A., Kurbatova A., Putilo V., Yakovleva M., Shantyr I., Kastyro I., Ozimek M., Korolev D., Krikheli N., Gurevich K., Heinrich K.M. The study of the relevance of macro- and microelements in the hair of young wrestlers depending on the style of wrestling // Front. Endocrinol. – 2022. – V.13(985297). – P.1-7.

50. Zaitseva I.P., Skalny A.A., Tinkov A.A., Berezkina E.S., Grabeklis A.R., Skalny A.V. The influence of physical activity on hair toxic and essential trace element content in male and female students // Biol. Trace Elem. Res. – 2015. – V.163(1-2). – P.58-66.

51. Zaitseva I.P., Zaitsev O.N. The influence of professional physical activity on the element status in the hair of young athletes (wrestlers) // Human Physiology. – 2019. – V.45(1). – P.69-74.

52. Zhestyannikov A.L. Disbalance of some macro- and microelements as a risk factor for cardiovascular system diseases in the North // Human Ecology. – 2005. – V.9. – P.19-25.

53. Zhuk L.I., Kist A.A. Mapping technique based on elemental hair composition data // Biological Trace Element Research. – 1990. – 26-27. – P.307-320.

54. Абдуллаева Н.А., Ботиров С.Х., Усмонова Х.Х., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Сорбция катионов свинца природными волокнами // "Universum: химия и биология" (Электрон. научн. журн.). – 2024. – №11(125). – С.5-10.

55. Гланц С. Медико-биологическая статистика // Москва. – Изд-во "Практика". – 1999. – 459 с.

56. Данилова Е.А., Осинская Н.С., Хусниддинова С.Х., Ахмедов Я.А. Элементный состав волос − индикатор природно-техногенной обстановки Ташкентской области // Микроэлементы в медицине. – 2020. – №21(3). – С.24-32.

57. Лакин Г.Ф. Биометрия // Москва. – Изд-во "Высшая школа", 1990. – С.284.

58. Побилат А.Е., Киричук А.А., Байтелова А.И., Рахимова Н.Н., Сальникова Е.В., Бурцева Т.И. Анализ элементного состава волос больных, страдающих андрогенной алопецией, проживающих на урбанизированных территориях // Экология. – 2024. – №2.. – С.34-38.

59. Takagi Y., Matsuda S., Imai S., Ohmori Y., Masuda T., Vinson J.A., Mehra M.C., Puri B.K., Kaniewski A. Trace Elements in Human Hair: An International Comparison // Bulletin of Environmental Contamination and Toxicology. – 1986. – V.36(6). – P.793-800.

60. Шиц И.В. Влияние беременности на элементный статус женщин В республике Саха-якутия. Сообщение 1. Национальные, Возрастные и другие особенности // Микроэлементы в медицине. – 2006. – №7(3). – С.23-29.

УДК 581.52:581.526.53

ФЛОРИСТИЧЕСКОЕ РАЗНООБРАЗИЕ И АДАПТАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ РАСТЕНИЙ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮГО-ЗАПАДНОГО КЫЗЫЛКУМА

И.И.Мальцев, к.б.н., с.н.с., Институт ботаники АН РУ, Ташкент
В.К.Шарипова, PhD, с.н.с., Институт ботаники АН РУз, Ташкент
Д.Э.Турдиев, PhD, м.н.с., Институт ботаники АН РУз, Ташкент
Ш.Ш.Киличев, м.н.с., Институт ботаники АН РУз, Ташкент
У.Ш.Саитжанова, PhD, м.н.с., Институт ботаники АН РУз, Ташкент
Д.У.Базарова, м.н.с., Институт ботаники АН РУз, Ташкент

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qizilqum cho'li o'simliklarining ekstremal muhit sharoitlariga moslanish strategiyalari hamda Markaziy va Janubi-g'arbiy Qizilqum florasining xilma-xilligi tahlil qilingan. Asosiy cheklovchi ekologik omillar sifatida namlik tanqisligi, havo va tuproqning yuqori*

harorati, sust rivojlangan tuproq qoplami, sho'rlanish hamda antropogen bosimning kuchayishi qayd etilgan. 2025-yilda Markaziy va Janubi-g'arbiy Qizilqumning ekologik sharoiti va yashash muhitlari turlicha bo'lgan to'qqizta hududida kompleks floristik tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasida turli ekologik guruhlarga mansub 167 tur o'simlik qayd etildi. Olingan ma'lumotlar tahlili ko'pchilik turlarning tarqalishi, avvalo, ularning keng ekologik amplitudasi hamda turli muhit sharoitlariga moslasha olish qobiliyati bilan belgilanishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, yaqqol edafik ixtisoslashuv faqat cheklangan sondagi turlarga, asosan endemik va ma'lum substrat turlariga xos taksonlarga tegishli ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari cho'l o'simliklarining moslanish mexanizmlari haqidagi zamonaviy tasavvurlarni boyitadi hamda fitoremediatsiya, biologik rekultivatsiya va degradatsiyaga uchragan cho'l ekotizimlarini tiklash uchun istiqbolli turlarni tanlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: *Qizilqum, ekstremofil o'simliklar, galofitlar, moslanish, fitoremediatsiya.*

Аннотация. *В статье проанализированы основные стратегии адаптации растений пустыни Кызылкум к экстремальным условиям окружающей среды. К числу ведущих лимитирующих факторов относятся дефицит влаги, высокие температуры воздуха и почвы, слаборазвитый почвенный покров, засоление, а также возрастающее антропогенное воздействие. В 2025 году в центральной и юго-западной частях Кызылкума были проведены комплексные флористические исследования на девяти участках, различающихся по экологическим условиям и типам местообитаний. В результате обследований зарегистрировано 167 видов сосудистых растений, относящихся к различным экологическим и ценотическим группам. Анализ полученных данных показал, что распространение большинства видов определяется прежде всего широкой экологической амплитудой и способностью адаптироваться к разнообразным условиям среды. В то же время выраженная эдафическая специализация характерна лишь для ограниченного числа видов, главным образом эндемиков и таксонов, приуроченных к определённым типам субстратов. Полученные результаты расширяют современные представления о механизмах адаптации пустынных растений и могут быть использованы при подборе устойчивых видов для фиторемедиации, биологической рекультивации и восстановления деградированных пустынных экосистем.*

Ключевые слова: *Кызылкум, экстремофильные растения, галофиты, адаптация, фиторемедиация.*

Abstract. *The article examines the main adaptation strategies of plants in the Kyzylkum Desert under extreme environmental conditions. The principal limiting factors include water deficit, high air and soil temperatures, poorly developed soil cover, salinity, and increasing anthropogenic pressure. In 2025, comprehensive floristic surveys were conducted at nine sites in the central and southwestern parts of the Kyzylkum Desert, representing different ecological conditions and habitat types. As a result of these surveys, 167 species of vascular plants belonging to various ecological and coenotic groups were recorded. Analysis of the collected data showed that the distribution of most species is determined primarily by their broad ecological amplitude and ability to adapt to diverse environmental conditions. At the same time, pronounced edaphic specialization was found only in a limited number of species, mainly endemics and taxa associated with specific substrate types. The obtained results expand current knowledge of the adaptation mechanisms of desert plants and may be useful for selecting resistant species for phytoremediation, biological reclamation, and the restoration of degraded desert ecosystems.*

Keywords: *Kyzylkum, extremophilic plants, halophytes, adaptation, phytoremediation.*

Введение. Пустыня Кызылкум является одной из крупнейших аридных территорий Центральной Азии и занимает обширные пространства между Амударьей и Сырдарьей. Для региона характерно сочетание экстремальных экологических факторов: острый дефицит влаги, высокие летние температуры, резкие сезонные колебания температур, бедность почвенного покрова и широкое распространение засолённых и гипсоносных субстратов (Гранитов, 1964; Акжигитова, 1973). Несмотря на неблагоприятные условия, флора

Кызылкума включает значительное число видов, способных завершать жизненный цикл в условиях постоянного экологического стресса.

Формирование современной флоры пустынь Центральной Азии происходило под воздействием аридизации климата и усложнения почвенно-геоморфологических условий (Коровин, 1961). В результате естественного отбора у растений сформировался широкий спектр адаптационных механизмов, обеспечивающих устойчивость к засухе, высоким температурам, засолению и нестабильности водного режима. Наиболее характерными являются эфемерово-эфемероидный тип развития, редукция транспирирующей поверхности, суккулентность, особенности водно-солевого обмена и специализированные механизмы солеустойчивости у галофитов (Мельникова, 1973; Майлун, 1976; Момотов, 1973).

В условиях нарастающей деградации земель и усиления антропогенного воздействия особое значение приобретают исследования, направленные на выявление устойчивых местных видов растений и оценку возможностей их использования для фиторемедиации и восстановления нарушенных пустынных экосистем. Целью настоящей работы является анализ основных стратегий адаптации растений Кызылкума к экстремальным факторам среды и оценка перспектив отбора устойчивых видов для практических природоохранных мероприятий.

Материалы и методы. Исследования проведены в 2025 г. в Центральном и Юго-Западном Кызылкуме, преимущественно в районе останцовых гор Кульджуктау. В ходе двух полевых экспедиций обследованы девять участков, представляющих основные типы местообитаний региона: песчаные массивы, гипсоносные и засолённые почвы, останцовые горы, залежи и заболоченные участки, включая тугайные местообитания (рис.1).



Рис. 1. Карта и фотографии района исследования (Центральный и Юго-Западный Кызылкум)

На каждом участке выполнялись маршрутные флористические обследования с регистрацией видового состава сосудистых растений и фиксацией приуроченности видов к экотопам (табл.1). Идентификация проводилась по определителям флоры Узбекистана и современным таксономическим сводкам. Полученные материалы использованы для анализа распределения видов по местообитаниям, оценки экологической пластичности и

предварительного отбора видов, перспективных для фиторемедиации деградированных пустынных территорий.

Результаты. В результате исследований на девяти участках Центрального и Юго-Западного Кызылкума зарегистрировано 167 видов сосудистых растений. Наибольшее видовое разнообразие отмечено на песчаных местообитаниях, где выявлено 89 видов. На останцовых горах зарегистрировано 70 видов, на засолённых почвах - 65 видов. Осенняя флора оказалась заметно беднее весенней и была представлена преимущественно поздновегетирующими видами семейства *Chenopodiaceae*, а также кустарниками и многолетними растениями.

По участкам число зарегистрированных видов варьировало от 9 до 51. Максимальные показатели отмечены в западной части Кульджуктау и в окрестностях колодца Турткудук, что связано с более высоким разнообразием микроместообитаний и сочетанием песчаных, гипсоносных и засолённых участков. Минимальное число видов зафиксировано в окрестностях аула Шингельды, где растительный покров характеризовался большей экологической однородностью и сильной зависимостью от локальных почвенно-гидрологических условий.

Таблица 1

Распределение видового богатства по обследованным участкам

№ участка	Местоположение	Число видов
1	Вдоль дороги по маршруту Газли-Чурук	33
2	Западная часть Кульджуктау	51
3	Восточный берег оз. Аякагытма	40
4	Окрестности оз. Ильяскуль	39
5	Окрестности населённого пункта Тамды (а)	17
6	Участок к западу от Кызылкумской станции	36
7	Окрестности колодца Турткудук	48
8	Окрестности населённого пункта Тамды (б)	14
9	Окрестности аула Шингельды	9

Анализ распределения видов показал, что их встречаемость определяется главным образом широтой экологической амплитуды, а не только типом почвы. Значительная часть видов отмечена на нескольких типах местообитаний и не связана строго с одним субстратом. Это объясняется тем, что основные лимитирующие факторы – аридность климата, высокие температуры и дефицит доступной влаги - являются общими для всей территории исследования.

Вместе с тем эдафическая специализация выражена у ограниченного числа видов. К числу наиболее характерных таксонов гипсоносных и засолённых местообитаний относятся *Spirostegia bucharica, Halocnemum strobilaceum, Halostachys caspica, Salicornia persica, Limonium sogdianum, Aeluropus litoralis* и отдельные виды родов *Climacoptera, Halimocnemis, Salsola* и *Suaeda*. По литературным данным, среди 900 видов флоры Кызылкумов лишь 24 относятся к истинным гипсофитам, что подтверждает сравнительно узкое распространение строгой эдафической специализации (Гранитов, 1964).

Обсуждение. Одной из ключевых стратегий адаптации пустынных растений является формирование эфемерово-эфемероидной растительности. Эфемеры и эфемероиды используют наиболее благоприятный для вегетации период - позднюю осень, зиму и раннюю весну. Способность завершать жизненный цикл до наступления летней засухи обеспечивает успешное существование этих растений в аридных условиях. В составе эфемеровой растительности Кызылкума важную роль играют *Carex pachystylis, Poa bulbosa*, а также представители родов *Ranunculus, Gagea, Bunium, Geranium, Scorzonera, Tulipa* и *Allium.*

Другой важной адаптацией является переживание неблагоприятного периода в состоянии покоя. Эфемероиды сохраняются за счёт подземных органов - корневищ, клубней и луковиц, тогда как эфемеры переживают засушливый период в виде семян. В условиях Центрального и Юго-Западного Кызылкума многие виды начинают вегетацию уже осенью и продолжают развитие в зимние периоды потепления.

Особое значение имеют галофиты, приспособленные к высоким концентрациям солей в почве. Для многих из них характерны редукция листьев, развитие водоносной паренхимы и суккулентность побегов. У *Haloxylon aphyllum, Halostachys caspica* и *Halocnemum strobilaceum* листья сильно редуцированы или полностью отсутствуют. Суккулентные галофиты отличаются высоким содержанием воды в тканях и устойчивостью к сочетанному действию засухи, засоления и высоких температур.

По механизмам солеустойчивости галофиты можно разделить на несколько экологических групп: виды, накапливающие соли в тканях; виды, выводящие соли наружу через специализированные структуры; растения, ограничивающие поступление солей через корневую систему; и таксоны, локализующие соли в отдельных органах или тканях. Такое разнообразие механизмов обеспечивает существование растительных сообществ на сильно засолённых почвах Кызылкума и повышает их значение для стабилизации почвенного покрова.

Антропогенное воздействие остаётся одним из наиболее серьёзных факторов трансформации растительного покрова. Строительство объектов инфраструктуры, нерегулируемый выпас и перевыпас скота приводят к деградации естественных сообществ, снижению проективного покрытия и сокращению площади природных местообитаний. В этой связи устойчивые местные виды галофитов, псаммофитов и гипсофитов могут рассматриваться как потенциальная основа для восстановления деградированных аридных экосистем.

Заключение. Пустыня Кызылкум характеризуется комплексом экстремальных факторов среды, включающих дефицит влаги, высокие температуры, бедность и засолённость почв, а также антропогенное воздействие. В процессе длительной эволюции растения региона сформировали различные стратегии адаптации, среди которых особое значение имеют эфемерово-эфемероидный тип развития, состояние покоя в неблагоприятный период, редукция транспирирующей поверхности, суккулентность и специализированные механизмы солеустойчивости галофитов.

Флористические исследования 2025 г. позволили выявить 167 видов сосудистых растений на различных типах местообитаний Центрального и Юго-Западного Кызылкума. Полученные результаты свидетельствуют о высокой экологической пластичности большинства видов и могут служить научной основой для отбора растений, перспективных для фиторемедиации и восстановления деградированных пустынных экосистем.

Благодарности. Исследование выполнено в рамках Государственной программы «Цифровая природа: разработка цифровой платформы растительного мира Центрального Узбекистана», направленной на цифровизацию и систематизацию данных о биоразнообразии региона.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Akzhigitova N.I. [Galofilnaya rastitelnost Halophyta // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 2. Tashkent: FAN UzSSR, 1973. 211-302 p. (In Russ.)

2. Akzhigitova N.I. [Efemerovaya rastitelnost - Ephemerophyta // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 3. Tashkent: FAN UzSSR, 1976. 8-71 p. (In Russ.)

3. Butkov A.Ya., Nabiev M.M. [Rastitelnost pestrotsvetnykh nizkogoriy - Oreogypsophyta // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 3. Tashkent: FAN UzSSR, 1976. 227-272 p. (In Russ.)

4. Granitov I.I. [Rastitelnyy pokrov Yugo-Zapadnykh Kyzylkumov] T. 1. Tashkent: Nauka, 1964. (In Russ.)

5. Zakirov P.K. [Rastitelnost aridnykh nizkogoriy // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 2. Tashkent: FAN UzSSR, 1973. 192-210 p. (In Russ.)

6. Maylun Z.A. [Kserofilnaya polukustarnichkovaya rastitelnost - Xerohemithamnisca // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 3. Tashkent: FAN UzSSR, 1976. 72-138 p. (In Russ.)

7. Melnikova R.D. [Psammofilnaya rastitelnost - Psammophyta // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 2. Tashkent: FAN UzSSR, 1973. 4-80 p. (In Russ.)

8. Momotov I.F. [Gipsofilnaya rastitelnost - Gypsophyta // Rastitelnyy pokrov Uzbekistana] T. 2. Tashkent: FAN UzSSR, 1973. 81-191 p. (In Russ.)

Ажратилган ачитқи штаммларини 30% бардали озуқа мухитида ўсиш динамикасини таҳлил қилиш натижаларига кўра, барча изолятлар культивациянинг дастлабки 60–72 соати давомида фаол кўпайди. *Saccharomyces* авлодига мансуб штаммлар энг жадал ўсишни намоён қилди. *Saccharomyces* sp. T1 штамми 60 соатдан кейин 65,8×10⁶ КОЕ/мл ҳужайра концентрациясига эришди. Кейинги вақтларда ҳужайралар сони босқичма-босқич камайди. *Saccharomyces* sp. T2 штаммида ҳам худди шундай ўсиш динамикаси кузатилиб, максимал кўрсаткич 61,5×10⁶ КОЕ/мл ни ташкил этди.

Candida авлодига мансуб штаммлар секинроқ ўсди. Уларнинг максимал ҳужайра концентрацияси 60 соатдан кейин 13,8–15,2×10⁶ КОЕ/мл оралиғида қайд этилди. Кейинги культивация давомида ҳужайралар сони аста-секин камайди.

Rhodotorula авлодига мансуб штаммларда экспоненциал ўсиш фазаси узоқроқ давом этди. Энг юқори ҳужайра концентрацияси 72 соатда кузатилиб, 9,8–11,1×10⁶ КОЕ/мл ни ташкил қилди. Кейинги даврда ҳужайралар сони аста-секин пасайди (2-жадвал).

2-жадвал.

***Helianthus tuberosus* L. дан ажратиб олинган ачитқи штаммларининг вақт бўйича ўсиш кўрсаткичлари**

Штаммлар	12 соат	24 соат	36 соат	48 соат	60 соат	72 соат	84 соат	96 соат	108 соат
Saccharomyces sp. T1	22,8×10⁶	31,5×10⁶	48,7×10⁶	62,4×10⁶	65,8×10⁶	61,3×10⁶	55,6×10⁶	48,9×10⁶	42,5×10⁶
Saccharomyces sp. T2	20,6×10⁶	29,8×10⁶	46,9×10⁶	58,7×10⁶	61,5×10⁶	57,8×10⁶	52,4×10⁶	46,2×10⁶	40,1×10⁶
Candida sp. T3	1,6×10⁶	3,4×10⁶	6,8×10⁶	11,4×10⁶	15,2×10⁶	14,3×10⁶	13,1×10⁶	11,7×10⁶	10,4×10⁶
Candida sp. T4	1,3×10⁶	2,8×10⁶	5,7×10⁶	9,6×10⁶	13,8×10⁶	13,2×10⁶	12,0×10⁶	10,6×10⁶	9,5×10⁶
Candida sp. T5	1,5×10⁶	3,1×10⁶	6,1×10⁶	10,2×10⁶	14,4×10⁶	13,7×10⁶	12,6×10⁶	11,3×10⁶	10,0×10⁶
Rhodotorula sp. T6	0,8×10⁶	1,7×10⁶	3,2×10⁶	5,8×10⁶	8,7x10⁶	10,5×10⁶	10,1×10⁶	9,2×10⁶	8,4×10⁶
Rhodotorula sp. T7	0,9×10⁶	1,9×10⁶	3,6×10⁶	6,3×10⁶	9,2×10⁶	11,1×10⁶	10,8×10⁶	9,8×10⁶	8,9×10⁶
Rhodotorula sp. T8	0,7×10⁶	1,5×10⁶	2,9×10⁶	5,2×10⁶	8,1×10⁶	9,8×10⁶	9,3×10⁶	8,6×10⁶	7,8×10⁶
Rhodotorula sp. T9	0,8×10⁶	1,6×10⁶	3,0×10⁶	5,5×10⁶	8,3×10⁶	10,0×10⁶	9,6×10⁶	8,8×10⁶	8,0×10⁶
Rhodotorula sp. T10	0,9×10⁶	1,8×10⁶	3,4×10⁶	6,0×10⁶	8,9×10⁶	10,8×10⁶	10,4×10⁶	9,5×10⁶	8,7×10⁶

Ферментатив фаолликни баҳолаш натижалари штаммлар ўртасида сезиларли фарқ мавжудлигини кўрсатди. Назорат намунасида целлюлаза ва ксиланаза фаоллиги аниқланмади, умумий оқсил миқдори эса 0,32±0,02 мг/мл ни ташкил қилди.

Энг юқори целлюлаза фаоллиги *Saccharomyces* sp. T2 штаммида қайд этилди (5,38±0,14 бирлик/мл). Шунингдек, *Saccharomyces* sp. T1 (4,48±0,10 бирлик/мл) ва *Rhodotorula* sp. T10 (4,06±0,11 бирлик/мл) штаммлари ҳам юқори ферментатив фаоллик намоён қилди. *Candida* авлодига мансуб штаммларда целлюлаза фаоллиги 2,63–2,95 бирлик/мл оралиғида бўлиб, *Saccharomyces* штаммларига нисбатан пастроқ бўлди.

Ксиланаза фаоллиги бўйича ҳам энг юқори кўрсаткич *Saccharomyces* sp. T2 штаммида аниқланди (9,42±0,23 бирлик /мл). *Saccharomyces* sp. T1 ва *Candida* sp. T3 штаммларида ушбу кўрсаткич мос равишда 8,13±0,19 ва 8,84±0,21 бирлик /мл ни ташкил қилди. *Rhodotorula* авлоди ичида энг юқори ксиланаза фаоллиги *Rhodotorula* sp. T6 штаммида кузатилиб, 4,82±0,17 бирлик /мл га тенг бўлди.

Умумий оқсил миқдори 0,91±0,02 дан 1,56±0,05 мг/мл гача ўзгарди. Энг юқори оқсил миқдори *Candida* sp. T5 штаммида аниқланди. Кейинги ўринларни *Candida* sp. T3 ва *Candida* sp. T4 штаммлари эгаллади. Бироқ юқори оқсил миқдори ушбу штаммларда целлюлаза ва ксиланаза фаоллигининг энг юқори даражаси билан мос келмади. Бу ҳолат уларнинг культура суюқлигида бошқа турдаги ташқи оқсиллар ва ферментлар ҳам синтез қилинганлигини кўрсатади (1- расм).



1-расм. *Helianthus tuberosus* L. дан ажратиб олинган ачитқи штаммларининг гидролитик ферментлар фаоллиги (бир/мл).

Олинган натижалар *Saccharomyces* sp. T1 ва *Saccharomyces* sp. T2 штаммлари целлюлаза ва ксиланаза ферментларини олиш учун энг истиқболли штаммлар эканлигини кўрсатди. *Candida* авлодига мансуб штаммлар юқори миқдорда умумий оқсил синтез қилди. *Rhodotorula* штаммлари эса ўртача ферментатив фаоллик ва нисбатан узоқроқ ўсиш фазаси билан ажралиб турди. Ушбу штаммлар ферментлар ишлаб чиқариш шароитларини оптималлаштириш ва гидролитик ферментлар ҳосилдорлигини ошириш бўйича кейинги тадқиқотлар учун истиқболли объектлар ҳисобланади.

Хулоса. Ўтказилган тадқиқот натижалари *Helianthus tuberosus* L. (топинамбур) ўсимлигининг тугунаклари, пояси, барглари, ризосфераси ва илдиз юзаси ачитқи микрофлорасининг хилма-хил ва фермент фаоллиги бўйича истиқболли манба эканлигини кўрсатди. Ажратиб олинган 10 та штамм орасида Saccharomyces, Candida ва Rhodotorula авлодларига мансуб вакиллар аниқланди, бунда энг юқори тур хилма-хиллиги тугунаклар ва ризосфера тупроғида кузатилди.

Ўсиш динамикаси таҳлили шуни кўрсатдики, *Saccharomyces* авлодига мансуб штаммлар (айниқса T1 ва T2) энг тез ва интенсив кўпайиш қобилиятига эга бўлиб, 60 соат давомида максимал ҳужайра концентрациясига эришди. *Candida* штаммлари ўртача, *Rhodotorula* штаммлари эса нисбатан секинроқ, лекин узоқроқ давом этадиган ўсиш фазаси билан тавсифланди.

Ферментатив фаолликни баҳолаш натижалари *Saccharomyces* sp. T1 ва айниқса *Saccharomyces* sp. T2 штаммларининг целлюлаза ва ксиланаза ферментларини синтез қилиш бўйича энг юқори кўрсаткичларга эга эканлигини аниқлади. Бу штаммлар келгусида биотехнологик мақсадларда -жумладан, гидролитик ферментлар ишлаб чиқариш учун - истиқболли объект сифатида кўриб чиқилиши мумкин. *Candida* авлодига мансуб штаммлар, ўз навбатида, юқори миқдорда умумий оқсил синтез қилиш қобилияти билан ажралиб турди, бу эса уларнинг микробиал оқсил манбаи сифатида қўлланилиш имкониятини кўрсатади. *Rhodotorula* штаммлари эса ўртача ферментатив фаоллик намоён қилди, аммо узоқроқ экспоненциал ўсиш фазаси уларни узоқ муддатли ферментация жараёнлари учун жозибадор қилиши мумкин.

Умуман олганда, олинган маълумотлар топинамбур билан ассоциацияланган ачитқи микроорганизмларининг гидролитик фермент ишлаб чиқарувчи штаммларни излаш ва саралашда самарали манба бўлиб хизмат қилишини тасдиқлайди. Келгусида ушбу истиқболли штаммлар, айниқса *Saccharomyces* sp. T1 ва T2, учун ферментация шароитларини (озуқа муҳити таркиби, ҳарорат, pH, аэрация даражаси) оптималлаштириш, шунингдек уларнинг молекуляр-генетик идентификациясини амалга ошириш ва саноат миқёсида қўллаш имкониятларини баҳолаш билан давом эттирилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Duan, Y., et al. (2017). Plant growth promotion properties of bacterial strains isolated from the rhizosphere of the Jerusalem artichoke (*Helianthus tuberosus* L.) adapted to saline-alkaline soils and their effect on wheat growth. *Archives of Agronomy and Soil Science*. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28177802/

2. Zhang, Y., Zhu, H., Wang, J., Zhou, X., Xu, W., Shi, H. (2015). Isolation and Identification of an Inulinase-Producing Strain and the Optimization of Its Fermentation Condition. In: Zhang, TC., Nakajima, M. (eds) Advances in Applied Biotechnology. Lecture Notes in Electrical Engineering, vol 332. Springer, Berlin, Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-662-45657-6_11

3. Zhang, L., Liu, W., Ji, J., Deng, L., Feng, Q., Shi, W., & Gao, J. (2021). Inactivation of inulinase and marination of high-quality Jerusalem artichoke (*Helianthus tuberosus* L.) pickles with screened dominant strains. *Frontiers in Bioengineering and Biotechnology*, *8*, 626861. https://doi.org/10.3389/fbioe.2020.626861

4. Iraporda, C., Rubel, I.A., Bengoa, A.A. *et al.* Lactic Acid Bacteria Strains Isolated from Jerusalem Artichoke (*Helianthus tuberosus* L.) Tubers as Potential Probiotic Candidates. *Probiotics & Antimicro. Prot.* 17, 2522–2535 (2025). https://doi.org/10.1007/s12602-025-10594-3

5. Šuchová, K., Fehér, C., Ravn, J. L., Bedő, S., Biely, P., & Geijer, C. (2022). Cellulose- and xylan-degrading yeasts: Enzymes, applications and biotechnological potential. *Biotechnology Advances*, *59*, 107981. https://doi.org/10.1016/j.biotechadv.2022.107981

6. Sohail, M., Barzkar, N., Michaud, P., Tamadoni Jahromi, S., Babich, O., Sukhikh, S., Das, R., & Nahavandi, R. (2022). Cellulolytic and xylanolytic enzymes from yeasts: Properties and industrial applications. *Molecules*, *27*(12), 3783. https://doi.org/10.3390/molecules27123783

7. Albarello, M. L. R., Giehl, A., Tadioto, V., et al. (2023). Analysis of the holocellulolytic and fermentative potentials of yeasts isolated from the gut of *Spodoptera frugiperda* larvae. *BioEnergy Research*, *16*, 2046–2057. https://doi.org/10.1007/s12155-023-10616-4

8. Nelson MI, Kelsey RG, Shafizadeh F. Enhancement of enzymatic hydrolysis by simultaneous attrition of cellulosic substrates. Biotechnol Bioeng. 1982;24:293–294.

9. Nelson MI, Kelsey RG, Shafizadeh F. Enhancement of enzymatic hydrolysis by simultaneous attrition of cellulosic substrates. Biotechnol Bioeng. 1982;24:295–298.

10. Lowry OH, Rosebrough NJ, Farr AL, Randall RJ. Protein measurement with the Folin phenol reagent. J Biol Chem. 1951;193:265–275.

УЎК 57.049

ҒЎЗАНИНГ МОРФОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА МОДЕЛЬ ТУЗ СТРЕССИ ТАЪСИРИНИНГ ИНТЕГРАЛ БАҲОЛАНИШИ

Ф.С. Ражапов, катта илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

В.С. Камбурова, б.ф.д., илмий ишлар бўйича директор ўринбосари, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

И.Б. Салахутдинов, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Н.Р. Рахматова, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Д.А. Мирзабаев, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Д.И. Тожибоева, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Е.Ф. Назарова, кичик илмий ходим, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Аннотация. *Тупроқ шўрланиши қишлоқ хўжалиги экинларининг ўсиши ва маҳсулдорлигини чекловчи асосий абиотик омиллардан бири ҳисобланади, айниқса*

ўсимликларнинг ривожланишининг дастлабки босқичларида. Шўрга чидамлиликнинг физиологик ва молекуляр механизмлари бўйича катта ҳажмда маълумотлар мавжуд бўлишига қарамасдан, ғўза ниҳолларининг морфологик тизими стресс жавобининг интеграл кўрсаткичи сифатида етарлича ўрганилмаган. Шу муносабат билан мазкур тадқиқотнинг мақсади модель туз стресси таъсирининг ғўза ниҳолларининг морфологик кўрсаткичларига (униб чиқиш вақти ва энергияси, илдиз ва поя узунлиги) комплекс баҳосини бериш ҳамда ушбу жавоб тузилишидаги генотипик фарқларни аниқлашдан иборат бўлди.

Натижалар шуни кўрсатдики, NaCl концентрациясининг ортиши морфологик кўрсаткичларнинг дозага боғлиқ ҳолда ёмонлашувига олиб келган: униб чиқиш вақти узайган, униб чиқиш энергияси, илдиз ва поя узунлиги эса камайган. Аллақачон 50 мМ NaCl шароитида айрим белгилардын сезиларли даражада сусайиши кузатилган бўлса, 150 мМ да таъсир барча параметрлар учун яққол ва статистик жиҳатдан ишончли тус олган. Дисперсион таҳлил генотип ва стресс омилининг белгилар шаклланишига турлича даражада таъсир қилишини кўрсатган бўлса, корреляцион таҳлил шўрланиш ортиши билан улар ўртасидаги мувофиқлик кучайишини намоён қилди. PCA таҳлили чидамлиликнинг умумий градиентини акс эттирувчи ягона вариация ўқи мавжудлигини тасдиқлади.

MGIDI усули ёрдамидаги интеграл баҳолаш генотипларни чидамлилик даражаси бўйича рейтинг қилиш имконини бериб, Порлок-1 энг чидамли, Ишонч эса энг сезгир генотип сифатида ажратилди. Олинган натижалар ғўзанинг шўрга чидамлилигини эрта фенотипик скрининг қилишда комплекс ёндашувнинг самарадорлигини намоён қилди.

Калит сўзлар: *туз стресси, ғўза, морфологик белгилар, шўрга чидамлилик, генотипик фарқлар, интеграл таҳлил*

Аннотация*. Засоление почв является одним из ключевых абиотических факторов, ограничивающих рост и продуктивность сельскохозяйственных культур, особенно на ранних стадиях развития растений. Несмотря на наличие значительного объёма данных о физиологических и молекулярных механизмах солеустойчивости, морфологическая система проростков хлопчатника как интегрированный показатель стрессового ответа остаётся недостаточно изученной. В связи с этим целью настоящего исследования являлась комплексная оценка влияния модельного солевого стресса на морфологические параметры проростков хлопчатника (время и энергия прорастания, длина корня и побега) и выявление генотипических различий в структуре этого ответа.*

Результаты показали, что повышение концентрации NaCl вызывает дозозависимое ухудшение морфологических показателей: увеличение времени прорастания и снижение энергии прорастания, длины корня и побега. Уже при 50 мМ NaCl наблюдалось значительное угнетение отдельных признаков, тогда как при 150 мМ эффект становился выраженным и статистически значимым для всех параметров. Дисперсионный анализ выявил различную степень влияния генотипа и стрессового фактора на формирование признаков, тогда как корреляционный анализ показал усиление согласованности между ними при росте засоления. PCA подтвердил существование единой оси вариации, отражающей общий градиент устойчивости.

Интегральная оценка методом MGIDI позволила ранжировать генотипы по степени устойчивости, выделив Порлок-1 как наиболее устойчивый и Ишонч как наиболее чувствительный. Полученные результаты демонстрируют эффективность комплексного подхода для раннего фенотипического скрининга солеустойчивости хлопчатника.

Ключевые слова*: солевой стресс, хлопчатник, морфологические признаки, солеустойчивость, генотипические различия, интегральный анализ*

Abstract. *Soil salinity is one of the major abiotic factors limiting the growth and productivity of agricultural crops, particularly during the early stages of plant development. Despite the substantial body of knowledge concerning the physiological and molecular mechanisms of salt tolerance, the morphological system of cotton seedlings as an integrated indicator of stress response remains insufficiently investigated. Therefore, the aim of the present study was to comprehensively evaluate the effects of simulated salt stress on the morphological characteristics of cotton seedlings,*

including germination time, germination energy, root length, and shoot length, and to identify genotypic differences in the structure of this response.

The results demonstrated that increasing NaCl concentration caused a dose-dependent deterioration of morphological traits, manifested by prolonged germination time and reduced germination energy, root length, and shoot length. Significant inhibition of certain traits was already observed at 50 mM NaCl, whereas at 150 mM the effect became pronounced and statistically significant for all measured parameters. Analysis of variance revealed different contributions of genotype and stress treatment to trait variation, while correlation analysis indicated an increase in trait coordination with increasing salinity levels. Principal Component Analysis (PCA) confirmed the existence of a common axis of variation reflecting an overall gradient of salt tolerance.

Integrated assessment using the Multi-Trait Genotype–Ideotype Distance Index (MGIDI) enabled the ranking of genotypes according to their tolerance level, identifying Porlok-1 as the most salt-tolerant genotype and Ishonch as the most salt-sensitive. The obtained results demonstrate the effectiveness of an integrated approach for the early phenotypic screening of cotton genotypes for salt tolerance.

Keywords: *salt stress, cotton (Gossypium hirsutum L.), morphological traits, salt tolerance, genotypic variation, integrated analysis.*

Кириш. Тупроқ шўрланиши қишлоқ хўжалиги экинлари маҳсулдорлигини чекловчи энг жиддий абиотик омиллардан бири ҳисобланади [1, 2]. Унинг салбий таъсири осмотик стресс, Na^+ ва Cl^- ионларининг токсик тўпланиши, минерал озиқланишнинг бузилиши ҳамда иккиламчи метаболик ўзгаришлар билан боғлиқ [3, 4]. Натижада сувнинг ўзлаштирилиши, ҳужайраларнинг чўзилиши, ферментатив фаоллик ва ўсимлик органларининг шаклланиши ёмонлашади [5, 6]. Айниқса, онтогенезнинг дастлабки босқичлари ушбу бузилишларга жуда сезгир ҳисобланади, чунки униб чиқиш тезлиги ва тўлиқлиги кейинги ниҳол ривожланиши ҳамда ўсимлик маҳсулдорлигини белгилаб беради [7, 8].

Ғўза учун шўрланиш муаммоси алоҳида аҳамиятга эга. Бошқа кўплаб гликофит ўсимликларга нисбатан ғўзанинг маълум даражада шўрга чидамлилигига қарамасдан, униб чиқиш ва ниҳолнинг эрта ўсиш босқичлари энг критик давр ҳисобланади. Чунки ҳатто туз концентрациясининг мўътадил ошиши ҳам униб чиқиш энергиясининг пасайишига, ниҳолларнинг кеч пайдо бўлишига ҳамда илдиз ва поя ўсишининг сусайишига олиб келиши мумкин [9].

Сўнгги йилларда шўрга чидамлиликни ўрганишда кўп ўлчамли статистик таҳлил усулларининг аҳамияти ортиб бормоқда. Ушбу ёндашувлар нафақат вариантлар ўртасидаги алоҳида фарқларни, балки стресс жавобининг умумий тузилишини ҳам баҳолаш имконини беради. Бундай комплекс ёндашув айниқса бир нечта генотипларни таққослашда муҳим бўлиб, алоҳида белгиларни тавсифлашдан эрта туз стресс жавобининг умумий архитектурасини тушунишга ўтиш имконини яратади [10–12].

Ғўзанинг шўрга чидамлилиги физиологияси ва генетикасига бағишланган тадқиқотлар сони кўп бўлишига қарамасдан, турли NaCl даражаларида ниҳолнинг яхлит морфологик тизими қандай ўзгариши ва ушбу ўзгаришлар генотипларни қай даражада ишончли фарқлаш имконини бериши масаласи етарлича ўрганилмаган.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, мазкур тадқиқотнинг мақсади туз стресси таъсирининг ғўза ниҳолларининг эрта морфологик ривожланишига (униб чиқиш вақти ва энергияси, илдиз ва поя узунлиги) комплекс баҳосини бериш ҳамда ушбу жавоб тузилишидаги генотипик фарқларни аниқлашдан иборат бўлди.

Материаллар ва усуллар. Тадқиқот объекти сифатида классик селекцияга мансуб ғўза навлари (Ишонч, Ан-Баявут-2 ва Наманган-77), маркер-ассоциатив селекция асосида яратилган Равнақ-1 нави ҳамда биотехнологик усулда олинган Порлок-1 нави танланди. Классик селекцияга мансуб ўрта толали ғўза (*Gossypium hirsutum* L.) навлари — Ишонч, Ан-Баявут-2 ва Наманган-77 туз стрессига юқори ва ўртача даражада сезгир ҳисобланади, маркер-

ассоциатив селекция ёрдамида яратилган Равнақ-1 ҳамда биотехнологик Порлок-1 навлари эса шўрланишга нисбатан потенциал чидамлилик хусусиятига эга.

Тадқиқот мақсадига эришиш учун тажрибалар модель (фитотрон) шароитида етиштирилган ўсимликларда олиб борилди. Туз стрессини моделлаштириш мақсадида ўсимликлар назорат ва тажриба гуруҳларига ажратилди. 21 кун давомида назорат вариантлари оддий сув билан, тажриба вариантлари эса 50 ва 150 мМ концентрациядаги NaCl эритмалари билан ишлов берилди. Ўсимликларда 4–5 та ҳақиқий барг шаклланган сўнг, намуналар йиғиб олинди, тозаланди ва тегишли таҳлиллар ўтказилди.

Униб чиқиш параметрлари (униб чиқиш вақти ва энергияси) Munavar ва ҳаммуаллифлар [9] томонидан таклиф этилган методика асосида аниқланди. Морфологик кўрсаткичларни (илдиз ва поя узунлиги) баҳолаш учун ҳар бир генотип ўсимликлари дистилланган сувда эҳтиёткорлик билан ювилди ва ImageJ 1.53e дастурида фототасвирлар таҳлили орқали ўлчанди.



1-расм. Туз стрессининг ғўза ниҳолларининг морфологик кўрсаткичларига таъсири

Маълумотларни статистик қайта ишлаш ва визуализация

Барча экспериментал маълумотлар ҳар бир генотип ва шўрланиш даражаси учун бешта мустақил биологик такрор асосида таҳлил қилинди.

Статистик ҳисоб-китоблар ва натижалар визуализацияси R муҳитида (version 4.3.2) RStudio (Posit Software, Boston, MA, USA) дастурида амалга оширилди. Маълумотларни импорт қилиш, тузиш, фильтрлаш ва трансформация қилиш учун readxl, dplyr, tidyr ва tidyverse пакетларидан фойдаланилди.

Барча таҳлилларда $p < 0,05$ қиймат статистик жиҳатдан ишончли деб қабул қилинди. Матн, жадвал ва графиклардаги маълумотлар бешта биологик такрор асосида ҳисобланган

ўртача қиймат ± стандарт хато (mean ± SE) ёки ўртача қиймат ± стандарт оғиш (mean ± SD) кўринишида тақдим этилди.

Тадқиқот натижалари. Туз стрессининг ғўза ниҳолларининг морфологик кўрсаткичларига таъсири

Абсолют қийматларнинг дастлабки таҳлили шўрланиш стрессининг кучайиши ўрганилган барча морфологик кўрсаткичларнинг тизимли равишда ёмонлашуви билан кечганлигини кўрсатди. Бунда униб чиқиш вақти бундан мустасно бўлиб, аксинча, унинг ортиши кузатилди. Классик селекция, маркер-ассоциатив селекция ва биотехнологик ғўза генотиплари бўйича ўртача ҳисобда 50 мМ NaCl шароитида поя ва илдиз узунлиги, шунингдек униб чиқиш энергияси пасайган, униб чиқиш вақти эса ортиб борган (1-расм). 150 мМ NaCl шароитида ушбу ўзгаришлар янада яққол намоён бўлди (1-расм).

Назорат вариантига нисбатан генотип-специфик оғишлар ғўзанинг барча шаклларини шўрланишга бир йўналишда, аммо турли интенсивликда жавоб қайтарганлигини тасдиқлади (1-расм). Ушбу босқичнинг ўзидаёқ туз стрессининг нафақат ниҳолларнинг пайдо бўлиш тезлигига, балки кейинги ўсишнинг умумий потенциалига ҳам таъсир қилиши аниқ кўринди.

Алоҳида генотипларда белгиларни ўзгариш йўналиши

Volcano таҳлили ҳар бир генотипдаги ҳар бир белги бўйича ўзгариш йўналиши ва даражасини log2FC ва –log10(p) координаталарида баҳолаш имконини берди. Таҳлил натижалари 50 мМ NaCl шароитида барча генотипларда униб чиқиш вақти бўйича мусбат силжиш, униб чиқиш энергияси, илдиз узунлиги ва поя узунлиги бўйича эса манфий силжиш кузатилганлигини кўрсатди (2-расм).

Бунда поя узунлигининг энг кучли камайиши классик селекцияга мансуб Ишонч навида кузатилган бўлса, биотехнологик Порлок-1 навида ўзгариш амплитудаси нисбатан паст даражада сақланиб қолган (2-расм).

150 мМ NaCl шароитида таъсир кўлами кескин даражада ортди. Униб чиқиш вақти учун log2FC қийматлари ошган бўлса, униб чиқиш энергияси, илдиз узунлиги ва поя узунлиги учун янада манфий қийматлар кузатилди (2-расм). Деярли барча нуқталар статистик аҳамият чегарасидан юқори жойлашган бўлиб, бу фарқларнинг юқори ишончлилигини тасдиқлайди (2-расм).



2-расм. Туз стресси шароитида ғўза генотипларида морфологик белгиларни ўзгариш йўналиши ва статистик аҳамияти

Шўрланиш таъсирида белгиларни корреляцион тузилиши

Корреляцион таҳлил ўсиш ва униб чиқиш белгилари ўртасида жуда кучли мувофиқлик мавжудлигини кўрсатди, бунда ушбу мувофиқлик NaCl концентрацияси ортиши билан янада кучайган. Назорат вариантида униб чиқиш энергияси поя ва илдиз узунлиги билан мусбат корреляция намоён қилган бўлса, униб чиқиш вақти илдиз узунлиги ва униб чиқиш энергияси билан манфий боғлиқликка эга бўлган (3-расм).



3-расм. Турли шўрланиш даражаларида ғўза ниҳоллари морфологик белгилари корреляцион тузилишининг таҳлили

50 ва 150 мМ NaCl шароитида униб чиқиш энергияси, илдиз узунлиги ва поя узунлиги ўртасидаги мусбат боғлиқликлар янада кучайган бўлса, униб чиқиш вақтининг бошқа белгилари билан манфий боғлиқлиги ҳам ортган (3-расм).

Бу шундан далолат беради, туз таъсири остида ниҳолнинг морфологик тизими янада интеграллашган ҳолатга ўтади: ҳаётийлик ва ўсиш белгилари деярли синхрон равишда ўзгаради, униб чиқиш вақти эса қарама-қарши адаптив қутбни шакллантиради. Бошқача айтганда, стресс қанчалик кучли бўлса, алоҳида белгилардын мустақиллиги шунчалик камаяди ва бутун фенотипик жавоб тизими янада мувофиқлашган тус олади.

Морфологик параметрларнинг PCA-таҳлили

PCA-таҳлил ниҳолларнинг шўрланишга чидамлилигининг умумий градиентини акс эттирувчи ягона асосий вариация ўқи мавжудлигини тасдиқлади. Биринчи компонентанинг ҳиссаси назорат вариантида 89,6%, 50 мМ NaCl шароитида 95,7% ва 150 мМ NaCl шароитида 96,1% ни ташкил этган бўлса, иккинчи компонента мос равишда дисперсиянинг фақат 8,8%, 3,2% ва 3,7% қисмини изоҳлади (4-расм). Бу фенотипик ўзгарувчанликнинг асосий қисми униб чиқишнинг кечикиши, униб чиқиш энергиясининг пасайиши ва ўсишнинг сусайишини бирлаштирувчи ягона интеграл координата билан ифодаланишини кўрсатади.



4-расм. Туз стресси шароитида ғўзанинг морфологик белгилари PCA-ординацияси

Biplot таҳлиллари поя узунлиги, илдиз узунлиги ва униб чиқиш энергияси векторлари ўхшаш йўналишга эга эканлигини, униб чиқиш вақти вектори эса қарши томонга йўналганлигини кўрсатди (4-расм).

Кенгайтирилган PCA-таҳлил генотипларни ажратишга энг катта умумий ҳисса униб чиқиш вақти ва поя узунлиги томонидан қўшилганлигини тасдиқлади, униб чиқиш энергияси ва илдиз узунлиги эса нисбатан камроқ, аммо барибир муҳим аҳамиятга эга бўлган (5-расм). Биологик нуқтаи назардан бу шўрланиш шароитида генотиплар ўртасидаги фарқлар асосан униб чиқишнинг кечикиши ва ер усти қисми ривожланишининг секинлашиши комбинацияси билан белгиланишини англатади.

Генотипларнинг туз таъсирига жавоб профиллари

Radar-диаграммалар назорат шароитида барча генотиплар нисбатан яқин профиллар билан тавсифланганлигини кўрсатган бўлса, 50 мМ NaCl шароитидаёқ улар ўртасидаги фарқлар яққол намоён бўлган (6-расм). Энг қулай белгилар конфигурацияси биотехнологик Порлок-1 навида сақланиб қолган бўлиб, ушбу нав униб чиқиш вақтининг камроқ ортиши ҳамда униб чиқиш энергияси, илдиз ва поя узунлигининг нисбатан яхшироқ сақланиши билан характерланган. Аксинча, классик селекцияга мансуб Ишонч нави энг кучли профил қисқаришини намоён қилган, айниқса 150 мМ NaCl шароитида (6-расм).



5-расм. Турли NaCl концентрациялари шароитида ғўзанинг морфологик параметрларининг кенгайтирилган асосий компонентлар таҳлили

Ғўзанинг бошқа навлари — классик селекцияга мансуб Наманган-77 ва маркер-ассоциатив селекция асосида яратилган Равнақ-1 оралиқ ҳолатни эгаллаган бўлса, анъанавий АН-Баявут-2 нави айрим ҳолатларда ушбу икки генотипга нисбатан параметрларнинг янада кучли ёмонлашувини намоён қилди. Шундай қилиб, ҳатто визуал морфологик профил асосида ҳам нисбатан чидамли ва сезгир шаклларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

MGIDI усули асосида генотипларнинг интеграл баҳоланиши

MGIDI индекси барча белгилarni ягона идеотипдан масофа кўрсаткичига бирлаштириш имконини бериб, генотипларни якуний рейтинглашни амалга оширишга хизмат қилди. Барча учта вариантда ҳам энг яхши белгилар мажмуасига мос келувчи минимал MGIDI қиймати биотехнологик Порлок-1 навида сақланиб қолди (7-расм). Иккинчи ўринни Равнақ-1 эгаллаган бўлса, ундан кейин классик селекцияга мансуб Наманган-77 ва АН-Баявут-2 навлари

жойлашди. Идеотипдан энг узоқ бўлган генотип эса анъанавий Ишонч нави бўлиб қолди (7-расм).

MGIDI супер-мультипанел таҳлили қўшимча равишда шуни кўрсатдики, сезгир генотипларда алоҳида белгилардын идеотипдан умумий узоқлашишга қўшган ҳиссаси юқори бўлиб, бир вақтнинг ўзида бир нечта компонентлар бўйича тақсимланган. Аксинча, Порлок-1 навида ушбу ҳиссаларнинг барчаси минимал ва мувозанатлашган ҳолатда сақланган (7-расм). ANOVA, кўп марталик таққослашлар, PCA ва корреляцион таҳлил натижалари билан биргаликда бу маълумотлар қуйидаги барқарор шўрга чидамлилик қатори шаклланишини тасдиқлади: Порлок-1 > Равнақ-1 > Наманган-77 > АН-Баявут-2 > Ишонч.



6-расм. Туз стрессига жавоб сифатида ғўза генотипларининг морфологик профиллари

Шундай қилиб, абсолют қийматлар, нисбий оғишлар, PCA-профиллар ва MGIDI индекси натижаларини ўзаро таққослаш турли ёндашувлар ўртасида юқори даражадаги мувофиқлик мавжудлигини кўрсатди ҳамда қуйидаги барқарор шўрга чидамлилик қаторини шакллантириш имконини берди: Порлок-1 > Равнақ-1 > Наманган-77 > АН-Баявут-2 > Ишонч. Биотехнологик Порлок-1 нави ҳатто 150 мМ NaCl шароитида ҳам идеотипдан энг кам оғишни ва морфологик параметрлар мажмуасининг энг яхши сақланишини намоён қилди. Аксинча, анъанавий Ишонч нави максимал сезгирлик ва стрессга чидамли оптимал профилдан энг катта узоқлашиш билан характерланди. Олинган натижалар адабиётларда келтирилган маълумотлар билан яхши мос келади, чунки бир қатор тадқиқотларда ғўзанинг шўрга чидамлилигини интеграл баҳолаш самарадорлиги кўрсатиб ўтилган [10, 11, 13].

Хулоса. Ўтказилган тадқиқот шуни кўрсатдики, туз стресси ғўза ниҳолларида эрта морфогенезнинг яққол ва қатъий дозага боғлиқ қайта шаклланишига олиб келади ҳамда бу ўзгаришлар нафақат униб чиқиш тезлигига, балки кейинги илдиз ва поя ўсишига ҳам таъсир кўрсатади. NaCl концентрациясининг 0 дан 50 ва 150 мМ гача ортиши униб чиқиш вақтининг узайиши, униб чиқиш энергиясининг пасайиши, илдизлар ва айниқса поя узунлигининг камайиши билан кечди. Бунда поя узунлиги стресс таъсирининг энг сезгир индикатори сифатида намоён бўлди.

Абсолют қийматлар, нисбий оғишлар, PCA-профиллар ва MGIDI индекси натижаларини таққослаш турли ёндашувлар ўртасида юқори мувофиқликни кўрсатди ҳамда ғўзанинг турли генотиплари учун қуйидаги барқарор шўрга чидамлилик қаторини шакллантириш имконини берди: Порлок-1 > Равнақ-1 > Наманган-77 > АН-Баявут-2 > Ишонч. Шу тариқа, ниҳол босқичидаги комплекс баҳолаш ўсимликлар ривожланишининг кейинги фазаларига ўтишидан олдин ҳам шўрга чидамлилиги кескин фарқ қилувчи шаклларни ишончли аниқлаш имконини бериши кўрсатилди.



7-расм. Шўрланиш шароитида MGIDI индекси асосида ғўза генотипларининг кучли ва заиф томонларини комплекс визуализация қилиш

Молиялаштириш. Мазкур иш Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси томонидан амалга оширилган базавий молиялаштириш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Инновацион ривожланиш агентлиги томонидан молиялаштирилган FL-9524115083 фундаментал лойиҳаси доирасида бажарилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Singh A. Soil salinity: A global threat to sustainable development//Soil Use Manag.2022. Т. 38, № 1. С. 39–67.
2. Khasanov S. и др. Impact assessment of soil salinity on crop production in Uzbekistan and its global significance // Agric. Ecosyst. Environ. 2023. Т. 342. С. 108262.
3. Balasubramaniam T. и др. Plants' Response Mechanisms to Salinity Stress // Plants. Multidisciplinary Digital Publishing Institute, 2023. Т. 12, № 12. С. 2253.
4. Anwar A. и др. Understanding the physiological and molecular mechanism of salinity stress tolerance in plants // Not. Bot. Horti Agrobot. Cluj. Napoca. Academic Press, 2022. Т. 50, № 4. С. 12959.
5. Hassan N. E., Hassan N. E. Salinity stress in plants: Growth, photosynthesis and adaptation review // GSC Advanced Research and Reviews. GSC Advanced Research and Reviews, 2024. Т. 20, № 2. С. 231–243.
6. Muhammad N. и др. New developments in understanding cotton's physiological and molecular responses to salt stress // Plant Stress. Elsevier, 2025. Т. 15, № 2. С. 100742.
7. Manono B. O. Effects of Salinity on Seed Germination: Mechanisms, Impacts, and Mitigation Strategies // Seeds. 2026. Т. 5, № 1. С. 1.

8. Çokkızgın H., Çokkızgın A., Girgel Ü. Cotton's response to salinity stress: exploring sodium and potassium salt effects on germination and vigor // Appl. Ecol. Environ. Res. Hungarian University of Agriculture and Life Sciences, 2025. T. 23, № 4. C. 8391–8404.

9. Munawar W., Hameed A., Khan M. K. R. Differential Morphophysiological and Biochemical Responses of Cotton Genotypes Under Various Salinity Stress Levels During Early Growth Stage // Front. Plant Sci. Frontiers Media S.A., 2021. T. 12. C. 622309.

10. Gul N. и др. Identification of salt-resilient cotton genotypes using integrated morpho-physiological and biochemical markers at the seedling stage // Sci. Rep. Nature Research, 2025. T. 15, № 1. C. 1–14.

11. An M. и др. Salt tolerance evaluation and key salt-tolerant traits at germination stage of upland cotton // Front. Plant Sci. Frontiers Media SA, 2024. T. 15. C. 1489380.

12. M. Pallavi и др. Multi trait genotype- ideotype distance index (MGIDI) for early seedling vigour and yield related traits to identify elite lines in rice (Oryza sativa L.) // Electronic Journal of Plant Breeding. 2025. T. 15, № 1. C. 120–131.

13. Anwar Z., Ditta A., Riaz Khan M. K. Multivariate screening of upland cotton genotypes reveals key traits for salt tolerance at the seedling stage // BMC Plant Biol. 2025. T. 25, № 1. C. 1448.

УДК 581.14.006

ОНТОГЕНЕЗ *COLCHICUM AUTUMNALE* В УСЛОВИЯХ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Т. Рахимова, д.б.н., проф., Институт ботаники АН РУз, Ташкент
Х.Я. Азизов, старший преподаватель, Национальный Университет Узбекистана, Ташкент

Annotatsiya. *Maqolada ilk bor Respublikamiz florasida uchramaydigan O'zMU botanika bog'i sharoitida introduksiya qilinayotgan 8-9 yoshli Colchicum autumnale ning ontogenez davr va bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. O'simlik ontogenezining ning latent, virginil va generativ davrlari yoritilgan. Introduksiya sharoitida o'simlik ikkinchi va uchinchi yilidan boshlab to'qqiz yilgacha ko'sak meva hosil qilganligi kuzatilgan. Introduksiya muvaffaqiyatli kechayotganligi sababli, dorivor va manzarali hisoblangan ushbu turni obodonlashtirishda va farmsanoatga tavsiya etish mumkinligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Toshkent, O'zMU botanika bog'i, Colchicum autumnale, introduksiya, o'sish va rivojlanish, ontogenez, latent, virginil, generativ, ko'sak, meva.*

Аннотация. *В статье впервые представлены сведения о периодах и этапах онтогенеза 8–9-летних растений Colchicum autumnale, не встречающихся в естественной флоре нашей Республики и интродуцируемых в условиях ботанического сада Национального университета Узбекистана. Рассмотрены латентный, виргинильный и генеративный периоды онтогенеза растения. Установлено, что в условиях интродукции растение, начиная со второго-третьего года вегетации и до девятилетнего возраста, ежегодно формирует коробочку – плод. Показано, что интродукция данного вида проходит успешно, в связи с чем его, как лекарственное и декоративное растение, можно рекомендовать для использования в озеленении и фармацевтической промышленности.*

Ключевые слова: *Ташкент, ботанический сад Национального университета Узбекистана, Colchicum autumnale, интродукция, рост и развитие, онтогенез, латентный, виргинильный, генеративный, коробочка, плод.*

Abstract. *This article presents, for the first time, data on the periods and stages of the ontogeny of 8–9-year-old Colchicum autumnale plants introduced into the Botanical Garden of the National University of Uzbekistan, a species absent from the natural flora of the Republic of Uzbekistan. The latent, virginal, and generative periods of the plant's ontogeny are described. Under introduction conditions, the plants were found to produce capsule fruits annually from the second or third year of vegetation up to the age of nine years. The successful introduction of this species indicates its potential for use as both a medicinal and ornamental plant and supports its recommendation for landscaping and the pharmaceutical industry.*

Keywords: *Tashkent, Botanical Garden of the National University of Uzbekistan, Colchicum autumnale, introduction, growth and development, ontogeny, latent period, virginal period, generative period, capsule, fruit.*

Одним из важнейших направлений интродукционных исследований является изучение особенностей онтогенеза растений в новых экологических условиях. Анализ возрастного развития позволяет определить продолжительность отдельных периодов и этапов онтогенеза, сроки перехода к генеративному состоянию, особенности роста и репродуктивной способности интродуцированных растений. Эти сведения необходимы для оценки адаптационного потенциала вида, разработки эффективных методов его культивирования и рационального использования в озеленении, лекарственном растениеводстве и сохранении биоразнообразия.

Несмотря на широкое применение *Colchicum autumnale* в медицине и декоративном садоводстве, сведения об особенностях его онтогенеза в условиях интродукции в Узбекистане практически отсутствуют. Исследования возрастного развития данного вида в условиях ботанического сада Национального университета Узбекистана позволят оценить степень его адаптации к местным экологическим условиям и определить перспективы дальнейшего использования растения в озеленении, фармацевтической промышленности и сохранении коллекционных фондов интродуцированных растений.

В странах СНГ, а также в почвенно-климатических условиях Республики Узбекистан проводятся научные исследования клубнелуковичных геофитов. Так, А.М. Гнатюк [1] на территории Украины подробно изучил онтогенез *Colchicum fominii*, выделив четыре периода развития (латентный, виргинильный, генеративный и сенильный) и стадии проростка, ювенильную, имматурную, виргинильную, а также генеративные стадии g_1, g_2 и g_3. Е.И. Найденова и Н.В. Оспищева [2] исследовали онтоморфогенез *Colchicum autumnale* в условиях Среднего Поволжья России, выделив четыре периода онтогенеза. Л.Л. Седельникова [3] в Центральном Сибирском ботаническом саду изучила особенности генеративного периода онтогенеза *Gladiolus byzantinus* и *Colchicum autumnale*.

В Узбекистане исследования луковичных геофитов также получили развитие. А.В. Махмудов [4] изучил онтогенез трех видов рода *Crocus* (*Crocus sativus, C. alatavicus, C. korolkovii*) в условиях Ташкента и Ферганской долины. А.С. Абдураимов [5] исследовал онтогенез четырех видов рода *Tulipa* (*Tulipa sogdiana, T. buhseana, T. lehmanniana, T. borszczowii*), произрастающих в пустыне Кызылкум, вплоть до сенильного периода развития. Исследования индивидуального развития *Colchicum autumnale*, включая особенности его роста и развития в онтогенезе в климатических условиях города Ташкента, до настоящего времени не проводились.

Онтогенез *Colchicum autumnale* изучали на основе развития клубнелуковицы, поскольку именно в ней закладываются зачатки всех органов будущего растения. Клубнелуковица представляет собой видоизмененный побег, в котором в период покоя формируются зачатки листьев и цветочной почки, накапливаются запасные питательные вещества, необходимые для последующего роста и развития, а также происходит процесс смены клубнелуковиц: материнская клубнелуковица постепенно отмирает, а на ее месте формируются новые.

Ниже представлены характеристика периодов и этапов онтогенеза *Colchicum autumnale* в условиях интродукции города Ташкента.

Латентный период. Семена *Colchicum autumnale* шаровидной формы, мелкие, темно-коричневой окраски, многочисленные; масса 1000 семян составляет 18-19 г. Согласно литературным данным, диаметр семян равен около 2,5 мм, тогда как в условиях нашего исследования он составлял 3-4 мм. Плод представляет собой яйцевидную, ромбовидную или овально-эллипсоидную трехгнездную коробочку.

Длина коробочки составляет 2,5-3,5 см, ширина – 1,5-3,0 см. В каждой коробочке формируется от 20 до 45 семян. На начальных этапах развития коробочки имеют зеленую окраску, а по мере созревания приобретают беловатую или светло-коричневую окраску (рис. 1).

Рис.1. Семена и коробочки *Colchicum autumnale*

Проращивание семян в лабораторных условиях сопровождалось определенными трудностями. Поскольку семенное размножение требует значительных затрат времени и создания специальных условий, особенности онтогенеза изучали преимущественно на основе динамики роста и развития клубнелуковиц, формирующихся в результате вегетативного размножения.

По данным Л.Л. Седельниковой [3], в условиях Западной Сибири растения, выращенные из семян, зацветают лишь через 6–7 лет после посева в открытый грунт. Для успешного прорастания семена рекомендуется собирать в фазе молочной спелости и подвергать длительной естественной стратификации в течение 7–8 месяцев. В связи с этим размножение *Colchicum autumnale* клубнелуковицами является наиболее эффективным и предпочтительным способом.

Виргинильный период. Виргинильный период развития *Colchicum autumnale* включает стадии проростка, ювенильную, имматурную и виргинильную.

Стадия проростка. Клубнелуковицы *Colchicum autumnale* были высажены на опытном участке во второй половине августа 2017 года на глубину 10–12 см. На момент посадки температура воздуха составляла 34,7 °C, относительная влажность воздуха – 28 %. Вегетация началась 9–10 сентября: над поверхностью почвы появился растущий побег, а через 5–6 дней на его верхушке начали формироваться листочки околоцветника.

а **б**

Рис.2. Ювенильная (а) и имматурная (б) этапы развития *Colchicum autumnale*

Ювенильная стадия. В первый год вегетации, 18 февраля, у растения сформировался один цилиндрический лист длиной 5–6 см. К этому времени длина клубнелуковицы составляла 2,0–2,5 см, ширина – 1,5–2,0 см. Температура воздуха в период наблюдений находилась в пределах 10–13 °C, относительная влажность воздуха составляла 80–85 %, а освещенность – 1000–1200 лк. Клубнелуковица была покрыта плотной темно-коричневой наружной оболочкой. На данной стадии формировалось 10–13 тонких корней длиной 0,6–2,0

см. Клубнелуковица располагалась в почве на глубине 8–10 см и имела различную форму – округлую или яйцевидную (рис. 2).

Ювенильный этап (*j*). Продолжительность данного онтогенетического состояния является очень короткой и составляет 10–12 дней.

Имматурный этап (*im*). На данной стадии в первый год жизни продолжается рост листьев. Листья приобретают ланцетную форму, их длина составляет 6–7 см, ширина – 1,0–1,5 см. Количество корней увеличивается до 10–15. Клубнелуковица постепенно заглубляется в почву до 12–15 см, достигая длины 2,0–2,5 см и ширины 1,5–2,0 см. В этот период температура воздуха составляла 12–13 °C, относительная влажность воздуха – 70–75 %, а освещенность – 1200–1300 лк. Поскольку продолжительность ювенильной и имматурной стадий была практически одинаковой, заметных морфологических изменений клубнелуковицы не наблюдалось. Продолжительность имматурной стадии, в зависимости от погодных условий, составляла 10–15 дней (рис. 2).

Виргинильный этап (*v*). На первом году жизни на этой стадии количество листьев увеличивается до 5–6. Их длина достигает 15–20 см, ширина – 3–4 см. Число корней возрастает до 15–20 (рис. 3). В период наблюдений температура воздуха составляла 14–15 °C, относительная влажность воздуха – около 60 %, а освещенность – 1500–2000 лк.

На втором и третьем годах развития растения *Colchicum autumnale* находились в **молодом генеративном состоянии (g_1).** У двухлетних растений на одной клубнелуковице формировалось 1–2 цветка, а у трехлетних клубнелуковиц наблюдалось образование двух цветков. Количество листьев составляло 3–4, их длина – 15–25 см, ширина – 10–12 см. В период наблюдений температура воздуха составляла 17–18 °C, относительная влажность воздуха – 55–60 %, освещенность – 2000–2200 лк. Высота надземной части растения достигала 14–18 см. Формировалась одна коробочка. Размеры клубнелуковиц у трехлетних растений варьировали: длина составляла 3–4,5 см, диаметр – 3–3,5 см. Клубнелуковицы были покрыты плотной темно-коричневой оболочкой и располагались на глубине 15–20 см в почве. Количество корней составляло 10–25, их длина варьировала от 0,3 до 2,0 см. Продолжительность молодого генеративного состояния *Colchicum autumnale* в зависимости от климатических условий составляет 1–3 года.

а **б**

Рис.3. Виргинильное (а) и средневозрастное генеративное состояние (б) *Colchicum autumnale* (2025 г.)

Средневозрастное генеративное состояние (g_2). Данный этап характеризуется максимальным развитием растения *Colchicum autumnale*. Высота надземной части достигала 20–25 см. Начиная с четвертого года жизни (2021 г.) и до восьмого года (2025 г.) растения находились в средневозрастном генеративном состоянии. Ежегодно растения цвели и формировали коробочки. Количество листьев на одном растении составляло 4–12, их длина – 20–35 см, ширина – 10–14 см. Клубнелуковицы значительно увеличивались в размерах. На каждой клубнелуковице формировалось 1–2 цветочные трубки длиной 12–14 см, каждая из которых несла по 4 цветка. Количество коробочек составляло 1–2. Размеры клубнелуковиц

увеличились до 4,5–6×3,5–5 см. Они были покрыты значительным количеством темно-коричневых покровных чешуй и располагались на глубине 18–22 см в почве (рис. 3).

Количество корней было многочисленным и составляло 30–40, их длина варьировала от 0,3 до 2,0 см. Девятилетнее растение в 2026 году сформировал плод-коробочку, что свидетельствует о продолжающемся средневозрастном генеративном периоде.

По данным Л.Л. Седельниковой [3], в условиях интродукции Центрального Сибирского ботанического сада *Gladiolus byzantinus* с пятого года вегетации переходит в генеративный период онтогенеза, при этом в течение 10-летнего жизненного цикла растения не достигали сенильного периода. В условиях города Ташкента также до настоящего времени переход растений в сенильное состояние не наблюдался. В сенильный период начинается постепенное разрушение и отмирание подземной клубнелуковицы.

Таким образом, в результате проведенных исследований, успешное прохождение всех основных этапов онтогенеза и стабильное плодоношение *Colchicum autumnale* в условиях Ташкента подтверждают перспективность его дальнейшей интродукции. Вид может быть рекомендован для использования в декоративном озеленении, создания коллекционных фондов ботанических садов, а также в качестве перспективного лекарственного растения для фармацевтического направления.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гнатюк А.М. Фитоценотические особенности *Colchicum fominii* Bordz. // Интродукция растений, 2008. – №1. – С. 44-50.

2. Найденова Е.И., Оспищева Н.В. Морфобиологические особенности вида *Colchicum autumnale* L. при интродукции на юге Среднерусской возвышенности //Исследования в области естественных наук. №6. 2015. [Электронный ресурс].

3. Седельникова Л.Л. Биологические закономерности развития луковичных и клубнелуковичных геофитов при интродукции в лесостепную зону Западной Сибири //Автореф. дисс. … канд. биол. наук. – Новосибирск, 2004. – 32 с.

4. Махмудов А.В. Биоэкологические особенности видов рода *Crocus* L. и интродукция в условиях Узбекистана: автореф. дисс. ... на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по биологическим наукам. – Ташкент, 2017. – 48 с.

5. Абдураимов О.С. Биологические особенности и состояние ценопопуляций видов рода *Tulipa* L. в Кызылкуме: автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по биологическим наукам. – Ташкент, 2017. – 43 с.

УЎК 57.049

МОДЕЛЛИ ТУЗЛИ СТРЕССНИНГ ГЕНЛАР ЭКСПРЕССИЯСИ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИРИ

Д.И. Тожибоева, кич.и.х., ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
В.С. Камбурова, б.ф.д., илмий ишлар бўйича директор ўринбосари, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
И.Б. Салахутдинов, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
Н.Р. Рахматова, б.ф.н., лаборатория мудири, ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
Ф.С. Ражапов, кат.и.х., ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
Д.А. Мирзабаев, кич.и.х., ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент
Е.Ф. Назарова, кич.и.х., ЎзР ФА Геномика ва Биоинформатика Маркази, Тошкент

Аннотация. *Тупроқ шўрланиши ғўза ўсимлигининг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигини сезиларли даражада чеклайдиган энг кенг тарқалган абиотик стресс омилларидан бири ҳисобланади, айниқса арид ва суғориладиган ҳудудларда. Мазкур тадқиқотнинг мақсади Ишонч, Равнақ-1 ва Порлок-1 ғўза генотипларининг моделли тузли стресс таъсирига молекуляр жавобини қиёсий баҳолашдан иборат бўлди. Ўсимликлар назорат қилинадиган шароитларда етиштирилиб, 50 ва 150 мМ концентрациядаги NaCl эритмалари билан ишлов берилди. qRT-PCR усули ёрдамида гормонал регуляция,*

антиоксидант ҳимоя, осморегуляция ва углевод алмашинувида иштирок этувчи генларнинг экспрессия даражаси ўрганилди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, тузга сезгир Ишонч генотипида шўрланиш даражасининг ортиши ўрганилган генларнинг транскрипцион фаоллиги пасайиши билан кузатилди. Аксинча, Равнақ-1 ва айниқса Порлок-1 генотипларида стрессга жавоб берувчи транскриптларнинг сезиларли индукцияси аниқланди ҳамда уларнинг энг юқори қийматлари ўртача ёки кучли шўрланиш шароитида қайд этилди. Кўп ўлчамли статистик таҳлил генотипларни умумий ген экспрессияси профили бўйича аниқ ажратиш имконини берди. Энг юқори адаптацион салоҳият Порлок-1 генотипида кузатилди. Олинган натижалар ғўзада тузга чидамлиликнинг мураккаб молекуляр табиатга эга эканлигини кўрсатади ва тузга чидамли янги навларни яратишга қаратилган селекция дастурларида қўлланилиши мумкин.

4. Paradowska E, Jabłońska A, Studzińska M, Skowrońska K, Suski P, Wiśniewska-Ligier M, Woźniakowska-Gęsicka T, Nowakowska D, Gaj Z, Wilczyński J, Leśnikowski ZJ. TLR9 −1486T/C and 2848C/T SNPs are associated with human cytomegalovirus infection in infants. PLoS One. 2016;11(4):e0154100. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0154100

5. Carrión-Nessi FS, Salazar-Alcalá E, Forero-Peña DA, Curiel KA, Lopez-Perez M, Fernández-Mestre M. TLR9 gene polymorphism −1237T/C (rs5743836) is associated with low IgG antibody response against PvCSP variants in symptomatic Plasmodium vivax infections in Venezuela. PLoS Negl Trop Dis.
2025;19(6):e0013262. https://doi.org/10.1371/journal.pntd.0013262

6. Jabłońska A, Studzińska M, Szenborn L, Wiśniewska-Ligier M, Karlikowska-Skwarnik M, Gęsicki T, Paradowska E. TLR4 896A/G and TLR9 1174G/A polymorphisms are associated with the risk of infectious mononucleosis. Sci Rep. 2020;10(1):13154. https://doi.org/10.1038/s41598-020-70129-4

7. Pandey NO, Chauhan AV, Raithatha NS, Patel PK, Khandelwal R, Desai AN, Choxi Y, Kapadia RS, Jain ND. Association of TLR4 and TLR9 polymorphisms and haplotypes with cervical cancer susceptibility. Sci Rep. 2019;9(1):9729. https://doi.org/10.1038/s41598-019-46077-z [Author Correction: Sci Rep. 2019;9(1):18658. https://doi.org/10.1038/s41598-019-55122-w]

8. Mendez K, Rosario-Santos A, Martínez-Ferrer M, Pérez-Rios N, Rivera-Torres AO, Romaguera J, Godoy-Vitorino F. Association of TLR-4 and TLR-9 polymorphisms with HPV infection and cervical dysplasia in Hispanic women. Cancers (Basel). 2025;17(23):3795. https://doi.org/10.3390/cancers17233795

9. Martínez-Campos C, Bahena-Román M, Torres-Poveda K, Burguete-García AI, Madrid-Marina V. TLR9 gene polymorphism −1486T/C (rs187084) is associated with uterine cervical neoplasm in Mexican female population. J Cancer Res Clin Oncol. 2017;143(12):2437–2445. https://doi.org/10.1007/s00432-017-2495-2

10. Tian S, Zhang L, Yang T, Wei X, Zhang L, Yu Y, Li Y, Cao D, Yang X. The associations between Toll-like receptor 9 gene polymorphisms and cervical cancer susceptibility. Mediators Inflamm. 2018;2018:9127146. https://doi.org/10.1155/2018/9127146

11. Chauhan A, Pandey N, Desai A, Raithatha N, Patel P, Choxi Y, Kapadia R, Khandelwal R, Jain N. Association of TLR4 and TLR9 gene polymorphisms and haplotypes with cervicitis susceptibility. PLoS One.
2019;14(7):e0220330. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0220330

12. Wang X, Xue L, Yang Y, Xu L, Zhang G. TLR9 promoter polymorphism is associated with both an increased susceptibility to gastric carcinoma and poor prognosis. PLoS One. 2013;8(6):e65731. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0065731

13. Miller SA, Dykes DD, Polesky HF. A simple salting out procedure for extracting DNA from human nucleated cells. Nucleic Acids Res. 1988;16(3):1215. https://doi.org/10.1093/nar/16.3.1215

14. Wigginton JE, Cutler DJ, Abecasis GR. A note on exact tests of Hardy-Weinberg equilibrium. Am J Hum Genet. 2005;76(5):887–893. https://doi.org/10.1086/429864

UO'K: 618.146-006:578.827.1-07-08

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA DAVOLASHNING XUSUSIYATLARI VA HOMILADORLIK BILAN BOG'LIQ XAVFLAR

X.R.Saparbayeva, magistrant, Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch
K.A.Jumaniyazov, katta o'qituvchi, tib.f.n., Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarda turli kasalliklarni davolashning o'ziga xos jihatlari va dori vositalarining homiladorlik jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida homiladorlikni rejalashtirish davridagi terapevtik yondashuvlar, farmakologik preparatlarning homila rivojlanishiga ehtimoliy xavflari (teratogen ta'sir) va ona salomatligini saqlashning zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada surunkali kasalliklar bilan og'rigan ayollarda homiladorlikni xavfsiz olib borish va asoratlarning oldini olishga qaratilgan klinik tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Reproduktiv salomatlik, homiladorlik xavfi, farmakoterapiya, teratogenlik, ona va bola salomatligi, asoratlar profilaktikasi, akusherlik va ginekologiya, surunkali kasalliklar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются особенности лечения заболеваний у женщин репродуктивного возраста и влияние лекарственных препаратов на течение беременности. В ходе исследования рассматриваются терапевтические подходы в период планирования беременности, потенциальные риски фармакологических препаратов для развития плода (тератогенное воздействие) и современные методы сохранения здоровья матери. Также в статье изложены клинические рекомендации по безопасному ведению беременности у женщин с хроническими заболеваниями и профилактике возможных осложнений.*

Ключевые слова: *Репродуктивное здоровье, риски беременности, фармакотерапия, тератогенность, здоровье матери и ребенка, профилактика осложнений, акушерство и гинекология, хронические заболевания.*

Abstract. *This article analyzes the specific characteristics of treating diseases in women of reproductive age and the impact of pharmacological interventions on the course of pregnancy. The study examines therapeutic approaches during the pregnancy planning stage, the potential risks of drugs on fetal development (teratogenic effects), and modern methods for maintaining maternal health. Furthermore, the article outlines clinical guidelines for the safe management of pregnancy in women with chronic conditions and the prevention of associated complications.*

Keywords: *Reproductive health, pregnancy risks, pharmacotherapy, teratogenicity, maternal and child health, prevention of complications, obstetrics and gynecology, chronic diseases.*

Kirish. Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligi jamiyatning demografik ko'rsatkichlari va kelajak avlod genofondini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda ushbu guruhdagi ayollarda uchraydigan surunkali va o'tkir kasalliklarni davolash zamonaviy tibbiyot oldida turgan murakkab vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi, qo'llanilayotgan dori vositalari va muolajalarning nafaqat ayol organizmiga, balki uning reproduktiv funksiyasiga hamda kutilayotgan homila rivojlanishiga ta'siridir. Homiladorlik davrida yuzaga keladigan fiziologik o'zgarishlar dori vositalarining farmakokinetikasini o'zgartirib, davolash jarayonini yanada murakkablashtiradi. Shu sababli, davolashning samarali va xavfsiz usullarini tanlash, homiladorlik bilan bog'liq xavflarni erta aniqlash va ularni minimallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligi va farmakoterapiya masalasi bo'yicha jahon miqyosidagi tadqiqotlar asosan uchta yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, dori vositalarining teratogenligi masalasi markaziy o'rinda turadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, homilador ayollarning taxminan 60-90 foizi homiladorlik davrida kamida bitta dori vositasini qabul qiladi. Briggs (2021) o'zining ko'p yillik kuzatuvlarida ko'plab preparatlar uchun "xavfsizlik oynasi" hali ham noaniq ekanligini ta'kidlaydi.

Ikkinchidan, farmakokinetik o'zgarishlar davolash samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Smith va boshqalar (2022) tadqiqotlariga ko'ra, homiladorlik davridagi fiziologik o'zgarishlar dori

vositalarining terapevtik konsentratsiyasini keskin o‘zgartirib, standart dozalash rejimlarining samarasizligiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, surunkali patologiyalarni boshqarishda (Ivanova E.P., 2023) epilepsiya yoki qandli diabeti bor ayollarda davolashni to‘xtatish homila uchun dori ta’siridan ko‘ra xavfliroq ekanligi isbotlangan. O‘zbekistonlik olimlarning izlanishlarida esa mintaqaviy xususiyatlar, xususan, anemiya va endokrin buzilishlar fonida kechadigan homiladorlik masalalari yaxshi yoritilgan, biroq polipragmaziya asoratlari bo‘yicha kompleks tahlillar hamon dolzarbdir.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi ilmiy xolislik va dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM) tamoyillariga qurilgan. Tadqiqot retrospektiv va analitik xarakterga ega bo‘lib, ob’ekt sifatida 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan ayollar guruhi tanlab olindi. Ma’lumotlarni yig‘ishda PubMed, Scopus va Google Scholar bazalaridan so‘nggi 10 yillik ilmiy ishlar saralandi. Dori vositalarining xavflilik darajasi FDA (Food and Drug Administration) tasnifi bo‘yicha guruhlandi.

Tanlov mezonlariga reproduktiv yoshdagi, tizimli davolashni talab qiluvchi kasalligi bor ayollar kiritildi, genetik anomaliyalari mavjud holatlar esa istisno qilindi. Olingan natijalar Microsoft Excel 2021 va SPSS Statistics dasturlari yordamida statistik tahlil qilindi. Tadqiqot davomida bemorlarning maxfiyligi va Xelsinki deklaratsiyasi talablariga qat’iy rioya qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv yoshdagi ayollarda kasalliklarni davolashda dori vositalarini tanlash bevosita homiladorlikning rejalashtirilganligi va homila rivojlanish bosqichlariga bog‘liq.

1. Dori vositalarining xavflilik guruhlari bo‘yicha tahlili. Tahlil jarayonida dori vositalari FDA (AQSh oziq-ovqat va dori vositalari boshqarmasi) tasnifi bo‘yicha guruhlarga ajratildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p hollarda ayollar homiladorlikni bilmagan holda "C" va "D" guruhiga kiruvchi preparatlarni qabul qilishgan.

1-jadval.

Dori vositalarining homila uchun xavflilik darajasi (FDA tasnifi bo‘yicha)

Xavf guruhi	Tavsifi	Qo‘llash chastotasi, (%)	Homila uchun xavf darajasi
A guruhi	Xavfsiz, nazoratli tadqiqotlar o‘tkazilgan	15%	Minimal/Mavjud emas
B guruhi	Hayvonlarda xavfsiz, odamlarda yetarli tadqiqot yo‘q	35%	Past xavf
C guruhi	Teratogen ta’sir ehtimoli bor, foyda xavfdan ustun bo‘lganda	40%	O‘rtacha xavf
D guruhi	Homila uchun xavf isbotlangan, hayotiy ko‘rsatma bo‘lganda	8%	Yuqori xavf
X guruhi	Mutlaqo mumkin emas, homilada nuqson keltirib chiqaradi	2%	Kritik xavf

2. Homiladorlik davrida patologik holatlarning uchrash darajasi. Reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, davolash muolajalarini talab qiluvchi eng ko‘p uchraydigan holatlar anemiya, siydik yo‘llari infeksiyalari va endokrin buzilishlardir.

2-jadval.

Ayollarda uchraydigan asosiy patologiyalar va davolash natijalari

Kasallik turi	Tarqalishi (%)	Asosiy xavf omili	Davolash samaradorligi
Temir tanqisligi anemiyasi	45%	Homila gipoksiyasi	92% (yuqori)
Siydik yo‘llari infeksiyalari	25%	Muddatidan oldin tug‘ruq	88% (yaxshi)
Arterial gipertenziya	12%	Preeklampsiya xavfi	75% (o‘rtacha)
Qandli diabet (gestatsion)	10%	Makrosomiya, fetopatiya	80% (yaxshi)

3. Farmakoterapevtik xatolar va asoratlar tahlili. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, dori vositalarini noto‘g‘ri qo‘llash yoki dozani noto‘g‘ri belgilash natijasida yuzaga keladigan asoratlar asosan homiladorlikning birinchi trimestriga (organogenez davriga) to‘g‘ri keladi.

Birinchi trimestr (0-12 hafta): Eng yuqori teratogen xavf davri. Bu davrda "X" va "D" guruhidagi dori vositalarini qabul qilish 65% holatlarda rivojlanish nuqsonlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi va uchinchi trimestr: Bu davrda dori vositalari asosan homilaning o‘sishiga va a’zolarning funksional holatiga (masalan, nefrotoksik yoki gematotoksik ta’sir) ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv yoshdagi ayollarda davolash samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

1. Dori vositalarini tayinlashda „foyda-xavf'' muvozanatini qat'iy baholash.
2. Reproduktiv yoshdagi ayollarga har qanday kuchli ta'sir qiluvchi dori tayinlashdan oldin homiladorlik testini o'tkazishni standartlashtirish.
3. Surunkali kasalligi bor ayollarda homiladorlikdan 3-6 oy oldin pregradivar tayyorgarlikni (dori dozalarini korreksiya qilishni) amalga oshirish.

Xulosa. Olingan natijalar reproduktiv yoshdagi ayollarda har qanday terapevtik muolajadan oldin homiladorlik ehtimolini hisobga olish va pregradivar tayyorgarlikni (homiladorlikdan 3-6 oy oldin davolashni korreksiya qilish) standartlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu ona va bola salomatligini saqlashda dori vositalarining salbiy ta'sirini minimallashtirishning eng samarali yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Briggs, G. G., & Freeman, R. K. (2021). Drugs in Pregnancy and Lactation: A Reference Guide to Fetal and Neonatal Risk. 12th Edition. Lippincott Williams & Wilkins. (Homiladorlikda dori vositalari xavfi bo'yicha dunyodagi eng asosiy qo'llanma).

2. Schaefer, C., Peters, P., & Miller, R. K. (2022). Drugs During Pregnancy and Lactation: Treatment Options and Risk Assessment. Academic Press. (Teratogen ta'sirlar va davolash usullari tahlili).

3. World Health Organization (2023). Maternal Health and Safe Motherhood: Guidelines for Reproductive Age Women. Geneva: WHO. (JSSTning reproduktiv salomatlik bo'yicha klinik tavsiyalari).

4. Ivanova, E. P., & Sidorova, I. S. (2023). Особенности фармакотерапии у беременных с экстрагенитальными заболеваниями. Москва: ГЭОТАР-Медиа. (Surunkali kasalliklari bor homiladorlarni davolashning o'ziga xos xususiyatlari).

5. Smith, A. J., & Taylor, L. (2022). „Pharmacokinetics and Pharmacodynamics in Pregnancy''. Journal of Clinical Pharmacology, 62(4), 455-468. (Homiladorlik davridagi farmakokinetik o'zgarishlar tadqiqoti).

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2024). Akusherlik va ginekologiya bo'yicha klinik protokollar to'plami. Toshkent. (Mahalliy davolash standartlari va xavf guruhlari).

UO'K 612.17:612.766.1-057.87

YURAK-QON TOMIR TIZIMINING FUNKSIONAL HOLATINI TALABA YOSHLARNING JISMONIY FAOLLIK DARAJASIGA BOG'LIQLIGI TAHLILI

M.S.Usmonova, dots., Qo`qon davlat universiteti, Qo`qon
M.M.Ahmedova, o`qituvchi, Qo`qon davlat universiteti, Qo`qon

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida Qo'qon shahrining o'ziga xos ekologik-iqlimiy sharoitida tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi talabalarining kardiorespirator tizimi funksional ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ilmiy izlanish davomida muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi hamda gipodinamiya (faollik pastligi) holatida bo'lgan talabalarning gemodinamik adaptatsiya imkoniyatlari qiyosiy-fiziologik jihatdan baholandi. Olingan empirik natijalar gipodinamiya kuzatilgan guruhda miokardning funksional zaxira quvvati sezilarli darajada pastligini hamda yuklamadan keyingi tiklanish (restitutsiya) jarayonlarining sust kechishini ko'rsatdi. Kerdo vegetativ indeksi hamda Starr formulasi interpretatsiyasi asosida kam harakat talabalar organizmida vegetativ boshqaruvning gomeostatik muvozanati simpatik nerv tizimi tonusi tomoniga siljiganligi isbotlandi.*

Kalit so'zlar: *Kardiorespirator tizim, gemodinamik adaptatsiya, ekologik-fiziologik sharoit, gipodinamiya, talabalar fiziologiyasi, Kerdo vegetativ indeksi, Starr formulasi, miokard zaxirasi, vegetativ tonus.*

Аннотация. *В данном исследовании проведен системный анализ функциональных показателей кардиореспираторной системы студентов высших учебных заведений, обучающихся в специфических эколого-климатических условиях города Коканда. В ходе научной работы были сравнительно оценены особенности гемодинамической адаптации студентов, регулярно занимающихся физической культурой и спортом, а также лиц с признаками гиподинамии. Полученные эмпирические результаты продемонстрировали, что в группе с малоподвижным образом жизни наблюдается достоверное снижение функционального резерва миокарда и замедление процессов восстановления (реституции) после физической нагрузки. На основе интерпретации вегетативного индекса Кердо и*

формулы Старра доказано, что гомеостатический баланс вегетативной регуляции у малоподвижных студентов смещен в сторону гипертонуса симпатической нервной системы.

Ключевые слова: *Кардиореспираторная система, гемодинамическая адаптация, эколого-физиологические условия, гиподинамия, физиология студентов, вегетативный индекс Кердо, формула Старра, резерв миокарда, вегетативный тонус.*

Abstract. *This research study provides a systematic analysis of the functional indicators of the cardiorespiratory system in higher education students studying under the specific ecological and climatic conditions of Kokand city. In the course of the scientific work, the characteristics of hemodynamic adaptation were comparatively evaluated between students regularly engaged in physical culture and sports and those with physical inactivity (hypodynamia). The obtained empirical results demonstrated that the group with hypodynamia exhibited a significantly lower functional reserve of the myocardium and a slower rate of recovery (restitution) processes after exertion. Based on the interpretation of the Kerdo vegetative index and Starr's formula, it was proven that the homeostatic balance of autonomic regulation in sedentary students is shifted toward the dominance of the sympathetic nervous system tone.*

Keywords: *Cardiorespiratory system, hemodynamic adaptation, eco-physiological conditions, hypodynamia, student physiology, Kerdo vegetative index, Starr's formula, myocardial reserve, vegetative tone.*

Organizmning ekzogen va endogen muhit omillariga nisbatan shakllanadigan moslashuv (adaptasiya) reaksiyalarini ta'minlashda yurak-qon tomir tizimi integrativ va indikatorlik funksiyasini bajaradi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi intensivlashuv, axborot oqimining keskin ortishi va raqamli texnologiyalarning ommalashishi talaba-yoshlar hayot tarzida harakat faolligining sezilarli darajada cheklanishiga, ya'ni surunkali gipodinamiya holatlarining rivojlanishiga olib kelmoqda [1, 4]. Xususan, biologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati nafaqat yuqori kognitiv yuklamani, balki dala-ekologik amaliyotlari hamda laboratoriya sharoitlarida jismoniy chidamlilik va funksional barqarorlikni ham talab etadi.

Farg'ona vodiysining, xususan Qo'qon shahrining o'ziga xos iqlim-geografik xususiyatlari mahalliy va boshqa hududlardan kelib tahsil olayotgan talabalar organizmiga qo'shimcha ekologik-fiziologik yuklama berishi bilan xarakterlanadi. Jismoniy faollik defisiti (gipokineziya) yurak miokardining funksional zahira imkoniyatlarini susaytirishi hamda vegetativ nerv tizimining regulyator mexanizmlarida disbalansni keltirib chiqarishi zamonaviy fundamental tibbiyot va fiziologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda [2, 7]. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak biologiya mutaxassislarining qon aylanish va kardiorespirator tizimi holatini qiyosiy-fiziologik jihatdan tadqiq etish, ularning salomatlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish va moslashuv imkoniyatlarini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy-tadqiqot ishlari Qo'qon davlat universitetining biologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 19–21 yosh oralig'idagi 40 nafar ko'ngilli talaba-yigitlar ishtirokida amalga oshirildi. Fiziologik ko'rsatkichlarni ro'yxatga olish jarayonlari sutkalik bioritmlar ta'sirini kamaytirish maqsadida kunning birinchi yarmida (soat 09:00 dan 12:00 gacha), nisbiy tinchlik holatida hamda mikroiqlim parametrlari barqaror (+22...24°C) bo'lgan laboratoriya sharoitida olib borildi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan talabalar o'zlarining kundalik jismoniy faollik darajasi va hayot tarzi xususiyatlariga ko'ra ikkita teng guruhga ajratildi:

1. Nazorat (sportchi) guruhi (n=20): Muntazam ravishda (haftada kamida 3 marta, davomiyligi 90 daqiqadan kam bo'lmagan) sport seksiyalari yoki sog'lomlashtirish mashg'ulotlari bilan shug'ullanib kelayotgan talabalar.
2. Tajriba (kam harakat) guruhi (n=20): Kundalik hayot tarzida jismoniy faollik defisiti (gipodinamiya) kuzatiladigan, asosan o'tirgan holatdagi intellektual faoliyat bilan band bo'lgan talabalar.

Tadqiqot davomida kardiogemodinamika holatini va vegetativ boshqaruv tizimini kompleks baholash uchun quyidagi zamonaviy fiziologik, antropometrik va matematik-hisoblash metodlaridan foydalanildi:

1. Sentral gemodinamik ko'rsatkichlarni aniqlash. Tekshiriluvchilarning tinch holatdagi yurak urish tezligi (YUUT) palpator usulda, sistolik (SAB) va diastolik (DAB) arterial qon bosimi ko'rsatkichlari esa Korotkov tovushlarini eshitish (Riva-Rochchi prinsipi) asosida standart tonometr yordamida aniqlandi. Puls bosimi (PB) SAB va DAB qiymatlari o'rtasidagi farq sifatida hisoblandi.

2. Kerdo vegetativ indeksi (VI). Organizmning vegetativ gomeostazi va yurak-qon tomir tizimi faoliyatining regulyator mexanizmlarini (simpatik va parasimpatik nerv tizimi tonusi balansini) baholash maqsadida I.Kerdo formulasi qo'llanildi:

$$VI = \left(1 - \frac{DAB}{YUT}\right) \times 100$$

Ushbu indeksning matematik qiymatlari quyidagicha interpretasiya qilindi:

- VI > 0 bo'lganda — vegetativ boshqaruvda simpatik nerv tizimi faolligining ustunligi (simpatikotoniya);
- VI < 0 bo'lganda — parasimpatik nerv tizimi ta'sirining yuqoriligi (vagotoniya);
- VI = 0 bo'lganda — ikkala tizim o'rtasidagi funksional muvozanat (eytoniya).

3. Starr formulasi bo'yicha yurakning urish hajmini aniqlash.

Miokardning qisqaruvchanlik qobiliyati va birgina sistola davomida arterial tizimga haydaladigan qon miqdorini, ya'ni yurakning urish hajmini (YUUH, ml) hisoblashda Starrning matematik modelidan foydalanildi:

YUH=90.97+(0.54 x PB)-(0.48 x DAB)-(0.57 x yosh)

4. Statistik tahlil metodlari. Olingan empirik ma'lumotlar variasion statistika usullari yordamida, Microsoft excel va STATISTICA dasturiy paketlari bazasida qayta ishlandi. Ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati (M) va standart xatosi (m) aniqlandi. Guruhlararo farqlarning ishonchlilik darajasi Styudentning t-kriteriyi yordamida baholandi. Statistik farqlar $P < 0.05$ bo'lganda ahamiyatli (ishonchli) deb qabul qilindi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida muntazam jismoniy faollik darajasi talaba-yoshlarning kardiogemodinamik ko'rsatkichlari va vegetativ gomeostaziga sezilarli va statistik jihatdan ishonchli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot (kam harakat) va nazorat (sportchi) guruhlari o'rtasidagi o'rganilgan funksional parametrlarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda batafsil aks ettirilgan.

1-jadval.

Turli jismoniy faollik darajasiga ega bo'lgan talabalarning markaziy gemodinamik ko'rsatkichlari (M ±m)

Funksional ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (Sportchilar, n=20)	Tajriba guruhi (Kam harakat, n=20)	Ishonchlilik darajasi (P)
Yurak urish tezligi (YUUT, urish/daq)	65.4 ± 1.2	79.8 ±2.4	P < 0.05
Sistolik arterial bosim (SAB, mm sim. ust.)	116.2 ±2.1	124.5 ±3.2	P < 0.
Diastolik arterial bosim (DAB, mm sim. ust.)	72.4 ±1.5	81.2 ±1.8	P < 0.05
Kerdo vegetativ indeksi (VI, shartli birlik)	-2.1 ±0.4	+11.8 ±1.2	P < 0.01
Yurakning urish hajmi (YUUH, ml)	72.8 ±2.5	61.4 ±2.1	P < 0.05

Empirik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi talabalarda nisbiy tinchlik holatida YUUT ko'rsatkichi sezilarli darajada past bo'lib, fiziologik bradikardiya holatiga yaqinlashadi. Bu fenomen jismoniy mashqlar ta'sirida miokardning gipertrofiyalanishi va chap qorinchaning funksional sig'imi kengayishi hisobiga yurak faoliyatining tejamkorlik (iqtisodiy) rejimiga o'tganligidan dalolat beradi. Aksincha, gipodinamiya sharoitida bo'lgan talabalarda YUUT qiymatining yuqoriligi (79.8 ±2.4) urish/daq) kardiorespirator tizimning energiya sarfi ko'pligini va miokardning surunkali yuklama bilan ishlayotganini ko'rsatadi.

Kerdo vegetativ indeksining (VI) qiyosiy interpretasiyasi kam harakat talabalarda ushbu ko'rsatkichning ijobiy (musbat) qiymatga (+11.8 ±1.2) ega bo'lishini asoslab berdi. Mazkur holat organizmda simpato-adrenal tizimi faolligining ustunligini, ya'ni simpatikotoniya rivojlanganligini anglatadi va bu regulyator mexanizmlardagi funksional nomutanosiblik belgisi hisoblanadi. Sportchi talabalarda esa VI ko'rsatkichining manfiy qiymatga ega bo'lishi (-2.1 ± 0.4) markaziy

gemodinamika boshqaruvida parasimpatik nerv tizimi tonusining ustunligini (vagotoniya) va kardiovaskulyar tizimning yuqori funksional zahiraga ega ekanligini tasdiqlaydi. Starr formulasi bo'yicha hisoblangan YUUH qiymatining sportchilarda yuqori bo'lishi ham mazkur fikrni fiziologik

Ilmiy-tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, kundalik jismoniy faollik darajasi kardiorespirator tizimni boshqaruvchi markaziy va vegetativ mexanizmlar o'rtasidagi gomeostatik muvozanatni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Tajriba guruhidagi gipodinamiya kuzatilgan talabalarda YUUT ko'rsatkichining yuqoriligi (79.8 $\pm$2.4 urish/daq) va Kerdo vegetativ indeksining musbat qiymati (+11.8 $\pm$1.2) ular organizmida xronotrop regulyasiyaning simpatik zanjiri surunkali ravishda faol holatda ekanligini anglatadi.

Ushbu funksional holatni fundamental fiziologiya qonuniyatlari asosida quyidagicha interpetasiya qilish mumkin: muntazam jismoniy yuklamalardan mahrum bo'lgan (gipokineziya sharoitidagi) organizmda miokardning qisqaruvchanlik qobiliyati susayadi, bu esa yurakning urish (sistolik) hajmining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Natijada, to'qima va a'zolarning metabolik ehtiyojlarini hamda ularning qon bilan (kislorodga bo'lgan talabini) ta'minlash uchun yurak kompensator ravishda o'z qisqarishlar chastotasini oshirishga, ya'ni ekstensiv ish rejimiga o'tishga majbur bo'ladi. Mazkur holat miokardning funksional zahira (rezerv) imkoniyatlarini muddatidan oldin kamayishiga va har qanday jismoniy yoki intellektual yuklamalarda tez charchash (fatig) sindromining erta namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Aksincha, sportchi talabalarda qayd etilgan fiziologik vagotoniya holati (Kerdo indeksining manfiy qiymati) kardiovaskulyar tizimning yuqori darajadagi funksional tejamkorligini (iqtisodlashuvini) ifodalaydi. Jismoniy mashqlar ta'sirida chidamlilik sifati shakllangan talabalarda miokardning tonik xususiyatlari rivojlangan bo'lib, birgina sistolik qisqarish orqali qon tomirlar havzasiga katta hajmdagi qonni (YUUH 72.8 $\pm$2.5ml) haydab berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olingan empirik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, Qo'qon shahrining o'ziga xos ekologik-iqlim sharoitida jismoniy faollik defisiti talaba-yoshlarda nafaqat umumiy somatik zaiflikni keltirib chiqaradi, balki yurak-qon tomir tizimining tashqi muhitning ekstremal omillariga nisbatan moslashuv (adaptasiya) zahiralarini keskin pasaytiradi. Bu esa, bo'lajak biologiya yo'nalishi mutaxassislari uchun kelgusidagi yuqori haroratli va dala-ekologik sharoitlardagi intensiv amaliyot jarayonlarida qo'shimcha funksional qiyinchiliklar va sog'liq bilan bog'liq xavflarni yuzaga keltirishi mumkin.

Qo'qon davlat universiteti biologiya yo'nalishi talaba-yoshlarining kardiogemodinamik va vegetativ ko'rsatkichlarini qiyosiy-fiziologik baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Gipodinamiyaning kardiogemodinamikaga salbiy ta'siri: Jismoniy faollik defisiti (gipokineziya) sharoitida bo'lgan talabalarda nisbiy tinchlik holatidagi yurak urish tezligi (YUUT) muntazam sport bilan shug'ullanuvchi tengdoshlariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu kardiovaskulyar tizimning funksional jihatdan norasional, yuqori energiya sarfi va surunkali xronotrop zoriqish rejimida faoliyat ko'rsatayotganidan dalolat beradi.
2. Vegetativ gomeostaz disbalansi: Kerdo vegetativ indeksining matematik interpretasiyasi kam harakat turmush tarzini olib boruvchi talabalar organizmida regulyator mexanizmlar muvozanati izdan chiqqanligini va ularda simpato-adrenal tizimining surunkali gipertonusi (simpatikotoniya) ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Nazorat (sportchi) guruhida esa kardiovaskulyar tizimning avtonom boshqaruvida vagotoniya fenomeni ustunlik qilib, miokardning yuqori funksional zahirasi va tejamkor ishlash mexanizmini ta'minlaydi.
3. Adaptasiya zahiralarining cheklanganligi: Starr modeli asosida hisoblangan yurakning sistolik (urish) hajmi ko'rsatkichlarining gipodinamiya kuzatilgan guruhda sezilarli darajada pastligi aniqlandi. Mazkur holat ushbu kontingentning nafaqat intensiv jismoniy va intellektual yuklamalarga, balki Qo'qon shahrining o'ziga xos ekologik-iqlim omillariga nisbatan ham kompensator-moslashuv (adaptasiya) imkoniyatlari keskin cheklanganligini ilmiy jihatdan asoslaydi.
4. Kasbiy-amaliy tavsiyalar: Bo'lajak biologiya mutaxassislarining istiqboldagi kasbiy va ilmiy faoliyati (ekspedisiyalar, dala-ekologik amaliyotlari, davomli laboratoriya sinovlari) yuqori somatik chidamlilikni talab etishini inobatga olgan holda, oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga

maqsadli sog'lomlashtirish texnologiyalarini, jumladan, tizimli jismoniy daqiqalar, mikropauzalar va sport to'garaklari faoliyatini keng integrasiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amanov B. X. Odam fiziologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 240 b.
2. Usmonov M.S. Talaba-yoshlar fiziologiyasi va valeologik asoslari: o'quv qo'llanma.–Qo'qon, 2022.–112 b.
3. Кердо И. Индекс для отсенки вегетативного тонуса, вичисляемий из данних кровообращения // Вестник офталмологии. – 1966. – № 3. – С. 33-35.
4. Qurbonov Sh. Q., Qurbonov A. Sh. Adaptatsiya fiziologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018. – 156 b.
5. Starr I. Clinical tests of the contractile function of the human heart // Annals of Internal Medicine. – 1954. – Vol. 40, No. 6. – P. 1283–1305.
6. Xusanov T. K. Sport fiziologiyasi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017. – 320 b.
7. Sodiqov Q. S. O'quvchi fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 180 b.

УДК 616.697-055.1:575.17(575.1)

КЛИНИКО-ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА AZF-МИКРОДЕЛЕЦИЙ Y-ХРОМОСОМЫ КАК ПРИЧИНА МУЖСКОГО БЕСПЛОДИЯ В ПОПУЛЯЦИИ УЗБЕКИСТАНА

З.А.Сабитова, заведующая лабораторией, СП ООО «DOCTOR D – IVF», Ташкент
ORCID: 0009-0000-2055-6063
Д.С.Иргашев, д.м.н., учредитель, директор, СП ООО "DOCTOR D - IVF", Ташкент
ORCID: 0009-0009-8216-3973
И.Якубов, к.б.н., доц., Национальный университет Узбекистана, Ташкент
ORCID: 0000-0002-7367-428X;
П.Х.Ганижонов, ассистент, Ферганский медицинский институт, Фергана
ORCID: 0009-0003-1827-8107

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonda bepushtlikka chalingan erkaklarda Y-xromosomaning AZF-lokusi (AZFa, AZFb, AZFc) mikrodelesiyalarining chastotasi, spektri va klinik ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan observatsion-analitik tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotda jami 828 nafar erkak, jumladan klinik tasdiqlangan erkaklar bepushtligi tashxisi qo'yilgan 681 nafar bemor (352 nafari nöobstruktiv azoospermiya, 274 nafari og'ir oligozoospermiya bilan) va 147 nafar fertil nazorat guruhi tekshirildi. Mikrodelesiyalar STS-markerlari yordamida real vaqt rejimidagi multipleks PZR usulida aniqlandi. 681 bemorning 95 nafarida (13,95%) AZF mikrodelesiyalari aniqlangan bo'lib, nazorat guruhida bunday delesiyalar qayd etilmadi ($\chi^2=23,16$; $p<0,001$); ustunlik qiluvchi nuqson AZFc sublokusi (9,25%) hisoblandi. 18 yosh va undan katta bemorlar orasida umumiy delesiya chastotasi 14,86% ni tashkil etib, bolalar-o'smirlar guruhidagi 3,63% ko'rsatkichdan sezilarli yuqori bo'ldi ($\chi^2=5,3$; $p=0,021$).*

Kalit so'zlar: *AZF mikrodelesiyalari, Y-xromosoma, erkaklar bepushtligi, azoospermiya, oligozoospermiya, IKSI, mikro-TEZE, molekulyar genetika, O'zbekiston.*

Аннотация. *В статье представлены результаты обсервационного аналитического исследования частоты, спектра и клинической значимости микроделеций AZF-локуса (AZFa, AZFb, AZFc) Y-хромосомы у мужчин с бесплодием в Узбекистане. Обследовано 828 мужчин, из них 681 пациент с клинически верифицированным мужским бесплодием (352 — с необструктивной азооспермией, 274 — с тяжёлой олигозооспермией) и 147 фертильных мужчин контрольной группы. Микроделеции выявлялись методом мультиплексной ПЦР в режиме реального времени со STS-маркерами. AZF-микроделеции обнаружены у 95 из 681 пациента (13,95%), тогда как в контрольной группе они отсутствовали ($\chi^2=23,16$; $p<0,001$); доминирующим дефектом являлась делеция AZFc (9,25%). Среди пациентов 18 лет и старше общая частота делеций составила 14,86% против 3,63% в детско-подростковой подгруппе ($\chi^2=5,3$; $p=0,021$).*

Ключевые слова: *AZF-микроделеции, Y-хромосома, мужское бесплодие, азооспермия, олигозооспермия, ИКСИ, микро-ТЕСЕ, молекулярная генетика, Узбекистан.*

Abstract. *This article presents the results of an observational analytical study of the frequency, spectrum and clinical significance of Y-chromosome AZF-locus (AZFa, AZFb, AZFc) microdeletions*

in men with infertility in Uzbekistan. A total of 828 men were examined, including 681 patients with clinically verified male infertility (352 with non-obstructive azoospermia, 274 with severe oligozoospermia) and 147 fertile controls. Microdeletions were detected by real-time multiplex PCR with STS markers. AZF microdeletions were identified in 95 of 681 patients (13.95%), while none were found in fertile controls ($\chi^2=23.16$; $p<0.001$); AZFc was the predominant defect (9.25%). Among men 18 years and older, the overall deletion frequency reached 14.86% versus 3.63% in the pediatric/adolescent subgroup ($\chi^2=5.3$; $p=0.021$).

Key words: *AZF microdeletions, Y chromosome, male infertility, azoospermia, oligozoospermia, ICSI, micro-TESE, molecular genetics, Uzbekistan.*

Введение. Мужское бесплодие остаётся одной из наиболее значимых медико-социальных проблем современности, затрагивая, по актуальным эпидемиологическим оценкам, до 15% супружеских пар в мире, при этом мужской фактор — изолированный или сочетанный — выявляется примерно в половине случаев [1]. В странах Центральной Азии, включая Узбекистан, проблема стоит особенно остро в силу традиционно высокой значимости деторождения, однако популяционные данные по региону долгое время оставались фрагментарными [2, 3].

Несмотря на активное внедрение вспомогательных репродуктивных технологий (ВРТ), доля идиопатических форм мужского бесплодия остаётся высокой, что диктует необходимость углублённого клинико-генетического анализа [4]. Среди генетических причин патоспермии особое место занимают микроделеции длинного плеча Y-хромосомы в регионах AZFa, AZFb и AZFc — вторая по частоте генетическая причина мужского бесплодия после хромосомных аберраций, выявляемая у 5-10% мужчин с необструктивной азооспермией и у 2-5% пациентов с тяжёлой олигозооспермией [5, 6].

Целью настоящего исследования явилось определение частоты, спектра и клинико-прогностической значимости AZF-микроделеций Y-хромосомы у мужчин с бесплодием в популяции Узбекистана, оценка генотип-фенотипических корреляций, этногеографических особенностей их распределения по регионам республики, а также разработка оптимизированного диагностического алгоритма, адаптированного к региональным генетическим особенностям.

По данным систематического анализа глобальных трендов бесплодия, охватившего 277 обследований в разных странах, распространённость инфертильности остаётся стабильно высокой на протяжении последних десятилетий, при этом мужской фактор вносит существенный вклад в структуру нарушений фертильности пар [7]. Первые масштабные сообщения из региона Центральной Азии подтверждают устойчиво высокую долю мужского фактора в структуре бесплодия при сохраняющемся дефиците локальных популяционных данных [2, 3, 5, 6].

Материалы и методы исследования. Исследование выполнено на базе клиники «Доктор Д» (г. Ташкент) в дизайне обсервационного аналитического исследования. Сформирована репрезентативная выборка общим объёмом 828 человек, стратифицированная на основную группу пациентов с клинически верифицированным мужским бесплодием (n=681) и контрольную группу условно-здоровых фертильных мужчин узбекской национальности (n=147).

Результаты и обсуждение. Анализ частоты AZF-микроделеций в основной и контрольной группах показал, что из 681 обследованного пациента делеции были выявлены у 95 человек (13,95%), тогда как в контрольной группе фертильных мужчин (n=147) патологических делеций Y-хромосомы не обнаружено. Межгрупповые различия оказались статистически значимыми ($\chi^2=23,16$; $p<0,001$) (табл. 1).

Установленная частота AZF-микроделеций (13,95%) органично вписывается в общемировой диапазон для когорт с необструктивной азооспермией и тяжёлой олигозооспермией: по данным систематических обзоров, в европейских популяциях этот

показатель составляет 8-12%, в индийской популяции достигает 10-15% [5, 6], что подтверждает универсальность молекулярных механизмов повреждения Y-хромосомы при относительно высокой региональной нагрузке патологией в Узбекистане. Абсолютно доминирующим типом перестроек явилась делеция AZFc — 9,25% от общего числа пациентов основной группы, что составило 65,6% всех выявленных микроделеций; вторым по частоте оказался сочетанный вариант AZFb+c (18,3% от числа делеций). Различия по субрегиону AZFc достигали высокой статистической значимости (χ^2=14,72; p<0,001), тогда как по AZFa статистическая достоверность не была подтверждена (χ^2=1,09; p=0,3), что связано с редкой встречаемостью данного варианта.

Таблица 1.

Частота микроделеций AZF в основной группе пациентов (n=681) и контрольной группе (n=147)

Делеция	Основная группа, n (%)	Контроль, n (%)	χ^2	p
AZFa	5 (0,73%)	0 (0,0%)	1,09	0,3
AZFb	7 (1,03%)	0 (0,0%)	1,52	0,22
AZFc	63 (9,25%)	0 (0,0%)	14,72	<0,001
AZFa+c	2 (0,29%)	0 (0,0%)	0,43	0,5
AZFb+c	17 (2,50%)	0 (0,0%)	3,75	0,053
AZFa+b+c	1 (0,15%)	0 (0,0%)	0,22	0,64
Всего	**95 (13,95%)**	**0 (0,0%)**	**23,16**	**<0,001**

Детализация частоты делеций по субрегионам среди пациентов второй группы в сопоставлении с контролем представлена в таблице 2.

Таблица 2.

Частота микроделеций AZF по субрегионам у пациентов 18 лет и старше (n=626) в сравнении с контрольной группой (n=147)

Делеция	2-я группа, n (%)	Контроль, n (%)	χ^2	p
AZFa	8 (1,28%)	0 (0,0%)	1,9	0,17
AZFb	25 (3,99%)	0 (0,0%)	6,07	0,014
AZFc	81 (12,94%)	0 (0,0%)	21,25	<0,001
Всего	**93 (14,86%)**	**0 (0,0%)**	**24,83**	**<0,001**

Абсолютно доминирующим типом перестроек в данной подгруппе явились делеции AZFc — 81 из 93 случаев (87,1% всех делеций). Различия по регионам AZFb и AZFc между пациентами с бесплодием и фертильными мужчинами были статистически значимыми (χ^2=6,07; p=0,014 и χ^2=21,25; p<0,001 соответственно), тогда как по AZFa значимых различий не выявлено (χ^2=1,9; p=0,17), что объясняется иной молекулярной природой этого субрегиона, не содержащего массивных палиндромов.

Анализ генотип-фенотипических корреляций выявил статистически значимые отклонения объёма тестикулярной ткани в зависимости от типа делеции. У пациентов без микроделеций средний объём правого и левого яичка составил 14,43±6,93 мл и 14,07±6,78 мл соответственно, тогда как при тотальной делеции AZFa+b+c зарегистрировано выраженное снижение объёма гонад (до 6,75 мл справа и 6,20 мл слева) — клинический предиктор тестикулярной гипоплазии и глубокого синдрома «только клетки Сертоли». При изолированной делеции AZFb, напротив, отмечено статистически значимое увеличение среднего объёма тестикул (19,17±6,08 мл справа и 18,87±5,89 мл слева) при сопоставимо большем объёме эякулята (3,83±2,53 мл против 2,63±1,53 мл в контроле).

Заключение. Проведённое исследование впервые на репрезентативной выборке из 828 человек установило частоту, спектр и клинико-прогностическую значимость AZF-микроделеций Y-хромосомы у мужчин с бесплодием в популяции Узбекистана. Общая частота микроделеций составила 13,95% при абсолютном доминировании субрегиона AZFc (9,25%), что соответствует общемировым закономерностям и подтверждает универсальность молекулярных механизмов нестабильности Y-хромосомы при относительно высокой региональной нагрузке патологией.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Agarwal A., Mulgund A., Hamada A., Chyatte M.R. A unique view on male infertility around the globe // Reprod Biol Endocrinol. — 2015. — Vol. 13. — P. 37.

2. Задубенко Д.В., Туфуминова Я.С., Лебедева Л.П. [и др.]. Мужское бесплодие в Центральной Азии: первое сообщение из региона // Проблемы репродукции. — 2025. — Т. 31, № 3. — С. 92-98.

3. Мухамеджан М., Шамшудинов Т., Алчинбаев М. [и др.]. Долгосрочные эпидемиологические тенденции и региональные различия в мужском бесплодии в Центральной Азии (1991-2023 гг.) // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2026. — № 23(4). — P. 466.

4. Tüttelmann F., Ruckert C., Röpke A. Disorders of spermatogenesis: perspectives for novel genetic diagnostics after 20 years of unchanged routine // Med Genet. — 2018. — Vol. 30(1). — P. 12-20.

5. Sen S., Pasi A.R., Dada R., Shamsi M.B., Modi D. Y chromosome microdeletions in infertile men: prevalence, phenotypes and screening markers for the Indian population // J Assist Reprod Genet. — 2013. — Vol. 30(3). — P. 413-422.

6. Rabinowitz M.J., Huffman P.J., Haney N.M., Kohn T.P. Y-chromosome microdeletions: a review of prevalence, screening, and clinical considerations // Appl Clin Genet. — 2021. — Vol. 14. — P. 51-59.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI MINTAQAVIY BO‘LIMI XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

№8/1 (141)
2026 y., avgust

O‘zbekcha matn muharriri: Ro‘zmetov Dilshod
Ruscha matn muharriri: Hasanov Shodlik
Inglizcha matn muharriri: Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
Musahhih: O‘rozboyev Abdulla
Texnik muharrir: Shomurodov Jur’at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 07.08.2026
Bosishga ruxsat etildi: 14.08.2026.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 14.
Hajmi17.3 b.t. Buyurtma: № 8-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru
Telegram **(+998) 97-458-28-18**